

**Gʻ.A. SAMATOV, I.B. RUSTAMOVA,  
U.A. SHERIPBAYEVA**

**QISHLOQ XOʻJALIGI  
IQTISODIYOTI VA  
MENEJMENTI**

**G'. A. SAMATOV, I.B. RUSTAMOVA ,  
U.A. SHERIPBAYEVA**

# **QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan 5620100 – «Agrokimyo va agroturpoqshunoslik» yo'nalishi talabalari  
uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

УДК: 338.24:63(075)

КБК 65.32ya73

О'-16

### Тақризчилар:

**O. Murtazayev** — Samarqand qishloq xo'jaligi instituti «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi» kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari doktori,

**T.K. Kushayev** — Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti «Suv xo'jaligini boshqarish» kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

### Samatov, G'. A.

О'-16 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti: darslik /G'.A. Samatov, I.B. Rustamova, U.A. Sheripbayeva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. — 320 b.

ISBN 978-9943-05-506-3

1. Rustamova, I.B.


2. Sheripbayeva, U.A.

Darslikda «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanining ilmiy-uslubiy asoslari, agrosanoat majmuasining mamlakat iqtisodiyotining ko'p tarmoqli tizimidagi o'rni, qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatining tashkiliy iqtisodiy asoslari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini bashorat qilish va rejalashtirish, qishloq xo'jaligi infratuzilmasi, yer-suv resurslari, mehnat resurslari, mehnat bozori, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari va ulardan foydalanish samaradorligi, qishloq xo'jaligida shartnomaviy munosabatlarni amalga oshirish asoslari, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda investitsiyalar va ularning iqtisodiy mohiyati, dehqonchilik, chorvachilik tarmoqlari iqtisodiyoti va boshqaruvi, qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy asoslari, ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish yo'llari, qishloq xo'jaligi yalpi va tovar mahsulotlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish, ixtisoslashtirish va integratsiya jarayonlarining iqtisodiy mohiyati, qishloq xo'jaligida menejment va boshqa muhim masalalar yoritilgan.

ISBN 978-9943-05-506-3

УДК: 338.24:63(075)

КБК 65.32ya73



G'.A. Samatov, I.B. Rustamova, U.A. Sheripbayeva, 2012  
Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012

---

---

## KIRISH

Mamlakatimiz agrar tarmog'ida iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi natijasida vujudga kelgan ko'p ukladli iqtisodiyot, eng avvalo, xususiy mulkka asoslanuvchi fermer va dehqon xo'jaliklarining rivojlanishi hamda iqtisodiy barqaror xo'jalik yuritish subyektlariga aylanishiga bog'liq holda rivojlanmoqda. Chunki, bozor iqtisodiyotining asosini ko'p ukladli iqtisodiyot tashkil etsa, ko'p ukladlilik, o'z navbatida, xususiy mulk ustuvorligiga tayanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish davrida qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini boshqarish tizimini takomillashtirishning ahamiyati ortib bormoqda.

Ishlab chiqaruvchilarning maqsadi — moddiy resurslar, mehnat hamda mablag'ni oqilona, tejimli sarflab, xaridorgir, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ularni iste'molchilarga o'z vaqtida, sifatli holda yetkazib berish natijasida ko'proq foyda olishdir. Bu maqsadlarga erishishda «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanini chuqur o'rganish zarur. Chunki qishloq xo'jaligi mutaxassislarining iqtisodiy va boshqaruv masalalariga tayyorgarlik darajasiga talab to'xtovsiz ortmoqda.

«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fani tarmoqda amalga oshirilayotgan tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlar majmuasining nazariy asoslari, yo'nalishlari va samaradorligini mavjud tadqiqot usullari yordamida o'rganish orqali talabalarda tarmoq iqtisodiyoti bo'yicha iqtisodiy mushohada yuritish, uni rivojlantirishga oid muam-molarni qo'yish, hal etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yo'nalishlarini belgilab berish, ishlab chiqarishni to'g'ri boshqarishni tashkil etish qobiliyatini shakllantirib, bozor iqtisodi talablariga javob bera oladigan agrar soha mutaxassislari va iqtisodchilarini tayyorlashga ko'maklashadi.

Bozor iqtisodiyoti tamoyillari amal qilayotgan hozirgi sharoitda turli xo'jalik yuritish shakllarida faoliyat ko'rsatayotgan qishloq xo'jaligi

korxonalari o'z faoliyatlarini intensiv yo'nalishda tashkil etar ekanlar, ular, albatta, iqtisodiy samaradorlik, samara, tannarx, foyda, intensivlashtirish, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, infratuzilma tushunchalarining mazmunini aniq bilishlari lozim va bu tushunchalar ular faoliyatining maqsadi bilan bevosita bog'liq.

Mazkur darslikda boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga maqsadli ta'sir o'tkazishining, boshqaruvchining o'zi boshqarayotgan ishlab chiqarish jamoasida qo'yilgan maqsadlarga erishishi uchun faoliyatini muvofiqlashtirishini ta'minlash usullari keltirilgan.

Menejment usullari vositasida iqtisodiy jarayonlarga va ishlab chiqarish qatnashchilariga moddiy, moliyaviy, energiya va mehnat resurslarini imkoni boricha kam sarf qilib, yuqori natijalarga erishish maqsadida ta'sir etiladi. Ishlab chiqarish samaradorligi ko'p jihatdan boshqaruv usullari mukammalligi va to'g'ri shakllanganligi bilan uzviy bog'liqdir.

Fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturining muhim elementi hisoblanadi. Bu boradagi asosiy vazifalarni amalga oshirishda «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» darsligida o'z ifodasini topgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va uning o'ziga xos xususiyatlari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida boshqaruv faoliyati va uning usullari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligini oshirish usullari, qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulot tannarxi va uni pasaytirish yo'llari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish omillari, dehqonchilik va chorvachilik iqtisodiyoti, uni boshqaruv masalalari ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, darslik zamonaviy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida faoliyat yuritadigan bilimli mutaxassislarni tayyorlashda va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishda qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti muammolarini yechishda dasturiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Agroiqtisodiy fanlarga bo'lgan talab o'zgarib borayotgan bir davrda «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» darsligi islohotlarning hozirgi bosqichida yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilishga qaratilgan ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini ilmiy asoslash, moddiy resurslarni tejashni ta'minlaydigan yangi texnologiyalarni joriy etish, tuproq unumdorligini oshirish, o'simliklarning serhosil navlarini yaratish, urug'chilik tizimini takomillashtirish, zotli chorva mollarini ko'paytirish, yer-suv munosabatlari va o'simliklarni himoya qilishni takomillashtirishning samaradorligi masalalarini o'zida mujassamlashtirgan.

Darslik bakalavrlar, magistrlar, aspirantlar, o'qituvchilar va rahbar xodimlar uchun mo'ljallangan. Ushbu darslikni tayyorlashda qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti bo'yicha samarali ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan olimlardan – R. Husanov, B.Salimov, A.Qadirov, Ch.Murodov, Q.Choriyev, A.Abdug'aniyev, O'.Umrzoqov, S.G'ulomov, T.Farmonov, A.Toshboyev tadqiqotlari natijalaridan, mahalliy va xorijiy adabiyotlardan, makroiqtisodiy statistik ko'rsatkichlardan, qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatining natijalaridan keng foydalanilgan.

Mualliflar darslik bo'yicha taklif, mulohaza va tanqidiy fikrlarni samimiyat bilan qabul qiladilar.

# ***I bo'lim.* «QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI» FANINING NAZARIY, USLUBIY VA TASHKILIY ASOSLARI**

---

## ***1-bob.* «QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI» FANINING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI**

### **1.1. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanining predmeti va vazifalari**

Fan va ishlab chiqarish Kadrlar tayyorlash milliy dasturining muhim elementlari hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ta'lim dasturlarining rivojlanishini hamda fan va ishlab chiqarish integratsiyasi jarayonini zamonaviy bilim, g'oyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi munosabatlarining ilmiy asoslarini yaratish lozim bo'ladi. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi yangi bosqichga kirib bormoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos qonuniyati asosida amalga oshirilishi boshqarish jarayonlarini ma'lum qoidalarga amal qilgan holda olib borilishini talab qiladi. Qishloq xo'jaligi sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlar, amaliyotchilarning maqsadi va vazifalari ana shu qonuniyat, qoida va yo'nalishlarni aniqlab borishga qaratilgan.

Ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining ilmiy asoslarini yaratish qishloq xo'jaligini rivojlantirishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligida talabga javob beradigan quyidagi — huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimi yaratildi, ya'ni:

— mulkchilikning turli shakllari barpo etilishi natijasida erkin mulkiy munosabatlar vujudga keldi, tadbirkorlikning har xil turlarini yaratish, ularni rivojlantirish yo'llari izlanmoqda, yer-suv islohotlari amalga oshirilmoqda;

— tarmoqning cheklangan ishlab chiqarish resurslari (yer-suv, kapital, mehnat, tadbirkorlik qobiliyati)dan samarali foydalanish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish, daromad, foyda va ularning taqsimlanishi, investitsiyalarni jalb etish, ulardan samarali foydalanish, tarmoq ishlab chiqarishini maqsadga muvofiq joylashtirish, ixtisoslashtirish hamda agrosanoat integratsiyasini xalqaro munosabatlar asosida tashkil

etish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar tizimi yaratilib, ular takomillashtirilmoqda.

Yuqorida ta'kidlangan iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratishda qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy kategoriyalar talablaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

*Qishloq xo'jaligining barqaror iqtisodiy asosini, takror ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishni ta'minlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratish, ularni hayotga joriy etish masalalarini, yo'llarini o'rganish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ilmiy me'yorlar doirasida boshqarish va boshqarishni tashkil etish «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanining predmeti hisoblanadi.*

«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fani kishilarning ishlab chiqarish munosabatlarini ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan o'zaro aloqalarini, bog'liqligini o'rganadi, shu bilan birga iqtisodiy qonunlarning harakat qilish mexanizmini va ularning namoyon bo'lish shakllarini yaratish, ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi. U jamiyatning rivojlanishi va o'zgarishidagi qonuniyatlarni, ularning shakllarini o'rgangan holda voqea-hodisalarni birgalikda, o'zaro aloqadorlikda va sabab-oqibatda aks ettiruvchi tushunchalar, ya'ni iqtisodiy qonunlarga tayangan holda qishloq xo'jalik iqtisodiyotini aniq sharoitda harakati yo'nalishlarini yoritadi. Xo'jaliklarda ulardan samarali foydalanishning iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblash usullarini ishlab chiqadi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi kabi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, jamg'arish, qiymat, talab va taklif, pul muomalasi, mehnat unumdorligining o'sib borishi kabi obyektiv iqtisodiy qonunlar tizimi amal qiladi (1.1-rasm).



1.1-rasm. Iqtisodiy qonunlar tizimi.



«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fani qishloq xo'jaligi tarmog'ida qo'llaniladigan mashinalar tizimi, agrotexnika, meliorativ va boshqa tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishni, tarmoqdagi boshqaruv faoliyatlarini takomillashtirish yo'llarini hamda tarmoqdagi ishlab chiqarish munosabatlarini moddiy ishlab chiqarishning boshqa sohaları bilan bog'liqligini o'rganadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi korxonalarini, jumladan, fermer xo'jaliklarini boshqarish eng mas'uliyatli va murakkab vazifadir. Hozirgi paytda qishloq xo'jaligi tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, to'g'ri boshqarish butun iqtisodiy tizimning ishlab turishi uchun o'ziga xos mas'uliyat hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyat doirasining kengligi xo'jalik faoliyatini uzluksiz kuzatib borishni talab qiladi. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi korxonalarini axborotlar texnologiyasi, iqtisodiy matematik usullar va kompyuterlar yordamida boshqarishni tashkil etish tobora ko'proq ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini umumiy ilmiy nazariya asosida boshqarish, uning qonuniyatlarini chuqur tadqiq qilish, boshqarishning samarali texnik vositalarini yaratish, boshqarish faoliyatini takomillashtirishning yangi imkoniyatlarini aniqlaydi.

### ***Qishloq xo'jaligi korxonalarini boshqarish tizimi:***

• boshqarilayotgan obyektlar holati haqida axborot olish va tahlil qilish;

- boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish;
- obyektlarga boshqaruv ta'sirlarini o'tkazish;
- obyektlarning yangi holati haqida axborot olish va tahlil qilish.

Ishlab chiqarish samaradorligi ko'p jihatdan menejment usullarining mukammalligi va to'g'ri shakllanganligi bilan uzviy bog'liqdir. Menejment usullari bu — boshqaruv subyekting boshqaruv obyektiga maqsadli yo'naltirilgan ta'sir o'tkazish usullari bo'lib, ya'ni uning vazifasi boshqaruvning ishlab chiqarish jamoasi oldiga qo'yilgan maqsadlarni muvofiqlashtirishni ta'minlashdan iboratdir.

Boshqaruv usullari «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanida muhim o'rinni egallab, boshqaruvning qonun va tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. Mehnat jamoasiga ta'sir etish usullari orasida boshqaruv mexanizmi uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruvning obyektiv qonunlari talablariga muvofiq keluvchilarigina eng maqbul va maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Buning mohiyati

shundaki, boshqaruv usullari bozor iqtisodiyotiga mansub qonunlar tizimi bilan uzviy bog'liqdir.

Boshqaruv usullari tashqi va ichki omillar ta'sirida o'zgaradi, ya'ni: yirik ishlab chiqarish birlashmalarini tashkil etish asosida ishlab chiqarish konsentratsiyasini amalga oshirish; korxonalar salohiyatining o'zgarishi natijasida uning bir guruhdan ikkinchisiga o'tkazilishi; ishlab chiqarishni ixtisoslashish darajasining o'zgarishi; mehnatning texnika bilan ta'minlanish darajasining yaxshilanishi; ishlab chiqarishni rejalashtirish va jadal tartibga solishning mavjud usullarini takomillashtirish hamda yangilarini joriy qilish (tarmoqli rejalashtirish va boshqarish; ishlab chiqarishni uzluksiz tezkor rejalashtirish, ishlab chiqarishni boshqarishni avtomatlashtirilgan tizimini qo'llash va h.k.)ni kiritish mumkin. Boshqaruv usullari bevosita ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta'sir etuvchi ishlab chiqarish usulining rivojlanishi va jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan o'zgarib boradi.

***«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanining maqsadi:***

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida cheklangan yer-suv, mehnat resurslari, investisiyalar va ulardan tadbirkorlik bilan samarali foydalanishni;
- qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyatini;
- agrar-iqtisodiy islohotlar, ularni rivojlantirish yo'llarini;
- qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar, ularning ishlab chiqarish samaradorligi va ular faoliyatini takomillashtirish yo'llarini;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ishlab chiqarish xarajatlari, ularning tarkibi va kamaytirish yo'llarini;
- qishloq xo'jaligini erkin bozor iqtisodiyoti talablari asosida boshqarishni barpo etish, takomillashtirishni;
- yetishtirilgan mahsulotning hajmini, sifatini, raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda foydalanilayotgan baholar tizimini;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida daromad va foydani aniqlash, ularni oqilona taqsimlash yo'llarini;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qay darajada ixtisoslashganligini, joylashganligini hamda ichki va tashqi integratsiyalashganligini;

- ishlab chiqarish vositalarini qayerdan, qanday qilib sotib olish hamda yetishtirilgan mahsulotlarni qachon, kimga, qanday tartibda sotish va bu jarayonlarni boshqarish yo'llari hamda boshqa masalalarni o'rganish.

### **«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanining vazifalari:**

- ilg'or qishloq xo'jalik korxonalarining erishgan yutuqlarini chuqur o'rganish va ularni boshqa xo'jaliklarga joriy qilish uchun tavsiya etish;

- ekin maydonlari birligi hisobiga ko'proq va arzonroq mahsulot yetishtirish uchun kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni joriy qilish imkoniyatini yaratish uchun iqtisodiy tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish mahsulot ishlab chiqarish sur'atini tezlashtirishga, jamg'arma miqdori va kapital sarflar samaradorligini oshirishga, ishlab chiqarishni ratsional tashkil etish va mehnat unumdorligini oshirishga bevosita bog'liqdir. Bu masalalarni hal qilishda «Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va menejmenti» fanining vazifasi jamg'arma samaradorligini, mehnat unumdorligini oshirish va shu asosda ishlab chiqarish sur'atini yuksaltirish, ishlab chiqarish quvvatidan to'la foydalanishga erishish yo'llarini ko'rsatib berishdir.

## **1.2. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanini o'rganish usullari**

«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fani o'zining maqsad va asosiy vazifalarini hal etishda, barcha iqtisodiy munosabatlarni o'rganishda bir qator tadqiqot usullaridan foydalanadi.

*Fan barcha iqtisodiy munosabatlarni dialektik qonuniyatlarga asoslanib, emperik holda tadqiq etadi.*

Bu uslub hodisalarni bir-biridan ajratmasdan ularni bir-biriga bog'lab o'rganadi. U hodisalarni to'xtovsiz harakatda, o'zgarishda, yangilanishda va rivojlanishda, shuningdek, miqdor o'zgarishlardan sifat o'zgarishlariga aylanishida o'rganadi. Quyidan yuqoriga harakat, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi nuqtayi nazaridan o'rganadi. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy voqealarni induktiv hamda deduktiv usullarga asosan o'rganib, iqtisodiy mushohada qilish hamda «analiz», «sintez» usullaridan keng ko'lamda foydalaniladi.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi masalalari bilan shug'ullanuvchi iqtisodchilar iqtisodiy muammolar hal etilishini ta'minlaydigan siyosatning iqtisodiy tamoyillarini, mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslagan holda shakllantirib borishlari lozim. Buning uchun dastavval har bir muammoga taalluqli bo'lgan ilmiy, uslubiy, statistik ma'lumotlarni, misollarni to'plab, ularni turli usullar yordamida tahlil qilishlari, shu asosda har bir iqtisodiy tamoyilga, mexanizmga ta'sir etuvchi omillarni real xo'jaliklar, tarmoqlar miqyosida aniqlashlari kerak.

**Tahlil qilish** ⇒ hodisaning har bir qismini alohida batafsil o'rganish, ular orasidagi bog'lanishlarni tadqiq qilish maqsadida ularni tarkibiy qismlarga ajratishdir. Tahlil qilish ilmiy bilishning eng asosiy va ko'p tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi ishlab chiqarish tarmog'idagi chuqur jarayonlarni va xususiyatlarni ko'rsatib berishdan iborat.

**Tahlil usuli** ⇒ ilmiy o'rganish usuli bo'lib, bunda tadqiqot obyekti xayolan ayrim bo'laklarga bo'linadi yoki obyektning belgi va xossalari ayrim o'rganish uchun ajratiladi. Tahlil ayrim elementlarning mohiyati va ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

Tahlil qilishning asosiy usuli — xo'jalikning bir necha yil davomidagi ko'rsatkichlarini, biror korxonaning va teng tabiiy iqtisodiy sharoitlarda eng yaxshi natijalarga erishgan ilg'or xo'jaliklarning hisobot va reja ma'lumotlarini dinamik ravishda taqqoslashdir. Ayrim omillar o'rtasidagi bog'lanishni va o'zaro aloqalarni, muhim masalalarni belgilash zarur bo'lib, ularning hal qilinishi umuman muammoni yechimini topishning muvaffaqiyatini oldindan aniqlab beradi. Xo'jalikning faoliyatini tahlil qilishda yillik va chorak hisobotlari, yig'ma hisobotlarga oid ma'lumotlar va boshlang'ich ma'lumotlardan foydalaniladi. Tahlil qilish ishlab chiqarishning kamchiliklarini ochib berish, xo'jalikning moliyaviy faoliyatini yaxshilashning asosiy yo'llarini belgilash imkonini beradi.

**Sintez usuli** ⇒ fanning ilmiy tadqiqot usuli bo'lib, obyektни tashkil etgan bo'laklari va unga xos alomatlari bilan bir-biriga bog'langan holda va bir butun holda tekshirishga imkon beradi.

Sintez usuli, asosan, murakkab silsilalarni tadqiqot etishda uning ayrim asosiy bo'laklari tahlil qilinganidan keyin qo'llaniladi.

Tahlil va sintez bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir va ular birbirlarini to'ldiradilar.

**Ilmiy abstraksiyalash.** ⇒ Abstraksiya usuli diqqatni hodisa yoki voqeaning asosiy xossalariга jalb qilib, ikkinchi darajali xossalari

inobatga olmaslik hollarida ishlatiladi. Shuning uchun ham bu usul obyektiv hayot to'g'risidagi bilimni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Nazariy tahlil jarayonida tadqiqotchi ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar va boshqa umumiy nazariy qoidalardan foydalanadiki, ular ilmiy abstraksiyaning o'zginasidir. Ular voqea va hodisalarning bir-biriga bog'lanishlarini va silsilasini ochib beradi.

**Abstrakt – mantiqiy uslub** aniq bir hodisalar, jarayonlarni ularning ahamiyatsiz jihatlarini hisobga olmagan holda o'rganishda qo'llaniladi. Bu usul ma'lum bir darajada tadqiqot predmetini soddalashtirish, ikkinchi darajali juz'iy tomonlarini hisobga olmaslik va mantiq yordamida o'rganishga imkon beradi.

Uslubning elementlari: maqsad va vazifalarni belgilab olish; voqelikni, jarayonlarni kuzatish; tahlil, umumlashtirish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanib, ilmiy xulosalarga kelish; nazariy umumlashtirish; xulosalardan ishlab chiqarishni tashkillashtirish amaliyotida foydalanishdan iboratdir.

**Formalizatsiya** ⇒ ilmiy tadqiqot usuli bo'lib, bunda tahlil qilinayotgan voqea, hodisa, obyekt, uning xossasi, belgisi, jarayoni matematik formulalar yordamida ifodalanadi, so'ng ma'lum qoidalar asosida o'rganiladi. Formalizatsiya matematik abstraksiyaning asosiy mazmunidir. Matematikaning boshqa fanlar ichiga kirib kelishi hisoblash texnikasining keng rivojlanishi natijasida tezlashdi.

**Analogiya (O'xshashlik)** ⇒ bu har xil obyektlarning qaysidir belgisi bilan o'xshashligidir. Bu usulning asosiy mazmuni shundan iboratki, o'rganilayotgan obyektlarning bir-biriga o'xshash xossalari orqali shu paytgacha o'rganilmagan boshqa xossalari ham bir-biriga o'xshash, deb xulosa chiqariladi. O'xshashlik usuli modellashtirish jarayonida ishlatiladi.

**Modellashtirish** ⇒ bu ilmiy tadqiqotning obyekt ustidagi jarayoni bo'lmasdan, uning o'ziga o'xshagan modeli ustida olib boriladigan tadqiqot jarayonidir. Matematik modellashtirish uslublar ishlab chiqarish uchun eng qulay variantlar va sharoitlarni tanlash muammolarini hal etishda qo'llaniladi. Korxonalar, tuman, viloyat resurslaridan eng samarali foydalanish variantini topish, eng yuqori natijalarga erishish uchun istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash imkoniyatini beradi.

Uslubning elementlari: qo'yilgan maqsadga muvofiq ko'rsatkichlar va shart-sharoitlarni (o'zgaruvchan va chegaralangan jarayonlarda) aniqlash; eng yuqori natijalarga erishish mezonlarini tanlash; me'yoriy materiallar va boshqa yakuniy ma'lumotlarni saralash; iqtisodiy-

matematik masalalarni hal qilish; pirovard natijaga va uning ishonchliligiga baho berish; qo'yilgan vazifalarni bajarishda ishlab chiqarish uchun eng qulay variantlarni tavsiya etishdan iborat.

**Iqtisodiy-statistik uslub** ⇒ o'rganilayotgan obyektlarning katta majmuasida, ishlab chiqarish omillarini o'rganish va ularning so'nggi natijasini aniqlashda qo'llaniladi. Notipik, ya'ni doimiy bo'lmagan holatlar, shart-sharoitlarni bartaraf etishga imkon beradi.

Uslubning elementlari: maqsadning qo'yilishi; tadqiqot obyektlarini tanlash; yalpi kuzatish; umumlashtiruvchi va analitik o'lchamlar yordamida pirovard natijalarni guruhlashtirish; turli usullar yordamida ko'rsatkichlarning o'zaro aloqadorligini aniqlash; nazariy umumlashtirish; xulosalardan amaliy qarorlar qabul qilishda foydalanishdan iboratdir.

**Eksperimental (tajriba) uslubi.** ⇒ Bu uslub ishlab chiqarishni tashkil etishning usullari va yo'llariga iqtisodiy jihatdan baho berish bo'yicha tajribalar o'tkazish, korxonada faoliyatining shart-sharoitlarini aniqlash, bu shart-sharoitlarning samaradorlikka ta'sirini aniqlashda qo'llaniladi. Tadqiqotlarning yuksak sifatli bo'lishiga imkon beradi.

Uslubning elementlari: masalaning qo'yilishi; uslubni ishlab chiqish va ishlab chiqarish tajribasining qo'yilishi; olingan materiallarni ishlab chiqish; ularning ishonchliligiga baho berish; ishlab chiqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

**Hisob-kitob (reja) – konstruksiya uslubi.** ⇒ Bu uslub korxonada ishlab chiqarishni tashkil etishda ba'zi bir jihatlar yoki butun tizimni rivojlantirishning istiqbolli rejasini ishlab chiqishda qo'llaniladi. Maqsadga erishishning eng samarali variantini tanlash, ya'ni qo'yilgan vazifalarni oqilona bajarishga imkon yaratadi.

Uslubning elementlari yoki tarkibiy qismlari: maqsad va vazifalarni aniqlash; ishlab chiqarish holatining tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini tahlil qilish; topshirilgan vazifalarni nisbatan samarali bajarishda ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to'la foydalanishning loyihalari hisob-kitobini aniqlash; turli taklif qilingan variantlarga texnik-iqtisodiy hamda tashkiliy jihatdan baho berish; loyihalarni amaliyotga tadbiiq etishni ilmiy asoslashdan iboratdir.

Amalga oshirilayotgan har qanday ilmiy tadqiqotda nazariy qism bo'lib, unda tadqiqotchi moddiy obyektlar bilan emas, balki ularning abstraksiyalari va matematik modellari bilan ish ko'radi. Ilmiy tadqiqotlarning nazariy qismi erishilgan natijalarni umumlashtirishga, kerakli ma'lumotlarni olishga va tahlil qilinayotgan muammoning keyingi yo'nalishlarini oldindan aytib berishga yordam beradi.

**Deduktiv usuli** ⇒ umumiy qoidalar va qonuniyatlardan kelib chiqib, nisbatan juz'iy xulosalar chiqariladi. Har qanday iqtisodiy tamoyil va mexanizmning amal qilishini aniqlashda dastavval nazariy g'oyalarga, so'ngra ularning amal qilishiga asoslaniladi. Bu jarayon muammoni tadqiq etishning deduktiv usuli deb nomlangan. Yuqoridagi masalani tadqiq etishda, o'rganishda dastavval ma'lumotlar, voqealar, faktlar o'rganiladi.

**Induktiv usuli.** ⇒ Bunda alohida bir xil faktlardan umumlash-tirishga, juz'iydan umumiy xulosalar chiqarishga tayaniladi.

Nazariy g'oyalarni yaratish jarayoni esa induktiv tadqiq etish usuli deb nomlangan. Demak, qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan har qanday iqtisodiy muammoni avval uning nazariyasidan, ya'ni g'oyasidan amal qilishiga qarab o'rganish yoki bu muammoning ama-liyotga joriy etilishidan, ya'ni amaliyotdagi holatiga asoslangan holda g'oya yoki nazariyasini yaratishga qarab tadqiqot olib borish mumkin.

Ikkala holatda ham iqtisodiy tamoyillarning, mexanizmlarning, muammolarning yechimi samarali aniqlanishi kerak. Iqtisodchilar o'z g'oyalari, taxminlari, ayrim voqealarga, ma'lumotlarga asoslangan holda yaratgan yoki shakllantirgan g'oyalarni, taxminlarini gipoteza, ya'ni asoslanmagan g'oya, deb atashadi. Ilmiy yoki amaliy gipotezalar induktiv va deduktiv tadqiqot usullari yordamida shakllantirilishi mumkin. Yuqorida ta'kidlangan tadqiq qilish, o'rganish usullari qo'llangan holda yaratilgan, shakllantirilgan tamoyillar, mexanizm-lardan foydalanib, u yoki bu muammoni hal etishning iqtisodiy siyosati, strategiyasi belgilanadi. Yaratilgan iqtisodiy siyosatni joriy etish mexanizmlari va ularni amalga oshirish usullarini iqtisodchilar mukam-mal o'rganishlari lozim. Respublikaning qishloq xo'jaligi tarmog'ida mulkning turli shakllarini barpo etish g'oyasi bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardagi nazariy g'oyalarga va ularning amaliyotda hal etilishiga asoslangan. Muammoni tarmoqda hal etishda respublika qishloq xo'jaligi amaliyotidagi holatlar, misollar, ma'lumotlar asos qilib olinib, bu jarayon tobora rivojlantirilib chuqurlashtirilmoqda.

«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanida qo'llaniladigan har bir uslub o'ziga xoslikka, afzalliklarga va ayni paytda ma'lum bir kamchiliklarga ham ega. Masalan, abstrakt-mantiqiy uslub xulosalari har doim haqiqiy voqelikka mos kelmasligi mumkin. Iqtisodiy-matematik uslub manbalarni aniqlamasdan mavjud holatlarni aniqlab beradi, hisob-kitob konstruksiya uslubi mehnat hajmini hisobga olmaydi. Matematik modellashtirish uslubi yakuniy materiallarning, obyektiv me'yoriy ma'lumotlarning katta hajmini talab qiladi.

Fanda tadqiqotlar oldiga qo'yilgan aniq maqsad va vazifalarga qarab, biror uslub yoki uslublar majmuasidan foydalaniladi. Pirovard natijaning haqqoniyligini aniqlashning eng muhim yo'li — ilmiy xulosalarning amaliyotda, ishlab chiqarish tajribasida keng isbotlanishidadir.

Qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatini o'rganishda ishlab chiqarishni tahlil qilishda, statistik, iqtisodiy-matematik, taqqoslash uslublaridan va bir necha yillik o'rtacha natijalardan keng foydalaniladi.

Qishloq xo'jaligi ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkibiy qismi bo'lganligi tufayli unda ishlab chiqarish usulining iqtisodiy qonunlariga amal qilinadi, uning o'ziga xos asosiy xususiyati biologik jarayonlarga asoslanganligidadir. Shuning uchun qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti faqat iqtisodiy qonunlar talabi asosida amalga oshirilib qolmay, balki biologik qonunlar asosida ham amalga oshiriladi, o'simlik va hayvonlarning o'sishi, ko'payishi, yashashi bevosita biologik qonuniyatlar asosida sodir bo'ladi.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar:***

1. *«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanining predmeti, maqsadi va asosiy vazifalari nimalardan iborat?*
2. *«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanida qanday o'rganish usullaridan foydalaniladi?*
3. *Qishloq va suv xo'jaligi tizimidagi korxonalar va tashkilotlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun qanday huquqiy va me'yoriy hujjatlar qabul qilingan?*
4. *Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar dasturini qishloq va suv xo'jaligi tizimidagi korxonalar, tashkilotlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri qanday?*
5. *Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini shakllantirish g'oyalari yaratishda iqtisodchi mutaxassislarning o'rni qanday?*
6. *Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?*
7. *Qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishning huquqiy-me'yoriy asoslari nimalardan iborat?*
8. *Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va ahamiyati nimadan iborat?*
9. *Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo'jaligini rivojlanish istiqbollari qanday?*
10. *Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida agrar sohani rivojlantirish tamoyillari nimalardan iborat?*



### 2.1. Menejmentning obyekti va subyekti, ularning o‘zaro aloqadorligi

**Menejment mehnati hamkorlik bilan uzluksiz bog‘liqdir.** Har qanday boshqaruv tizimi qo‘yilishi va yechilishi kerak bo‘lgan masaladan qat’i nazar ikkita tizim: boshqariluvchi (boshqaruv obyekti) va boshqaruvchi (boshqaruv subyekti)ning birlashishini bildiradi.

**Menejment obyekti deganda,** ishlab chiqarish jarayonlari elementlari majmuasini ko‘z oldimizga keltirish mumkin. Bunga texnik, iqtisodiy va ijtimoiy elementlar kiradi. Masalan, texnik elementlar, asosan, texnikani, ishlab chiqarish texnologiyasini, iqtisodiy elementlar-rejalar, moliya, moddiy rag‘batlantirishlar, ijtimoiy elementlar – xodimlar va ular o‘rtasidagi munosabatlardir. Bu tartibga solingan o‘zaro bog‘liq elementlar birlashmasi bo‘lib, bir butun tizimni tashkil qiladi.

Menejment sohasida odamlarning murakkab va ko‘p qirrali mehnat faoliyatini ikki yirik turga ajratish mumkin: ishlab chiqarish jarayonini bevosita amalga oshiruvchi mehnat va ushbu jarayonlarni boshqarishga yo‘naltirilgan faoliyat. Menejment faqatgina boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar orasidagi munosabatni o‘z ichiga olmasdan, balki ular orasidagi o‘zaro bog‘liq ishlab chiqarish munosabatlariga, maqsadga yo‘naltirilgan ta’sir ko‘rsatish hamdir.

**Menejment subyekti** – bu barcha ishlab chiqarish saviyasidagi majburiyat va huquqlarga ega muntazam, vazifaviy boshqaruvchilardir.

Menejment tizimida subyekt qo‘yilgan maqsadga erishish uchun qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish mas’uliyatini oladi. Boshqaruvchi tizimning samaradorligi menejment subyektining ishni tashkil qilish saviyasiga, turli menejment usullarini oqilona qo‘llash va boshqa omillarga bog‘liq.

Menejmentning obyekt va subyektidagi munosabatlar bir-biriga yaqin, egiluvchan va organik o‘zaro aloqa hamda o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lmog‘i kerak. Bu esa ularning samarali taraqqiyotini belgilaydi. Bu, eng avvalo, boshqaruv tizimidagi barcha o‘zgarishlar o‘z vaqtida menejment obyektida ham o‘z aksini topmog‘i kerak. Bu vaqtda

boshqaruvchi tizim o'zidagi elementlarda bo'lib turadigan o'zgarishlarni ziyraklik bilan seza bilishi zarur.

Menejment obyekti va subyekti o'rtasidagi o'zaro aloqa va o'zaro bog'liqlik amaliyotda ba'zida shunday namoyon bo'ladiki, bunda boshqaruvchi tizimining ko'lami kengaytiriladigan bo'lsa, menejment obyektining o'lchami ko'payadi.

Shunday qilib, menejmentning obyekti va subyekting asosiy elementlari o'zaro bog'liq turli bo'linmalar va xizmatlarning ishlab chiqarishdagi jamoalaridir.

## **2.2. Qishloq xo'jaligida menejmentning maqsadi, vazifalari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar**

**Menejmentning mazmunini** iqtisodiyotni boshqarishning menejment tizimlari va uni tuzishning tashkiliy shakllarining xo'jalik mexanizmi, boshqaruv uslublari, boshqaruv texnika va texnologiyasining nazariy va metodologik asoslarini o'rganish tashkil etadi. Menejment boshqaruv faoliyatining umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini boshqaruv tizimiga ta'sir usullarini shakllantiradi, boshqaruv apparatining aniq vaziyatlardagi harakatlari va o'zini tutish hollarini umumlashtiradi. Boshqarishning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganadi. Shuningdek, boshqaruv faoliyatining qirralarini butun bir majmua ko'rinishida nazariy tahlil va mantiqiy uslub asosida qonuniyatlari va usullarini ajratib o'rganadi.

**Menejmentning amaliy tomonlari** bir qator aniq vazifalarni hal etishga, jumladan, iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tishiga, foyda olishga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, aholi ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga, kishilar ma'naviy darajalarini o'stirishga qaratilgandir.

**Menejmentning maqsadi** — ko'zlangan natijalarga erishish uchun talab etiladigan kuch-g'ayrat va tashkiliy harakatlarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Amaldagi holatdan ko'zlangan maqsad uchun korxonada barcha imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga, tadbirkor bo'lishga, o'zining moliyaviy ko'rsatkichlari va ish faoliyatini maqsadli amalga oshirishga intiladi.

Rejalashtirilgan maqsadlar qisqa muddatga, shuningdek, uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Qisqa muddatga mo'ljallangan maqsadlar istalgan natijalarga tezda erishish uchun yo'naltirilgan bo'ladi. Uzoq muddatli esa firma faoliyatini o'rnatish va rivojlantirish uchun

hozirgi kunda qanday ishlarni amalga oshirish va uzoq kelajakda qilinadigan ishlar ko'rsatkichlarini yaxshilash ustida o'ylab ko'rishni talab etadi. Qisqa yoki uzoq muddatli maqsadlarni tanlashda, uzoq muddatli maqsadni tanlash doimo ustun bo'lishi lozim. Agar menejer faqat bugungi kun muvaffaqiyatlarini o'ylab ish yuritsa, firma kelajagini xavf ostida goldirsa, korxonaning ravnaq topishi amrimahol bo'ladi.

Ma'lumki, menejmentning maqsadi korxonani yuqori natijaga erishishini ta'minlashdir. Joriy maqsadlar o'z ichiga shunday maqsadlarni oladiki, ularni amalga oshirilishi rahbar va xizmatchilarni kundalik xizmat burchi hisoblanadi. Bu kabi maqsadlar esa korxonaning kelajakda erishishi va qo'lga kiritishi lozim bo'lgan natijalari, imkoniyatlari uchun ishlab chiqiladi.

Muammoviy va innovatsion maqsadlar oddiylaridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu farqni asl ma'nosi ularga erishish tavsifidadir. Muammoviy va innovatsion maqsadlar katta aqliy energiya sarfini talab qiladi, chunki o'ziga yangi elementni qamrab oladi. U ijodiy natijani qo'lga kiritish uchun aniqlanadi va ishlab chiqiladi.

Muammoviy maqsadlar firmaning yoki alohida insonning faoliyati uchun zarur vaziyatning o'zgarishi bilan bog'liq. Masalan, birdaniga tovarlar sifatining pasayishi kuzatiladi, tabiiyki, bu korxonaning oladigan foydasiga ta'sir ko'rsatadi. Sifatni nazorat qilish bo'limi rahbari oldiga qo'yilgan maqsad ma'lum muddat davomida buning sababini aniqlash va mahsulot sifatini yaxshilashdan iborat.

Muammoli maqsadlar qatoriga yana innovatsion maqsadlarni ham qo'yish mumkin. Ular yangi usullarni izlash va ishlab chiqish, yangi vosita va yangi mahsulot bilan bog'liqdir. Masalan, reklama bo'limi mutaxassisining maqsadi, tovar uchun yangi, samaraliroq reklama yaratish bo'lsa, uni ma'lum muddat ichida telestudiyaga yo'llashi esa innovatsion maqsaddir. Izlanish bo'limi xizmatchilarining innovatsion maqsadi quyidagi masaladan iborat: Masalan, 1-iyulga 3 ta yangi tovarni eksport sotuvi uchun tekshirib maromiga yetkazish:

Rahbar yoki xizmatchining o'z oldiga qo'yan maqsadi qanchalik mashaqqatli bo'lsa, unda shunchalik muammo ko'pdir. Shuni aytish kerakki, muammo tushunchasi faqat obyektiv omil bo'lib qolmasdan, balki u o'ziga subyektiv omilni ham qamrab olgan. Bitta maqsad bir xizmatchi uchun oddiy hisoblansa, boshqasi uchun muammoli bo'lishi mumkin. Birinchi holatda xizmatchi unga erishish uchun zaruriy usullarga ega bo'lsa, qo'yilgan vazifani katta qiyinchiliklarsiz bajarish uchun yetarli bilim va qobiliyatga ega bo'ladi.

**Qishloq xo'jaligida menejmentning asosiy vazifasi** jamiyat rivojlanishining obyektiv qonunlari talablarini hisobga olgan holda va menejment amaliyotini umumlashtirish asosida agroiqtisodiyotni samarali boshqarish uchun zarur bir maqsadga yo'naltirilgan harakatlar tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat.

Har qanday davlat mustahkam, har tomonlama asoslangan boshqaruvga, mamlakatda ishlab chiqarishni va iqtisodiy o'sishni yo'lga qo'yishga zarurat sezadi. Bu vazifalarni yuqori malakali, boshqaruv qonun-qoidalarini mukammal biladigan professional boshqaruvchilar, menejerlar olib boradilar.

Qishloq xo'jaligi korxonasi va tashkilotlarining boshqaruv tizimini muntazam takomillashtirib borish talab etiladi. Korxonasi va tashkilotlarning samarali ishlashini malakali rahbar xodimlar ta'minlaydi.

Menejmentning mazmunini ochish bilan birga uning ikki tomonini, ya'ni, texnik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishni farqlash zarur. Amaliy tajriba shunday xulosa chiqarishga undaydiki, ishlab chiqarishning faoliyat samaradorligi faqat texnik, texnologik, tashkiliy rejalashtirish va boshqa omillarga bog'liq bo'lib qolmasdan, balki sezilarli darajada ish bajaruvchilar ishlarining sifatiga ham bog'liqdir. Faoliyat sifati ancha keng tushuncha, bo'lib, ishlab chiqarishni aniq tashkil qilish, mehnat jarayonining aniq maromiga yetkazishni ta'minlash, texnologiyaga rioya qilish, moddiy materiallarni tejab ishlatish, o'zaro talabchanlik, o'zaro yordam berish va boshqalardan iborat.

Menejmentning oldidagi asosiy masala zamonaviy bilimlar majmuasini ijodiy ishlatilishiga imkon yaratishdir. Bu belgilar iqtisodiy munosabatlar birlashmasi, ya'ni ular rahbar va ish bajaruvchilar orasidagi munosabatdir. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarishdagi muammolarni yechish jarayonida vujudga keladi.

Menejmentning mazmuni ishlab chiqarish usuli, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar darajasi, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishiga bog'liq holda o'zgaradi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy aloqalar murakkablashuvi bilan boshqaruv ham murakkablashadi. Ishlab chiqarish vositalariga mulkchilikning turli shakllari mavjud bo'lgan sharoitda tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat vujudga kelib u ishlab chiqarishni boshqarish, foydani ko'paytirishga yo'naltiriladi.

Menejmentning asosini obyektiv iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa qonunlarga asoslanuvchi huquqiy ilmiylik tashkil etadi. Bu qonunlarni o'rganish va ularning aniq vaziyatlarda namoyon bo'lishini hisobga

olgan holda xo‘jalik rahbarlari qishloq xo‘jaligini boshqarishning strategiya va taktikasini belgilaydilar.

Jamiyat hayotining barcha tomonlarini demokratik yangilanishi sharoitidagi asosiy masala iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy taraqqiyotni rag‘batlantirish, boshqariladigan bozor bilan shaxs va jamoa manfaatlarini samarali bog‘lash masalalaridan iboratdir. Nazariy va amaliy nuqtayi nazardan ishlab chiqarish egalari bo‘lgan mehnatkashlar manfaatlari eng muhim manfaat ekanligi, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtiruvchi qudratli harakatlantiruvchi kuch ekanligi shubhasizdir. Boshqaruvni isloh qilishning strategik g‘oyasi mehnat qiluvchi shaxsning obro‘sinı ko‘tarishdir. Chunki, vijdonan va mas‘uliyat bilan mehnat qilish iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish uchun xizmat qiladi. Xodimning mehnatdan manfaatdorligini keskin oshirish, uning o‘z qobiliyatini to‘liq namoyon etishiga sharoit yaratish, jamiyatni harakatlantiruvchi kuchlarning umumiy tizimiga qo‘yishdan iborat. Bunga faqat xodim ishlab chiqarishning haqiqiy egasi sifatida mehnat qilgan holdagina erishish mumkin. Kishilar o‘rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarnı aks ettiruvchi manfaatlar ularning maqsadlari, mehnat intizomi, faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va harakatlarini tartibga soladi.


Bozor munosabatlari ga o‘tish ishlab chiqarish va bozorning samarali o‘zaro ta’sirini, davlat boshqaruvi va korxonalarining o‘z-o‘zini boshqarishning mutanosib nisbatda bo‘lishini ta’minlovchi takomillashgan xo‘jalik mexanizmini yaratishga yo‘naltirilgandır. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asl maqsadi barqaror ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini, kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishdan iboratdir.

### **2.3. Qishloq xo‘jaligida menejment jarayonining mazmuni**

Qishloq xo‘jaligida menejment butun boshqaruv tizimining uzluksiz faoliyatini o‘zida aks etdiradi. U mehnat jarayonining barcha xususiyatlariga ega. Umuman, menejment jarayonini texnologiya (qanday amalga oshiriladi), tashkil etish (kim va qanday tartibda) nuqtayi nazaridan tavsiflash mumkin. Qishloq xo‘jaligida menejment jarayonini to‘rt qismga ajratish mumkin: texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy. Texnikaviy jihatdan bu mahsulot yetishtirishni boshqarish, ishlab chiqarishda — bu ishlab chiqarishni tashkil etish, ya’ni bo‘linma,

korxonalar o'zaro ta'sirini boshqarish, iqtisodiy jihatdan ishlab chiqarish, ish kuchi va butun iqtisodiy munosabatlar tizimiga rahbarlik qilish, ijtimoiy jihatdan – bu mehnat jamoasi ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, insonni tarbiyalashdir. Menejment jarayonining texnologiyasi xodimlar tomonidan bajariladigan operatsiya va amallardan iboratdir.

Qishloq xo'jaligida menejment jarayonini bir necha davrga bo'lish mumkin. Jumladan, maqsad qo'yish, axborot faoliyati, tahliliy faoliyat, boshqaruv tizimida tashkiliy amaliy faoliyat va harakatlar variantlarini tanlash. Qishloq xo'jaligida menejment jarayonining bosqich va davrlari o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi chizmada ko'rish mumkin.



2.1- rasm. Menejment jarayoni bosqichlari va davrlari.

Boshqaruv operatsiyalari – rahbar va boshqaruv apparatining oddiy harakatlari bo'lib, ular tartibi va birikishi natijasida menejment jarayoni tashkil topadi. Masalan, tahliliy faoliyat uchun korxonaning yillik va oylik hisobotlarini olish, ular asosida tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni menejment jarayoniga tatbiq qilish lozim. Menejment jarayonini amalga oshirish vositalariga, avvalo, axborotni kiritish lozim. Boshqaruv operatsiyalarining katta qismi axborot bilan ishlashdan iboratdir. Boshqaruv apparati ishida keng qo'llaniladigan texnika vositalari ham shular jumlasiga kiradi. Bular axborot olish va qayta ishlash vositalari va an'anaviy tashkiliy texnika vositalaridir. Boshqaruv operatsiyasini amalga oshirish usullari axborot-tahlil va tashkiliy faoliyatdir. Axborot-tahlil faoliyati axborot yig'ish, saqlash, tarqatish va qayta ishlash, tahlil, hisob, qarorlar variantlarini ishlab chiqishdan iborat; tashkiliy faoliyatga-tushuntirish, ishontirish, rag'batlantirish va vazifalarni taqsimlash usullari, faoliyatni nazorat qilish va hisob-kitoblar kiradi. Korxonada menejer uchun tashkil etish, qiziqtirish, ishontirish, tushuntirish, nazorat qilish ham zarur. Ayni shu operatsiyalar yig'indisidan rahbarning tashkiliy faoliyati tashkil topadi.

Shunday qilib, menejment jarayoni rahbar va boshqaruv apparatining qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha maqsadli harakat qilishidir. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirish tartibiga ko'ra, uni bir necha bosqichga bo'lish mumkin. Bular: maqsad, vaziyat, muammo, qaror qabul qilishdan iboratdir.

Har bir ta'sir etishni amalga oshirishdan avval uning maqsadi aniqlanishi lozim, chunki boshqaruv ma'lum maqsadga erishish uchun amalga oshiriladi. Menejmentning keyingi bosqichi menejment jarayonidagi vaziyatni tahlil etishdan iborat. U tizimning holatini baholash, uni yaxshilash yo'llarini izlash yoki undagi salbiy xislatlarni bartaraf qilish bilan bog'liq ishlarni tavsiflaydi. Muammo bosqichida tizimning hozirgi holati, uni rivojlantirish maqsadiga nisbatan uning qarama-qarshiliklarini aniqlash ko'zda tutiladi. Qaror qabul qilish bosqichi rahbarning amalda tashkiliy faoliyatiga o'tishini ifodalab, qaror qabul qilish bilan boshqariladigan tizimga ta'sir o'tkaziladi.

## **2.4. Menejment funksiyalarining mohiyati, mazmuni**

Har qanday menejment funksiyasi boshqaruv xodimlarining o'ziga xos faoliyatining turidir. Mehnatning kasbiy taqsimoti boshqaruv sohasidagi ixtisoslanish natijasidir. Ushbu faoliyatni o'ziga xosligi shundaki, har bir funksiya berilgan maqsadni bajarishga yo'naltirilgan. Shuning uchun u o'zining mavjud rolini o'ynaydi va boshqaruv xodimlarining umumiy faoliyatini tarkibiy qismi hisoblanadi.

Funksiya lotincha «function» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bajo keltirish, bajarish, amalga oshirish ma'nosini bildiradi. Xorijiy so'zlar lug'atida funksiya faoliyat darajasi, majburiyat, maqsad va rol deb ifodalanadi. Menejment funksiyalari boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlarni bir butun qilib bog'lab, aniq majburiyatlar bilan tavsiflaydi.

Menejment funksiyalariga tadqiqotchilar o'zlarini nazariy qarashlari asosida yondashganlar. Masalan, F.Teylorning fikricha, har bir xizmatchi eng yuqori lavozimdan eng quyi lavozimgacha imkoni boricha oz sonli vazifani bajarishi kerak. Ba'zi mutaxassislar o'z qarashlarida menejment funksiyalarining asosiy tayanchini mazmuniy tomonga emas, balki axborotli tomonga yo'naltirishgan. Menejment funksiyasi deganda, ular eng avval axborotga ishlov berilishidagi tashkiliy faoliyat, ya'ni shunday zarur mehnat faoliyati turiga bevosita axborotni ishlab

chiqarishni boshqaruvning manfaati uchun harakati va ishlatilishi bilan bog'liqligi, shu jumladan, zarur qarorlar qabul qilish tushuniladi. Ayrim mualliflar menejment funksiyasini menejment subyektlarini harakat operatsiyasi desa, boshqasi ijtimoiy jamiyat birlashmasi faoliyatining bir qismining tartibga solinishi deydi, uchinchi esa obyektiv zarur, barqaror takrorlanuvchi harakat degan xulosaga kelgan.

Yirik mutafakkirlardan biri A.Fayol boshqaruvchining korxonada bajariladigan barcha funksiyalarini quyidagi olti guruhga bo'lgan:

- texnik (ishlab chiqarish, yasash, qayta ishlash);
- tijorat (sotib olish, sotish, almashtirish);
- moliyaviy (kapital topish, uni boshqarish);
- himoyalash (mulkni va shaxsni himoyalash);
- hisob-kitob (muvozanat, sarflar, statistika).
- ma'muriy (ish olib borish, tashkil qilish, farmon chiqarish va nazorat).

A.Fayol boshqarishning umumiy funksiyalarini turkumlashda yagona muallif hisoblanadi. A.Fayolning fikricha, ma'muriy funksiya korxonada rahbari zimmasidagi eng katta o'rinni egallovchi majburiyatdir.

U rahbarning predmeti sifatida quyidagilarni bildirgan:

- oldindan ko'ra bilish (kelajakni o'rganish va harakat yaratish);
- tashkil qilish (korxonaning moddiy-texnika bazasini yaratish);
- farmon berish (korxonada xodimlarini harakatga keltirish);
- tartibga keltirish (barcha jarayonlarni, harakat va intilishlarni birlashtirish);
- nazorat qilish (qonun-qoidalarga, chiqarilgan farmonlarga rioya qilinishini kuzatish).

Menejmentning funksiyalarini turkumlash muammosiga bildirilgan fikr-mulohazalar tahlili quyidagi asosiy xulosalarni chiqarishga imkon yaratadi:

- menejer tomonidan maqbul qarorlar ishlab chiqiladi;
- korxonada taraqqiyotini ta'minlaydigan buyruqlar chiqariladi va bajaruvchilarga yetkaziladi;
- mehnat samarali tashkil qilinadi va tartibga solib boriladi;
- qabul qilingan qarorlar bajarilishi nazorat qilinadi.

Menejment jarayoni, eng avvalo, uning oliy maqsadini aniqlashdan va shu bilan birga, uni amalga oshirishni zaruriy harakatlar dasturini ishlab chiqishdan boshlanadi. Ma'lumki, rejalashtirish boshqarishning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Rejalashtirish, eng avvalo, kelajakni belgilash, samaradorlikni oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini



tanlashdir. Qarorlarning eng maqbul variantlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni ta'minlashdan iboratdir. Hozirgi vaqtda rejalashtirishning muhim yo'nalishi kelajakni bashorat qilishdir. Kelajakni bashorat qilish iqtisodiy matematik usullar yordamida matematik modellashtirish orqali amalga oshiriladi.

Menejmentning tashkil etish funksiyasi qo'yilgan maqsadlarga muvofiq ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika bazasini yaratish, boshqaruv apparatining maqsadga muvofiq tashkiliy tarkibini aniqlash, zarur me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy etish, yangi standartlar, boshqaruv bo'linmalari to'g'risidagi qoidalar, vazifaviy yo'riqnomalar tayyorlash va boshqalarni o'z ichiga oladi. Tashkil etish funksiyasi korxonada bo'limlar faoliyatining tarkibiy-tashkiliy bog'lanishiga belgilangan rejalarni ma'lum tartib asosida bajarilishini ta'minlaydi. Boshqacha qilib aytganda, korxonada barcha jarayonlarning birligini ta'minlab, yagona maqsadga birlashtiradi.

Menejmentning muvofiqlashtirish funksiyasi belgilangan dasturni yoki maqsadga muvofiq rejani amalga oshirishini, ishlab chiqarish jarayonlarining bir me'yorda borishini ta'minlaydi va o'rnatilgan me'yordan og'ishini bartaraf etadi. Bu korxonada zaruriy tartiblilik va barqarorlik holatini o'rnatadi. Ishlab chiqarishning taraqqiy etishi bilan boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar o'rtasidagi aloqalar har doim bir me'yorda davom etmaydi. Bo'limlarning vazifaviy majburiyatlarini to'liq bajarilmasligi natijasida o'zaro aloqalarda uzilishlarni, jarayonlarda og'ishlarni vujudga keltiradi. Bu masalalar muvofiqlashtirish funksiyasi orqali yechiladi. Muvofiqlashtirish funksiyasi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida katta ahamiyatga ega. Unga ishlab chiqarish ko'lami oshgan, murakkablashib borayotgan iqtisodiy aloqalar vujudga kelgan sari katta talab qo'yilmoqda. Menejmentning muvofiqlashtirish funksiyasi orqali korxonaning dinamikasini, boshqaruv tizimini turli qism va bo'linmalari bilan aloqasini bir tekisligi ta'minlanadi.

Menejmentning nazorat qilish funksiyasi vazifasi amalda belgilangan topshiriqlarning bajarilishini, ishlab chiqarishning bir me'yorda davom etishini kuzatish, uzilish holatlarni, o'rnatilgan talablardan og'ish sabablarini aniqlash, bartaraf etish, ularni oldindan bilish va ogohlantirish, ishlab chiqarishning barqarorligini ta'minlashdir. O'zining mohiyatiga ko'ra nazorat funksiyasi universal hisoblanadi, chunki, korxonada funksiyasining barcha bo'g'inlari va bo'linmalariga (texnologik jarayonlarning nazorati, texnik hujjatlar holatini nazorat qilish,

mahsulot sifatini nazorat qilish va hokazo) kirib boradi va menejmentning boshqa funksiyalari bilan yaqin bog'langan bo'ladi. Shunday qilib, menejmentning nazorat funksiyasi korxonada faoliyatining haqiqiy holatini o'rnatilgan talablardan og'ishidan doimo xabardor bo'lib turish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, menejmentning funksiyalari bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, korxonaning mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## **2.5. Menejment qonunlari va tamoyillari**

Menejment jamiyat qonunlari tizimiga asoslanadi. Nazariy jihatdan tushunmay va asoslanmagan holda birorta yirik amaliy masala hal etilishi mumkin emas. Nazariya yangilanishning muhim usulidir. Fan esa voqelik haqidagi obyektiv bilimlarni o'rganish va tartibga solishga qaratilganidir. Bilimlarning tartibga solinishi qonunlarda ifodalanadi.

Qonun – falsafiy kategoriya bo'lib, borliq voqealarning barqaror, takrorlanuvchan aloqasi va munosabatini, hodisalar yuz berishining aniq tartibda bo'lishiga olib keluvchi tomonlarini aks ettiradi. Qonunlarni bilish rivojlanishning obyektiv yo'nalishlarini aniqlash, amaliy vazifalarni hal etish imkonini beradi. Shu sababli iqtisodiyotni boshqarish qonunlarni bilish, ularni amalda mohirlik bilan qo'llay olishga asoslanishi kerak.

Iqtisodiyotni boshqarishda qonunlardan qanchalik to'liq va izchil foydalanilsa, mehnat sarfi shunchalik samarali bo'ladi. Va, aksincha, menejment jarayonida iqtisodiy qonunlarni hisobga olmaslik jamiyat uchun kutilmagan, salbiy oqibatlariga olib keladi. Shu sababli menejment qonunlarini o'rganishda faqat amal qilishni emas, balki menejment jarayonida ongli ravishda qo'llanilishini ham ko'zda tutish lozim.

Boshqaruv qonunlaridan ongli ravishda foydalanish, ko'p jihatdan ularni o'rganish bilan bog'liq. Qonunlar qanchalik chuqur o'rganilsa, ulardan amalda to'g'ri foydalanish imkoniyatlari ortadi.

Lekin menejment qonunlarini bilish ularni aniq amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llash uchun kafolat bo'la olmaydi. Qonunlardan foydalanishda nazariya amaliyotdan ajralib qolishi foydasizdir. Demak, qonunlardan foydalanish ularni bilish, tushunish, amalda o'z vaqtida va to'g'ri qo'llay olishga bog'liq ekan. Bu menejment samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omildir.

Iqtisodiy qonunlar tizimidan foydalanishning asosiy elementlari va bosqichlari quyidagi chizmada aks ettirilgan:



**2.2-rasm. Iqtisodiy qonunlar tizimidan foydalanishning asosiy elementlari va bosqichlari.**

Umumiy falsafiy va iqtisodiy qonunlardan to'g'ri foydalanilgan holdagina iqtisodiyotni muvaffaqiyatli boshqarish mumkin. Umumiy falsafiy qonunlar ta'siri amaliyotda iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlarini aniqlash shaklida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarishni boshqarishdagi turli-tuman ijtimoiy munosabatlar umumiy falsafiy va iqtisodiy qonunlarga bo'ysunadi.

Umumiy falsafiy qonunlar, bu avvalo, quyidagi materialistik dialektika qonunlaridir:

1. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni narsa va hodisalarning miqdor va sifat jihatlarining o'zaro bog'liqligi, ta'sirini tavsiflaydi.

2. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni harakatlantiruvchi kuch, o'z-o'zidan harakat qilib amalga oshuvchi rivojlanish manbayini ko'rsatadi.

3. Inkorni inkor etish qonuni sekin rivojlanish va takomillashish yo'nalishini belgilaydi. Eskirgan narsani inkor etmay, rivojlanishga erishib bo'lmaydi, chunki inkor natijasida yangi narsa uchun joy yaratiladi. Shuning uchun inkor yangi bilan eski bog'langan vaqtdir. Bozor munosabatlari sharoitida menejment eski buyruqbozlik shakl va uslublarni inkor etib, ularni ilmiy asoslangan yangilari bilan almashtiradi.

4. Ijtimoiy borliqning ijtimoiy ongdan birlamchi ekanligini belgilovchi qonun mehnat jamoasining, alohida mehnatkash hayotining birlamchi ekanligini ko'rsatadi. Boshqaruvni umumlashtirish zarur bo'lgan ijtimoiy, jamoa, shaxsiy manfaatlarni aniqlashda bu qonunning amal qilishini hisobga olmay amalga oshirib bo'lmaydi.

5. Ishlab chiqarish kuchlarining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga nisbatan belgilovchi ekanligini ifodalovchi qonun boshqaruv uchun katta ahamiyatga ega. Aynan boshqaruv vositasida ishlab chiqarishning ikki tomoni ishlab chiqaruvchi kuchlar va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar aloqasi yuz beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan umumiy falsafiy qonunlar menejment metodologiyasi asosini tashkil etadi. Ular menejmentda markaziy kategoriyalar bo'lib, uning konsepsiyasi birligini mustahkamlash, barcha kategoriyalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga imkon yaratadi.

Iqtisodiyotni boshqarish tizimida iqtisodiy qonunlar yetakchilik qiladi. Insonlar mehnatini erkin birlashtiruvchi va tartibga soluvchi boshqarish tizimi maqsadlarni aniq belgilash, ularni amalga oshirish yo'llarini izlash, erishilgan natijalarga baho berish, iqtisodiy samaradorligida aks etuvchi iqtisodiy qonunlar talablarini aniq hisobga olish lozim.

1. Jamiyat ehtiyojlarini mumkin qadar kam resurslar sarflab, iloji boricha to'liq qondirish qonuni. Jamiyatdagi barcha iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar, ularni amalga oshirish shu qonun asosida yo'lga qo'yiladi. U quyidagilarda ifodalanadi:

– ishlab chiqarishning obyektiv yo'nalishi, uning xalq farovonligini oshirishga, shaxsning har tomonlama rivojlantirishga qaratilganligi;

– insonlar xo'jalik faoliyatining asosiy sabablari, umumxalq iqtisodiy manfaatlarining yetakchiligi;

– ishlab chiqarish samaradorligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.

2. Qiymat qonuni yoki narx qonuni. Tovarlarning pulda ifodalangan qiymati narx deb ataladi. Narx bozor barometridir, ya'ni agar talab va narx yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish kengayadi. Talab va narx pasayganda ishlab chiqarish qisqaradi. Talab hajmi va tarkibi taklif hajmi va tarkibiga teng bo'lgan holdagi narx muvozanat narxi deyiladi.

Ishlab chiqariladigan har bir tovar turi, hajmi ularga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarga teng bo'lishi, ya'ni to'lov qobiliyatiga ega talabga teng bo'lishi kerak.

3. Talab qonuni. Uning mazmuni shundan iboratki, narx qancha yuqori bo'lsa, talab shunchalik kam bo'ladi. Talab xaridorning to'lov qobiliyatini ifodalaydi.

4. Taklif qonuni. U narx ortishi bilan taklif ortishini ifodalaydi.

Taklif – bu bozordagi tovar va xizmatlarning hajmidir.

Shunday qilib, bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda iqtisodiy qonunlardan foydalanish imkoniyatlari har tomonlama kengayib boradi.

Menejment qonun va qonuniyatlari o'z mohiyatiga ko'ra obyektiv jarayon hisoblanadi. «Qonun» va «qonuniyat»ni umumiy va xususiy tushunchalarga kiritish mumkin.

«Qonun» umumiy tushuncha bo'lsa, «qonuniyat» uning bir qismi hisoblanadi. Iqtisodiy qonun va qonuniyatlar inson ongi va saviyasidan tashqarida amal qiladi. Inson uni to'g'ri tushunishi va undan o'z faoliyatida oqilona foydalanishi lozim. Bozor iqtisodiyoti tizimi uni to'g'ri tushunish va undan oqilona foydalanishni talab qiladi.

Menejmentning quyidagi qonunlari mavjud:

- ixtisoslashtirish qonuni;
- integratsiya qonuni;
- markazlashtirish qonuni;
- demokratizatsiyalash qonuni;
- vaqt qonuni (vaqtni iqtisod qilish qonuni).

**Ixtisoslashtirish qonunining mohiyati** shundaki, korxonani boshqarish ma'lum miqdordagi boshqaruvchilar, rahbarlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular o'z faoliyatlari jarayonida mehnat taqsimoti asosida o'ziga xos quyidagi funksiyalar bo'yicha (rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, faollashtirish, nazorat), mehnat vositalari bo'yicha (axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish usullari), funksiyalarni bajarish hajmi va mehnatga bo'lgan talab bo'yicha (bo'lim rahbarlari va unga bo'ysunuvchilar), menejment vakolati bo'yicha (menejment darajasi, huquqi, mas'uliyati va boshqalar) amalga oshiradi.

Menejment tizimida har xil funksiyalar taqsimoti mavjud bo'ladi. Xususan, korxonani boshqarishning umumiy vazifalari — ishlab chiqarish jarayoni, moliya, sotib olish, sotish, marketing, kadrlarni o'qitish, ilmiy faoliyat, axborotlar tizimini boshqarish kabilar mavjud bo'ladi. Bu, o'z navbatida, boshqarishning ixtisoslashuvi bo'lib, ular yordamida boshqarishning samaradorligi ta'minlanadi. Menejmentning ixtisoslashgan funksiyalari shu sohani bilgan tajribali va malakali xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

*Integratsiya qonuni* — bu obyektiv qonun bo'lib, menejment barcha boshqaruvchi xodimlar faoliyatini integratsiyasi asosida amalga oshirishni ko'rsatadi. Bunday ehtiyoj ishlab chiqarish va boshqarishga bo'lgan talabdan kelib chiqadi va amalga oshiriladi.

***Menejmentning integratsiyasi uning quyidagi tarkibiy qismlari yordamida namoyon bo'ladi:***

1. Maqsad – boshqarishning integratsion omili sifatida;
2. Menejment mexanizm – balanslashgan usuli va menejment jarayoni sifatida;
3. Strukturaviy bo'linmalar va ularning funksiyalarini muvofiqlashtirish sifatida;
4. Axborotlar bilan ta'minlash-menejment bo'linmalari o'rtasida bog'lanish sifatida.

**Menejmentning markazlashtirish qonuni.** Bu qonun markazdan va quyidan boshqarishning optimal (eng qulay) variantini topishni talab etadi.

Bu qonun, bir tomondan, markazdan, ya'ni yuqoridan pastga, ikkinchi tomondan, pastdan yuqoriga menejment jarayonini o'zida aks ettiradi.

Boshqarishning obyektiv tizimi markazlashtirilgan shaklda bo'ladi. Masalan, biologiyada birinchi tizim faoliyat ko'rsatishi uchun markaz, ya'ni miya ishlashi kerak.

Korxonani boshqarishda, muhim qarorlar qabul qilishda vakillikning aksariyat qismini o'z zimmasiga oladigan boshqaruv tizimi markazlashgan boshqaruv deb ataladi. Korxonani boshqarish vakolatlari, asosan, quyi boshqaruv organlariga berilgan bo'lsa, bu markazlashmagan, ya'ni quyidan boshqaruv deyiladi.

***Markazlashgan boshqaruvning afzalliklari quyidagilardan iborat:***

1. Ixtisoslashgan boshqaruv xizmatining faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish imkoni tug'iladi.
2. Harakatning yagona kelishilgan tartibi ta'minlanadi.
3. Menejment mehnati bilim va tajribadan unumliroq foydalanish imkonini beradi.


***Quyidan boshqarishning afzalliklari quyidagilardir:***

1. Muammoni yaxshiroq biladigan rahbar tomonidan qaror qabul qilish imkoni tug'iladi.
2. Yirik korxonalarni axborotlar hajmi ko'pligi sababli boshqarish va menejment qarorlarini ishlab chiqish qiyinlashadi.
3. Quyidan boshqarish rahbarlik lavozimidagi shaxsning mas'uliyatini oshiradi, o'ziga nisbatan talabchanlik kuchayadi va o'z ish joyida mustahkam bo'lish imkonini beradi.

*Demokratizatsiyalash qonuni.* Menejment samaradorligi odamlar manfaatiga mos tushadigan bo'lishini ta'minlashi lozim. Manfaaddor har bir shaxs, boshqaruv xodimi mehnat jamoasi uchun xos bo'lgan jarayon hisoblanadi. Bu esa boshqarish jarayonini nafaqat malakali, qolaversa demokratiya bo'lganda ta'minlanadi. Bu qonun mohiyatiga ko'ra jamoada odamlarning bir-biriga bo'lgan o'zaro munosabatini aks ettiradi, ya'ni rahbar va bo'ysunuvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqani aks ettiradi.

*Vaqt qonuni* (vaqtni iqtisod qilish qonuni) — bu bozor iqtisodiyotining muhim qonunidir. Vaqt iqtisodiy kategoriya bo'lib, uning qadr-qimmatini korxonada faoliyatining barcha tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi, jumladan, ishlab chiqarish tezligi, kapital aylanmasi, mehnat unumdorligi, mehnat qurollaridan foydalanish xarajatlari va boshqalar.

Tamoyil — bu faoliyat yuritishning asosiy qoidasi, yetakchi g'oyadir. Ilmiy adabiyotlarda, odatda, boshqaruv tamoyillari deganda, iqtisodiyotga rahbarlik qilishda asoslaniladigan asosiy qoida, yo'l-yo'riq, xulq me'yorlari tushuniladi. Boshqaruv tamoyillari iqtisodiyot qonunlari ta'siri natijasida boshqaruv usullariga bog'liq hodisalar mohiyatini aks ettiradi. Boshqaruv mexanizmini quyidagicha ifodalash mumkin:



2.3-rasm. Boshqaruv mexanizmi.

Boshqaruv tamoyillari o'zaro bog'liq va birgalikda qo'llanilishi lozim.

### ***Menejmentning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:***

**1. Boshqaruvda yakkaboshchilik va kollegiallik tamoyili.** Yakkaboshchilik tamoyili bevosita ishlab chiqarishda xodimlarning yagona rahbar buyruqlariga qat'iy bo'ysunishi talab qilinadi. Yuqori darajadagi rahbar quyi bo'g'in rahbari vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etmasligi lozim. Bu tamoyilni amalga oshirishning asosiy sharti har bir ijrochining huquq, burch, majburiyatlarini qat'iy belgilab qo'yishdir. Yagona boshchilik kollegiallik, qabul qilinadigan qarorlar oshkoraligi bilan qo'shib olib borilishi kerak. Kollegiallik intizom, rahbar, yagona shaxs irodasiga so'zsiz bo'ysunish bilan birga amalga oshishi kerak. Demokratiya, oshkoralik har bir kishiga o'z fuqarolik qarashlarini

namoyon qilish, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda faol qatnashish uchun imkon yaratadi.

**2. Ilmiylik tamoyili.** Boshqaruv tamoyillari orasida valuntarizmni inkor qiluvchi har bir rahbar iqtisodiy qonunlarni, jamiyat rivojlani-shining obyektiv yo‘nalishlarini, bu sohada milliy va chet el tajribasini taqozo qiluvchi o‘rinni egallaydi.

**3. Rejalilik tamoyili.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni rejali boshqarish – biznes va strategik rejani tuzish, iqtisodiy siyosatlarni amalga oshirishning muhim shartidir. Bu tamoyil ishlab chiqarish rivojlanishining uzoq muddatga mo‘ljallangan yo‘nalishlarini belgilaydi.

**4. Boshqaruv shakli va usullarini takomillashtirib borish tamoyili.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruvning uch shakli mavjud, jumladan: xususiy, jamoa va davlat boshqaruvi. Boshqaruvning xususiy shaklida mulkdor yakka o‘zi qaror qabul qiladi va butun ish uchun javobgar bo‘ladi. Boshqaruv xususiy shaklining ijobiy tomoni mulk egasining ishlar borishini o‘zi to‘liq nazorat qilish imkoniyatiga egaligi bo‘lsa, kamchiligi sarmoyaning uncha katta bo‘lmasligi va bir kishining boshqaruvning turli vazifalarini bajarishga majburligidir.

Boshqaruvning jamoa shaklida ikki yoki undan ko‘p jismoniy va huquqiy shaxslar boshqaruv qarorlarini birgalikda qabul qiladilar va korxonalar yoki aksiyadorlar jamiyati faoliyati uchun javobgar bo‘ladilar. Sherikchilik nisbatan malakali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, boshqaruvning xususiy shakli kamchiliklarini bartaraf etishga imkon yaratadi. Boshqaruvning jamoa shaklining afzalligi sheriklarni aksiya sotish yo‘li bilan qo‘shimcha sarmoya jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘lishidadir. Davlat boshqaruv shakli davlat yoki mahalliy mulk bo‘lgan korxonalarda amalga oshiriladi. Davlat bu korxonalar faoliyati uchun to‘liq javob beradi.

**5. Kadrlar tanlash va joylashtirish tamoyili.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlari boshqaruv kadrlariga qat‘iy talablar qo‘yadi, ularning ishbilarmonlik sifatlarini, ishlab chiqarish oldida turgan masalalarini belgilaydi.

**6. Shaxsiy tashabbus tamoyili.** Bozorda ishbilarmon, omilkor, shaxsiy foyda uchun harakat qiluvchi, tadbirkor kishilar faoliyat yuritishi kerak.

**7. Javobgarlik va tavakkalchilik tamoyili.** Tadbirkor o‘z faoliyati uchun javobgar bo‘lishi, bunda ma‘lum tavakkalchilik ham hisobga olinishi, ya‘ni tadbirkorning o‘z huquq va majburiyatlari bo‘lishi kerak.



## 2.6. Menejment usullarining asosiy mazmuni

*Menejment usullari — bu menejment subyektining menejment obyektiga maqsadli yo‘naltirilgan ta‘sir o‘tkazish usullari, ya‘ni menejning u boshqarayotgan ishlab chiqarish jamoasiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish jarayonida uning faoliyatini muvofiqlashuvini ta‘minlashdir.*

Menejment usullari vositasida iqtisodiy jarayonlarga va ishlab chiqarish qatnashchilariga moddiy, moliyaviy, energiya, mehnat resurslarini imkoni boricha kam sarf qilib yuqori natijalarga erishish maqsadida ta‘sir etiladi. Ishlab chiqarish samaradorligi ko‘p jihatdan menejment usullari mukammalligi va to‘g‘ri shakllanganligi bilan uzviy bog‘liqdir.

Menejment usullari boshqaruvda muhim o‘rinni egallab, menejment qonun va tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir. Menejment usullari tashqi va ichki omillar ta‘sirida o‘zgaradi. Tashqi omillarga: tashqi va ichki sharoitning o‘zgarishi, iqtisodiyotni boshqarishda tub islohotlarni amalga oshirish, qishloq xo‘jaligining texnikaviy qurollanganlik darajasi, boshqarish tizimidagi o‘zgarishlar kiradi. Ichki omillarga: yirik ishlab chiqarish birlashmalarini tashkil etish asosida ishlab chiqarish konsentratsiyasini amalga oshirish; korxonada miqyosining o‘zgarishi natijasida uning bir guruhdan ikkinchisiga o‘tkazilishi; ishlab chiqarish ixtisoslashuv darajasining o‘zgarishi; mehnatning texnika bilan ta‘minlanish darajasining yaxshilanishi; ishlab chiqarishni rejalashtirish va jadal tartibga solishning mavjud usullarini takomillashtirish va yangilarini joriy qilish (ishlab chiqarishni uzluksiz tezkor rejalashtirish, ishlab chiqarishni boshqarishni avtomatlashtirilgan tizimini qo‘llash va h.k.)ni kiritish mumkin.

Menejment usullari bevosita ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta‘sir etuvchi ishlab chiqarish usulining rivojlanishi va jamiyat ishlab chiqarish kuchlari o‘sishi bilan o‘zgarib boradi. Iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishida menejment usullarini to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyatga ega.

Menejment usuli — bu, eng avvalo, maqsadga erishish yo‘lidir. Shuning uchun menejmentning maqsadi eng muvofiq usullarni tanlashdan iboratdir. Shunday ekan, «Menejment usuli», birinchi navbatda, korxonada faoliyati jarayonida ishlatiladigan ta‘sir ko‘rsatishni asosiy maqsadini aks ettirishi kerak.

Iqtisodiy usullarning mohiyati xodimlar va ishlab chiqarish jamoasiga ularning manfaatdor bo‘lishlarini ta’minlovchi iqtisodiy sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Boshqaruv usullari tizimida iqtisodiy usullar yetakchi o‘rinni egallaydi.

Iqtisodiy usullar iqtisodiy ta’sir vositalarining yig‘indisidan (narx, kredit, biznes-reja, foyda, soliqlar, ish haqi, iqtisodiy rag‘batlantirish va h.k.) iboratdir. Bozor iqtisodiyoti ma’muriy-buyruqbozlik tizimiga nisbatan qarama-qarshi tizim bo‘lib, bozor narx, soliq, kredit vositasida tartibga solish, eng avvalo, ijtimoiy maqsadda ko‘ra amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx va ish haqi o‘zgarishini qat’iy tartibga solmay barqarorlikka erishib bo‘lmaydi.

Menejment jarayoni xo‘jalik tizimida iqtisodiy munosabatlarga asoslanadi, ularning asosida ongli ravishda ishlatiladigan iqtisodiy qonunlar va menejment obyektiga xos qonuniyatlar yotadi. Bu qonunlar va qonuniyatlar menejmentga to‘laligicha va uning har bir alohida bo‘g‘iniga turli yo‘llar bilan maxsus mexanizm yordamida ta’sir ko‘rsatadi. Mexanizmning tarkibiga, eng avvalo, menejmentning iqtisodiy usullari kiradi.

Iqtisodiy usullar o‘zaro bog‘langan tizimdir. Ammo ushbu tizimning tuzilishi masalasida mutaxassislarning fikrlari turlichadir. Birlari rejalashtirishdan, iqtisodiy rag‘batlantirishdan, mehnatni, ishlab chiqarishni, menejmentni ilmiy asosda tashkil etishdan, narx belgilashdan, moliya bilan ta’minlashdan tashkil topgan desalar; boshqalari shular bilan bir qatorda yana xo‘jalik hisobini qo‘shimcha qiladilar; uchinchilari esa, iqtisodiy usullar tizimini rejalashtirishdan, xo‘jalik hisobidan va iqtisodiy tahlildan tashkil topgan deydilar; to‘rtinchilari rejalashtirish, xo‘jalik hisobi, yaxshi ish natijalari uchun moddiy rag‘batlantirish deb tasdiqlaydilar; beshinchilari rejalashtirish, xo‘jalik hisobini iqtisodiy va moddiy rag‘batlantirish deb biladilar; oltinchilari markazlashgan rejalashtirish va iqtisodiy dastaklar tizimi, xo‘jalik hisobi, narx belgilash, moddiy rag‘batlantirish va hokazolar deb tushunadilar.

Iqtisodiy usullar, eng avvalo, iqtisodiy qonunlar talabiga, ishlab chiqarish munosabatlarining tizimi va tarkibiga asoslanmog‘i kerak. Shunday qilib, menejment iqtisodiy usullarining negizida tashkilot jamoalarining iqtisodiy manfaatlari yotadi. Ular o‘z faoliyatida eng kam xarajat qilib, yuqori natijalarga erishishga harakat qiladilar. Iqtisodiy usullar takomillashuvining asosiy yo‘nalishlari – bu iqtisodiy sharoitlarni yaratishdir.

Menejmentning iqtisodiy usullari to'la iqtisodiy mexanizmning kichik bir bo'lagi hisoblanadi. Ular yordamida ishlab chiqarish samaradorligining muammosi hal etiladi. Bu usullar menejmentga iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi asosida ma'lum holatni bunyod etish, iqtisodiy va moddiy rag'batlantirish hamda narx, kredit kabi iqtisodiy dastaklar orqali ta'sir qiladi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyot sohaslarida bozor munosabatlarining bosqichma-bosqich shakllanib borishi sharoitida menejmentning ijtimoiy-psixologik usullari – bu ishlab chiqaruvchi va ayrim shaxslarga ularning ijtimoiy ehtiyojlari va psixologik xususiyatlariga ta'sir etish bilan boshqarish vositasidir. Ijtimoiy-psixologik usullarni qo'llash korxonada yuz berayotgan ijtimoiy hodisalarni chuqur o'rganish xodimlar kayfiyatiga ta'sir etuvchi psixologik (ruhiy) omillarni bilishni talab etadi.

Menejmentning ijtimoiy-psixologik usuli – bular tashkilot jamoalarining zaruriy ongli, faol, uzluksiz mehnat faoliyati tarzini amalda ro'yobga chiqarish bo'lib, ular odamlarni o'zaro ruhiy rag'batlantirish asosida amalga oshiriladi.

Menejmentning ijtimoiy-psixologik usullarini ishlab chiqish mavjud ijtimoiy mexanizmni (o'zaro munosabat tizimi, ijtimoiy ehtiyojlar) qo'llashga asoslanadi. Menejmentning ijtimoiy usullari ijtimoiy tartibga solish vositasida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy tartibga solish usullari turli guruhlar va shaxslar maqsadi va manfaatlarini aniqlash va rostlash yo'li bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va uyg'unlashtirish maqsadida qo'llaniladi.

Ular jumlasiga ijtimoiy tashkilotlar nizomlari, shartnomalar, o'zaro majburiyatlar, ishchilarni tanlash, taqsimlash va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish tizimi kiradi. Ijtimoiy tartibga solish usullari inson omili faolligini oshirish, boshqaruvni demokratlashtirish maqsadida ham qo'llaniladi.

Menejmentning ijtimoiy-psixologik usullari jamoada maqbul psixologik holatni tashkil etish yo'li bilan kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgandir. Psixologik usullarga kichik guruh va jamoalarni tashkil etish, malakali kadrlarni tanlash, ularni o'qitish va h.k.lar kiradi.

Ijtimoiy-psixologik usul har bir jamoaga va uning xizmatchisiga ta'sir ko'rsatadi. Ularga: ishontirish, tarbiyalash, ruhiy rag'batlantirish, ishlovchilarning maishiy talablarini qondirish hamda jamoaning ilg'or mehnat an'alarini saqlash va rivojlantirish usullari kiradi.

Kishi ruhiy xususiyatlarining u bajaruvchi ish talablariga mos kelmasligi o'z kasbidan qoniqmaslik uni o'zgartirishga harakat qilishga, xato qilish ehtimolining ortishiga, natijada mehnat unumdorligining pasayishiga olib keladi. Aksincha, agar inson o'z qobiliyatini to'liq namoyon qila oluvchi ish bilan band bo'lsa, u o'z mehnatidan mamnun bo'ladi, kasbni tez egallaydi va mehnat unumdorligi yuqori bo'ladi.

Inson uchun faqat moddiy rag'bat muhim deb hisoblash noto'g'ri. Unga juda ko'p narsa, ya'ni katta umumiy ishda o'z hissasi borligini his etishi, o'zini mehnat orqali namoyon etishi, o'z malakasi bilan g'ururlanishi, do'stlari hurmatiga sazovor bo'lishi va h.k.lar ham muhimdir. Ko'pchilik kishilar shaxsiy farovonlikka boshqalar hisobiga erishilgan shaxsiy muvaffaqiyat orqali emas, mamlakat iqtisodiyotiga qo'shgan mehnati hisobiga erishish lozimligini ta'kidlaydilar.

Menejmentning ma'muriy usuli davlat tabiatidan kelib chiqadi. Ular har qanday menejment jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Korxonalar va tashkilotlarning ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyati menejmentning turli ma'muriy usullarini qo'llash bilan bog'liqdir. Menejmentning ma'muriy usullari boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlarning samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi ta'sir etish tizimidan iboratdir. Menejmentning ma'muriy usullari iqtisodiy usullarni to'ldirib, bozor iqtisodiyoti qonunlari, huquqiy hujjatlarni hisobga olish va bajarishga asoslanadi.

Menejment tizimida ma'muriy usul ma'muriy shakllar bilan qo'shib olib boriladi. Bu ko'p hollarda tashkiliy ta'sir ma'muriy huquqni qo'llash, ya'ni qaror va farmoyishlarni amalga oshirishga asoslanadi. Ma'muriy usul boshqaruvning turli darajalariga turli ko'lamda va shaklda tashkiliy ta'sir etishni o'rganish masalalarini ham qamrab oladi. Ma'muriy usul boshqaruvning har bir bo'g'ini vazifalarini belgilab beradi, boshqaruv apparati intizomi va faoliyati samaradorligini ta'minlaydi, ishda tartib o'rnatadi, qaror va farmoyishlarni bajaradi, kadrlarni tanlaydi va joy-joyiga qo'yadi.

Shuni ta'kidlash zarurki, ma'muriy usullarning tarqalishini cheklash, ularni bozor iqtisodiyotining amalga oshirishini turli bosqichlarida, menejmentning turli saviyalarida to'g'ri ishlatilishi majburiy shart hisoblanadi. Ma'muriy usullarni to'g'ri va o'z vaqtida ishlatilishi menejment amaliyotida menejmentni tashkil qilishini yaxshilashga va uning samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Menejmentning ma'muriy usullarini ishlatilishining kengayishi iqtisodiy usullarining ma'lum mutanosiblikda ishlatilishini hech qachon

inkor qilmagan. Ma'muriy shakl o'z ichiga iqtisodiy ma'noni oladi. Xo'jalik muammolarini hal etishda umumiy yondashuvning turli tomonlari, bu masalalarni hal etishda bir-birlarini to'ldirib, hamma vaqt birga ishlatilgan.

Menejmentning ma'muriy usuli ishlab chiqaruvchilarga ta'sir etish manbalari va yo'nalishlari bo'yicha turlicha bo'ladi. Ta'sir etishning farmoyish usullari cheklovchi hujjatlarda ko'zda tutilmagan mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda kundalik jadal menejment maqsadida qo'llaniladi. Farmoyish orqali ta'sir etishning asosiy maqsadi boshqaruv apparatining aniq harakatini, boshqaruvning barcha bo'linma va xizmatlarining barqaror ishlashini ta'minlab berishdan iborat. Ta'sir etishning farmoyish usullari buyruq, farmoyish, ko'rsatma va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Menejment samaradorligini oshirishda iqtisodiy va ma'muriy usullarning majmuaviy ishlatilishi zaruriyati ko'zda tutilgan bo'lib, aniq sharoitni hisobga olib, ishlab chiqarish jarayonida ularni maqbul ravishda bir-birlariga to'g'ri kelish talabi yuzaga keladi. Ushbu muhim masalaning yechilishi menejmentning nazariyasi va amaliyoti uchun katta ahamiyatga egadir. Korxonada turli toifadagi mehnat faoliyatining samaradorligini oshirish muammosini yechishda moddiy rag'batlantirish omilini kuchaytirish kabi menejmentning markazlashgan rejali ahamiyatini oshirish muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Ammo ma'muriy usulning korxonani boshqarishdagi ahamiyati qanchalik katta bo'lishidan qat'i nazar, hamma vaqt shuni nazarda tutish kerakki, ular boshqariluvchi tizimga birinchi turtki bo'ladilar.

## **2.7. Boshqaruvda tashkiliy tuzilmalarning roli**

Tuzilma muayyan tizimning tashkil topgan shakli, tizim elementlarining o'zaro muhim aloqalarining yaxlitligidir. Tuzilma funksional munosabatlarning umumiy qonunlariga bo'ysunadi.

Har bir murakkab tizimning bir-biriga bo'ysunishi ko'p pog'onali tarzda shakllanadi. Boshqaruvning sifati tuzilmaning yuqori halqasidan bir xil masofada uzoqlashgan va teng huquqqa ega bo'lgan tizim elementlari bilan belgilanadi. Tizim boshqaruvining funksiyasini amalga oshirish uchun maxsus tuzilma tashkil etiladi. Uning tuzilmasi boshqaruvning bir-biriga tobe bo'lgan bo'g'inlari bilan belgilanadi.

Boshqaruv tuzilmasini shakllantiruvchi elementlar bir-biri bilan uzviy aloqada bo'ladi. Boshqaruv tizimining oqilona tashkil etilgan

tuzilmasi uning samaradorligini belgilab beradi, ya'ni boshqaruv obyektining ko'p sonli elementlari aloqalarining mustahkamligini va tizim yaxlitligini ta'minlaydi. U tizim elementlarini bir butun holga keltiradi. Boshqaruv tizimining shakli va tashkiliy tomonlariga, ishni tashkil qilish usullariga, muvofiqlashtirishga ta'sir qiladi, tizim faoliyati natijasini baholashga va qiyoslashga imkon beradi.

Tuzilma boshqaruv texnologiyasiga ta'sir ko'rsatadi, axborotni oqilona tarqatish, xodimlarni tanlash va lavozimiga qo'yishdagi boshqaruv texnikalarini ishlatish bilan bog'liq vazifalarni qo'yadi. Tizimning «ichki muhitini» undagi elementlarning asosiy funksiyalari yordamida aniqlab olsa bo'ladi.

Korxonada va tashkilotlarda boshqarish samaradorligini oshirish, ularning tashkiliy tuzilmalariga, qay darajada tarkib topganligiga bog'liqdir. Tashkiliy tuzilma qanchalik mukammal, aniq, maqsadga muvofiq tuzilgan bo'lsa, boshqaruv xodimlarining faoliyati shunchalik samarali bo'ladi.

*Boshqaruv ikki uslubda amalga oshiriladi, ya'ni qo'l ostida ishlovchilarni bevosita (to'g'ridan to'g'ri) va bilvosita (to'g'ridan to'g'ri bo'lmagan holda) boshqarish mumkin.*

Boshqaruvning birinchi uslubida (to'g'ri chiziqli tuzilma) ijrochilar to'g'ridan to'g'ri bir boshliqqa bo'ysunadi va faqat undan ko'rsatmalar oladi. Bu uslub oddiy, tushunarli va mantiqlidir. Tuzilma bo'limini barcha vakolatlarga ega bo'lgan bir kishi boshqaruv funksiyalarini shaxsan o'zining zimmasiga oladi. Uning chiqargan buyruqlarini barcha xodimlar bajarishlari kerak. Bunday sharoitda jamoa faoliyatining samaradorligi oshadi. Shuni esda tutish kerakki, ushbu tamoyilda bir kishining qo'lida butun hokimlik to'planadi, rahbarning zimmasiga katta javobgarlik yuklanadi. Yuqorida turuvchi boshqaruv idorasi quyi korxonada rahbariga so'zsiz ushbu korxonada ishchilariga buyruqni bajarish haqida ko'rsatma berish huquqiga egadir.

Rahbar jamoa faoliyatining barcha tomonlariga javobgar bo'lib, boshqaruv ishlarini o'zi bajarishi lozim, shu tufayli u ba'zida me'yordan ortiqcha axborot ta'sirida bo'lib qoladi. Agar ijrochilar ko'p bo'lib, ular turli xil ishlarni bajarayotgan bo'lsalar, ularga rahbarlik qilish qiyinlashadi.

To'g'ri chiziqli boshqaruv tuzilmalarining ustuvorligi ularning oddiy-  
ligida, tashkil topishining aniqligida, tuzilma elementlarining bir-biriga

bo'lgan tobeligida va mas'uliyatliligidadir. Shu bilan birga, murakkab masalalarni yechishda paydo bo'lgan qiyinchiliklar tufayli ularni qo'llanilishi cheklangandir. Bo'linmalar o'rtasida yuzaga kelgan masalalar qiyin yechilishi, rahbarlarning ish bilan bandligi bir tekisda emasligi va juda katta yuklama bilan ishlashiga bog'liqdar.

Boshqarishning ikkinchi uslubi (funktional tuzilma) rahbar ishini ancha yengillashtiradi, chunki u barcha xodimlar bilan emas, balki o'zining o'rinbosarlari yordamida ish olib boradi. Har bir o'rinbosar funksional yo'nalish bo'yicha yuzaga kelgan ishlab chiqarish muammolarini o'z vakolati doirasida ko'rib chiqadi. Bu tuzilmada har bir o'rinbosar funksional yo'nalish bo'yicha yuzaga kelgan ishlab chiqarish muammolarini o'z vakolati doirasida malakali hal etishi kerak. Amalda ham turli xildagi funksional tuzilmalar qo'llaniladi.

Vazifaviy tarkibni an'anaviy yoki klassik tarkib deb ataydilar. Bu turdagi tarkib boshqaruvni departamentlashtirish (taqsimlash) natijasida kelib chiqqandir. U elementlarga (bo'limlarga), ya'ni ularning har biri boshqaruvda o'zining aniq vazifasiga ega, o'ziga buyurilgan vazifani bajaradi. Vazifaviy tarkib boshqaruvining ustuvorligi quyidagilardan iborat:

- ishbilarmonlik va mutaxassislik ixtisoslashuvini rag'batlantiradi. Masalan, marketing bo'yicha bu sohadagi mutaxassis o'z ishini yetuk rahbarga qaraganda yaxshi bajaradi;

- vazifaviy sohalarning muvofiqlashuvini yaxshilaydi. Xizmatchilar bu tizimga yaxshi ko'nikadilar;

- harakatlarning takrorlanishini pasaytiradi yoki butunlay bartaraf etadi va moddiy resurslar sarfini kamaytiradi.

Vazifaviy tarkibning kamchiliklari quyidagilardan iborat:

- vazifaviy bo'linmalar o'z faoliyati davomida firmaning umumiy maqsadidan chetlashishlari mumkin, chunki ular o'zlarining ichki masalalarini amalga oshirishga qiziqadilar, biroq bu hol bo'linmalar orasida o'zaro kelishmovchilikni ham keltirib chiqarishi mumkin;

- yirik tashkilotlarda buyruqlar zanjiri (tizimi) rahbardan to bajaruvchiga yetib kelguncha ancha uzoq vaqt ketadi va shu sababli samarasiz bo'lib qolishi mumkin;

- bo'linmalardan birortasi ham tashkilotning umumiy ish natijalariga javob bermaydi, ya'ni har bir bo'lim o'zicha javob beradi.

Vazifaviy tarkibni ko'proq kichik va o'rta firmalar qo'llaydi. Katta korporatsiyalar esa divizional tarkibni qo'llab keladi. «Divizional» so'zi inglizcha «division» so'zidan olingan bo'lib, u bo'linish, qism,

bo'lim ma'nosini bildiradi. Bu turdagi tarkibda tashkilotni bo'limlarga bo'lish quyidagi uchta belgi asosida kelib chiqadi, ya'ni: mahsulot; xaridorlar guruhi va geografik hudud bo'yicha. Bu bo'limlar go'yoki mustaqil tashkilotlar kabi harakat qiladi va faqatgina markaziy boshqaruv idorasiga yoki bosh firmaga, korporatsiyaga bo'ysunadi.

Divizional mahsulot tarkibining zarurati yirik firma va korporatsiyalarning o'sish, ularning yangi ishlab chiqarishi eskilaridan farqli sohalariga kirib borishi hisobiga kelib chiqadi.

Divizional tarkibning ustuvorligi quyidagilardan iborat:

- bu firma o'sishini ta'minlaydigan eng muhim usuldir;
- menejerlar erkinligining yuqori darajadali ularning ishlab chiqarish uchun javobgarligini oshiradi;
- oliy zvenodagi menejrlarni tayyorlashda yaxshi sharoitlar mavjudligi.

Divizional tarkibning kamchiliklari quyidagilardan iborat:

- bo'limlar orasidagi axborot aloqasining bo'shligi hisobiga faoliyat jarayonlarida ishlarning takrorlanishi;
- bosh korxon bilan aloqaning zaiflashuvi, buning hisobiga firma ularning faoliyatini tez-tez nazorat qila olmasligi, bu esa ishning samarasini pasaytirib, zararining ko'payishiga olib kelishi mumkin.

Agar yuqorida ko'rib chiqilgan vazifaviy va divizional tarkiblar gorizont bo'yicha bo'linishga asoslangan bo'lsa, unda muntazam tarkib boshqaruvni gorizont o'q bo'yicha bo'lishga asoslangan. Muntazam tarkib, shu kabi nomga ham egaki, uning barcha elementlari yuqori saviyadan to quyi saviyagacha gorizont bo'ysunish bo'ylab joylashgan. Har bir boshqaruv saviyasi yuqoriroqda turganiga bo'ysunadi.

Muntazam tarkib, o'z navbatida, ikki turga: yassi va ko'p saviyaliga bo'linadi.

Muntazam yassi tarkib oz saviyaga ega va katta sondagi ishlovchilar bitta rahbarga bo'ysunadi. U shakl bo'yicha oddiy hisoblanadi. Muntazam ko'p saviyalik tarkib quyi boshqarilish me'yoriga ega, ya'ni uncha ko'p bo'lmagan xizmatchilar bitta rahbarga bo'ysunadi. Bu kabi tarkib shakl bo'yicha murakkabroqdir.

Yassi va ko'p saviyalik muntazam tarkib korxonaga (firmaga, korporatsiyaga) o'rtamiyona samara beradi. Firmaning o'sishi bilan menejmentda maxsus eksport xodimlariga zaruriyat tug'iladi.

Muntazam va shtabli bo'linmalar orasidagi o'zaro munosabatlar murakkab va qoida bo'yicha hamma vaqt ham do'stona bo'lavermaydi.



Ular ham, bular ham o'zlarining ustuvorligini himoya qilishga urinadilar. Bunday munosabatlar oqibatda janjalga olib kelishi mumkin. Shtab bo'limi menejerlari o'zlarini biroz malakaliroq mutaxassis, muntazam rahbarlarga ko'rsatma berishga huquqli deb hisoblaydilar. Keyingi mansabdagilar esa, umumiy huquqlarini himoya qilishga urinadilar.

Tashkilot muammolarini vaqtinchalik hal qilish uchun loyihali tarkib tuziladi. Uning a'zolari har xil sohadagi yuqori malakali mutaxassislardan tarkib topadi. Ular murakkab loyihalarni amalga oshirish uchun bir guruhga jamlanadi. Loyiha nihoyasiga yetkazilgandan keyin tarkib tarqatilib, bir qismi yangi loyiha guruhiga qo'shiladi. Tarkibda— xizmatchilar bir vaqtda loyiha va bo'lim rahbariga bo'ysunadilar. Ko'pchilik firmalar bu kabi tarkiblarda barcha diqqat-e'tiborini innovatsiyaga, muhim texnologiyalar joriy etishga qaratadi.

Loyiha tarkibi ichida keng tarqalgan va taraqqiy etgan shakl bu matritsali tarkibdir. Matritsali tarkib ikkitali bo'ysunish, ya'ni bo'lim boshlig'i (vazifaviy yo'nalish) va loyiha rahbarini ko'zda tutadi. Loyiha rahbari loyiha strategiyasi va ish natijalariga javob beradi. Ularning ixtiyoriga moliyaviy resurslar beriladi. Vazifaviy bo'lim boshlig'i ishni tashkil qilinishida qatnashadi, ishning ketishini va bajarilish muhlatlarini nazorat qiladi, mahsulotning sotuvini amalga oshiradi.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar:***

- 1. Menejment jarayoni nimalarni o'z ichiga oladi?*
- 2. Menejment jarayoni qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?*
- 3. Qanday menejment maqsadlari mavjud?*
- 4. Menejment maqsadlariga qanday asosiy talablar qo'yiladi?*
- 5. Joriy maqsadlar deganda nimani tushunasiz?*
- 6. Istiqboldagi maqsadlar deganda nimani tushunasiz?*
- 7. Muammoli maqsadlar deganda nimani tushunasiz?*
- 8. Innovatsion maqsadlar deganda nimani tushunasiz?*
- 9. Menejment funksiyalari nimalardan iborat?*
- 10. Tashkiliy tuzilma deganda nimani tushunasiz?*
- 11. Boshqaruvda tashkiliy tuzilmalarning tutgan o'rni va ahamiyati nimadan iborat?*
- 12. Boshqaruv tashkiliy tarkibining qanday turlari mavjud?*

### **3-bob. AGROSANOAT MAJMUASI MAMLAKAT IQTISODIYOTINING KO'P TARMOQLI TIZIMI SIFATIDA**

---

#### **3.1. Agrosanoat majmuasining maqsadi, vazifalari va tarkibi**

Ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiya, texnika va uskunalar, mineral o'g'itlar, yoqilg'i va maxsus kimyoviy vositalar, kreditlar bilan ta'minlash, urug'chilik muammolarini o'rganish va yechish, mintaqaga xos urug'chilikni tashkil etish, urug' samaradorligini baholash, xo'jaliklarni urug' tayyorlovchi va saralovchi korxonalar va nav yaratuvchi muassasalar bilan aloqalarini ta'minlash, agroservisni yo'lga qo'yish va rivojlantirish, biznes maktablar, malaka oshirish markazlari, fermerlarni o'qitish kurslari faoliyatini muvofiqlashtirish va talab darajasiga yetkazish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshiradi, ko'p jihatdan boshqa tarmoqlar ishlab chiqarish faoliyatini chambarchas bog'liqligini taqozo etadi.

Bir tarmoqning pirovard mahsuloti boshqa bir tarmoq uchun ishlab chiqarish vositasi yoki xomashyosi bo'lib xizmat qiladi va uning tarmoq uchun birlamchi qayta ishlash yoki mahsulotni iste'molchiga yetkazib berish xizmatini vujudga keltiradi.

Qishloq xo'jaligi, bir tomondan, texnika, qishloq xo'jalik mashinalari, yoqilg'i moylash materiallari, zaharli kimyoviy vositalar, mineral o'g'itlar, qurilish materiallari va transport vositalari yetkazib beruvchi sanoat bilan, ikkinchi tomondan, ta'mirlovchi, saqlovchi, yetkazib beruvchi, ya'ni xizmat qiluvchi tarmoqlar va ishlab chiqaruvchilar bilan bog'langan.

Shu vaqtning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan xomashyo sifatida foydalanuvchi sanoatning oziq-ovqat, yengil, to'qimachilik kabi tarmoqlari bilan ham mustahkam aloqalari mavjud.

Sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasidagi bunday bog'liqlik qishloq xo'jaligi va sanoatga tubdan tegishli bo'lgan yagona pirovard maqsadga ega bo'lgan agrosanoat majmusining shakllanishiga sabab bo'lgan.

**Agrosanoat majmuasi** — bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarish vositalari bilan ta‘minlovchi, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash, iste‘molchiga yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyot tarmoqlari majmuasidir.

Agrosanoat majmuasining maqsadli faoliyati minimal xarajatlar hisobiga mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatni xomashyo bilan to‘laroq qondirishga qaratilgan.

Respublikada agrosanoat majmuasiga kiruvchi barcha tarmoqlarni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Respublika agrosanoat majmuasida:

— agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi barcha tarmoqlarning tashkiliy, texnologik, texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy bog‘lanishini ta‘minlash;

— majmua tarkibidagi korxonalarining faoliyat yo‘nalishlarini e‘tiborga olgan holda ularni maqsadga muvofiq oqilona joylashtirish;

— majmua tarkibidagi korxonalarining ixtisoslashuvi va integratsiyalashuvini ta‘minlash;

— majmua tarkibidagi korxonalarni zamonaviy texnikalar bilan jihozlash, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish;

— agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar ixtiyoridagi barcha resurslardan (tabiiy, kapital, mehnat) tadbirkorlik bilan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mexanizatsiyalashtirish, elektrlashtirish va kimyolashtirish;

— agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar o‘rtasida ularning mahsulotlarini o‘zaro samarali ayriboshlanishini ta‘minlaydigan narxlarni belgilash;

— majmuada faoliyat ko‘rsatayotgan rahbar, ishchi va xizmatchilarning malakalarini oshirish, ular mehnatlarining miqdoriga, pirovard natijasiga ko‘ra rag‘batlantirilishini ta‘minlash borasida katta ishlarni amalga oshirish.

### **Agrosanoat majmuasining asosiy maqsadi:**

• agrosanoat majmuasi korxonalarini intensiv rivojlantirish va shu asosda pirovard mahsulot ishlab chiqarishni o‘stirish;

• barcha tarmoq va korxonalarda mavjud resurslar potensialidan samarali foydalanish asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;

• tashqi savdo oborotining hajmini oshirish, tarkibini kengaytirish;

• mamlakatning oziq-ovqat muammosini hal qilish va oziq-ovqatga bo'lgan iste'molni ilmiy asoslangan me'yorlarga yaqinlashtirish;

• aholini qishloq xo'jalik xomashyosidan tayyorlanadigan oziq-ovqat bo'lmagan tovarlarga bo'lgan talabini qondirishdan iborat.

**1- bo'g'in** — agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jaligi mashinasozlik, traktorsozlik sanoati; kimyo sanoati; neft mahsulotlari sanoati, mikrobiologiya sanoati; oziq-ovqat mashinasozlik, stanoksozlik sanoati; qurilish materiallari sanoati va boshqalardan iborat bo'lib, bu sanoat korxonalarining asosiy maqsadi — agrosanoat majmuasi tarkibidagi, xususan, qishloq xo'jaligi va unga irrigatsiya-melioratsiya, texnika ta'minoti va ta'mirlash, kimyolashtirish, zooveterinariya, elektrlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi paxta tozalash sanoati, don mahsulotlari, meva, sabzavot, uzum sanoati, go'sht-sut sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarini va nihoyat, tayyor mahsulotlarni yetkazib berishda zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari (mashina, traktor, stanok, kimyoviy vositalar, yoqilg'ilar, ozuqa moddalari) bilan ta'minlash orqali ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik va korxonalarining moddiy-texnika bazasini barpo etishga ulkan hissa qo'shish. Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining talab darajasida shakllantirilishi natijasida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilib, mexanizatsiyalashtirilib, elektrlashtirilib, jonli mehnat sarfi qisqarib, mehnat unumdorligining ko'tarilishi ta'minlanadi. Ular shu tarmoqlardagi mehnat jarayonining o'zgarishiga ta'sir etadi, ya'ni oddiy mehnat industrilashgan mehnatga aylanib boradi. Agrosanoat majmuasining bu bo'g'ini tarkibidagi tarmoqlarda minglab korxonalar faoliyat ko'rsatib, jami ichki mahsulotning 65—70 foizi yaratilmoqda.

**2- bo'g'in** — agrosanoat majmuasining asosiy tarmog'i hisoblanib qishloq xo'jaligidan tashkil topadi. Qishloq xo'jaligining dehqonchilik hamda chorvachilik tarmoqlarida sanoat tarmoqlari uchun xomashyo (paxta, don, kanop, zig'ir, qand lavlagi, jun, teri, kunjut, uzum),

aholi iste'moli uchun esa oziq-ovqat mahsulotlari( go'sht, sut, sabzavot, poliz, meva, kartoshka mahsulotlari) yetishtiriladi.

Qishloq xo'jaligi agrosanoat majmuasining asosiy, ya'ni markaziy tarmog'i hisoblanadi. Uning barqaror rivojlanishi ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi, yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi, saqlovchi hamda iste'molchilarga yetkazib beruvchi barcha tarmoqlar faoliyatiga bog'liq. Ular qishloq xo'jalik korxonalarini barcha turdagi texnikalar, kimyoviy vositalar, yoqilg'i, qurilish materiallari, stanoklar bilan o'z vaqtida ta'minlab, mavjud qishloq xo'jalik texnikalarini arzon va sifatli ta'mirlab, tarmoqning rivojlanishini ta'minlaydigan xizmatlarni ko'rsatib, unda yetishtirilgan mahsulotlarni yig'ib-terib, qayta ishlab, iste'molchilarga sifatli holda yetkazib bersalar, qishloq xo'jaligining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan bo'ladilar. Qishloq xo'jaligining rivojlanishi natijasida majmua tarkibidagi tarmoqlarning ham kengayishi ta'minlanadi, ya'ni ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan talab ortadi. Bu talabni qondirish uchun sanoat tarmoqlari intensiv faoliyat ko'rsatish bilan ishlab chiqarish hajmining kengayishiga ham erishiladi. Tarmoqda qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmining barqaror ravishda o'sishi ularni qayta ishlovchi tarmoqlar samarali faoliyat ko'rsatishini talab etadi.

Demak, agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlar qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'liq. Shu sababli respublika qishloq xo'jaligini maqsadga muvofiq tashkil etish va zamon talabi asosida boshqarishga alohida e'tibor berilmoqda.

**3- bo'g'inga** qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi, saqlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar, jumladan, paxta tozalash, don, kanop, qand lavlagi, go'sht va sut, tamaki, sabzavot va poliz mahsulotlari, meva, uzumni qayta ishlash, yengil va boshqa sanoat tarmoqlari; bozor talabini e'tiborga olgan holda tayyor mahsulotlarni ulgurji va chakana holda yetkazib beradigan savdo tarmoqlari kiradi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining ko'payishi mos ravishda pirovard mahsulotni tayyorlash, saqlash, tashish, qayta ishlash va sotish bo'yicha tarmoqlarni rivojlantirishni talab qiladi, bu esa agrosanoat majmuasining 3-bo'g'inining rivojlanishi orqali amalga oshiriladi.

**4- bo'g'in** — qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish hamda uning rivojlanishiga xizmat ko'rsatadigan tarmoqlar, ya'ni qishloq xo'jaligi infratuzilmasi bo'lib, bu sohalarga:

– ekinlarni, chorva hayvonlarini suv bilan ta'minlaydigan, yerlarning meliorativ holatini yaxshilanishini ta'min etuvchi chora-tadbirlar tizimini amalga oshiradigan suv xo'jaligi tarmog'i;

– qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan barcha texnikalarga servis xizmati ko'rsatadigan tarmoq;

– tarmoqda yirik bino-inshootlarni quruvchi va mavjudlarini ta'mirlovchi tarmoq;

– tarmoqqa zooveterinariya xizmati, shuningdek, hasharotlarga, zararkunandalarga, begona o'tlarga qarshi kurashish maqsadida kimyoviy xizmat ko'rsatadigan tarmoq;

– qishloq xo'jaligini yoqilg'i va yog'lovchi materiallar hamda elektroenergiya bilan ta'minlaydigan tarmoqlar va shu kabi ko'plab tarmoqlar kiradi.

Bu tarmoqlar qishloq xo'jaligiga barcha turdagi ish va xizmatlarni o'z vaqtida, sifatli ko'rsatishlari natijasida turli xildagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda katta hissa qo'shadilar. Texnikalarni ta'mirlab, ekinlar ekiladigan maydonlarni agrotexnik muddatlarda sifatli haydab, ekishga tayyorlab, ekib, unib chiqqan o'simliklarga ishlov berib, yetishtirilgan hosilni belgilangan muddatlarda sifatli yig'ib olish natijasida qishloq xo'jalik mahsulotlarining miqdorini oshirishga, ularning sifatini yaxshilashga agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi bu bo'g'in korxonalari bevosita katta ta'sir ko'rsatadilar. Qishloq xo'jaligi korxonalarining mahsulotlarini oqilona, o'z vaqtida iste'molchiga yetkazib berish natijasida esa qishloq xo'jalik korxonalari foyda miqdorini ko'paytirishga erishishlari mumkin.

Bu tarmoq tarkibidagi korxonalar qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish natijasida o'z ixtiyoridagi zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyaviy yutuqlar natijasida qishloq xo'jaligida olib boriladigan barcha turdagi ish va xizmatlarni mexanizatsiyalashtirilishini, avtomatlashtirilishini, elektrlashtirilishini hamda kimyolashtirilishini ta'minlab, jonli mehnat sarfini kamaytirish evaziga mehnat unumdorligining oshishiga, sarf-xarajatlarning kamayishi hisobiga ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga sabab bo'ladi.

Agrosanoat majmuasi tarkibidagi bu bo'g'in tarmoqlarining asosiy maqsadi – qishloq xo'jaligi korxonalariga barcha turdagi xizmatlarni, ishlarni muddatida, sifatli bajarishdir.

Respublika agrosanoat majmuasini barqaror rivojlantirishda mam-lakatda mavjud bo'lgan iqtisodiy hamda ijtimoiy infratuzilmalar ulkan ahamiyatga ega. Ular agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha

tarmoqlarning rivojlanishini ta'minlash maqsadida bank, sug'urta, investitsiya, soliq, lizing, sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya, ma'naviy, madaniy, san'at, kommunal xizmatlarni amalga oshiradilar. Shuning uchun barcha majmualar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro manfaatli holda amalga oshirilgani ma'qul.

### **3.2. Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining o'zaro ishlab chiqarish munosabatlari**

Erkin bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish ta'minlanayotgan yillarda mamlakat aholisining o'rtacha soni bir yilda 310–320 ming nafarga yoki 1,3 foizga o'smoqda. Shu bilan birga sanoat korxonalari soni va ishlab chiqarish quvvatlari ham yil sayin oshib bormoqda. Bu holat respublikada xomashyo, oziq-ovqat mahsulotlari va xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarishni rivojlantirilishini taqozo etmoqda. Bu muammolarni yechish uchun, avvalo, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish hamda qayta ishlash tarmoqlarining mutanosib ravishda rivojlanishini ta'minlashga erishish, so'ngra tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va ularni iste'molchilarga yetkazuvchi tarmoqlarning tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy bog'lanishini ta'minlash lozim.

Qishloq xo'jaligini barqaror ravishda rivojlantirish va samaradorligini yuksaltirish uchun uni yangi qishloq xo'jalik mashinalari, texnikalari, transport va kimyoviy vositalar, mineral o'g'itlar, yoqilg'i hamda yog'lovchi materiallar, qurilish materiallari, ozuqa moddalari bilan to'liq va mutanosib ravishda ta'minlab, mustahkam moddiy-texnika bazasini barpo etish kerak. Demak, qishloq xo'jaligining kelajakdagi rivoji dastavval uning uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari faoliyatiga bevosita, shuningdek, agrar sohaning ravnaqi unga xizmat ko'rsatuvchi, ya'ni qishloq xo'jaligi korxonalarini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi, tarmoqdagi mashina-traktor va boshqa texnikalarni ta'mirlovchi, xo'jalik obyektlarini quruvchi, irrigatsiya-melioratsiya va kimyoviy, transport xizmatlarini bajaruvchi tarmoqlar faoliyatiga ham bog'liqdir. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi tarmoqda yetishtirilgan xomashyolar bilan aholining barcha talablarini to'liq va sifatli qondira oladigan oziq-ovqat, gazlama, kiyim-bosh, oyoq kiyim va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarining serqirra faoliyatiga ham bog'liq.

*Agrosanoat majmuasi qishloq xo'jaligining yagona takror ishlab chiqarish jarayoniga birlashgan aralash tarmoqlar majmuasi va ular o'rtasidagi munosabatlarning sifat jihatdan yangi darajadagi ko'rinishidir.*




*Agrosanoat majmuasining shakllanish asosi qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarining integratsiyasi natijasi hisoblanadi.*



Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining o'zaro ishlab chiqarish munosabatlari qishloq xo'jaligi, unga ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan, xizmat qiladigan va uning mahsulotini iste'molchiga yetkazib berish bilan shug'ullanadigan barcha tarmoqlarning iqtisodiy -ijtimoiy aloqalaridan iborat.

*Agrosanoat integratsiyasi ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishi natijasida sodir bo'ladi. Qishloq xo'jaligining tarmoqlararo mustahkam aloqasi ham shu asosda o'rnatiladi. Ana shundan, ishlab chiqarish — texnikaviy, agrokimyo xizmati, meliorativ ishlar, veterinariya xizmati kabi tarmoq va korxonalarining vazifalari kelib chiqadi.*



*Qishloq xo'jaligini agrosanoat majmuasining boshqa tarmoqlari bilan mahsulotni sotish va qayta ishlash sohasidagi aloqalari yanada kuchayadi.*





Ko'p tarmoqli ishlab chiqarish tizimining samarali faoliyati resurslar ta'minotiga, ular ko'lamining kengayishiga, mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo'yicha tarmoqlarning moslashuviga, pirovard natijani maqsad qilib qo'ygan agrosanoat majmuasi tarmoqlarining faoliyatiga bog'liq.

Agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalarda ishlab chiqariladigan har bir oraliq mahsulotni ishlab chiqarish hajmini, shu mahsulotni iste'mol qiluvchi korxonalar va tashkilotlarning talabi bilan aniqlanadi, bu bilan butun bir majmuani rivojlantirishning zaruriy mutanosibligi va bir tekisligi ta'minlanadi.

Ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, o'z mahsulotlarini qishloq xo'jaligiga va qayta ishlovchi korxonalarga yetkazib beradilar. Ularning e'tibori nafaqat majmuaning har bir bo'g'inining talabini qondirishga, balki ularning agrosanoat ishlab chiqarishining bosqichlari bo'yicha nisbatlarining optimalligini ta'minlashga ham qaratilgandir. Aks holda, agrosanoat majmuasi rivojlanishida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashish, saqlash va iste'molchiga yetkazib berish jarayonida katta yo'qotishlarga olib keluvchi nomutanosiblik kelib chiqar edi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini tayyorlashni, saqlashni va qayta ishlashni amalga oshiruvchi agrosanoat majmuasi uchinchi bo'g'ini tarmoqlari moddiy-texnika bazasini takomillashtirishni talab etadi. Ishlab chiqarish vositalarini yetkazuvchi tarmoqlar dehqonchilik va chorvachilik bilan tarmoqlararo aloqalarda optimal nisbatga rioya qilishlari zarur.

Agrosanoat majmuasi tarmoqlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar mahsulot va xizmatlarga obyektiv o'rnatiladigan baholarning optimal darajasi yordamida amalga oshiriladi. Sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari baholari o'rtasidagi farq natijasida me'yoriy iqtisodiy aloqalar va ishlab chiqarish hajmining o'sishi, pirovard mahsulotni sotish qiyinlashadi.

Agrosanoat ishlab chiqarishida tarmoqlar va ular tarkibidagi korxonalarining o'zaro aloqadorligi:

- agrosanoat majmuasining barcha bo'g'inlari tarkibidagi korxonalar uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi;
- qishloq xo'jaligi xomashyosidan tayyorlanadigan iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish;
- tezkor ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga ishlab chiqarish-texnikaviy va texnologik xizmat ko'rsatish;

– pirovard mahsulotni sotish bilan belgilanadi.

U yoki bu tarmoqni agrosanoat majmuasiga tegishlilikini aniqlash ancha murakkab masala bo‘lib, sanoatning ayrim tarmoqlari qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatadi. Ko‘pchiligi esa qishloq xo‘jaligi uchun qisman mahsulot ishlab chiqaradi.

Agrosanoat majmuasini yagona bir tizim shaklida xarakterlab shuni ta’kidlash lozimki, qishloq xo‘jaligi sanoat, qurilish, transport, savdo va xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari bilan doimo mustahkam aloqada bo‘lib kelgan.

Respublika fuqarolarining tayyor oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘liq qondirilishi barcha tarmoqlarga turli xildagi ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi, unga xizmat ko‘rsatuvchi, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlab, tayyor mahsulot darajasiga yetkazuvchi va ularni iste’molchilarga yetkazib beruvchi barcha tarmoqlarning texnikaviy, texnologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy bog‘lanishini obyektiv holda taqozo etadi. Shuning uchun ular maqsadga muvofiq ravishda joylashtirilib, ixtisoslashtirilib, xalq xo‘jaligi miqyosida mehnat taqsimotini amalga oshirilishini ta’minlashlari zarur. Tarmoqlar yagona maqsad yo‘lida o‘zaro bog‘lanishlari natijasida respublika agrosanoat majmuasi shakllanadi.

### **3.3. Agrosanoat majmuasining mamlakatni oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni**

Mamlakat agrosanoat majmuasining asosiy maqsadi — aholini sifatli oziq-ovqat va xalq iste’moli tovarlari bilan talab darajasida ta’minlashdir. Bu muammo ulkan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning talab darajasida hal etilishi aholining turmush darajasini yuksaltiradi, farovon yashashini ta’minlaydi.

Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakatni mavjud salohiyatlar, resurslar bilan ta’minlash va aholini ichki va tashqi sharoitlarga bog‘liq bo‘lmagan holda, ilmiy jihatdan asoslangan tibbiy me‘yorlar darajasida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashni kafolatlashdir.

***Oziq-ovqat bilan o‘zini-o‘zi ta’minlash*** — bu davlatning ichki ehtiyojini oziq-ovqatning barcha turlari hamda alohida mahsulot turlari bilan ta’minlash, qoplash qobiliyatidir.

Oziq-ovqat xavfidan keladigan iqtisodiy zarar bevosita va bilvosita yo‘qotishlardan iborat bo‘lib, u quyidagilar bilan bog‘liq:

– ta'minlovchi tarmoqlar va agrosanoat majmuasi tarmoqlari faoliyatlarining buzilishi;

– oziq-ovqat mahsulotlari baholarining oshishi bo'yicha import to'lovlari;

– mehnatga yaroqli aholining kamayishi hisobiga mehnatning iqtisodiy samaradorligining pasayishi;

– oziq-ovqat qaramliligi va oziq-ovqat mustaqilligi.

Mamlakatda oziq-ovqat qaramliligi shunday holatda vujudga keladiki, unda jamiyat o'zining oziq-ovqat xavfsizligini o'zi mustaqil hal qilish qobiliyatiga ega bo'lmaydi. U qishloq xo'jaligi, sanoat va transport kabi tarmoqlar majmuining buzilishiga, shuningdek, zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari importiga mamlakat iqtisodiyotining to'lov qobiliyati yo'qolishiga asosiy sabab bo'ladi. Oziq-ovqat qaramlili-gining paydo bo'lishi uchun asosiy sharoit davlatning xususiy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlamasligi va oziq-ovqat mahsulotlari importining haddan tashqari kupayib ketishida ifodalanadi.

Oziq-ovqat mustaqilligi bu aholini o'rnatilgan ovqatlanish me'yorlari bo'yicha oziq-ovqatlar bilan ta'minlash uchun energiya, yer resurslari, qishloq xo'jaligi mashinalari, moddiy resurslarning strategik zaxiralari-ning mavjudligidir. Uni amalga oshirish uchun agrosanoat majmuasi aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari turlariga bo'lgan talabini zaruriy miqdorda va assortimentda mustaqil ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va ta'minlashga qodir bo'lishi kerak.

### **Oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasi:**

– *agrosanoat majmuasi mehnat resurslariga nisbatan proteksionistik tadbirlarni o'tkazish va aholining turli qatlamlari uchun davlat ta'minotiga erishish;*

– *ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va oziq-ovqat mahsulotlarini taqsimlashda mehnat resurslarining optimal balansini qo'llab-quvvatlash;*

– *agrosanoat majmuasini energiya va resurslarni tejaydigan texnologiyalarga yo'naltirish;*

– *agrosanoat majmuasi faoliyati ta'minoti va davlat boshqaruv tizimlarining to'g'ri harakat qilishi.*

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi davlatning oziq-ovqat xavfsizligiga ham bog'liq. Chunki mamlakat miqyosida oziq-

ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi unga bo'lgan mamlakat ehtiyojini tashqi omillarga (xorijiy davlatlarga) bog'lanmagan holda ta'minlashi lozim. Shuning natijasida mamlakat miqyosida siyosiy iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan davrda uning un va un mahsulotlariga bo'lgan talabi, asosan, respublikaga chetdan keltiriladigan mahsulotlar evaziga qondirilardi.

Bu holatni respublika mustaqilligi davrida saqlab qolish mutlaqo maqsadga muvofiq emas edi. Respublikada o'tish davrining birinchi yillaridan boshlab g'alla mustaqilligi siyosati izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Bunga erishish uchun samarali hisoblangan paxta xomashyosi ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga harakat qilindi.

2009-yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8,1 foizni tashkil etgan holda qishloq xo'jaligidagi o'sish 5,7 foizni tashkil etdi, mamlakatimizda ilk bor 7,3 million tonnadan ortiq don, shu jumladan, 6 million 600 ming tonna bug'doy yetishtirildi. «Ikkinchi non» hisoblangan kartoshka yetishtirish ham rivojlantirildi. Hozirgi davrda mahsulotning bu turi chet eldan sotib olinayotgani yo'q. Respublika aholisining go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, yog' mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasini tibbiy me'yorlar darajasiga yetkazish borasida katta ishlar qilinmoqda. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari bosh sonini ko'paytirishni rag'batlantirish, servis xizmatlari tarmog'ini tashkil etish va chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar dasturining amalga oshirilishi natijasida tarmoqni majmuaviy rivojlantirishda ijobiy siljishlar qayd etilmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasini hal etish maqsadida agrosanoat majmuasining markaziy bo'g'ini hisoblangan qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarini intensiv rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Bunda chorvachilik tarmoqlarini ustuvor sur'atlarda rivojlantirishga harakat qilinmoqda. Parrandachilikni sanoat negizida rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Qoramolchilik, qo'ychilik bilan shug'ullanadigan nodavlat korxonalarini uchun har tomonlama iqtisodiy imkoniyatlar yaratilmoqda. Ularni moliyaviy mablag'lar bilan barqaror ravishda ta'minlash maqsadida imtiyozli kreditlar berish yo'lga qo'yilmoqda, soliq imtiyozlari berilmoqda, ularning ishlab chiqarishlari uchun zarur bo'lgan chet ellardan keltirilayotgan vositalar bojxona

to'lovlaridan ozod etilmoqda. Bularning hammasi xalq iste'moli mollari miqdorini ko'paytirishga yo'naltirilgan tadbirlar hisoblanadi.

Aholining oziq-ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan ta'minlanishini yuksaltirish uchun, eng avvalo, agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, fan-texnika yangiliklari hamda ilg'or, samarali texnologiyalar ishlab chiqarishga izchil joriy etilishi o'zaro bog'liq holda ta'minlanishi zarur. Shu bilan birga majmua tarkibidagi qayta ishlash tarmoqlari ko'lamini kengaytirib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini ko'paytirib, ularning raqobatbardoshligini ta'minlab, sifatli saqlab aholiga o'z vaqtida yetkazib berishga erishish lozim.

***Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammolarini hozirgi zamon talabi darajasida hal etish uchun:***

- agrosanoat majmuasi tarkibidagi mashinasozlik, neft, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlarini, qishloq xo'jaligini va uning mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlarni arzonroq, sifatli, unumdor ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash;

- qishloq xo'jalik tarmoqlari mavjud bo'lgan barcha ishlab chiqarish vositalaridan oqilona foydalangan holda aholi talabini qondiradigan miqdorda sifatli mahsulotlarni yetishtirish;

- qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishini ta'minlash maqsadida ularga turli xildagi xizmatlarni vaqtida, sifatli va arzon narxlarda amalga oshirish;

- texnikalar, kimyoviy vositalar, o'g'itlar, ozuqa-yem, yoqilg'i, ekinlarni suv bilan ta'minlash;

- qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni nobud etmasdan vaqtida, sifatli tayyorlab, qayta ishlab, tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berilishini ta'minlash lozim. Mahsulotlarni sotib olib, qayta ishlash korxonalari ko'lamini rivojlantirishga alohida e'tibor berish, Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganlaridek, qishloqqa sanoatni olib kirish;

- respublika agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar o'rtasidagi barcha o'zaro munosabatlarni (baholar, soliqlar, to'lovlar) takomillashtirishga va ularni erkinlashtirishga qaratilgan tadbirlarni hamma bo'g'inlarda ishlab chiqish, ularning hayotga tatbiq etilishini ta'minlashga erishish kerak.

Bu tadbirlar tufayli aholining oziq-ovqat hamda iste'mol tovarlari bilan tibbiyot me'yorlari darajasida ta'minlanishiga erishiladi. Bu holat

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi ta‘minlanganligidan dalolat beradi.

### **3.4. O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasini boshqarish tizimi**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha turdagi erkin munosabatlarning huquqiy asosi yaratilishi zarur. Shuning uchun ham respublikamizda bu masalaga alohida e‘tibor berilmoqda. Bunga mamlakat Oliy Majlisi tomonidan qonunlar bosqichma-bosqich qabul etilayotganligi yaqqol dalil bo‘ladi. Ularga agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha xo‘jaliklar rioya etishlari lozim. Shuning uchun ulardagi rahbar va mutaxassislar barcha qonunlarning mazmunini hamda ularni amalga oshirish yo‘llarini yaxshi bilishlari kerak.

Respublikada agrosanoat majmuasini boshqarishdan maqsad uni samarali rivojlantirish, har bir soha, tarmoq va ishlab chiqarish xodimlariga me‘yoriy sharoitlarni ta‘minlash, zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdan iboratdir. Bu mehnat, moddiy resurslaridan foydalanishni yaxshilash, ishlab chiqarishdagi shikastlanishlarni, xodimlar kasallanishini kamaytirish bilan karakterlanadi.

Agrosanoat majmuasiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarda ijtimoiy-madaniy obyektlarni qurish, ishlash va dam olishga ijtimoiy sharoitni yaxshilash, kadrlarni takror ishlab chiqarish uchun imkoniyatlarni yaratish hozirgi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish muammosi strategik ahamiyatga ega bo‘lib, uni faqat ilmiy asosda yechish mumkin. Raqobat strategiyalari konsepsiyasi ilmiy ishlab chiqilmasa, shuningdek, davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko‘rsatilmasa, agrar sektorda mahsulotni takror ishlab chiqarish jarayoni sust kechadi va muqarrar tarzda raqobatbardoshlik va oziq-ovqat xavfsizligining yo‘qolishi, agrosanoat majmuasi mahsulotlari narxlarining nomutanosibliigi kabi salbiy oqibatlariga sabab bo‘ladi.

Agrosanoat majmuasini rivojlantirish uchun davlat yordamini oshirish, yangi texnologiyalar va texnikani joriy etish, xarajatlarni kamaytirish, mehnatga haq to‘lash darajasini oshirish, ichki narxlar va jahon narxlarini o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish borasida mamlakatimizda katta ishlar qilinmoqda.

**Agrosanoat majmuasining rivojlanishi, majmua tarkibidagi korxonalarining ko'payishi, bir necha masalalarning ijobiy hal etilishini ta'minlaydi:**

- qishloq hududlarida ishga yaroqli kishilarni ish bilan ta'minlash;
- tayyor bozorbop mahsulotlarni ko'proq ishlab chiqarish;
- chiqimsiz texnologiyalarni joriy etish;
- xo'jaliklarning pul tushumlarini ko'paytirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarining nobudgarchiligini kamaytirish.

Agrosanoat majmuasi tuzilmalarining ustunligini ta'minlashning strategik jihatdan muhim manbalaridan biri bu innovatsion takror ishlab chiqarishdir. U hozirgi zamon strategik tadbirkorligining o'zagini tashkil etadi. Agrosanoat majmuasi bozorining haqiqiy bo'lishi, xaridorlar va sotuvchilar uchun foydali innovatsion tovarlar hamda ularga bo'lgan talabni o'z ichiga olishi uchun bozor kuchlari shakllanishiga shart-sharoit yaratish va ularning raqobatini institutsional ta'minlash lozim.

Respublika hukumatining eng muhim vazifalaridan biri aholining iste'mol tovarlariga nisbatan o'sib borayotgan talabini qondirishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 27-yanvardagi «2009-yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi to'g'risida»gi 1048-son qaroriga muvofiq qishloq va suv xo'jaligi tizimidagi korxonalar o'z faoliyatlarini kundan kunga kengaytirmoqdalar. Aholini oziq-ovqat hamda nooziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlanishi natijasida ularning farovon hayot kechirishlari uchun asos yaratiladi. Bu muammoni agrosanoat majmuasi hal etadi. Agrosanoat majmuasida barcha tarmoqlar o'zaro integratsiyalashuvi hamda ixtisoslashishi natijasida aholining ikki xil ehtiyojini qondiradigan mahsulotlar ishlab chiqarilib, iste'molchilarga yetkazib berilishi zarur. Bular:

– birinchisi, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish. U oziq-ovqat mahsulotlari majmuasini tashkil etadi. Unga non va non mahsulotlari, qandolat, shakar, go'sht va go'sht mahsulotlari, choy, uzum vinosi, konyak, aroq, turli xildagi konservalar va boshqa mahsulotlar kiradi. Bu oziq-ovqat mahsulotlari inson organizmi uchun zarur moddalarni berib, uning sog'lom o'sishini ta'minlaydi.

– ikkinchisi, agrosanoat majmuasi aholi uchun hayot kechirish jarayonida foydalaniladigan tovarlarni ishlab chiqaradi. U xalq iste'moli

mollari majmuasini tashkil etadi. Unda oyoq kiyimi, kiyim-bosh, gazlamalar, sanoat spirti, texnika yog‘lari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Majmua rivojlanishi bilan aholining yashash sharoiti o‘zgaradi. Bu yerda aholining zarur bo‘lgan boshqa buyumlar, vositalar, shuningdek, uy-joy bilan ta‘minlanishi, unga turli xildagi xizmatlar ko‘rsatilishi va boshqalar ham e‘tiborga olinishi kerak.

***Nazorat va muhokama uchun savollar:***

- 1. Nima uchun agrosanoat majmuasi milliy iqtisodiyotning ko‘p tarmoqli tizimi hisoblanadi?*
- 2. Agrosanoat majmuasining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?*
- 3. Agrosanoat majmuasi tarkibiga nimalar kiradi?*
- 4. Agrosanoat majmuasining rivojlanishini qanday ko‘rsatkichlar ifodalaydi, ular qanday aniqlanadi?*
- 5. Agrosanoat majmuasining respublika iqtisodiyotidagi o‘rni qanday?*
- 6. Nima uchun qishloq xo‘jaligi agrosanoat majmuasining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi?*
- 7. Agrosanoat majmuasining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdagi o‘rni qanday?*
- 8. Agrosanoat majmuasini shakllantirishning zarurligi nimada?*



## **4-bob. QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARI FAOLIYATINING TASHKILY IQTISODIY ASOSLARI**

---

### **4.1. Fermer xo‘jaligi faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari**

*Fermer xo‘jaligi o‘ziga tanlov asosida va ijara shartnomasiga ko‘ra uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar mahsulotlari ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, yuridik shaxs huquqlariga ega bo‘lgan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.*

**Fermer xo‘jaligi** tuman (shahar) hokimligida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomini oladi va o‘z nomidan shartnomalar tuzish, mulkiy va mulkiy tusda bo‘lmagan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish, shuningdek, bank muassasasida hisob raqami ochish, muhr, shtamp va boshqa rekvizitlarga ega bo‘lish huquqini oladi, sudda da‘vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

**Fermer xo‘jaligi** davlat majburiyatlari yuzasidan, davlat esa fermer xo‘jaliklari yuzasidan javob bermaydi.

**Fermer xo‘jaligi** o‘z majburiyatlari bo‘yicha, shu jumladan, tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq nazarda tutilgan hajmlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetkazib berishni ta‘minlash, shuningdek, yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslari va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun o‘z vaqtida haq to‘lash yuzasidan majburiyatlari bo‘yicha qonun hujjatlariga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan mol-mulki bilan javob beradi.

Fermer xo‘jaligining mol-mulki daxlsizdir va uning davlat organlari tomonidan olib qo‘yilishiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari holatlarda yo‘l qo‘yilmaydi.

### **Fermer xo‘jaligining maqsadi, vazifalari va faoliyati**

Tovar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish yo‘li bilan daromad (foyda) olish, o‘zining ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish fermer xo‘jaligining maqsadi hisoblanadi.

Fermer xo'jaligining faoliyat sohasidagi vazifalari quyidagilardan iborat:

- ajratilgan yer va suv resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanilishini ta'minlash;
- tuproq unumdorligini saqlash va oshirish hamda yerlarni muhofaza qilish;
- mustaqil ravishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash va sotish, shuningdek, xizmatlar ko'rsatish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, shuningdek bozorlarda, shu jumladan, o'z savdo shoxobchalari orqali sotish;
- tijorat faoliyati va marketing tadqiqotlarini tashkil qilish;
- yuridik va jismoniy shaxslarga pulli xizmatlar ko'rsatish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
- faoliyatning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turlarini amalga oshirish.

**Fermer xo'jaligi quyidagi huquqlarga ega:** fermer xo'jaligi yuridik shaxs sifatida mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektning barcha huquqlariga ega bo'ladi. Fermer xo'jaligi tadbirkorlik shakllaridan biri bo'lib, tashkil etilishidan ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga haqlidir. Fermer xo'jaligi xo'jalik yuritishning boshqa shakllaridagi korxonalar bilan teng huquqlarga ega, jumladan:

- nizomda nazarda tutilgan doirada va ijara shartnomasida belgilangan ixtisoslashuvga muvofiq fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini o'ziga berilgan yer uchastkasida mustaqil tashkil etish;
- yetishtirilgan mahsulotni sotish yuzasidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan, shu jumladan, davlat ehtiyojlari uchun sotish yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq xo'jalik shartnomalarini tuzish;
- xarid qilinadigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan f'yuchers bitimlari tuzish;
- o'zi yetishtirgan mahsulotga egalik qilish, uni o'zi xohlagan iste'molchilarga sotish;
- yetishtirilayotgan mahsulotga va xizmatlarga shartnoma shartlarida mustaqil ravishda narx belgilash;
- qishloqqa xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan elektr energiyasi, yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar, o'simliklarni kimyoviy

himoya qilish vositalari yetkazib berish, xizmatlar ko'rsatish yuzasidan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzish;

– tadbirkorlikdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq solinadigan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;

– olingan daromad (foyda) dan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanish, bank hisob raqamidagi o'z mablag'larini mustaqil ravishda tasarruf etish;

– aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish;

– kreditlar olish, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning mulki hamda mablag'larini ixtiyoriylik asosida va shartnoma shartlariga muvofiq jalb qilish hamda ularni ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirish;

– kredit olish uchun yer uchastkasidan foydalanishni, ijaraga berish huquqi va yetishtirilgan mahsulotni garovga qo'yish;

– kichik va xususiy korxonalar uchun berilgan imtiyozlarning barcha turlaridan foydalanish;

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xodimlarni ishga yollash (doimiy va vaqtinchalik asosida) va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qilish;

– zarur asbob-uskunalar, ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, ijaraga olish, bino va inshootlar qurish hamda ularni ta'mirlash, shuningdek, ulardan mustaqil foydalanish;

– ixtiyoriy ravishda birlashish, shu jumladan, ulush (pay) asosida birlashish, jamiyatlar, ittifoqlar, uyushmalar hamda boshqa birlashmalarga kirish;

– o'z huquqlarini himoya qilish uchun o'z faoliyatining har qanday masalalari bo'yicha sudga murojaat qilish.

Fermer xo'jaligi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlardan ham foydalanadi.

### ***Fermer xo'jaligi quyidagi majburiyatlarga ega:***

– yer uchastkasidan ijara shartnomasida belgilangan maqsad va shartlarda maqsadli, samarali va oqilona foydalanilishini ta'minlash;

– ekologiya talablariga va atrof-muhitni muhofaza qilishning boshqa qoidalariga rioya etish;

– yerning meliorativ holatini yaxshilash va yer uchastkasining unumdorligini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, biznes-rejalarda ushbu maqsadlar uchun mablag'lar ajratilishini nazarda tutish;

- yer uchastkasidan, basharti ijara shartnomasida boshqa muddat belgilangan bo‘lmasa, bir yil mobaynida foydalanish;
- paxta va g‘allani navlar bo‘yicha joylashtirishning belgilangan talablariga rioya qilish;
- suvdan limit asosida foydalanish to‘g‘risidagi shartnomaga muvofiq suv resurslaridan foydalanish;
- xo‘jalik ichki melioratsiya tarmog‘ini tozalash va ta‘mirlash;
- yer uchastkasidan foydalanish shartlariga va servitutlarga rioya etish;
- fermer xo‘jaligining majburiyatlari va qarzlari yuzasidan to‘liq javob berish;
- tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq nazarda tutilgan hajmlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetkazib berishni ta‘minlash;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lash;
- yetkazib berilgan elektr energiyasi, yonilg‘i-moylash materiallari, mineral o‘g‘itlar, o‘simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun o‘z vaqtida hisob-kitob qilish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va boshqa mahsulotlar yetishtirishda standartlar talablariga rioya qilish;
- qishloq xo‘jaligi zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurash olib borish.

Fermer xo‘jaligi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham o‘z zimmasiga oladi.

### **Fermer xo‘jaligining Nizom fondi, mol-mulki va uni shakllantirish manbalari**

Nizomda fermer xo‘jaligining nomi, joylashgan joyi va ixtisoslashuvi, shuningdek, xo‘jalik muassisining pasportiga oid ma‘lumotlar ko‘rsatiladi.

Fermer xo‘jaligining nizomi qonunda belgilangan tartibda o‘zgartirilishi mumkin hamda tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan tuman (shahar) hokimligida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

Nizomda fermer xo‘jaligining mol-mulki, pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, boshqa mol-mulki yoki fermerning mulkiy huquqlari hisobiga shakllantiriladigan Nizom fondining miqdori ko‘rsatiladi.

Agar fermer xo‘jaligi rahbari fermer xo‘jaligining Nizom fondini shakllantirishda uning oilasining umumiy (ulushli yoki birgalikdagi)

mol-mulkini fermer xo'jaligiga bergan taqdirda, ushbu mulk egalarining notarial tasdiqlangan roziligini olish talab qilinadi.

***Fermer xo'jaligi:***

– o'ziga qarashli xo'jalik imoratlari, qishloq xo'jalik ekinzorlari va ko'chatzorlari, dov-daraxtlar, mahsuldor chorva mollari, parrandalar, qishloq xo'jaligi texnikasi, inventar, asbob-uskunalar, transport vositalari, pul mablag'lari, intellektual mulk obyektlari, shuningdek, fermer xo'jaligi balansida bo'lgan boshqa mol-mulkning;

– ishlab chiqarish faoliyati natijasida yetishtirilgan mahsulotning;

– olingan daromad (foйда)ning;

– qonunda taqiqlanmagan asoslarda olingan boshqa mol-mulkning egasi hisoblanadi.

***Fermer xo'jaligini boshqarish.*** Fermer – fermer xo'jaligining muassisi, fermer xo'jaligining rahbari hisoblanadi. U o'n sakkiz yoshga to'lgan, muomalaga layoqatli, qishloq xo'jaligida tegishli malaka oshirgan va ish tajribasiga ega bo'lishi kerak.

***Fermer xo'jaligining rahbari:***

– fermer xo'jaligi nizomini qabul qiladi va unga belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritadi;

– fermer xo'jaligi faoliyatining biznes-rejasini tasdiqlaydi;

– fermer xo'jaligi faoliyatini tashkil qiladi;

– yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda fermer xo'jaligi nomidan ish ko'radi;

– ishonchnomalar beradi, shartnomalar tuzadi va ularning bajarilishini ta'minlaydi, shuningdek, fermer xo'jaligi xodimlari bilan mehnat shartnomalarini imzolaydi;

– fermer xo'jaligi xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

– ichki mehnat tartibi qoidalarini belgilaydi;

– daromadni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etadi;

– xodimlarning xavfsiz hamda unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratib beradi;

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat daftarchalari yuritilishini tashkil etadi, ish haqining to'lanishini ta'minlaydi, mehnatga haq to'lash miqdorini va moddiy rag'batlantirish usullari va intizomiy jazo choralarini belgilaydi;

– fermer xo'jaligi nomidan hujjatlarni imzolaydi;

– fermer xo'jaligini qayta tashkil etish va tugatish masalalarini hal etadi.

## **Fermer xo'jaligida yerdan va suvdan foydalanish**

Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkalari tanlov asosida ijaraga beriladi. Ijara muddati qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Yer uchastkasining ijara muddati tamom bo'lgandan keyin fermer xo'jaligi ijara shartnomasini yangi muddatga uzaytirish (muddatini cho'zish) huquqiga egadir.

Fermer xo'jaligi rahbari vafot etgan taqdirda, yer uchastkasiga ijara huquqi va ijara shartnomasini yangi muddatga uzaytirish (muddatini cho'zish) huquqi qonun hujjatlariga muvofiq meros bo'yicha o'tadi.

Fermer xo'jaliklarining yer uchastkalaridan foydalanish huquqi O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi», «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yer uchastkalarining o'lchami va chegaralari yer ijarasi shartnomasiga o'zgartirishlar kiritilgandan keyingina o'zgartirilishi mumkin.

Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkalari xususiylashtirilishi, oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash, garov obyekti bo'lishi, shuningdek, ikkilamchi ijaraga berilishi mumkin emas.

Fermer xo'jaligiga ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi yerlari maqsadsiz foydalanilganda, shu jumladan, shartnomada nazarda tutilgan qishloq xo'jaligi ekinlari o'rniga boshqa ekinlar ekilishi ijara shartnomasini qo'pol ravishda buzish hisoblanadi, bu qonun hujjatlarida nazarda tutilgan oqibatlariga olib keladi.

Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkasidan foydalanganlik uchun to'lanadigan haq yagona yer solig'i tariqasida undiriladi.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaligi xo'jalikning biznes-rejasida nazarda tutilgan kamida 30 shartli bosh chorva mollarini boqish shartlari bilan tashkil etiladi. Bunda shartli ravishda har bir bosh mol hisobiga quyidagi koeffitsientlardan foydalaniladi: qoramollar va otlar uchun — 1,0 yosh, qoramollar uchun — 0,6 qo'y va echkilar uchun — 0,1, cho'chqalar uchun — 0,3 hamda parrandalar uchun — 0,025.

Fermer xo'jaligiga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami har bir shartli bosh chorva moliga hisoblanganda:

– Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlaridagi sug‘oriladigan yerlarda – kamida 0,30 gektarni;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlaridagi sug‘oriladigan yerlarda – kamida 0,45 gektarni;

– sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda – kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashayotgan fermer xo‘jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami:

– paxtachilik va g‘allachilik uchun kamida – 10 gektarni;

– bog‘dorchilik va uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlar yetishtirish uchun – kamida 1 gektarni tashkil qiladi.

Yer uchastkasi fermer xo‘jaligiga imkoni boricha yagona mavze bo‘yicha, konturlar yaxlitligi saqlab qolingan holda beriladi, uchastka chegaralari sug‘orish tarmoqlari, kollektorlar, yo‘llar va boshqa elementlar bo‘yicha belgilanadi.

Fermer xo‘jaligiga berilayotgan yer uchastkasi boshqa yerdan foydalanuvchilarning yerlardan foydalanishi uchun noqulayliklarni vujudga keltirmasligi kerak.

Fermer xo‘jaliklarining suvdan foydalanish limitlari vakolatli organlar tomonidan belgilanadi va suv sarfini hisobga olish hamda undan foydalanish, suv yetkazib berish, xizmatlariga haq to‘lash, shuningdek, imtiyozlar berish tartibi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

### **Fermer xo‘jaligida mehnat**

Fermer xo‘jaligining faoliyati fermerning va mehnat shartnomasi bo‘yicha unda ishlovchi shaxslarning shaxsiy mehnatiga asoslanadi, mehnat faoliyati hisobini yuritish fermer xo‘jaligi rahbari tomonidan tashkil etiladi va haq to‘lash qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqidan kam bo‘lmagan miqdorda, tomonlarning kelishuviga binoan ham pul tarzida, ham natura tariqasida to‘lanadi.

Fermer xo‘jaligida ishlangan vaqt mehnat stajiga qo‘shiladi. Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalar tayinlash hamda to‘lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda amalga oshiriladi.

## **Fermer xo'jaligining mablag'lari va hisob-kitoblari**

Fermer xo'jaligi pul muomalasini yuritish hamda pul mablag'larini saqlab turish va bu mablag'larni erkin tasarruf etish uchun bank muassasasida hisob raqamlari ochish huquqiga ega. Fermer xo'jaligining hisob raqamidan mablag'larni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobdan chiqarish mumkin.

Qishloq xo'jaligi ekinlari, shu jumladan, paxta va g'alla hosili uchun sarflangan barcha xarajatlar fermer xo'jaligining mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlari hisobiga qoplanadi.

Fermer xo'jaliklari elektr energiyasi, yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar yetkazib beruvchilar va fermer xo'jaliklariga xizmatlar ko'rsatuvchilar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilishlari shart.

## **Daromad (foyda)ni taqsimlash va zararlarni qoplash tartibi**

Fermer xo'jaligining ishlab chiqarish va boshqa faoliyati natijasida olingan daromad (foyda) soliqlar, yig'imlar hamda boshqa majburiy to'lovlar to'langandan, elektr energiyasi, yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar, o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari yetkazib beruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar bilan o'z vaqtida va to'liq hisob-kitob qilingandan keyin butunlay fermer xo'jaligining ixtiyoriga o'tadi.

Shartnoma shartlari bajarilmaganligi natijasida fermer xo'jaligiga yetkazilgan zarar uning mol-mulki va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi.

## **Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishning asosiy bosqichlari**

- 1991–1998-yillarda fermer xo'jaliklarini tashkil etish va faoliyat yuritishining asosiy me'yoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqildi.
- 1999–2002-yillarda zarar bilan faoliyat ko'rsatayotgan shirkat xo'jaliklarini tugatish, ular negizida fermer xo'jaliklarini tashkil etish jarayoni rivojlandi.
- 2003-yildan fermer xo'jaliklarini ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish belgilandi.



• 2008-yilda fermer xo‘jaliklarining yer uchastkalarini maqbul-lashtirish jarayoni amalga oshirilib, ularning iqtisodiy barqaror faoliyat ko‘rsatishiga zamin yaratildi.

***Qishloq xo‘jaligida fermer xo‘jaliklarini yiriklashtirishda e‘tiborga olingan omillar:***

– yer maydonlari kichik bo‘lgan va ulardan oqilona foydalanil-magan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarida oxirgi 3 yil davomida belgilangan kadastr bahosidan past hosil yetishtirgan, tuproq unumdorligining pasayishiga yo‘l qo‘ygan;

– qonunda belgilangan muddatlarda yagona yer solig‘i, boshqa turdagi soliqlar va to‘lovlarni muntazam ravishda to‘lamagan hamda yirik miqdorda qarzdor bo‘lgan;

– davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo‘jalik ekinlarini to‘liq hajmlarda ekmagan va ular bo‘yicha tuzilgan shartnomaviy majburiyatlarni surunkasiga bajarmagan;

– mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanmagan, irrigatsiya-melioratsiya va boshqa agrotexnik tadbirlarni o‘z muddatida hamda sifatli bajarmagan fermer xo‘jaliklari bilan tuzilgan yer ijara shartnomasi bekor qilindi.

#### **4.2. Dehqon xo‘jaligi faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari**

*Dehqon xo‘jaligi oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiradi va realizatsiya qiladi.*

**Dehqon xo‘jaligi** faoliyati tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a‘zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

**Dehqon xo‘jaligi** o‘z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

Dehqon xo‘jaliklarini tashkil etish, ularning faoliyati va tugatilishi bilan bog‘liq munosabatlar dehqon xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari hamda boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Dehqon xo'jaligi a'zolari jumlasiga birgalikda yashayotgan va dehqon xo'jaligini birgalikda yuritayotgan oila boshlig'i, uning xotini (eri), bolalari, shu jumladan, farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olgan bolalari, ota-onalari, mehnatga qobiliyatli yoshga yetgan boshqa qarindoshlari kiradi.

Yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda dehqon xo'jaligi nomidan shu xo'jalik boshlig'i ish ko'radi.

Dehqon xo'jaligi boshlig'i qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yer uchastkasi meros qilib qoldirilgan, umrbod egalik qilish huquqi berilgan oila boshlig'i yoki oilaning muomalaga layoqatli a'zolaridan biridir.

Dehqon xo'jaligining boshlig'i vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotgan taqdirda yoki uzoq vaqt bo'lmaganda u o'z majburiyatlarini bajarish vakolatini shu xo'jalik a'zolaridan biriga, dehqon xo'jaligining a'zosi bir kishidan iborat bo'lganda esa, shartnoma asosida talablarga javob beradigan har qanday shaxsga berishga haqlidir.

Dehqon xo'jaligi ixtiyoriylik asosida, xo'jalik boshlig'ining tuman hokimiga yozma murojaatiga asosan tashkil etiladi. Arizada so'ralayotgan yer uchastkasining joylashgan manzili, maydoni, dehqon xo'jaligining tarkibi hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun yer uchastkasidan belgilangan maqsadda foydalanishning yo'nalishlari ko'rsatiladi.

Yer uchastkalarini berish masalalarini ko'rish bo'yicha tuman komissiyasining xulosasini inobatga olgan holda tuman hokimi dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Tuman hokimining dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qarori tumanning moliyaviy, bank, soliq va boshqa tuzilmalari uchun majburiy hujjatdir.

Dehqon xo'jaligi belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi.

Dehqon xo'jaligi boshlig'ini davlat ro'yxatiga olish dehqon xo'jaligi boshlig'ining doimiy yashash joyidagi tuman hokimligiga bergan arizasiga binoan berilgan paytdan e'tiboran uch kun ichida amalga oshiriladi. Dehqon xo'jaligi boshlig'iga yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi belgilangan namunadagi guvohnoma beriladi.

Qishloq joylarda yashovchi o'qituvchilar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarning oilalariga dehqon xo'jaligi yuritish uchun qonun

hujjatlarida belgilangan tartibda meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga tomorqa yer uchastkasini, imorat va hovii egallagan maydonni ham qo'shganda sug'oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 0,5 gektargacha o'lchamda, cho'l va sahro mintaqasida va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 1 gektargacha o'lchamda beriladi.

Fuqarolarga dehqon xo'jaligini yuritish uchun 0,06 gektar doirasida tomorqa yer uchastkalarida meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kim oshdi savdosi asosida realizatsiya qilinishi mumkin.

Yangi tashkil etilayotgan dehqon xo'jaligi uchun tomorqa yer uchastkasi olish huquqidan mazkur joyda kamida uch yil mobaynida doimiy yashab kelayotgan shaxslar foydalanadilar (yangi o'zlashtirilayotgan yer maydonlari bundan mustasno).

Dehqon xo'jaligiga ajratilgan yerning chegaralari joyning o'zida yer tuzish xizmati organlari tomonidan mahalliy budjet mablag'lari hisobidan rasmiylashtiriladi.

Tomorqa yer uchastkasidan oqilona va samarali foydalanayotgan dehqon xo'jaligiga qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirish va realizatsiya qilish, yem ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek, yaylov yaratish uchun qisqa muddatli ijaraga qo'shimcha ravishda yer uchastkalari berilishi mumkin.

Fuqarolarga dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer berish yoki yerni realizatsiya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Dehqon xo'jaligiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan tomorqa yer uchastkalari xususiylashtirilishi va oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash obyekti bo'lishi mumkin emas. Yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kredit olish uchun garovga qo'yilishi mumkin.

Tomorqa yer uchastkasining o'lchami va chegaralari faqat dehqon xo'jaligi boshlig'ining roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

Dehqon xo'jaligiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida berilgan tomorqa yer uchastkasidan foydalanganlik uchun haq yer solig'i tariqasida undiriladi.

Dehqon xo'jaliklari uchun suvdan foydalanish limitlari vakolatli organlar tomonidan belgilanadi.

Dehqon xo'jaligiga beriladigan suvning sarfini hisobga olish hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash tartibi, shu-

ningdek, mazkur soliq bo'yicha imtiyozlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

***Dehqon xo'jaligi tadbirkorlik faoliyatining subyekti tariqasida quyidagi huquqlarga ega:***

- o'ziga berilgan tomorqa yer uchastkasida dehqon xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini mustaqil tashkil etish;
- yetishtirilayotgan va realizatsiya qilinayotgan mahsulotga mustaqil ravishda baho belgilash;
- o'zi yetishtirgan mahsulotini, shu jumladan, bu mahsulotni iste'molchilarga o'z xohishi bo'yicha realizatsiya qilish huquqini tasarruf etish;
- xarid etiladigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan fyuchers bitimlari tuzish;
- tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda foyda olish;
- qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiruvchilarga sotish uchun va erkin savdoga mo'ljallangan aksiyalarni sotib olish;
- o'z mol-mulkini, shuningdek, tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini, shu jumladan, kim oshdi savdosi asosida sotib olingan huquqni garovga qo'yish.

***Dehqon xo'jaligi quyidagilarni bajarishi lozim:***

- tomorqa yer uchastkasidan qat'iy belgilangan maqsadda foydalanish;
- tabiiy obyekt bo'lmish yerga zarar yetkazmaslik;
- tomorqa yer uchastkasini asrash, uning unumdorligini saqlash va oshirish yuzasidan sarf-xarajatlarni qilish;
- yangi berilgan tomorqa yer uchastkasidan bir yil ichida foydalanishga kirishish;
- agrotexnika talablariga, belgilangan rejim, saqlash vazifasi va servitutlarga rioya etish;
- dehqon xo'jaligining majburiyatlari va qarzlari bo'yicha to'la javobgar bo'lish;
- xo'jalik a'zolari uchun xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash.

***Dehqon xo'jaligi boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:***

- dehqon xo'jaligi nomidan ishonchnomasiz ish ko'rish;
- yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish;
- ishonchnomalar berish;
- bankda hisob varaqlar ochish.

Dehqon xo'jaligi boshlig'i dehqon xo'jaligi hamda uning a'zolari manfaatlarini himoya qilishi, huquqlarini amalga oshirilishini ta'minlashi lozim.

### ***Dehqon xo'jaligi a'zolari:***

– xo'jalik a'zolari o'rtasidagi shartnoma shartlariga ko'ra birgalikda yoki yakka tartibda foydalaniladigan daromaddan o'z ulushini olish;

– davlat ijtimoiy sug'urtasidan o'tkazilishi va ijtimoiy ta'minlash, shuningdek, tovar qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish uchun dehqon xo'jaligida sarflangan ish vaqti O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasiga badallar to'lab borilgan taqdirda mehnat stajiga kiritilishi huquqiga ega.

### ***Dehqon xo'jaligi:***

– o'ziga qarashli uy-joylar, xo'jalik imoratlari, qishloq xo'jalik ekinzorlari va ko'chatzorlari, dov-daraxtlar, mahsuldor chorva mollar, parrandalar, qishloq xo'jalik texnikasi, asbob-uskuna va ashyo-anjomlari, transport vositalari, pul mablag'lari, intellektual mulk obyektlariga, shuningdek, boshqa mol-mulkarga;

– ishlab chiqarish faoliyati natijasida yetishtirilgan mahsulotga;

– olingan daromadga (foydaga);

– qonunda taqiqlanmagan asoslarda ega bo'linmagan boshqa mol-mulkka mulkdordir.

Dehqon xo'jaligining o'ziga qarashli mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi davlat himoyasida bo'ladi.

Dehqon xo'jaligining mol-mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish xo'jalik a'zolarining o'zaro kelishuvi asosida amalga oshiriladi.

Dehqon xo'jaligi mol-mulkni hosil qilish, ko'paytirish, uni ijaraga yoki vaqtincha foydalanishga olish huquqiga ega.

Dehqon xo'jaligi pul muomalasini yuritish hamda pul mablag'larini saqlab turish va bu mablag'larni erkin tasarruf etish uchun bank muassasasida hisob varaqlar ochish huquqiga ega. Dehqon xo'jaligining hisob-kitob varag'idan mablag'larni faqat uning roziligi yoki sudning qarori bilan hisobidan chiqarish mumkin.

**Dehqon xo'jaligining** mol-mulki fuqarolik qonun hujjatlari me'yorlariga muvofiq meros qilib qoldiriladi. Xo'jalikda faoliyatini davom ettirayotgan merosxo'rlar meros huquqi to'g'risidagi guvoynoma berilganlik uchun davlat boji to'lashdan ozod etiladilar.

Dehqon xo'jaligi o'z faoliyati yo'nalishlarini, ishlab chiqarish tuzilishi va hajmlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Dehqon xo'jaligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning qonunlarda taqiqlanmagan har qanday turi, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan shug'ullanishga haqli.

Dehqon xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan va realizatsiya qilayotgan mahsulot sifatiga oid amaldagi me'yorlar va standartlarga, ekologiyaga, sanitariyaga oid hamda qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan boshqa talab va qoidalarga rioya etishi lozim.

Dehqon xo'jaliklarining xo'jalik faoliyatiga davlat organlari va tashkilotlarining hamda boshqa organlar va tashkilotlarning, mansabdor shaxslarning aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Yuridik shaxs tariqasida ro'yxatga olingan dehqon xo'jaligi tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqa shakllarda xo'jalik yurituvchi korxonalar bilan teng shartlarda amalga oshiradi.

Dehqon xo'jaligining faoliyati xo'jalik a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Dehqon xo'jaligidagi muayyan ishni bajarishga boshqa shaxslar mehnat shartnomasi asosida vaqtincha jalb etilishi mumkin.

Dehqon xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulotni realizatsiya qilish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan ixtiyoriylik asosida xo'jalik shartnomalari tuzish huquqiga ega. Taraflar shartnoma majburiyatlari buzilgan taqdirda, qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Dehqon xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulotga bozordagi talab va taklif nisbatidan kelib chiqib mustaqil ravishda baho belgilaydi.

Dehqon xo'jaliklari ixtiyoriylik asosida mahsulot yetishtirish, xarid qilish, uni qayta ishlash va sotish, moddiy-texnika ta'minoti, qurilish, texnikaviy, suv xo'jaligi, veterinariya, agrokimyo, maslahat berish yo'sinidagi va boshqa xil xizmat ko'rsatish bo'yicha jamiyatlarga, ittifoqlarga, uyushmalarga va boshqa birlashmalarga birlashish, kirish huquqiga ega.

Dehqon xo'jaligidan yer solig'i tomorqa yer uchastkasining sifatiga, joylashgan manziliga va suv bilan ta'minlash darajasiga qarab, uning kadastr bahosini hisobga olgan holda belgilanadigan miqdorda undiriladi.

Birinchi marta tomorqa yer uchastkasi olgan dehqon xo'jaligi davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga yer solig'i to'lashdan ozod qilinadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari faoliyatni amalga oshirish uchun kredit olishlari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki va pul mablag'larini ixtiyoriylik asosida va shartnoma shartlarida, shu jumladan, dehqon xo'jaliklarini kreditni uzishning zarur garov, sug'urta hamda boshqa kafolatlarini ta'minlangan holda imtiyozli kreditlashga jalb etishlari, shuningdek, xususiy kichik tadbirkorlik uchun belgilangan imtiyozlarning barcha turlaridan foydalanishlari mumkin.

Dehqon xo'jaligini ishlab chiqarish ahamiyatiga molik obyektlar qurilishi, asosiy ishlab chiqarish vositalarini xarid etish uchun uzoq muddatli kreditlash va joriy ishlab chiqarish faoliyati uchun qisqa muddatli kreditlash kredit shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

Dehqon xo'jaligi o'ziga qarashli va ijaraga olingan ishlab chiqarish vositalarining, qishloq xo'jaligi ekinzorlarining (ko'chatzorlarining), ko'p yillik dov-daraxtlarning, yetishtirilgan mahsulotning, xomashyoning, materiallarning yo'qotilishi (nobud bo'lishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi xavfini, tadbirkorlik xavfini, shuningdek, shartnomalarni buzganlik uchun o'zining javobgarlik xavfini ixtiyoriylik asosida sug'urta qildiradi hamda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda sug'urta to'voni oladi.

Davlat qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish va uni realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi dehqon xo'jaliklarining huquqlariga rioya etilishini va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi. Davlat organlari dehqon xo'jaligini rivojlantirish va mustahkamlashga ko'maklashadilar.

Dehqon xo'jaliklari faoliyatini muvofiqlashtirib borish hamda ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish O'zbekiston Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi hamda Savdo-sanoat palatasi va ularning joylardagi hududiy organlari tomonidan amalga oshiriladi.

### **4.3. Agrofirma faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari**

*Agrofirma*, fermer xo'jaliklari va aholi tomonidan yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlari va uzumni qayta ishlash hamda sotish bo'yicha asosiy faoliyatga ega bo'lgan yuridik shaxs hisoblanadi.



*Agrosanoat korxonasining Nizomi O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaliklari to'g'risida»gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 9-yanvardagi «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni*

*chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 3709-sonli Farmoni hamda 11-yanvardagi «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi 255-sonli qarori asosida ishlab chiqilgan.*

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Meva sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2006-yil 9-yanvardagi PF-3709-sonli Farmoniga muvofiq meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida agrosanoat firmalari (keyingi o'rinda Agrofirma deb yuritiladi) tashkil etish va ularning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibini belgilaydi.

Fermer xo'jaligi mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish jarayonida turli korxonalar va tashkilotlar xizmatidan foydalanadi. Ularning aksariyati texnika, o'g'it, yonilg'i va shu kabi resurslar yetkazib bersa, boshqalari mahsulotni qayta ishlash uchun sotib oladi va ijtimoiy xizmat ko'rsatadi. Ana shu toifadagi korxonalarni yagona bozorga birlashtiruvchi, ularning o'zaro bozor munosabatlarini amalga oshiruvchi, ularga ko'maklashuvchi tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish hozirgi zamon talabidir.

Chunki meva, sabzavot, poliz va uzum yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining ko'pchiligi hali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish, saqlash, qayta ishlash, eksportga chiqarish bilan bog'liq masalalarni mukammal o'zlashtirmaganliklari agrofirmalarni tashkil etish ehtiyojini keltirib chiqardi.

Agrofirmalar dehqonchilik mahsulotlarini sotib olish, saqlash, qayta ishlash, sotish, jumladan, eksportga chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi.

Quyidagilar agrofirmaning yuridik asosi bo'lishi mumkin:

— meva-sabzavot mahsulotlari va uzum, shuningdek, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklariga;

— barqaror xo'jalik aloqalariga va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalariga ega bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlari va uzumni qayta ishlash korxonalariga;



- yuridik shaxs bo‘lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;
- xorijiy investorlar;
- agrofirmalarda qatnashishi qonunda taqiqlanmagan boshqa shaxslar.

Agrofirmani ta‘sis etishda uning qatnashchilari o‘z mustaqilligini saqlab qoladi.

Agrofirmalar uning qatnashchilari tomonidan ixtiyoriy tartibda tashkil etiladi.

Agrofirmalar tijorat tashkilotlari hisoblanadi va qonunda nazarda tutilgan har qanday tashkiliy – huquqiy shaklda tashkil etilishi mumkin.

Agrofirmalar Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 20-avgustdagi 357-sonli qarori bilan tasdiqlangan tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, hisobga qo‘yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risida Nizomga muvofiq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan vaqtdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi.

Agrofirmalarni ta‘sis etishda muassislar tegishli tashkiliy-huquqiy shakldagi subyektlarni tashkil etish uchun belgilangan qonun hujjatlari talablarini bajarish kerak.

Agrofirmalar tarkibida meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, tashish, tayyorlash ularning marketingini olib borish va boshqalar bo‘yicha bo‘linmalar tashkil etilishi mumkin.

Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari agrofirmalarning qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

### **Agrosanoat firmalarini shakllantirish va ularning faoliyatini tashkil etishning asosiy tamoyillari**

Agrosanoat firmalarini shakllantirish va ularning faoliyatini tashkil etish quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

- agrofirmalar fermer xo‘jaliklari tomonidan ixtiyoriy asosda tashkil etiladi, bunda muassislar tarkibiga, fermerlar bilan bir qatorda, barqaror xo‘jalik aloqalariga va ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalariga ega bo‘lgan, shuningdek, yaqin atrofdagi hudud joylashgan meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini kirishi mumkin;

- agrofirmalar istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda, shu jumladan, xorijiy investor bilan qo‘shma korxonalar shaklida tashkil etilishi mumkin;

– fermer xo‘jaliklarining agrofirmalar tarkibiga kiruvchi qayta ishlaydigan va boshqa korxonalar bilan o‘zaro munosabatlari tuzilgan uzoq muddatli shartnomalar asosida amalga oshiriladi, ushbu shartnomalarda tomonlarning huquq va majburiyatlari tartibga solinadi, shu jumladan, yetkazib beriladigan mahsulotning kamida 30 foizi avans bilan ta‘minlanishi hamda keyinchalik mahsulotlarning kafolatli ravishda xarid qilinishi belgilab qo‘yilgan;

– fermer xo‘jaliklari – agrofirmalar ta‘sischilari shartnomadagi ortiqcha yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini o‘z xohishiga ko‘ra ichki bozorda sotadi va eksport qiladi.

### **Agrofirmalarning maqsadi va asosiy vazifalari**

Agrofirma, asosan, qishloq joylarda, uning qatnashchilari sa‘y-harakatlarini, ularning moddiy va ma‘naviy resurslarini birlashtirish asosida tashkil etiladi.

Agrofirma faoliyatining asosiy maqsadi hududdagi fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash, eksport qilish hamda boshqa turdagi xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishdan daromad olishdir.

O‘z maqsadini amalga oshirish va vazifalarini bajarish uchun agrofirmaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

– shartnoma asosida fermer xo‘jaliklarining buyurtmasiga ko‘ra mexanizatsiya va agrotexnik tadbirlarni bajarish va boshqa xizmatlar ko‘rsatishni muvofiqlashtirish;

– marketingni tashkil etish, bozor konyunkturasi o‘rganish, yetishtirilgan mahsulotlarni sotishda xo‘jaliklar, korxonalar va tashkilotlarga ko‘maklashish;

– fermer xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish tartiboti (rejim) asosida aniqlangan hamda umumiy ajratilgan cheklangan suv miqdorini belgilash va barcha iste‘molchilarga suv manbalari bo‘yicha teng miqdorda taqsimlanishini ta‘minlash;

– lizing asosida transport vositalari va mexanizmlar olishda xizmat ko‘rsatish;

– ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar o‘rtasida shartnomalar tuzilishini tashkil etish;

– suv, urug‘, o‘g‘it, yonilg‘i-moylash materiallari, biomateriallar bilan ta‘minlash bo‘yicha amaliy yordam berish;

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni o‘simliklarni himoya qilish vositalari bilan ta‘minlash;

– fermer xo‘jaliklariga meva-uzum, sabzavot, poliz, kartoshka va boshqa ekinlarning agrotexnikasi bo‘yicha maslahatlar berish;

– fermer xo‘jaliklarini yuqori hosil beradigan, sifatli qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘lari va mevali daraxtlar, toklarning ko‘chatlari bilan ta‘minlash;

– viloyat va tumanda yetishtirilmaydigan urug‘ turlarini boshqa viloyatlardan keltirish hisobiga iste‘mol uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi aholini, fermerlarni to‘liq miqdorda sifatli va navdor urug‘lar bilan ta‘minlash maqsadida dala do‘konlarini tashkil etish;

– a‘zolarining talab va ehtiyojidan kelib chiqib, urug‘chilikda qo‘llaniladigan urug‘ ajratadigan, tozalaydigan, qadoqlaydigan, saqlaydigan maxsus mexanizm va moslamalar bilan jihozlangan urug‘chilik punktlarini tashkil etish;

– ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh urug‘lik mahsulotlarining yangi navlarini yetishtirishga ko‘maklashish;

– urug‘chilik bo‘yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish;

– dehqon va fermer xo‘jaliklariga biznes-rejalar tuzishda xizmat ko‘rsatish;

– fermer xo‘jaliklariga almashlab ekishni to‘g‘ri tashkil qilish maqsadida ekinlarni to‘g‘ri joylashtirish;

– fermer xo‘jaliklariga ularning texnika vositalarini ta‘mirlashda xizmat ko‘rsatish;

– ulgurji va chakana savdo faoliyatini amalga oshirish;

– tara-idishlar ta‘minotini va transport xizmatini tashkil qilish;

– brokerlik xizmatini ko‘rsatish;

– qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash va sotish bilan shug‘ullanish;

– vositachilik faoliyati bilan shug‘ullanish;

– qo‘shma korxonalar tuzish bilan shug‘ullanish;

– investitsiyalarni jalb etishda xo‘jaliklarga va boshqa korxonalarga ko‘maklashish;

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish;

– O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanish.

## Agrofirmaning huquq va majburiyatlari

Agrofirma quyidagi huquqlarga ega:

– ishlab chiqarish faoliyatini mustaqil tashkil etish va amalga oshirish, shu jumladan, meva-sabzavot mahsulotlari va uzumni qayta ishlash;

– yetishtirilgan mahsulotlarni sotish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan, shu jumladan, budjet tashkilotlari bilan xo‘jalik shartnomalari tuzish;

– mahsulotni sotib olish yuzasidan fermer va dehqon xo‘jaliklari bilan fyuchers shartnomalari tuzish;

– aholidan meva-sabzavot mahsulotlari va uzumni xarid qilish;

– yetishtirilayotgan mahsulotga va bajarilayotgan ishlar (ko‘rsatilayotgan xizmatlar)ga mustaqil narx belgilash;

– olingan daromad (foyda)ni, shuningdek, o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi banklarning hisob raqamlaridagi pul mablag‘larini o‘z xohishiga ko‘ra belgilangan tartibda tasarruf etish;

– kreditlar, shu jumladan, imtiyozli kreditlar olish, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki, pul mablag‘larini shartnoma asosida jalb etish hamda ularni ishlab chiqarishga va takroriy ishlab chiqarishga yo‘naltirish;

– o‘zining huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilib sudga murojaat qilish.

Agrofirma qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlardan ham foydalanadi.

### **Agrofirma:**

– o‘z xodimlari uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini ta‘minlashga;

– tuzilgan shartnomalar shartlarini bajarishga;

– soliqlar va majburiy to‘lovlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘lashga majbur.

Agrofirma qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham o‘z zimmasiga oladi.

## Agrofirmalarni tashkil etish

Fermer xo‘jaliklari, qayta ishlash va savdo korxonalari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida umumiy maqsadlarga erishish uchun ixtiyoriy ravishda birlashishlari mumkin.

Agrofirma, odatda, tugatilayotgan har bir xo'jalik hududida yoki mahalliy sharoitdan kelib chiqib, ikki va undan ortiq xo'jaliklar hududida tuzilishi mumkin. Agrofirmalarni ta'sis etishda uning qatnashchilari o'z mustaqilligini saqlab qoladi.

Agrofirmalar o'z-o'zini moliyalashtirish (xo'jalik hisobi) tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi tijorat tashkilotlari hisoblanadi va qonunda nazarda tutilgan har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda, shu jumladan, xorijiy investor bilan qo'shma korxonalar shaklida tashkil etilishi mumkin.

Agrofirmalar uning ta'sischilari soni 50 kishigacha bo'lsa, mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida, undan ortiq yoki ta'sischilar soni cheklanmagan bo'lsa, qonunda nazarda tutilgan har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishi mumkin.

### **Agrofirmaning Nizom fondi va mol-mulki**

Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etiladigan agrofirmalarning Nizom fondi miqdori eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan kam bo'lmasligi, agrofirmani davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan paytga qadar uning har bir ishtirokchisi ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan Nizom fondidagi o'z hissasining kamida 30 foizini kiritishi, agrofirma davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab har bir ishtirokchi bir yildan oshmagan muddat mobaynida Nizom fondiga o'z hissasini to'liq kiritishi lozim.

Ulushini o'z vaqtida kiritmagan yoki to'liq kiritmagan ta'sischi boshqa ta'sischilar oldida javobgar hisoblanadi va qonunchilikda belgilangan tartibda unga nisbatan ta'sir chorasi ko'riladi.

Fermer xo'jaliklari, qayta ishlash va savdo korxonalari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy ravishdagi mol-mulkulari va qo'shimcha mablag'lari birlashtirilib agrofirma Nizom fondi tashkil etiladi.

Agrofirmaning har bir ishtirokchisi o'zi qo'shgan mol-mulk ulushi doirasida uni ta'sischisi hisoblanadi.

Nizom fondiga qo'shiladigan hissalar pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, qo'zg'aluvchan va ko'chmas mulklar, o'zga ashyolar, mulkiy huquqlar yoki pul bahosiga ega bo'lgan boshqa mol-mulk bo'lishi mumkin. Agrofirmaning Nizom fondini ko'paytirish olingan foyda hisobidan, yangi ta'sischilarni qabul qilish, qo'shimcha ulush kiritish hamda qonunchilikda va ta'sis hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa usullarda amalga oshiriladi.

### ***Agrofirmaning mol-mulki:***

- muassislar tomonidan uning Nizom fondiga ulush shaklida qo‘shilgan mol-mulk;
- ishlab chiqarish faoliyati natijasida olingan mahsulotlar;
- tovarlarni sotish, ishlarni bajarish (xizmatlar ko‘rsatish)dan, shuningdek, faoliyatning boshqa turlarini amalga oshirishdan olingan daromad (foйда);
- qimmatli qog‘ozlardan olingan daromad;
- yuridik va jismoniy shaxslarning beg‘araz, xayriya va boshqa ehsonlari;
- belgilangan tartibda sotib olingan texnologiya asbob-uskunalari, binolar, transport vositalari, pul mablag‘lari va qimmatli qog‘ozlar, intellektual mulk obyektlari hamda boshqa mol-mulk;
- jalb etilgan mablag‘lar;
- kreditorlar bilan to‘liq hisob-kitob qilingandan keyin tugatilayotgan shirkat xo‘jaligining hisob raqamida qolgan hamda xo‘jalik a‘zolariga dividend sifatida beriladigan mablag‘lar (ularning xohishiga ko‘ra ulush sifatida qo‘shishlari mumkin);
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga shakllantirishi mumkin.

### **Agrofirmani qayta tashkil etish va tugatish**

Agrofirmani qayta tashkil etish yoki tugatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agrofirmani qayta tashkil etish ta‘sischilarning umumiy yig‘ilishi qarori bo‘yicha uni qo‘shib yuborish, birlashtirish, bo‘lish, ajratib chiqarish, qayta tuzish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Agrofirmani qayta tashkil etishda uning barcha huquq va majburiyatlari huquqiy vorisiga o‘tadi.

Agrofirmani tugatish ta‘sischilarning umumiy yig‘ilishi yoki xo‘jalik sudining qaroriga asosan amalga oshiriladi. Agrofirmani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish organi tomonidan agrofirkalarning yagona davlat reyestriga tegishli yozuv kiritilgan vaqtdan boshlab agrofirmani tugatish yakunlangan, agrofirma esa o‘z faoliyatini tugatgan deb hisoblanadi.

### ***Agrofirkalarning tashkil etilishi va ularning faoliyatini takomillashtirish omillari:***

– agrofirkalarga iqtidorli kadrlarni tanlab qo‘yish va ularni tasdiqlangan Nizomi asosida tashkil etish;

- agrofmirmaning bir yillik va ko‘p yillik biznes–rejalarining ishlab chiqilishini, shartnomalar tuzilishini ta‘minlash;
- ko‘rgazmali seminarlar tashkil etish;
- tuzilgan shartnomalar shartlarining bajarilishi monitoringini tashkil etish.

### ***Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilishning mohiyati:***

- Respublika aholisining meva-sabzavot, uzum, kartoshka va poliz mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘la qondirish;
- sohada mulkchilik shaklini o‘zgartirish orqali yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, hosildorlikni oshirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish;
- yetishtirilgan mahsulotlar nobudgarchiligining oldini olish uchun qayta ishlash hajmini ko‘paytirish, mavjud korxonalar ishlab chiqarish quvvatidan to‘liq foydalanishni, ularni texnik jihatdan qayta jihozlash uchun modernizatsiya qilish va investitsiyalar jalb etishni tashkil etish.
- agrosanoat firmalari va qayta ishlash korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirish orqali mamlakatda meva-sabzavot va uzum mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotishning mukammal va istiqbolli tizimini yaratish;
- ichki va tashqi bozorda marketing tadqiqotlarini o‘tkazish va jahon standartlari talabi darajasidagi mahsulotlar eksport qilishni ko‘paytirish.

### ***Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasining rivojlantirilishi hamda yerdan samarali foydalanishni tashkil etish omillari:***

- mintaqa tuproq-iqlim sharoitiga mos ekinlarni, navlarni tanlash hamda ularga tegishli agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida sifatli o‘tkazish;
- sabzavot–poliz, kartoshkachilikda almashlab va navbatlab ekish hamda bir yilda 2–3 marotaba hosil yetishtirishni keng joriy qilish;
- tuproq unumdorligini oshirishda organik, mineral o‘g‘itlardan oqilona foydalanish hamda siderat ekinlarni ekishni qo‘llash;
- sabzavot, poliz, kartoshka ekinlarining mahalliy urug‘chiligini rivojlantirish va urug‘chilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarini tashkil etish;
- kasallik va zararkunandalarga qarshi uyg‘unlashgan tarzda kurashish usullarini keng joriy qilish;
- bog‘ va tokzorlarning siyraklik darajasini qisqartirish;

- hosil bermaydigan va yosh bog‘, tokzorlarning oralariga to‘liq kartoshka, sabzavot ekinlari ekilishini tashkil etish;
- har bir gektar sug‘oriladigan yer maydonidan foydalanish monitoringini tashkil etish;
- infratuzilma obyektlarining rivojlantirilishiga jiddiy e‘tibor qaratish.

#### 4.4. Qishloq xo‘jaligida kooperatsiyaviy munosabatlar

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni isloh qilish borasida keng ko‘lamli dasturning amalga oshirilishi kooperatsiyaning zamonaviy tizimini yaratish, jahon amaliyotida yuqori samaradorlikka olib boruvchi kooperatsiyaning turlarini qo‘llash zaruriyatini taqozo qilmoqda. Qishloq xo‘jaligidagi kooperatsiya yangi dehqonni tarbiyalaydi, uni tashabbuskorlikka va o‘z-o‘ziga yordam berishga o‘rgatadi, uning ijtimoiy hislarini rivojlantiradi va aqliy madaniyatga jalb etadi.

**Kooperatsiya** bu – ma‘lum sohada o‘z mablag‘lari va harakatlarini birlashtirib kooperativ a‘zolarini yirik xo‘jalik tashkilotining turli afzalliklaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishidir.

Kooperatsiya, tarixan yuzaga kelgan va doimiy ravishda takomillashib boruvchi ijtimoiy-xo‘jalik faoliyati shakli sifatida, jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida ushbu jamiyatning ma‘lum qatlamlari yoki guruhlarining ehtiyojlarini qondirish usuli bo‘lib yuzaga keladi.

Kooperativ muassasalar shaxsiy xo‘jalik manfaati ta‘siri ostida emas, jamoa farovonligi maqsadlarida ish yurituvchi faoliyat yurituvchilarning yangi turini yaratadi. Kooperatsiya yo‘li bilan iqtisodiy motivatsiya qayta tuziladi va jamoatchilik asosida takomillashgan iqtisodiy tizim elementlari tayyorlanadi. Kooperativ asosda tashkil etilgan xususiy sektorning tadbirkorlik faoliyati turli ijtimoiy boyliklarni yaratishga hissa qo‘shadi. Rivojlangan mamlakatlarda milliy darajada kooperatsiyalashgan birlashmalarning roli yildan yilga ortib bormoqda. Ularning maqsadi o‘z tarkibiga kiruvchi kooperatsiyalashgan xo‘jaliklar manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo‘lib quyidagilar bilan izohlanadi:

- boshqa huquqiy shakllardagi korxonalarining yirik birlashmalari tomonidan raqobatni oshirish;
- mayda xo‘jaliklar va xususiy tadbirkorlar foydalana olmaydigan zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatini oshirish;
- kooperatsiyalashgan xo‘jaliklarning xo‘jalik faoliyatini muvofiqlashtirish va rejalashtirish, axborot almashish, xodimlar malakasining



darajasini oshirishga majbur etuvchi xo'jalik yuritish shart-sharoitlarini yaratish;

– jamoaviy o'zini-o'zi moliyalash uchun kooperatsiyalashgan banklarni tashkil etish yo'li bilan kredit-moliya sohasida kooperatsiyalashishni amalga oshirish.

Agrar tarmoqda kooperatsiyalarni rivojlantirish O'zbekiston qishloq xo'jaligini istiqbolini belgilovchi omil hisoblanadi.

Kooperativ – ixtiyoriy tashabbuskor va o'z-o'zini boshqaruvchi jamoat tashkiloti bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun hissadorlik asosida shaxslarning ixtiyoriy birlashuvi orqali tashkil etiladi, o'z-o'zini moliyalashtirish asosida faoliyat ko'rsatadi va o'z oldiga a'zolarining hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashish maqsadini qo'yadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayonida qatnashish darajasiga qarab kooperativlar uch turga (4.2-rasm), ya'ni ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi va istemolchi kooperativlarga bo'linadi.

Kooperativlar agrar soha xodimlarining kasbiy ta'limi va ishlab chiqarishga o'rgatish masalasiga ham e'tibor beradi. Ixtisoslashtirilgan o'quv yurtlari, o'quv-ishlab chiqarish markazlari, fermerlar malakasini oshirish kurslarida faoliyat olib boradi.

Qishloq xo'jaligida kooperatsiya tizimini tashkil etib moddiy-texnika resurslari «zavod-kooperativ-fermer» tizimida fermerlarga yetkazilsa, qo'shimcha xarajatlar miqdori birmuncha qisqartirilib, mahsulotlar sifati ortadi.


Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida fermerlik kooperatsiyasi davlat siyosati doirasida rivojlanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi, ularni qayta ishlovchi va xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar o'rtasida mamlakat (milliy) va mintaqa miqyosidagi kooperatsiyalar faoliyat olib borayapti. Kooperatsiyaning bu shakli, asosan, paxta va g'alla yetishtiruvchilar o'rtasida tashkil qilingan. Kooperatsiyaning bu shakli paxta va g'alla yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Bu tizimga quyidagi obyektlar kiritilgan:

Qishloq xo'jaligida texnikaviy servis xizmatini ko'rsatish:

– «mashina-traktor parklari» birlashmasi ochiq hissadorlik jamiyati tarkibidagi mashina-traktor parklari (MTP);

– texnik servis markazlari va ta'mirlash ustaxonalari;

– muqobil MTPlar;



4.1-rasm. Kooperativlarning turkumlanishi.

– xususiy mulk shaklidagi servis xizmati ko'rsatish korxonalari.

Qishloq xo'jalik korxonalarini texnika vositalari, ehtiyot qismlar bilan ta'minlash xizmatlarini quyidagi korxonalar va tashkilotlar amalga oshiradi:

- «O'zqishloqservis» uyushmasi tizimidagi viloyat ta'minot bazalari;
- «O'zqishloqxo'jalikmash» xolding kompaniyasi;
- «O'zqishloqmashlizing» kompaniyasi;
- «O'zkeysagrolizing» kompaniyasi;
- lizing operatsiyalarini bajaruvchi banklar va boshqalar.

Melioratsiya va oqar suv bilan ta'minlash xizmatini qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi tizimidagi va boshqa ixtisoslashgan tashkilotlar amalga oshiradi. Bularga quyidagilar kiradi:

- gidrologiya meliorativ ekspeditsiyasi;
- suvdan oqilona foydalanish va sug'orishning ilg'or texnologiyalarini qo'llash xizmati;
- melioratsiya suv qurilish trestlari, ularning tarkibidagi maxsus mexanizatsiyalashgan ko'chma kolonnalar;
- suvdan foydalanuvchilar uyushmalari va boshqalar.

Agrokimyo xizmatini «O'zqishloqxo'jalikkimyo» birlashmasi tizimidagi korxonalar amalga oshiradi. Bularga quyidagilar kiradi:

- «O'zqishloqxo'jalikkimyo» bazalari;
- tuman va tumanlararo «O'zqishloqxo'jalikkimyo» birlashmalari;
- mineral o'g'itlar va kimyoviy vositalar sotish do'konlari.

Yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini aholiga sifatli, tabiiy holatini saqlagan holda yetkazib berishda mahsulotlarni saralash, saqlash va qayta ishlash xizmatining o'rni katta ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligida ushbu xizmatlarni quyidagi korxonalar amalga oshiradi:

- «O'zpxatasanoatsotish» assotsiatsiyasi tizimidagi paxta qabul qilish va qayta ishlash korxonalari;
- «O'zdonmahsulot» Davlat hissadorlik korporatsiyasi tizimidagi donni qabul qilish va qayta ishlash korxonalari;
- «O'zmevasabzavotuzumsanoat» xolding kompaniyasi tizimidagi qayta ishlovchi korxonalar.

Kooperativlarni ilmiy asosda shakllantirish tizimi nafaqat zamon talabiga javob bera oladigan xo'jalik yuritishning yangicha shakllariga o'tishni, balki kompleks agroxizmat ko'rsatishni ta'minlash imkonini ham beradi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning kooperativlari tizimini shakllantirishga bo'lgan bunday yondashuv quyidagi vazifalarni hal etishni ko'zda tutadi:

- ishlab chiqarishni tashkil etishning kooperativ shaklini asoslashni;
- xo'jalik yuritishning kooperativ shakllarini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillarini ishlab chiqishni;
- kooperativlar tuzishga talab katta bo'lgan joylarda kooperativlar va xizmat ko'rsatish doiralarni tashkil etish yo'nalishlarini belgilashni;
- hududlarda xo'jalik yuritishning (huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy) oqilona shakllarini aniqlash hamda asoslashni;
- hududiy kooperativ xo'jalik va boshqalarning o'zaro munosabatlari sxemasini ishlab chiqishni.


Kooperatsiya bir necha ustunliklarga ega bo'lib, ulardan eng muhimi kapital tarkibining mayda shaklidan katta miqyosda ishlab chiqarishni hech bo'lmaganda iqtisodiy maqsadga muvofiq sohalarda (saqlash, qayta ishlash, sotish, jamg'arish, servisdan) faoliyat yuritishni tashkil qilish imkonini yaratadi. Tovar ishlab chiqaruvchilarning muammolarini hal qilishga yordam beradi.

Kooperativlar faoliyati ishlab chiqarishning boshqa shakllaridan qator omillar bo'yicha farq qiladi.

<b>Turlari va xususiyatlari</b>	<b>Ishlab chiqaruvchi kooperativlar</b>	<b>Xizmat ko'rsatuvchi kooperativlar</b>	<b>Iste'molchi kooperativlar</b>
Mulkdorlar	Kooperativning xo'jalik faoliyatida ishtirok etish istagidagi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari	Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari, ularni moddiy texnika resurslari bilan ta'minlash, saqlash, qayta ishlash, sotish korxonalari	Xo'jalik faoliyatida ishtirok etishni xohlovchi har qanday shaxs
Badallar	A'zolar kooperativning xo'jalik faoliyatida ishtirok etishga to'g'ri mutanosib ravishda pay va kirish badallarini to'laydilar	A'zolar kooperativ tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmiga mutanosib ravishda pay fondini shakllantirish uchun pay badallarini to'laydilar	Mablag'lar hissadorlar tomonidan to'planadi
Maqsad	Sifatli mahsulot ishlab chiqarib, yuqori narxlarda sotish orqali ko'proq daromad olish	Kooperativ a'zolarini turli xil xizmatlarga bo'lgan talabini arzon, o'z vaqtida va sifatli qondirish	Sarflangan mablag'lar evaziga foyda olish
Ta'minotchilar bilan aloqasi	Baholar o'zaro kelishilgan tartibda belgilanadi. Kooperativ va a'zolar o'rtasidagi munosabatlar notijorat asosida ko'riladi. Xo'jalik faoliyatining boshqa subyektlar bilan munosabatlari tijorat asosida ko'riladi	Kooperativ yetishtirilgan mahsulot egasi bo'lib hisoblanadi. Kooperativ o'z faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan mulkka ega bo'lmaydi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari a'zolari mulki bo'lib qoladi	O'zaro munosabatlar tijorat asosida amalga oshiriladi

Moliyaviy natijalardan foydalanish	Xo'jalik faoliyati natijasida olingan daromad a'zolari o'rtasida ularning xo'jalik faoliyatida qatnashishiga to'g'ri proporsional ravishda taqsimlanadi, bir qismi esa ko'proq foyda olishga yo'naltiriladi	Xizmat ko'rsatuvchi kooperativning maqsadi foydaolish emas. Moliyaviy natija iste'mol qilingan xizmatlar hajmiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Xizmatlar mahsulot narxiga deyarli teng baholarda ko'rsatiladi	Foyda dvidentlar shaklida taqsimlanadi, bir qismi esa uni ko'paytirishga yo'naltiriladi
Qaror qabul qilish	Demokratik boshqaruv, ya'ni «bitta a'zo – bitta ovoz» tamoyiliga amal qiladi	Demokratik boshqaruv, ya'ni «bitta a'zo – bitta ovoz» tamoyiliga amal qiladi	«Bitta aksiya – bitta ovoz» tamoyiliga amal qilinadi

4.2-rasm. Kooperatsiyaning faoliyat turiga qarab turlanishi va xususiyatlari.



4.3-rasm. Kooperatsiyaning faoliyat ko'lamiga qarab turlanishi.

Tovar ishlab chiqaruvchilarning o'z tashabbuslari bilan tashkil etiluvchi va ular tomonidan tavakkalchilik asosida boshqariluvchi kooperativlar jamoa mulkining bo'lishini tavsiflaydi.

Kooperativning asosiy vazifasi o'z a'zolariga xizmat ko'rsatuvchi va tovar ishlab chiqarish, uning faoliyat natijasida olinuvchi daromad esa asosan zaxira va birlashmaning boshqa fondlarini to'ldirishga ketadi. Qolgan daromad qismi kooperatsiya bo'yicha sheriklar o'rtasida ularning ulushiga proporsional ravishda taqsimlanadi.

Qishloq xo'jaligi uchun kooperativlarning asosiy ahamiyati ularning ijtimoiy intilishlaridangina emas, balki kooperativlar qishloq xo'jalik ishlab chiqarish va butun agrosanoat majmuasining konsentratsiyalanish vositasi hisoblanadi.

Kooperatsiyalashda tarixiy yuzaga kelgan mayda qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchisi va ta'minot-sotuv tizimli iqtisodiy asoslangan yirik qayta ishlash sanoati korxonalari o'rtasidagi qulay uyg'unlik ta'minlanadi.

Bularning barchasi yirik birlashmalar tashkil etilishida konsentratsiya jarayoniga ko'maklashadi.

Uning xususiyati shundaki, fermer xo'jaligi mustaqilligini saqlab qolgan holda ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta'minlashga imkon beruvchi yirikroq iqtisodiy tuzilmalarga kiradi. Bu tuzilmalar alohida qishloq xo'jalik korxonalari hal eta olmaydigan masalalarni hal qiladi.

Fermerlik kooperatsiyasining rivojlanishi jahon amaliyotida faoliyat turlari bo'yicha kooperativlarning: mahsulotni qayta ishlash, sotish, xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash, kreditlash va ishlab chiqarish sohalarini rivojlantiradi.

Bunday kooperativlar fermerlarga sotuv bozorlari va barqaror narxlarni kafolatlaydi.

#### **4.5. Fermer xo'jaliklari uyushmasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish**

Fermer xo'jaliklari uyushmasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va o'zining Nizomiga amal qiladi.

*Fermer xo'jaliklari uyushmasi — nodavlat, notijorat, o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlovchi xo'jalik hisobidagi, respublika fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jalik sektorining korxonalari, birlashmalari, shuningdek, Uyushmaning maqsad va vazifalarini hamda Nizomini tan oluvchi boshqa jamoat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslarni ixtiyoriylik asosida birlashtiruvchi tashkilot.*

Uyushma yuridik shaxs hisoblanadi, o'ziga xos va mulkdorlik huquqi asosida o'ziga tegishli mulkka, O'zbekiston Respublikasi hududidagi banklarda hisob varaqlariga, jumladan, chet el valutasidagi hisob varaqlariga ega bo'ladi.

Uyushmaning Nizomida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda, qonunchilikda belgilangan tartibda va Uyushma Nizomiga muvofiq hududiy shoxobchalar tashkil etilgan.

Uyushmaning hududiy shoxobchalari yuridik shaxs hisoblanadilar. Uyushma Markaziy Kengashi tomonidan tasdiqlangan Uyushmaning hududiy shoxobchalari to'g'risidagi Nizomi asosida faoliyat yuritadilar.

Uyushma Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hududiy shoxobchalarining faoliyatini muvofiqlashtirib turadi.

Uyushma Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hududiy filiallari ularning barcha tashkilotlari bilan yagona tizimini tashkil etadi.

Uyushma o'z nomidan mulkiy va nomulkiy huquqlarni olishga, sudlarda da'vogar va javobgar sifatida qatnashish huquqiga ega.

Uyushma o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli mulk bilan javob beradi.

Davlat va uning organlari Uyushmaning majburiyatlari uchun javob bermaydi, Uyushma ham davlat va uning organlari majburiyatlari uchun javob bermaydi.

Uyushma o'zining a'zosi hisoblangan hududiy shoxobchalar va o'zi tashkil etgan mustaqil tuzilmalarni majburiyatlari uchun javobgar emas, shuningdek, ular ham Uyushma majburiyatlari uchun javobgar hisoblanmaydi.

Hududiy shoxobchalar Kengashi tumandagi fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik hisobidagi tashkilotlarni tashkil etadi, ular bilan o'zini huquqiy munosabatini shartnoma orqali rasmiylashtiradi. Bu tashkilot fermer xo'jaliklariga namunali xizmat turlarini ko'rsatganlarida ularning tarkibi va maoshlarini shoxobcha Kengashi orqali kengaytirib, oshiradilar.

Uyushma mol-mulki unga tegishli bo'lgan mol-mulkdan: bino, transport, pul mablag'lari, chet el valutalari hamda intellektual mulk obyektlaridan iboratdir.

Uyushma asosiy mablag' manbalari quyidagilar hisoblanadi: kirish va a'zolik badallari. Uyushma ta'sis etgan korxonalarining tushumlari; homiylar va grant mablag'lari amaldagi qonunlarga zid bo'lmagan boshqa tushumlar.

Barcha tushgan mablag'lar Uyushma va uning hududiy shoxob-chalari tomonidan Uyushma Markaziy Kengashi (mulkni boshqaruvchi) tomonidan o'rnatilgan tartibda foydalaniladi.

***Fermer xo'jaliklari uyushmasining maqsadi fermer xo'jaliklarining keng ko'lamda va samarali rivojlanishiga ko'maklashish bilan ularni qishloq xo'jalik mahsulotlarini asosiy yetishtiruvchilariga aylanishiga, qishloqda xususiy mulkdorlar sinfini keng shakllanishiga, uning jamoat va iqtisodiy munosabatlardagi o'rni va ahamiyatini oshirishda qo'llab-quvvatlashdir.***

***Fermer xo'jaliklari uyushmasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:***

– fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, ularning iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini (jumladan, ishlab chiqarish faoliyatlarini aniqlashda moliyalashtirishni usul va shakllarini tanlashda, moliyaviy mablag'lardan foydalanishda) fermerlarga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer resurslaridan, boshqa moddiy va moliyaviy mablag'lardan oqilona hamda unumli foydalanishiga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

– fermer xo'jaliklari va Uyushmaning boshqa a'zolarini haq-huquqlari, manfaatlarini davlatning boshqaruv va xo'jalik organlarida, xo'jalik yurituvchi boshqa subyektlar hamda huquqiy va jismoniy shaxslar oldida, sudlarda himoya qilish va ifodalash;

– xizmat ko'rsatuvchi, tayyorlovchi, ta'minlovchi va boshqa tashkilotlar, huquqiy hamda jismoniy shaxslar tomonidan shartnoma talablarini o'z muddatida va to'liq ijrosi monitoringini yuritish;

– respublika hududidagi fermer xo'jaliklariga ichki va tashqi hamkorlar hamda investorlar bilan aloqalarni o'rnatilishida yordam berish, fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishda, respublika qishloq xo'jaligiga chet el sarmoyalarini kiritilishini



kengaytirishda hamda qishloqda qo‘shma korxonalar tashkil etishda ularga ko‘maklashish;

– fermer xo‘jaliklari uchun zarur mutaxassislarni tayyorlash tizimini, fermerlarni o‘qitish va malakasini oshirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida, biznesda ularni asosiy va kasbiy bilimlarini oshirishlikni takomillashtirish;

– qishloq xo‘jalik yerlarini, texnika va texnologik uskunalarini, fermer xo‘jaliklari foydalanishi uchun qulay va oson, yangi ixtirolarini hamda ixtisoslashtirilgan axborot – marketing xizmatlarini ko‘rsatishida hamkorlik qilish;


– qishloqda zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirishga, fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarishiga, muhandislik – texnikaviy, tashkiliy-huquqiy va fermer xo‘jaliklarining talab hamda ehtiyojlariga mos tushadigan boshqa xizmat turlarini yaratish uchun tadbir va ijro usullarini ishlab chiqish.

#### ***Nazorat va muhokama uchun savollar:***

- 1. Agrofirmalar va ularning faoliyati qanday tashkil etiladi?*
- 2. Agrofirmani fermer xo‘jaligidan farqlaydigan omillar qaysilar?*
- 3. Fermer xo‘jaliklari va ularning faoliyati nimalardan iborat?*
- 4. Dehqon xo‘jaliklari va ularning faoliyati nimalardan iborat?*
- 5. Fermer xo‘jaligi boshlig‘i qanday huquqlarga ega?*
- 6. Dehqon xo‘jaligi boshlig‘i qanday huquqlarga ega?*
- 7. Fermer xo‘jaligi faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari nimalardan iborat?*
- 8. Dehqon xo‘jaligi faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari nimalardan iborat?*
- 9. Fermer xo‘jaliklari uyushmasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish tartibi qanday?*
- 10. Fermer xo‘jaliklarida mehnatga haq to‘lash tartibi qanday?*
- 11. Qishloq xo‘jaligida kooperativ munosabatlarni rivojlantirishning zaruriyati nimada?*

## 5-bob. QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQRISHINI BASHORAT QILISH VA REJALASHTIRISH

### 5.1. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini bashorat qilish



**Bashorat qilish** — korxonada, tarmoq va sohalar hamda butun mamlakat miqyosida iqtisodiyot holatini ilmiy asoslangan holda oldindan ko‘ra bilish.

**Rejalashtirish** — faoliyat ko‘rsatkichlarini resurslar va vaqt bo‘yicha cheklangan sharoitda aniqlashni o‘z ichiga oluvchi boshqaruv vazifasi, rejalar ishlab chiqish jarayoni.

**Rejali tartib** — rejali topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish.

**Rejali ko‘rsatkichlar** — ishlab chiqarish va iste‘mol jarayonining reja davri ichida resurs ta‘minoti, parametrlarini belgilovchi reja topshiriqlarini ifodalaydigan son va sifat xususiyatlari.



Korxonaga foyda keltirish uchun bozor konyunkturasida to‘g‘ri yo‘nalishni tanlash, bozordagi o‘z o‘rnini to‘g‘ri va aniq belgilay olish, darhol olinadigan foydani emas, balki uzoq istiqboldagi rivojlanishni ko‘ra bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu va shu kabi vazifalar zaminida bashorat qilish va uning yakunlovchi qismi bo‘lgan rejalashtirish yotadi. U korxonada maqsadlarini shakllantirish, unga erishish vosita va usullarini aniqlash jarayonidan iboratdir.

Rejalashtirish natijasi reja xatti-harakatlarining motivlashtirilgan modeli bo‘lib, u iqtisodiy muhit va qo‘yilgan maqsadlarni bashorat qilish asosida yaratiladi.

Bashorat qilish, shuningdek, iqtisodiyotning u yoki bu holatiga erishishning muqobil yo'llari, usullari va muddatlarini tanlash yoki muhokama qilishni ham anglatadi.

Bozor munosabatlariga o'tishning birinchi bosqichida rejalashtirish go'yoki deyarli zarur emasdek bo'lib qoldi. Ayrim olim va mutaxassislar, ayniqsa, bozor va bozor munosabatlari tarafdorlari rejalashtirishni bozor mexanizmiga umuman to'g'ri kelmaydi va bozorning o'zi hamma narsani joy-joyiga qo'yadi deb hisoblaydilar. Yana boshqa bir motiv – iqtisodiyotni o'ta markazlashgan tarzda rejalashtirish va boshqarish natijasi – sobiq sho'ro iqtisodiyotining yirik muammo va inqirozlari natijasidir.

Rejalashtirish sifati va mezonlari muhim bo'lib, ularga ko'ra korxonada faoliyati baholanadi va bozor sharoitlarida uning barqarorligi ta'minlanadi. Shu sababli bozor rejalashtirishni umuman tan olmaydi deyish noto'g'ri bo'lar edi. Aksincha, raqobatli kurash sharoitlarida ishlab chiqaruvchilar va ta'minotchilar o'z faoliyatini sinchiklab rejalashtirishlari zarur. Turli xil buyruqlar, nazorat raqamlari va limitlarga asoslangan rejalashtirishni samarali va oqilona faoliyat ko'rsatishning majburiy vositasi bo'lgan rejalashtirish bilan adashtirmaslik kerak.

Aynan rejalashtirish va bashorat qilish nimani, qancha, qachon va kim uchun ishlab chiqarish kerak degan savollarga javob topadi.

Hozirgi kunda bashorat hisob-kitoblari bir qator yetakchi tarmoqlar tomonidan strategik dastur va rejalarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirishda foydalanilmoqda.

## **5.2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rejalashtirish tizimi va uslublari**

Ishlab chiqarishning turli usullarida, prognozlash (bashorat qilish) va rejalashtirishga barcha tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarda sabab-oqibat munosabatlari jarayoni sifatida qaraladi.

**Qishloq xo'jalik korxonalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda rejalashtirish quyidagi tamoyillarga tayanadi:**

– rejalashtirishning demokratik mustaqillikka asoslanishi, ya'ni korxonaning ishlab chiqarish moliya faoliyatini tashkil etishda, xo'jalik ichida iqtisodiy va agrar munosabatlarni joriy etishda har tomonlama mustaqillik va bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan boshqarish tizimini o'rnatishda demokratik qonun-qoidalarga amal qilish;

– rejalashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, ya‘ni korxonada uchun har bir gektar yerdan va har bir bosh chorvadan eng ko‘p foyda olinadigan ishlab chiqarish yo‘nalishini biznes-reja orqali asoslab olish va shu yetakchi bo‘g‘inga korxonaning barcha resurslarini jalb etib, ulardan oqilona foydalanish, rejani o‘z vaqtida bajarish hamda ishlab chiqariladigan tovar mahsulotlar miqdorini ko‘paytirish, assortimentlarini yaxshilash, mehnat sarfini kamaytirish uchun eng qulay sharoitlar yaratish;

– istiqbol va yillik rejalarning bir-biri bilan uyg‘unlashganligi va ilmiy jihatdan asoslanganligini ta‘minlash, ya‘ni korxonada yetakchi tarmoqdan eng ko‘p foyda olish atrofida, rejaning barcha qismlarini bir-biri bilan uyg‘unlashtirib, ular o‘rtasida mutanosiblikni o‘rnatish imkoniyati yaratiladi. Ko‘zda tutilgan maqsadga erishish uchun esa reja ko‘rsatkichlari ilmiy jihatdan asoslangan me‘yorlarga tayangan bo‘lishi kerak. Fan-texnika yutuqlari, zamonaviy ilg‘or texnologiyalardan foydalanish ishlab chiqarishni tashkil etishda rejalashtirish mexanizmidan keng foydalanishni talab etadi;

– ta‘minlash korxonada iqtisodiyotini barqarorlashtirish, ya‘ni korxonada yuzaga kelayotgan tangliklarni bartaraf etish uchun ko‘riladigan barqarorlashtirish chora-tadbirlari majmuasi, korxonada to‘la inqirozga uchrashiga chap berish maqsadida ishlab chiqarish va ishlab chiqariladigan mahsulotlar tarkibini o‘zgartirish chora-tadbirlarini avvaldan rejalashtirib, ishlab chiqarish xarajatlarini tejashga, mahsulot sifatini yaxshilashga, ularning raqobatbardoshligini oshirishga harakat qilish.

Ta‘kidlash lozimki, korxonada tuzilgan barcha turdagi rejalarning bajarilishining muntazam ravishda nazorat qilinishi va ularning o‘z muddatida bajarilishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi mehnat-kashlarning ish natijalari uchun javobgarligini kuchaytiradi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini rejalashtirish uchun lozim bo‘lgan me‘yorlar quyidagicha turkumlanishi mumkin:

– amal qilish muddati bo‘yicha – uzoq vaqt amal qiluvchi va joriy;

– qo‘llash sohasi bo‘yicha – tarmoqlararo, tarmoq va xo‘jalik;

– murakkablik darajasi bo‘yicha – oddiy, yiriklashgan, majmuaviy;

– ishlab chiqarish usullari bo‘yicha – hisob-tahliliy, tajribaviy, tajriba-statistik.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida, ishlab chiqarish salohiyatini, asosiy va aylanma mablag'larni, xo'jalik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, moliyaviy va boshqalarni baholash me'yori keng qo'llaniladi.

Me'yorlar amaliyotda quyidagi asosiy guruhlar bo'yicha ishlab chiqiladi:

- tirik mehnat sarfi me'yori;
- moddiy xarajatlar me'yori ;
- vaqt me'yori (asosiy, qo'shimcha va hokazo);
- mashina, asbob-uskuna va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish me'yori;
- ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish me'yori;
- atrof-muhitni muhofaza qilish me'yori;
- kapital qo'yilmalar samaradorligi me'yori;
- loyihadagi quvvatlarni o'zlashtirish me'yori;
- aylanma vositalar, ishlab chiqarish xajiralar me'yori va hokazolar.

Me'yorlar asosida, odatda, rejadagi davr uchun faoliyatning texnik-iqtisodiy va tashkiliy sharoitlari yotadi. Vaqt o'tishi yoki sharoitlarning o'zgarishi bilan, fan-texnika taraqqiyoti ta'siri ostida mavjud me'yorlar qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Ularni qayta ko'rib chiqishda ilg'or ishlab chiqarish tajribalari va yutuqlar hisobga olinishi lozim.

Me'yorlar qo'llanish miqyosi va me'yorlash obyektlariga ko'ra farqlanadi.

Me'yorlash asoslari qo'llanish miqyosiga ko'ra quyidagilarga taqsimlanadi:

- davlat va tarmoq standartlari va talablari asosida belgilangan me'yorlar;
- umumkorxonalar me'yorlari, ya'ni korxonaning o'zida ishlab chiqilgan va qo'llanuvchi me'yorlar;
- sex me'yorlari;
- predmetli, detalli va operatsion me'yorlar.

Me'yorlash obyektlariga ko'ra me'yorlar asoslari mehnat, moddiy, texnik va moliyaviy resurslarga taqsimlanadi.

Me'yorlash asoslari ishlab chiqarishni rejalashtirish va bashorat qilish uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi. U ishlab chiqarish xarajatlarini va ishlab chiqarilayotgan har bir mahsulot tannarxini aniq va bexato belgilashga imkon beradi.

Umuman olganda, me'yorlar, birinchidan, resurslarning ortiqcha sarflanishini oldini olish, ikkinchidan, korxonaning belgilangan ish

rejimini ta'minlash, uchinchidan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning belgilangan tavsifnomalardan chetga chiqishining oldini olish, to'rtinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish va me'yoriy mehnat sharoitlariga rioya qilish, beshinchidan, korxonada faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish uchun ma'lumotlar to'plamini yaratish maqsadida ishlab chiqiladi va belgilanadi.

Me'yorlash asoslarini yaratish bo'yicha ishlar uni ishlab chiqish joyi va organidan qat'i nazar, ishlab chiqarish iqtisodiyoti texnika va texnologiyalaridan yaxshi xabardor bo'lgan mutaxassislar, professional normativ guruhlari zimmasiga yuklatilishi lozim. Malakali va asoslangan tarzda ishlab chiqilgan norma va normativlarning amal qilish davri uzoq bo'lib, ular kamdan kam o'zgarishlarga uchraydi. Shunday bo'lsa-da, yuqorida aytib o'tilganidek, eng yaxshi norma va normativlar ham vaqt o'tishi bilan fan-texnika taraqqiyoti va ilg'or ishlab chiqarish tajribalari ta'siri ostida qayta ko'rib chiqiladi.

### 5.3. Qishloq xo'jaligi korxonasi biznes-rejasi


*Biznes («business») so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, ish degan ma'noni anglatadi. Biznes bilan mashg'ul bo'lgan odamlar biznesmenlar, ya'ni ishbilarmonlar deb ataladi.*

#### Biznes va tadbirkorlik o'rtasidagi farqlar

Biznes	Tadbirkorlik
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Erishilgan muvaffaqiyatni mustahkamlashga intilish, faoliyatning reproduktiv xarakteri.</li> <li>2. Foyda(daromad) keltiradigan ishga ega bo'lgan shaxs.</li> <li>3. Kapitalga egalik.</li> <li>4. Menejerlik iqtidoriga ega, doimiylikka intiladi, fikran va xatti-harakatlarda konservator.</li> <li>5. Kapitaldan daromad olish.</li> <li>6. Amaliyotda ko'proq uchraydi.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tashabbuskorlik, uddaburronlik, izlanuvchanlik, ijodkorlik, serg'ayratlilik.</li> <li>2. Ishga ega bo'lgan shaxs.</li> <li>3. Boshlang'ich kapitalga ega bo'lmasligi mumkin.</li> <li>4. Tavakkalchilikka moyillik, novatorlik, «ilohiy» iqtidorga egalik.</li> <li>5. Tadbirkorlikdan foyda olish.</li> <li>6. Amaliyotdakamroq uchraydi.</li> </ol>

Biznes, bu avvalo, ish ekanligi sababli, u amal qiluvchi sohadan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi, sanoat, savdo va bank biznesi kabi turlarga taqsimlanadi. Ishlab chiqarish miqyosiga bog'liq holda

esa biznesni kichik, o'rtta, yirik va xalqaro biznes turlarga ajratish mumkin. Biroq biznesning istalgan shakli va miqyosida ham undan pirovard ko'rsatgan maqsad foyda yoki daromad olish hisoblanadi.



5.1-rasm. Biznesning maqsadi.

To'g'ri ishlab chiqilgan biznes-reja ishlab chiqarishni faol rivojlantirish va shu bilan bir paytda uning dinamikasini nazorat qilishni, investorlar, hamkorlar hamda kredit resurslarini jalb qilishni amalga oshiradi. Eng asosiysi, u yoki bu ishlab chiqarishga pul kiritish joizmi, barcha xarajatlarni qoplovchi miqdorda daromad olinadimi degan savollarga javob beradi. To'g'ri, biznes-reja faqat shu bilan cheklanib qolmaydi, chunki u funksional vazifalariga ko'ra ishlab chiqarishni tashkil qilish, texnika va texnologiyalar, korxonaning moliyaviy rejalarini bilan bog'liq muhim masalalarni hal qilishga qaratiladi.

### **Biznes-reja tuzish tartibi va uni amalga oshirish yo'llari**

Biznes-reja, odatda, qat'iy hisob-kitoblarga asoslangan hujjat bo'lib, mavjud bozorlar holatini yaxshi tahlil qilib va o'z maqsadlarini aniq-ravshan ko'z oldiga keltira biladigan fermer xo'jaliklari rahbarlari tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi.

Bugungi kunga kelib fermer xo'jaliklari tomonidan juda ko'p turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Bunda asosiy e'tiborni fermer

bozorga, ya'ni sotiladigan mahsulotga qaratishi lozim. Xaridor nima uchun aynan sizning mahsulotingizni sotib olishi lozim, chunki boshqa fermer ham xuddi shunday mahsulot ishlab chiqaradi. Biznes-reja tuzishda xuddi shu jihatlarga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Chunki fermer xo'jaligi faoliyati natijalarini faqatgina bozordagi u yoki bu turdagi mahsulotlarga bo'lgan talab va taklif nisbati orqali hal qiladi.

Fermer xo'jaligida rejalashtirilayotgan ekinlar tarkibi xo'jalik imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Agar mos kelmasa, qanday qilib muvofiqlashtirish mumkin? Raqobatbardosh korxonalar o'rtasida bozordagi egallagan o'rinlarini, mahsulot sotishni, raqobatchilar mahsulotlarini tahlil qilish, qisqa muddatli bashoratlar qilish, baho siyosatini asoslash va amalga oshirish kabi masalalar biznes-rejaning qismlarida o'z aksini topishi lozim. Fermer xo'jaligi biznes-rejasida qanday mahsulot ishlab chiqarish orqali daromad olishi, mahsulot turlari, xizmatlar ko'rsatish yoki ishlab chiqarishda ko'zda tutiladigan mahsulotlar to'g'risida batafsil axborot beriladi.

Ya'ni unda:

- ishlab chiqaradigan mahsulotlarning iste'molchilari kimlar;
- xo'jalikning avvalgi yildagi moliyaviy ahvoli qanday holatda bo'lgan;
- qaysi turdagi (chorva mahsulotlari yoki dehqonchilik) mahsulot yetishtiradi;
- suv bilan qanday ta'minlangan, agar lalmi yerda dehqonchilik qilinsa, ishlab chiqarish natijalarining tabiiy omillarga bog'liqligi (yog'ingarchilik miqdoriga) kabi masalalar yoritilishi lozim.

Agar fermer xo'jaligi yangidan tuzilayotgan bo'lsa, boshlangan ish daromad keltirishini asoslab berishi kerak.

Qishloq xo'jaligida bisnes-rejaning ikki tomonlama ahamiyati bo'lib, bu ichki va tashqi zaruriyatlardan kelib chiqadi. Chunki u, birinchidan, tadbirkorlikning o'z ichki imkoniyatlarini baholay bilishga yordam beradi va shu bilan birga faqat tadbirkorlikgina emas, balki qishloq xo'jaligi korxonasidagi barcha ishlovchilardan to'la ishonch tug'dirishga, ikkinchidan, tashqi aloqalar o'rnatishga yordam beradi.



*«Biznes-reja» tuzishda xo'jalik rahbariyati va mutaxassislar ushbu masalalarga e'tibor berishlari lozim:*



1. Bozordagi aniq mahsulot turlariga bo'lgan talab va taklifni hisobga olgan holda ekin turlarini rejalashtirish, sotish shakllarini aniq bilish.
2. Rejalashtirilgan yilda ekiladigan ekin turlarini yerdan to'g'ri foydalangan holda joylashtirish.
3. Ekiladigan har bir ekin turi bo'yicha xo'jalikda texnologik kartalarni tuzishda mavjud me'yorlardan kelib chiqqan holda har bir hududning va xo'jalikning iqtisodiy geografik xususiyatlarini hisobga olish.
4. Moddiy va mehnat xarajatlari me'yorlariga qat'iy rioya qilish, moddiy xarajatlarni kamaytirish yo'llarini topish.
5. Ekiladigan ekinning hosildorligini to'g'ri belgilash.
6. Chorvachilikda poda harakatini tuzish.
7. Mollarning mahsuldorligini to'g'ri belgilash.
8. Mollar va parrandalarning ozuqaga bo'lgan talabining hisob-kitobini qilish.
9. Yuz boshdan buzoq, qo'zi olish hisob-kitobi esa xo'jalikning ishlab chiqarish yo'nalishini hisobga olgan holda belgilanishi lozim.
10. Ekish rejalashtirilayotgan ekin turini yoki chorva mollarini parvarish qilish bilan bog'liq sarf-xarajatlarini aniq hisob-kitob qilish.
11. Yil boshida mavjud qoldiqni saqlash xarajatlarining hisob-kitobini to'g'ri yo'lga qo'yish.
12. Erkin va shartnoma asosida sotiladigan mahsulotlarga bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda narx belgilash va yil davomida bozordagi baholarning o'zgarishiga qarab mahsulot sotish, shartnomada shartnoma bahosini to'g'rilab borishni ko'zda tutish.
13. Tayyorlov tashkilotlarining shartnoma asosida oladigan mahsulotlarini tashish xarajatlarining qoplash manbalari va miqdorini aniqlashni shartnomada aniq ko'rsatish.
14. Ishlab chiqarishda ishlatilmay foydasiz yotgan inventar, mashina va texnikalarni sotishni yo'lga qo'yish.
15. Xo'jalikda har bir tarmoqning foyda bilan ishlashini ta'minlash.
16. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqariladigan mahsulotlarga qilindigan mehnat va moddiy resurslar me'yori (kishi -soat, urug', yoqilg'i, moylash materiallari, mineral o'g'itlar va boshqalar ) belgilashda mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan me'yorlardan foydalanish.
17. Ekiladigan ekinlarning ish miqdorini, bajarilishi va xarajatlarini texnologik kartalarda ko'rsatiladigan davrlar bo'yicha, davr tugashi bilan tahlil qilib borish.

**Fermer xo'jaliklarida biznes-rejalar tuzish qisqa ko'rinishda quyidagi tartibda amalga oshiriladi:**



1. Fermer xo'jaligining manzili, aloqa uchun boshqa rekvizitlari, titul varag'ida korxonaning to'la nomi va mazmuni, manzilgohi, telefoni taqdim etiladi.

2. Ishlab chiqarish faoliyatining maqsadi va vazifalari aniq va ravshan, o'qiganda hamma tushunadigan, sodda tilda yoritilishi talab etiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini bashorat qilish va rejalashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. Biznes-reja nima?
3. Biznes-reja tuzishdan maqsad nima?
4. Biznes va tadbirkorlik o'rtasida qanday farq bor?
5. Biznes-rejada «Moliyaviy natija»lar qanday ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi?
6. Rejalashtirish deganda nimani tushunasiz?
7. Ekish uchun talab etiladigan yer maydoni qanday aniqlanadi?
8. Biznes-reja tuzishda talab etiladigan mehnat va moddiy resurslar sarflariga oid me'yorlar nimalardan iborat?
9. Biznes-reja tuzishdagi asosiy talablar qanday?
10. Biznes-reja tuzish tartibini qanday asoslaysiz?

### 6.1. Qishloq xo'jaligida infratuzilmaning mohiyati va ahamiyati



*Infratuzilma* — lotincha soʻz boʻlib, *infra-quyi, asos, structure (tuzilma)-tuzilish, oʻzaro joylashuv maʼnosini ifodalaydi.*

Infratuzilma milliy xoʻjalik ishlab chiqarish tarmoqlari va ijtimoiy sferaning umumiy sharoitini taʼminlash uchun xizmat qiladigan sohalar majmuasini ifodalaydi.

U ishlab chiqarish, texnologik, iqtisodiy va tashkiliy aloqalar jarayonida vujudga keladigan munosabatlar orqali qishloq xoʻjaligining samarali ishlashini taʼminlaydi. Infratuzilma jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining boʻlinmas qismi hisoblanadi.

U korxonaning samarali faoliyatini taʼminlaydi va qishloq xoʻjaligining pirovard mahsulotining miqdoran koʻp va sifatan yuqori boʻlishga yoʻnaltiradi. Infratuzilma qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishini intensivlashtirish va samaradorligini oʻsishining muhim omili hisoblanadi. Koʻp qirrali xizmat koʻrsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini rivojlantirish bozor iqtisodiyotiga xos muammolarni hal etishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Agrar sohada xoʻjalik yuritishda xizmat koʻrsatuvchi infratuzilmalarning oʻrni va ahamiyati beqiyosdir. Chunki qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonlarida, yaʼni yerni ekin ekishga tayyorlash, urugʻni yerga qadashdan boshlab, zarur agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish, yetishtirilgan mahsulotlarni yigʻib olish va boshqa barcha jarayonlarda turli xizmat koʻrsatuvchi infratuzilmalar ishtirok etadi.

Bundan tashqari qishloq xoʻjaligining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi albatta ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarni qanchalik taraqqiy etganligiga bogʻliqdir. Qishloq xoʻjaligida mahsulot hajmining oshishi, ishlab chiqarish infratuzilmalarining rivojlanishi xizmat turlarining koʻpayishi bilan bogʻliq. Hozirgi vaqtda nisbatan rivojlangan qishloq xoʻjaligiga xizmat koʻrsatuvchi infratuzilmalar, xususan, texnika,

agrokimyo, melioratsiya va oqar suv bilan ta'minlash, zooveterinariya, transport, seleksiya va urug'chilik, yoqilg'i-moylash materiallari, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash hamda ixtisoslashgan bank xizmatlarini sanab o'tish mumkin.

Demak, qishloq xo'jaligida infratuzilma faoliyatini rivojlantirish hozirgi zamon talablariga javob beradigan infratuzilma tizimini yaratish orqali nafaqat iqtisodiyotda asosiy vazifalarni hal etishi mumkin, balki eng asosiy makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ko'p ukladli iqtisodiyotni va haqiqiy mulk egasini shakllantirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni va valuta bozorini bosqichma-bosqich erkinlashtirish, samarali mehnat bozorini shakllantirish hamda aholi moddiy turmush sharoitining barqaror o'sishining ta'minlanishiga erishish mumkin.

Infratuzilma subyektlari har qanday iqtisodiyotning asosiy tarkibi hisoblanib, ko'rsatilayotgan turli xizmatlari bilan barcha tarmoq va sohalarning iqtisodiy barqaror rivojlanishiga asosiy poydevor yaratadi.

Infratuzilma subyektlari qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish munosabatlari va qishloqni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish va ta'minot tizimidagi korxonalar faoliyati rivojlantirilmasdan qishloq xo'jaligida iqtisodiy barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, qishloq xo'jaligi korxonalari va dehqonlarning daromadlarini ko'paytirish mumkin emas.

### ***Infratuzilmaning asosiy vazifalari:***

— *qishloq xo'jaligiga tovar — moddiy boyliklarni yetkazib berish (urug'chilik, ko'chat, YMM, mineral o'g'it, kimyo vositalari, suv ta'minoti);*

— *qishloq xo'jaligiga texnika va texnik servis xizmatlar ta'minoti;*

— *o'simliklarni himoya qilish va zooveterinariya xizmatlari;*

— *qishloq xo'jaligida mahsulotlarni saqlash, tayyorlash va qadoqlash xizmatlari;*

— *aloqa, transport, energetika va suv bilan ta'minlash xizmati;*

— *bank xizmati;*

— *birja va brokerlik xizmati;*

— *ulgurji savdo va yarmarkalar xizmati;*

— *audit va sug'urtalash xizmati;*


— *axborot va konsalting markazlari;*

— *fermerlarni tayyorlash va qayta o'qitish;*

— *yuridik xizmatlar.*

Qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini rivojlantirish, qayta tashkil etish va takomillashtirishning eng muhim obyektiv zaruriyati turli mulkchilik va xo'jalik yurituvchi subyektlarning yuzaga kelishi, mayda tovar ishlab chiqaruvchilarga aylanishi, ular umumiy sonining ortishi, har biriga birlashtirilgan yer maydonlari hajmining kichiklashib borishi va boshqalardan iborat.

**Qishloq infratuzilmalari va ularning tarkibi**  
quyidagilardan iborat:



6.1-rasm. Qishloq infratuzilmalari va ularning tarkibi.

### ***Qishloqda infratuzilma obyektlarining rivojlanirishi:***

- avvalo, ish bilan band bo'lmagan aholining qo'shimcha ish o'rinlari bilan ta'minlanishiga asos bo'ladi;
- aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilashga xizmat qiladi;
- sanoatni qishloqqa olib kirilishiga turtki bo'ladi;
- qishloq xo'jaligi korxonalaridan yetishtirilayotgan mahsulotlarning yo'qotilishining oldini oladi;
- qishloq hududlarida qishloq xo'jaligi va unga xizmat ko'rsatish hamda ta'minot yo'nalishidagi sohalar o'rtasida mustahkam iqtisodiy aloqaning yo'lga qo'yilishiga sabab bo'ladi;
- xizmat ko'rsatish va ta'minot tizimida raqobat muhitini yaratish asosida qishloq xo'jaligi tarmog'ini barqaror rivojlanishini ta'minlaydi;
- mahsulot yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

## **6.2. Qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish, ijtimoiy infratuzilmasi va uni boshqarish**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Chunki, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning barcha jarayonlarida, jumladan, yerni ekin ekishga tayyorlash (yerni tekislash, shudgorlash), urug'ni yerga qadashdan boshlab, zarur agrotexnik tadbirlar o'tkazish, yetishtirilgan mahsulotlarni yig'ib-terib olish va boshqa bo'ladigan jarayonlarda turli servis xizmatlari ko'rsatilyapti.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi ishlab chiqarish mablag'lari hamda ularning uzoq muddat ishlashini ta'minlaydigan tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibiga bevosita qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi tarmoqlar: ishlab chiqarishga yo'naltirilgan transport, ta'mirlash ustaxonalari, ombor xo'jaliklari, kommunikatsiya tizimi va telegraf, aloqa, elektroenergiya uzatish liniyalari, texnik xizmat stansiyalari, ilmiy ishlab chiqarish laboratoriyalari, hisoblash markazlari kiradi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishiga ko'pgina omillar ta'sir etadi. Ularning ichida tuproq-iqlim sharoiti, hudud relyefi, suv bilan ta'minlanishi, yer hududi konfiguratsiyasi, yo'l holati, korxonaning joylashishi, ishlab chiqarish obyektlarining joylashishi, qo'llanilayotgan texnologiyalar, ishlab chiqarishning ixtisoslashishi darajasi muhim ahamiyatga ega.

*Ijtimoiy infratuzilmaning asosiy vazifasi qishloq aholisining ijtimoiy-maishiy sharoitlarini kelgusida yaxshilash hisoblanadi.*

Ijtimoiy turmushga ta'sir o'tkazuvchi infratuzilmaning asosiy jihatlari quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona joylashtirish;
- aholi mehnat faolligi ko'lamini kengaytirish;
- mehnat resurslari safarbarligini tartibga solish;
- bo'sh vaqt fondini boyitish va undan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash uchun imkoniyat yaratish;
- ishchi kuchini takror ishlab chiqarishga ta'sir etish.

Ijtimoiy infratuzilma murakkab vazifalar tizimidan iborat bo'lib, unda barcha unsurlar o'zaro bog'langanki, ulardan birining rivojlanishdan ortda qolishi, boshqalaridan samarasiz foydalanishga sabab bo'ladi. Shu boisdan mintaqa ijtimoiy infratuzilmasining majmuaviy tarzda rivojlanishini ta'minlash muhim vazifadir.


Qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali mehnat jarayonida bo'lgani kabi, ishlovchi kuchini takror ishlab chiqarishda ham zarur shart-sharoitlar yaratishni talab etadi. Bu vazifani bajarishga ijtimoiy infratuzilma bo'limlari va xizmat sohalari yo'naltirilgan.

Ijtimoiy infratuzilma o'zida mehnat jarayonida ishlovchilarni samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining bir qismini aks ettiradi. Ijtimoiy infratuzilmaning asosiy vazifasi qishloq aholisining ijtimoiy-maishiy sharoitlarini kelgusida yaxshilash hisoblanadi. Ijtimoiy infratuzilma sohalari mahsulot yaratishda bevosita ishtirok etmaydi, lekin ular ishlab chiqarish jarayonining me'yoriy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydilar.

Ijtimoiy infratuzilmaning ahamiyati shundaki, u ishlab chiqarishning zarur malakali kadrlarga bo'lgan talabini qondirishni tartibga soladi, kadrlarni takror ishlab chiqarishga va qishloq xo'jaligiga bog'lanib ketishiga ko'maklashadi, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligini ta'minlaydi.

Ijtimoiy infratuzilma bo'limlari nafaqat korxonalar, balki ularning oila a'zolari kommunal-maishiy talablarini qondirish uchun ham shart-sharoitlarni yaratishda qatnashadi.

Ijtimoiy infratuzilma obyektlarini tashkil etish va maqsadga muvofiq ishlab turishi ular joylashgan qishloq xo'jalik korxonasi qishloq rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Xo'jaliklar ijtimoiy



6.2-rasm. **Ishlab chiqarish infratuzilmasi.**

infratuzilma bo'limlarini shakllantirishga zarur moddiy, pul va mehnat resurslarini ajratadilar.

### ***Ijtimoiy infratuzilmaning tarkibi va tuzilishi.***

Qishloq xo'jaligida ijtimoiy infratuzilma obyektlariga kommunal uy-joy xo'jaliklari, tibbiyot va maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ovqatlanish tashkilotlari, o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari, mehnat muhofazasi bo'yicha xizmat sohalari, sport-sog'lomlashtirish tashkilotlari, ishlovchi – xizmatchilarga xizmat ko'rsatuvchi transport, aloqa va axborot xizmati bo'limlari kiradi.

Maqsadli yo'nalishi, shakllanish manbayi, hududiy joylashuvi va ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko'ra, ijtimoiy infratuzilma obyektlari xizmat sohaslarini 2 guruhga bo'lish mumkin.


Birinci guruhga korxonalar hisobidan barpo etilgan xo'jalik bo'limlarida joylashgan va mehnat sharoitlari, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish jarayonida ishlovchilarning hordiq olishini, sharoitlarni



yaxshilashga qaratilgan obyektlar tegishlidir. Bu guruh tarkibiga brigadalaridagi va chorva mollari fermalaridagi maishiy inshootlar, bo'limlardagi umumiy ovqatlanish punktlari (bufetlar, oshxonalar), sog'liqni saqlash, madaniyat va hordiq obyektlari (profilaktoriyalar, vrach kabinetlari, o'quv zallari va boshqalar), yong'inga qarshi punktlar kiradi.

Ular chorvachilik majmualariga, fermalariga, ustaxonalariga, traktor parklariga, dala stansiyalariga joylashtiriladi.

Ikkinchi guruhga qishloq xo'jalik korxonalarining aholi punktlariga joylashgan, aholining kommunal uy-joy talablarini qondirish uchun mo'ljallangan va qoida bo'yicha davlat resurslari hisobiga va katta korxonalar va agrosanoat uyushmalarining maxsus vositalari hisobiga tashkil etilgan ijtimoiy infratuzilma obyektlari, maishiy xizmat ko'rsa-



6.3-rasm. Ijtimoiy infratuzilmaning tarkibi.

tish korxonalari, sog‘liqni saqlash, sport, maktab va maktabgacha tarbiya muassasalari, madaniyat uylari va klublar, savdo korxonalari taalluqlidir.


Ijtimoiy infratuzilmaning ushbu obyektlari qishloq joylaridagi aholining, mehnat sohasidagi va ijtimoiy ahvolidan qat’i nazar hammasiga xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan.

Ijtimoiy infratuzilma qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining xususiyatlarini aks ettiradigan o‘ziga xos jihatlarga ega. Ijtimoiy infratuzilma obyektlari qishloq xo‘jaligi korxonalari resurslari va qishloq aholisi pul mablag‘lari yoki davlat investitsiyalarini yashash joylari, bolalar bog‘chalari, maktablar, shifoxonalar, aloqa tarmoqlari va boshqa qurilishlarga samarali sarflash orqali barpo etiladi.

### 6.3. Bozor infratuzilmasi

*Bozor infratuzilmasi — mahsulot (xizmatlar) ishlab chiqaruvchini iste‘molchi bilan yagona bozor makonida birlashtirib, ishlab chiqarish va iste‘mol ko‘lamlari o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etuvchi va uning barcha ishtirokchilari o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishishlarini ta‘minlovchi muassasalar hamda vositachilik tarkiblari tizimidir.*

#### Bozor infratuzilmasining asosiy obyektlari




6.4-rasm. Bozor infratuzilmasi.

Bozor munosabatlarini shakllantirishni tegishli muhitsiz, tovar-pul va mehnat resurslari bozorlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlashi kerak bo'lgan infratuzilmasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Moliya, bank-kredit tizimlari bilan bog'liq masalalarni hal qilish, sug'urta, auditorlik, yuridik va konsalting firmalari hamda kompaniyalarini, birja tizimini yaratish zarur.

Bozor infratuzilmasining asosiy maqsadi tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga yetib borishi va ularning ehtiyojlarini qondirish borasida qulay sharoitlar yaratish orqali iqtisodiy tizimning samarali faoliyat yuritishini oshirishga qaratilgan.

Bozor infratuzilmasi respublikada vujudga kelayotgan umummilliy va mintaqaviy bozorlarning ishlashini, davlatlararo iqtisodiy munosabatlarning tartibga solinishini ta'minlaydi.



Agrar tarmoqda bozor infratuzilmasi barcha tarmoqlar o'rtasida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol o'rtasidagi munosabatlarni bog'lab, iqtisodiyotda moddiy, moliyaviy va axborot zaxiralarning aylanishini tezlashtirib, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishini ta'minlaydi. Infratuzilma iqtisodiy-huquqiy, savdovositachilik, moliya-kredit, tashqi iqtisodiy va axborot xizmatlari ko'rsatishda ishtirok etib, qishloq xo'jaligi subyektlarining iqtisodiyotdagi barcha subyektlar bilan moddiy va moliyaviy resurslar harakatini bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi.

6.5-rasm. Bozor infratuzilmasi obyektlari.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Qishloq xo'jaligida infratuzilmaning mohiyati nimada?
2. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi tarkibi jihatidan nechtaga bo'linadi?
3. Ishlab chiqarish infratuzilmasi vazifalari nimalardan iborat?
4. Qishloq xo'jaligida ijtimoiy infratuzilmaning o'ri qanday?
5. Bozor infratuzilmasi muassasalari maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
6. Infratuzilmaning turkumlashtirilishi qanday olib boriladi?
7. Qishloqlarda xizmat ko'rsatish va servis shoxobchalari faoliyatining ahamiyati qanday?
8. Qishloqda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalar barpo etish deganda nimani tushunasiz?
9. Qishloqda infratuzilma obyektlarini rivojlantirishning qanday yo'nalishlari mavjud?
10. Qishloq xo'jaligida infratuzilma faoliyati qanday baholanadi?

## **7-bob. QISHLOQ XO‘JALIGIDA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARNI AMALGA OSHIRISH ASOSLARI**

### **7.1. Shartnoma to‘g‘risida umumiy tushunchalar**

**Shartnoma** — bu bozor munosabatlari sharoitida barcha mulk shaklidagi korxonalar, shuningdek, qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda boshqaruv organlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladigan asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi.

#### **Xo‘jalik shartnomasining tushunchasi va xususiyatlari:**

Taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish majburiyatini olish, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to‘lash majburiyatini olish bo‘yicha tuzilgan kelishuv **xo‘jalik shartnomasi** deyiladi.



#### **Xo‘jalik shartnomasi:**

- faqat tadbirkorlik faoliyati sohasida, ya‘ni foyda olish maqsadida;
- yuridik shaxslar va yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar o‘rtasida;
- tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risida;
- faqat yozma tarzda tuziladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalari ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning samaradorligini ta‘minlash maqsadida sifatli, arzon, ekologiyaga salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydigan zarur qishloq xo‘jalik mashinalarini, kimyoviy vositalarni, yoqilg‘i va boshqa zarur materiallarni bevosita sanoat tarmoqlaridan sotib olish uchun shartnoma tuzadilar. Ular, shuningdek, texnikalarini ta‘mirlatish, yerlarni haydash, hosilni yig‘ib-terib olish maqsadida ixtisoslashgan mashina-traktor parklari bilan, hasharotlarga hamda zararkunandalarga qarshi kurashish maqsadida esa kimyoviy xizmatlarni amalga oshiradigan tashkilotlar bilan, ekinlarning suvga bo‘lgan talabini qondirish uchun suv xo‘jaligi tashkilotlari bilan shartnomalarni rasmiylashtiradilar. Shartnomalarning shartlari

bajarilishini tomonlar, albatta, ta'minlashlari kerak. Shunda buyurtmachining ham, bajaruvchining ham faoliyati samarali bo'lib, yaxshi natijalarga erishiladi.

Lekin amaliyotda buyurtmani bajaruvchilar shartnomada ko'rsatilgan muddatda texnikalarni, mineral o'g'itlarni, kimyoviy vositalarni, yoqilg'ini, ozuqa moddalarini iste'molchilarga yetkazib bermaslik, ularni suv bilan to'liq ta'minlamaslik holatlari vujudga kelmoqda.


Bunday kamchiliklar aksariyat hollarda shu tadbirlar to'g'ri tashkil etilmaganligi oqibatida yuz bermoqda. Majmuadagi munosabatlar maqsadga muvofiq tashkil etilmaganligi yetishtirilayotgan mahsulot miqdoriga, uning sifatiga salbiy ta'sir etadi.

Chunonchi, talab etilgan suv ekinga vaqtida berilmasligi oqibatida, avvalo, uning o'sishi susayib, hosil to'plashi kamayadi, talab etilgan texnika vaqtida borib, hosilni terib olmasa, hosil salmog'i kamayib, sifati pasayadi.

Shuning uchun shartnomada ko'rsatilgan shartlar muddatida, sifatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan barcha chora-tadbirlarni ko'rish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun tomonlar juda intizomli, mas'uliyatli, bir-biriga hurmatda, madaniyatli bo'lishlari kerak. Bu bozor iqtisodiyoti munosabatlarining eng muhim talabidir.

Shartnomaning mukammal, adolatli, tomonlar uchun o'zaro foyda asosida tuzilishi va shu bilan birgalikda tomonlar o'z huquqlari doirasida talab qila olishlari hamda o'z majburiyatlarini so'zsiz bajarishlari muhim ahamiyatga ega.

**Shartnomalar erkin tuziladi, shartnomaning majburiy tarzda tuzilishi qonunchilik hujjatlariga asosan taqiqlanadi va jinoyat hisoblanadi**



7.1-rasm. Qishloq xo'jaligida shartnomalarning tarkibi.

## 7.2. Shartnomaviy munosabatlarni amalga oshirishning asoslari

Shartnomaviy munosabatlarni tashkil etishda har bir tizimning samarali ishlashini tashkil etish butun texnologik jarayonni samarali ishlashiga olib keladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining faoliyatida shartnoma munosabatlari muhim o'rin egallab, ular asbob-uskunalar, texnika, yoqilg'i-moylash materiallari, o'g'it, qurilish materiallari va boshqa moddiy-texnik vositalarga ega bo'lish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berish, xo'jaliklararo hamkorlik, yerdan foydalanish va yer ijarasi, sarmoya sarflash jarayoni, qishloq xo'jaligi korxonalarining jamg'arma bozorida qatnashuvi, sug'urta, mahsulot tashish va boshqa xo'jalik faoliyatlarini qamrab oladi.

Mulkchilikning o'zgarishi turli xilda vujudga kelgan korxonaning faoliyat ko'rsatishidagi mustaqilligi, rivojlanish dasturlarini o'zlari ishlab chiqqanliklari, tuzilgan shartnomalar bo'yicha faqat o'zlari javobgarligi bundan buyon tobora chuqurlashib boradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir munosabat shartnoma asosida amalga oshiriladi va qonun ustuvorligi hukmronlik qiladi.

Majburiyat — fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

Majburiyatlar quyidagi:

— shartnomadan;

— ziyon yetkazish natijasidan;

— qonun hujjatlarida belgilangan boshqa asoslardan kelib chiqadi.

Xo'jalik shartnomasi shartnoma shartlariga hamda qonun hujjatlarining talablariga muvofiq ravishda, bunday shartlar va talablar bo'lmagan hollarda esa ish muomalasi odatlariga muvofiq bajarilishi lozim.

Xo'jalik shartnomasining bajarilishi garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat hamda qonun hujjatlari yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ta'minlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 29-avgustdagi 12-sessiyasida qabul qilingan va 1998-yil 1-noyabrdan kuchga kiritilgan

«Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida»gi qonunni qabul qilishi esa barcha shartnomaviy munosabatlarning huquqiy asosini, me‘yorini, maqsadini, vazifasini, huquq va burchlarini o‘zida mujassamlashtirdi.

Respublika Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi va boshqa huquqni himoya qiluvchi organlar, viloyat hokimlari shartnomaviy mas‘uliyatga doir juda katta ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Fuqarolik kodeksida ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvlari shartnoma deb ko‘rsatilgan. U ikki va ko‘p tomonlama o‘zaro kelishuv bitimlari shaklida vujudga keladi.

Qonun bo‘yicha shartnomaning maqsadi xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish vaqtida yuzaga keladigan barcha huquqiy munosabatlarni tartibga solishdir.

Shartnomalarni tuzishning huquqiy asoslari, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va majburiyatlarining nimadan iborat ekanligi mahalliy davlat hokimiyati organlarining va davlat boshqaruv organlarining shartnomaviy munosabatlardagi vakolatlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

### **7.3. Qishloq xo‘jalik korxonalarini tomonidan tuziladigan shartnomalar**

Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha turdagi tadbirkorlik subyektlari o‘z maqsadlariga o‘zaro turli xildagi munosabatlarni amalga oshirish orqali erishadilar. Chunki bu erkin, raqobatli bozor iqtisodining asosiy shartlaridan biridir.


Bu munosabatlar ko‘lamiga ko‘ra:

- davlatlararo;
- davlat bilan korxonalar, tashkilot, fuqarolar o‘rtasida;
- korxonalar, tashkilotlararo;
- korxonalar, tashkilotlar bilan ishchilar o‘rtasida, nihoyat, fuqarolar o‘rtasida amalga oshiriladi.


Demak, bu munosabatlar ikki yoki bir necha tomonlar o‘rtasida amalga oshiriladi. Odatda, bu munosabatlar og‘zaki yoki yozma shakldagi kelishuvlar asosida amalga oshiriladi. Ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati beqiyosdir. Jumladan, tomonlar og‘zaki kelishuvlarga asoslangan holda turli xildagi masalalarni tezkorlik bilan hal etilishini



ta'minlab beradilar. Bu so'zsiz iqtisodiyotga ta'sir etadi. Lekin og'zaki kelishuvlar yuridik kuchga, huquqqa ega emas. Shuning uchun bozor subyektlari barcha munosabatlarni yozma ravishda, hujjatlashtirilgan holda amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun tomonlar kelishilgan holda shartnomalar tuzadilar (7.2, 7.3- rasmlar).



7.2-rasm. Shartnomalarning turlari.



7.2-rasm. Davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik mahsulotlari xarid qilish shartnomalari.

Hozirgi davrda qishloq xo'jalik korxonalarini davlat buyurtmalarini (paxta xomashyosiga hamda g'allaga nisbatan) bajarish maqsadida davlat tomonidan belgilangan tashkilotlar bilan kontraktatsiya shartnomalarini belgilangan muddatlarda tuzadilar. Davlat buyurtmalaridan ortiqcha bo'lgan hamda sabzavot, kartoshka, bog'dorchilik, chorvachilik va boshqa mahsulotlarni erkin bozorda sotish uchun ularni oluvchilar bilan fyuchers shartnomalarini tuzishlari mumkin.

Dehqon, fermer xo'jaliklari va agrofirmalar mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mineral o'g'itlarni, boshqa kimyoviy vositalarni, yoqilg'i-moylash materiallarini, barcha turdagi texnikalarni, ehtiyot qismlarini sotib olish hamda barcha turdagi xizmatlarni ko'rsatuvchi subyektlar bilan fyuchers shartnomasini tuzmoqdalar.

Kontraktatsiya shartnomalari, shuningdek, moddiy-texnika resurslarini yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) yuzasidan tuziladigan shartnomalar xo'jaliklarning biznes-rejalarida nazarda tutilgan holatlardan kelib chiqqan holda, agrotexnika tadbirlarini amalga oshirish boshlanishidan 1 oy oldin, lekin kalendar yil boshlanishdan kechikmay tuziladi. Shartnomalarni tuzishga xo'jalik, tashkilot rahbarlari mutaxassislari bilan birgalikda, ijodkorlik ruhida barcha ijobiy xislatlarga asoslanib, burch va mas'uliyatlarini tushunganlari holda yondashishlari lozim. Shundagina ularning sifatli va o'z vaqtida tuzilishi ta'minlanadi. Barcha turdagi shartnomalar respublikada ishlab chiqilgan namunaviy shakllarga amal qilingan holda manfaatdor subyektlar tomonidan mustaqil holda tuzilishi lozim.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish va ularni bajarishda paydo bo'ladigan munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek, ularni tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarida ro'yxatdan o'tkazish hamda bajarilishi monitoringini olib borish tartibini belgilaydi.

**Kontraktatsiya shartnomasi** bo'yicha xo'jalik bunday mahsulotlarni qayta ishlash yoki sotish uchun xarid qiluvchi shaxsga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kelishilgan muddatlarda berish majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa muayyan narx bo'yicha kelishilgan muddatlarda haq to'lab, ushbu mahsulotlarni sotib olish majburiyatini oladi.

**Moddiy-texnika resurslari** (ehtiyot qismlar, urug'lik, o'simliklarni himoya qilish vositalari, yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'it va boshqalar) yetkazib berish yuzasidan tuzilgan shartnoma bo'yicha yetkazib beruvchi tashkilot xo'jalikka o'zi ishlab chiqaradigan yoki xarid qiladigan moddiy-texnika resurslarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda foydalanish uchun kelishilgan muddatda yetkazib berish majburiyatini oladi, xo'jalik esa moddiy-texnika resurslarini qabul qilish olish va ular uchun belgilangan yoki kelishilgan narxlar bo'yicha haq to'lash majburiyatini oladi.

Xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) yuzasidan tuzilgan shartnoma bo'yicha bajaruvchi tashkilot xo'jalik buyurtmasiga binoan mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish, servis, agrokimyo agrotexnika

xizmatlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan bog'liq boshqa xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash majburiyatini oladi, xo'jalik esa ushbu ishlar (xizmatlar)ni qabul qilib olish va ular uchun belgilangan yoki kelishilgan narxlar bo'yicha haq to'lash majburiyatini oladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini davlat zhtiyohlari uchun xarid qilish mavjud bo'lgan taqdirda tayyorlov tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyohlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg'armasi bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari xarid qilishni mablag' bilan ta'minlash to'g'risida belgilangan tartibda shartnomalar tuzadi.

Xo'jaliklar bilan tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotish, moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) yuzasidan tuzilgan barcha turdagi shartnomalar tuman, qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

Shartnomalarni tuzish va bajarishda tomonlardan har biri o'z majburiyatlarini eng yuqori tejam bilan, boshqa tomonlarning iqtisodiy manfaatlariga rioya qilgan holda bajarishi, majburiyatlarning zarur darajada bajarilmasligi natijasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan zararining oldini olish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'rishi va boshqa tomonni ushbu chora-tadbirlar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilishi, shuningdek, unga majburiyatlarni bajarishda ko'maklashishi kerak.

**Mehnat shartnomasi** xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishning ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida tegishli haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir. Xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflari bo'lib hisoblanadilar.

***Mehnat shartnomasida taraflarning kelishuvi bilan quyidagilar belgilanadi:***

- *ish joyi (korxonada yoki uning bo'linmasi);*
- *xodimning mehnat vazifasi — mutaxassisligi, malakasi, u ishlaydigan lavozim;*
- *ishning boshlanish kuni;*
- *mehnat shartnomasi muayyan muddatga tuzilganda uning amal qilish muddati;*
- *mehnat haqi miqdori va mehnatning boshqa shartlari.*

#### **7.4. Shartnomalarning bajarilishida tomonlarning javobgarligi va shartnomalar bajarilishi monitoringi**

Shartnoma ijrosini ta'minlash va ular yuzasidan mansabdor shaxslarning javobgarligi quyidagilardan iborat:

- boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'laydi;
- xo'jalikka mahsulot yetkazib berish uchun berilgan bo'nak pulini qaytaradi;
- qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan jarimani to'laydi.

**Kontraktatsiya shartnomalarining bajarilishida tomonlarning javobgarligi.**

1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kontraktatsiya shartnomasida belgilangan assortiment va turlarda, muddatlarda topshirishdan asossiz bo'yin tovlagan xo'jalik tayyorlovchiga topshirilmagan mahsulot qiymatining 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarima miqdori o'tgan davr (oy, chorak, yil)da mahsulotning shakllangan o'rtacha narxidan kelib chiqib, xarid narxlariga belgilangan ustamalar to'lashni hisobga olmasdan hisoblab chiqiladi. Bundan tashqari, zararning mahsulot yetkazib berilmaganligi tufayli yuzaga kelgan, jarima bilan qoplanmagan qismi ham to'lanadi.

2. Qishloq xo'jaligi mahsulotini kontraktatsiya shartnomasida belgilangan assortiment, turlar va muddatlarda qabul qilib olish rad etilgan har bir holat uchun tayyorlov tashkiloti xo'jalikka belgilangan ustamalar to'lashni hisobga olmasdan shakllangan o'rtacha narxdan kelib chiqib qabul qilinmagan mahsulot qiymatining 25 foizi miqdorida jarima to'laydi, tez buziluvchi mahsulot bo'yicha esa — uning to'liq qiymatini to'laydi. Bundan tashqari, mahsulotni qabul qilish rad etilganligi tufayli xo'jalik ko'rgan zararning jarima bilan qoplanmagan qismi ham to'lanadi.

3. Kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq topshirilgan (yuklab jo'natilgan) qishloq xo'jaligi mahsuloti uchun haq to'lashdan asossiz bosh tortilganda (xo'jalikka tegishli summalarni, belgilangan ustamalarni ham qo'shib, o'z vaqtida hisoblab o'tkazmaganlik, hisob-kitoblarning aksept shaklida esa to'lov topshirig'i akseptini asossiz to'liq yoki qisman rad etganda) tayyorlov tashkiloti xo'jalikka to'lanmagan summani, o'zi to'lashdan bosh tortgan summaning 15 foizi miqdoridagi jarimani to'laydi. Tayyorlov tashkiloti jarimadan tashqari xo'jalikka muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun belgilangan muddatda to'lanmagan summaning 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati

o'tkazib yuborilgan summalarning 50 foizidan ortiq bo'lmagan penyani to'laydi.

4. Xo'jalikni standartlar talablari va texnik shartlarga javob beradigan, mahsulotning tegishli turlarini xarid qilishni tartibga soluvchi yo'riqnomalar va qoidalarda yoki kontraktatsiya shartnomasida belgilangan miqdorda va muddatlarda idish va o'rash materiallari bilan ta'minlanmaganligi uchun tayyorlov tashkiloti xo'jalikka yetkazib berilmagan idish, o'rash materiallarining yetkazib berish vaqtida amalda bo'lgan qiymatining 2 baravari miqdorida jarima to'laydi. Tayyorlovchining xo'jalikni idish bilan ta'minlamaganligi mahsulot sifatining pasayishiga yoki mahsulotning buzilishiga olib kelgan bo'lsa, tayyorlov tashkiloti xo'jalikka ko'rilgan zararining jarima bilan qoplanmagan qismini ham to'laydi. Bunda xo'jalik sifatsiz qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib berilganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

**Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmat ko'rsatish shartnomalarining bajarilishida tomonlarning javobgarligi.**

1. Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xo'jalikka belgilangan ustamalardan tashqari yetkazib berilmagan moddiy-texnika resurslari yoki ko'rsatilishi kerak bo'lgan xizmatlar qiymatining 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xo'jalikka moddiy-texnika resurslari yetkazib berilmaganligi, ishlar bajarilmaganligi yoki xizmatlar ko'rsatilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni to'laydi.

2. Yetkazib berish muddati kechiktirilgan, tovarlar yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan taqdirda xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xo'jalikka muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomaning zarur darajada bajarilishidan va yetkazib berish kechiktirilganligi, tovarlar to'liq yetkazib berilmaganligi, ishlar bajarilmaganligi yoki xizmatlar ko'rsatilmaganligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod qilmaydi.

Xizmat ko'rsatish tashkilotlarining aybi bilan xo'jaliklar tomonidan kontraktatsiya shartnomalari bajarilmasligi (zarur darajada bajarilmasligi) natijasida yetkazilgan zarar ushbu tashkilotlar tomonidan belgilangan tartibda qoplanadi.

## **Shartnomalar bajarilishidagi umumiy holatlarda javobgarlik.**

1. Tomonlar o'rtasida kelishilgan jadvalga muvofiq kelgan transportning belgilangan muddatdan ortiqcha bekor turib qolganligi uchun aybdor tomon bekor turib qolish bilan bog'liq xarajatlarni to'laydi. Bekor turib qolish vaqti tomonlar o'rtasida imzolangan dalolatnomaga muvofiq rasmiylashtiriladi.

2. Tovar-transport hujjatini rasmiylashtirish rad etilganligi yoki noto'g'ri rasmiylashtirilganligi uchun aybdor tomon boshqa tomonga tovar-transport hujjatini rasmiylashtirish rad etilganligi yoki noto'g'ri rasmiylashtirilganligining har bir holati uchun eng kam oylik ish haqi miqdorida jarima to'laydi. Yuklab jo'natilgan tovarlarga to'lov yoki tovar-transport hujjatining nusxasi belgilangan muddatda yuborilmaganligi yoki tovarlar yuklab jo'natilganligi to'g'risida boshqa axborot taqdim etilmaganligi uchun aybdor tomon har bir holat uchun tovar qiymatining 1 foizi miqdorida jarima to'laydi.

3. Zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar natijasida oldindan ko'rish va bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar (fors-major holatlar) munosabati bilan ularning irodasi va xohishiga bog'liq bo'lmagan sabablar bo'yicha o'z zimmalariga olgan shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi uchun bir tomon boshqa tomon oldida javob bermaydi.

3. Tomonlarning kelishuviga ko'ra shartnomada shartnoma majburiyatlari bajarilmasligi yoki zarur darajada bajarilmasligi uchun javobgarlikning amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa choralari ham nazarda tutilishi mumkin.

Tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechikmay har oyda xo'jaliklar joylashgan joydagi tegishli tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarini paxta, boshhoqli ekinlar ekish bo'yicha xo'jaliklar bilan tuzilgan shartnomalar bajarilishining borishi to'g'risida xabardor qiladi.



### ***Shartnomalar bajarilishi monitoringini olib borish tartibi.***

*Tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari xo'jaliklar bilan tuzilgan shartnomalar bajarilishi monitoringini o'tkazadi.*

*Shartnomalar bajarilishi monitoringini olib borish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 383-qarorida belgilab berilgan.*

*Bu tartibga ko'ra ushbu maqsadlarda tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlarida har bir xo'jalik bo'yicha shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va ularning bajarilishini monitoring qilish daftari yuritiladi.*

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechikmay har oyda xo'jaliklar joylashgan joydagi tegishli tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarini paxta, boshqoqli ekinlar doni yetishtirish uchun xo'jaliklar bilan moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) bo'yicha tuzilgan shartnomalar bajarilishining borishi to'g'risida xabardor qiladi.

Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari xo'jaliklar tomonidan taqdim etilgan axborotni 5 kun muddatda (15 kunda) viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalariga yuboradi.

Viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari viloyat bo'yicha shartnomalar bajarilishining borishini 5 kun muddatda (20 kunda) umumlashtiradilar hamda tumanlar, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari bo'yicha yig'ma axborot tayyorlaydilar.

Yig'ma axborot O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga hamda hududiy adliya organlariga yuboriladi. Adliya organlari hamda qishloq va suv xo'jaligi organlari tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilishi ustidan o'z vakolatlari doirasida nazorat qiladilar va monitoring olib boradilar.

#### ***Nazorat va muhokama uchun savollar:***

- 1. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda xo'jalik shartnomalarining roli va ahamiyati nimalardan iborat?*
- 2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida xizmat ko'rsatuvchi sohalar bilan aloqalar qanday tartibda o'rnatiladi?*
- 3. Shartnomani amalga oshiruvchi tomonlarning huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?*
- 4. Shartnomaviy majburiyat qanday usullar asosida ta'minlanadi?*
- 5. Shartnomalar ijrosini ta'minlashda mansabdor shaxslarning mas'uliyatini kuchaytirishda nimalarga e'tibor berish kerak?*
- 6. Shartnomaning bajarilishini monitoring qilish qanday amalga oshiriladi?*
- 7. Qishloq xo'jaligi korxonalari qaysi korxonalar va tashkilotlar bilan kontraktatsiya shartnomalarini tuzishi mumkin?*

**8-bob. YER-SUV RESURLARI, ULARDAN SAMARALI  
FOYDALANISH**

**8.1. Yer-suv resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati va  
xususiyatlari, foydalanuvchilar bo'yicha taqsimlanishi**



*Qishloq xo'jaligining yer resurslari – bu qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishda xususiy mulk sifatida egalik qilishga va foydalanishga ajratilgan yer maydonlaridir. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining moddiy asosi sifatida yer resurslari ishlab chiqarishning umumiy omili bo'lib, tarmoqdagi boshqa ishlab chiqarish resurslarini birlashtirish uchun moddiy asos hisoblanadi. Chunki yer qishloq xo'jaligida bosh ishlab chiqarish vositasi hamda mehnat predmeti hisoblanadi.*

***Ishlab chiqarish vosita sifatida yerdan foydalanishda uning bir qancha xususiyatlari mavjud:***

– yer qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositasi. Boshqa sohalarda yer joy vazifasini bajarib kelmoqda;

– yer maydonining cheklanganligi va takror ishlab chiqarilmasligi. Yer tabiatan cheklangan, uning maydonini inson kengaytira olmaydi. Boshqa asosiy vositalarni, masalan, traktorlarni, mashinalarni talabni qondirish maqsadida xohlagancha ishlab chiqarish mumkin;

– yerning tabiat mahsuli ekanligi. Yerning kelajakdagi taqdiri tabiatga bog'liq. Boshqa asosiy vositalar, ya'ni binolar, inshootlar, kombaynlar, traktorlar inson mehnatining mahsulidir. Zaruriyat tug'ilganda ular inson tomonidan ishlab chiqarilishi mumkin. Yerni esa inson ishlab chiqara olmaydi;

– qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish maqsadida yerni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib yurish imkoniyati cheklangan. Undan joylashgan makonida oqilona foydalanish mumkin. Lekin mashina va



traktorlarni talab etilgan joyga olib borib, turli xildagi ishlarni amalga oshirish, bino-inshootlarni ham talab etilgan joyga qurish mumkin;

– yerning yuqori qatlami hisoblangan tuproq unumdorligining mavjudligi, yaxshi qarash natijasida uning oshib borishi. Tuproqqa vaqtida ishlov berilsa, o'g'itlansa, uning unumdorligi oshib borishi mumkin. Lekin boshqa asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida qatnashishi oqibatida jismoniy jihatdan ishdan chiqadi. Ular vaqt o'tishi bilan fan-texnika taraqqiyoti natijasida ma'naviy jihatdan ham eskiradi. Yerning unumdorligidan tadbirkorlik bilan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligida yerning yuqori qatlami hisoblangan tuproq unumdorligi katta ahamiyat kasb etadi. Tuproq unumdorligining quyidagi turlari mavjud: tabiiy, sun'iy va iqtisodiy unumdorlik. Tuproqning tabiiy unumdorligi – tabiat mahsulidir.

U tabiatning ta'siri natijasida uzoq yillar mobaynida shakllanadi. Uning holati quyosh nuri hamda yog'ingarchilik miqdoriga, shamol va suvlarning ta'siriga bog'liqdir.

Ularning ijobiy ta'sirida tuproqning tabiiy unumdorligi yaxshi bo'ladi. Sun'iy va iqtisodiy unumdorlik esa inson mehnati natijasida shakllantirilib, oshirilishi mumkin. Jumladan, mehnat, mablag' sarflab, yerlarning meliorativ holatini yaxshilab, urug' ekib, ularni o'g'itlash, yaxshi, sifatli ishlov berish orqali tuproqning iqtisodiy unumdorligi yuksaltirilishi mumkin.

O'zbekistonning yer fondi 44,8 mln hektarni tashkil etadi. 22,3 mln gektar, ya'ni 50 foizdan ortiq yerlardan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida foydalanilmoqda. O'rmon xo'jaligi korxonalari yer fondi jami yer fondining 19,5 foizini tashkil etib, 8,6 mln hektardan iborat. Cho'l – tog' mintaqasida joylashgan davlat zaxirasidagi unumdorligi past yerlar 23,4 foiz, ya'ni 10,4 mln gektar. Sanoat va transport yerlari 4,4 foiz, ya'ni 1,9 mln gektar. Aholi manzilgohlari egallagan yerlar 0,5 foiz, ya'ni 0,2 mln hektarni tashkil etadi. Boshqa maqsadlarda 0,5 million gektar yerdan foydalanilmoqda (8.1-jadval).

Qishloq xo'jalik yerlari ichida ancha katta salmoqni – 83,5 foizni o'tloqlar va yaylovlar egallaydi. Undan keyingi qatorlarda haydaladigan yerlar 14,9 foiz, ko'p yillik ekinlar – bog'lar va tokzorlar 1,4 foiz joylashgan. Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan va boshqa turdagi yerlarning ulushi Respublika jami yer fondining 49,88 foiziga teng.

Hududi cho'l va dasht mintaqalarda joylashgan viloyatlarda yaylovlarning salmog'i ancha yuqori. Bu ko'rsatgich Navoiy viloyatida

**O‘zbekiston Respublikasi yer fondining yerlar toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**

Yerlar toifalari	2000-y.		2012-y.	
	ming ga	%	ming ga	%
Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar	24968,6	56,3	22259,2	50,12
Aholi punktlarining yerlari	234,0	0,5	234,9	0,53
Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar	1928,1	4,3	1965,1	4,42
Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar	581,6	1,4	72,2	0,16
Tarixiy-madaniy ahamiyatga moliq yerlar	0,4	0,001	0,4	0,001
O‘rmon fondi yerlari	8409,2	18,9	8661,1	19,50
Suv fondi yerlari	819,2	1,8	813,6	1,83
Zaxira yerlar	7469,6	16,8	10403,8	23,43
Jami yerlar:	44410,7	100	44410,3	100

jami qishloq xo‘jalik yerlarining 98,7 foizini, Buxoro viloyatida – 92,5 foizini, Surxondaryo viloyatida – 73,8 foizini, Qashqadaryo viloyatida – 68,8 foizini, Samarqand viloyatida – 61,6 foizini, Xorazm viloyatida – 59,8 foizini, Toshkent viloyatida – 54,8 foizini, Qoraqalpog‘iston Respublikasida – 91,6 foizini tashkil etadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining deyarli 95,0 foizdan ortig‘ini yetishtirib beradigan haydaladigan yerlar Respublika hududi bo‘yicha notekis taqsimlangan.

Haydaladigan yerlarning eng katta maydonlari Qashqadaryoda – 16,9 foiz, Jizzaxda – 11,1 foiz, Samarqandda – 10,9 foiz hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida – 10,5 foizdan iborat. Shu vaqtning o‘zida nisbatan kichik maydonlar Namanganda – 4,8 foiz, Buxoroda – 4,9 foiz, Andijonda – 5,0 foiz, Xorazmda – 5,2 foiz va Navoiyda – 2,7 foiz.

Haydaladigan yerlarning eng mahsuldor va samarali qismi sug'orma yerlardir.

O'zbekiston — qadimdan sug'orma dehqonchilik mamlakati bo'lib kelgan. Sug'orma dehqonchilik oziq-ovqat sohasida Respublika mustaqilligining negizi va asosiy eksport mahsulotining manbaidir.

O'zbekiston hozirda jahonda sug'orma dehqonchilik markazlaridan biri hisoblanadi. Sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni salkam 4,3 mln gektarni tashkil etib, uning asosiy qismi tuproq-suv sharoiti nisbatan qulay bo'lgan vodiy va vohalarda joylashgan. Farg'ona, Zarafshon vodiylari, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalari shular jumlasidandir. 1960-yillardan so'ng sug'oriladigan yerlar maydoni ikki martadan ziyod ko'paydi. O'sish, asosan, Mirzacho'l, Qarshi cho'li, Ellikqal'a massivi hisobiga ta'minlangan.

Hozirgi kunda sug'orma dehqonchilik Qoraqalpog'iston Respublikasida va Qashqadaryo viloyatida yuqori darajada rivojlangan, qadimgi sug'orma dehqonchilik markazlari — Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Surxondaryo, Xorazm, Andijon, Namangan viloyatlari o'zlarining mavqelarini saqlab qoldilar. Mirzacho'lning o'zlashtirilgan hududi o'rnida Sirdaryo hamda Jizzax viloyatlari barpo qilindi. Ushbu viloyatlarga bugungi kunda mamlakatdagi jami sug'oriladigan yerlarning 15,4 foizi to'g'ri keladi.

O'zbekistonda bog'lar va tokzorlar egallagan maydon salkam 0,4 mln gektarga teng. Uning katta qismi Farg'ona vodiysi viloyatlariga hamda Samarqand (14,9 foiz) va Toshkent (12,8 foiz) viloyatlariga to'g'ri keladi. Demak, bog' va tokzorlarning asosiy qismi tog'oldi mintaqasi yaxshi rivojlangan viloyatlarda joylashgan. Tog'oldi mintaqasi maydonining katta qismini egallagan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ham bog'dorchilik va uzumchilik yaxshi rivojlangan. Tekislik mintaqasidagi viloyatlarda Sirdaryo, Xorazm, Navoiy va boshqalarda bog'dorchilik va uzumchilik tarmog'i kichik maydonlarni egallagan.



***Qishloq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan yerlar deb qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga ajratilgan, shuningdek, shu maqsadlarda hududiy rejalashtirishga muvofiq belgilangan yer maydonlariga aytiladi.***

**Bo'z yerlarga ilgari haydalmagan ammo bir yildan ortiqroq muddat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun turli urug'larni ekishda foydalanilmaydigan yer maydonlari kiradi.**

**Ko'p yillik daraxtzorlarga — bog'lar, uzumzorlar, tutzorlar, bodomzorlar, anorzorlar, anjirzorlar kiradi.**

Chorvachilik uchun tabiiy ozuqa bazasi bo'lgan pichanzorlar va yaylovlar ham qishloq xo'jaligida mulk sifatida katta ahamiyatga ega. Bu maydonlar maysazorlar, tabiiy o'simliklar bilan qoplangan bo'lib, pichan olish yoki chorvani o'tlatish uchun mo'ljallangan.

Pichanzorlar va yaylovlar suvli, suvsiz, xo'jalik holatiga ko'ra sof, butazor, yosh daraxtzor bilan qoplangan, adirli va boshqa turlarga bo'linadi.

**Yaylovlar — qishloq xo'jalik mulkining barqaror bo'lmagan vaqtinchalik ko'rinishidir. Shu sababli qishloq xo'jaligi ekinlari uchun yaroqli bo'lgan bo'z yerlar maydonlarini asta-sekin haydaladigan yerlarga aylantirish, bunga yaroqsizlaridan pichanzorlar va yaylovlar sifatida foydalanish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishda muhim vazifalardan hisoblanadi.**

Boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlariga qiyoslaganda 1 ga haydaladigan yerdan olingan mahsulot hosili eng yuksak ko'rsatkich hisoblanadi. Ana shundan kelib chiqib, yer maydonlaridan imkon qadar samarali foydalanish, uning o'lchamlarini kamaytirmay, iloji bo'lsa kengaytirib borish kerak.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yerlarini qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lmagan toifaga o'tkazish istisno holatlarda Respublika Yer kodeksida belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Qishloqda bozor munosabatlarini rivojlantirish, dehqonda yerning egasi ekanligi tuyg'usini qayta tiklash — meros qoldirish huquqi asosida yerni abadiy foydalanishga berish orqali amalga oshirish mumkin. Eng muhimi, qishloq xo'jaligi yuritishning shunday mexanizmini yaratish kerakki, bu har bir daqiqada o'z mehnatining samaradorligidan mustaqil bahramand bo'lish imkoniyatini bersin. Ana shundagina dehqon o'zini haqiqatan ham yerning chinakam egasi deb biladi. Bular mustaqillik yillarida olib borilgan yer islohotining asosini tashkil etadi.

Yer islohoti — bu iqtisodiy islohotlar jarayonida, yerni dehqonlarga to'liq birlashtirish, yerga egalik va undan foydalanish, har bir dehqonning

yuqori samarada ishlab, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishdagi ma'suliyati va manfaatdorligini ta'minlaydigan huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish xalq amaliyotiga joriy qilish hisoblanadi.

***Yerdan foydalanish islohoti:***

— 2004-yildan boshlab barcha qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yer uchastkalaridan foydalanishning ijara shakliga o'tkazildi;

— yer uchastkalari xo'jalik yurituvchi subyektlarga faqat tuman hokimi tomonidan ijaraga berilishi belgilab qo'yildi;

— yer uchastkalari ijaraga 30 yildan 50 yilgacha berilishi belgilab qo'yildi;

— yer uchastkalaridan foydalanish huquqini meros qilib qoldirish tizimi joriy etildi;

— o'z mablag'i hisobidan yer o'zlashtirishni rag'batlantirish tizimi joriy etildi.

Yer resurslari bilan bir qatorda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida suv resurslari ham muhim ishlab chiqarish omili hisoblanadi. Suv organik moddalar hosil bo'lishidagi fotosintez jarayonida qatnashib, o'simlik organizmi uchun muhim omildir. Bundan tashqari, suv ozuqa moddalarni eritadi va ularni o'simlik tomonidan o'zlashtirilishini amalga oshiradi, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining shakllanishiga imkoniyat yaratib beradi.

Respublika dehqonchiligi sug'orishga asoslangan. Shuning uchun suv qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yer kabi eng zarur vosita hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarning asosiy qismi sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladi. Qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan yalpi mahsulotning 95 foizga yaqini sug'oriladigan yerlardan olinadi. Sanoatning qishloq xo'jaligi xomashyolariga, aholi-ning esa oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi qondirilishida yer va suvning ahamiyati juda katta. Yerlardan, suvlardan qanchalik oqilona, samarali foydalanilsa, ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi ko'payadi, natijada yuqorida ta'kidlangan talablarning qondirilish darajasi ortadi.

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan suvlarning sifati ham barcha viloyatlarda bir xilda bo'lmay, bir-birlaridan farq qiladi. Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining aksariyat hududlarida ekinlarni

sug'orishda foydalaniladigan suvlarning sifati yaxshi, ya'ni ularning tarkibida hosildorlikka salbiy ta'sir etuvchi turli xildagi minerallar kam, lekin Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati hududlarida foydalanilayotgan suvlarning tarkibida xlor va boshqa moddalar ko'p. Shuning uchun ham ularning sifati nihoyatda yomon. Bunday hol qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmiga va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kelajakda yerlarning unumdorligini oshirish, suvlarning sifatini yaxshilash orqali zarur qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmini, miqdorini ko'paytirishga va sifatini yaxshilashga erishish mumkin.

*Respublikamizda suv resurslari manbalari cheklangan. Ularning umumiy miqdori 49,4 mlrd m<sup>3</sup> atrofida. Shundan 30,6 mlrd m<sup>3</sup> yoki 61,9 foizi yirik daryolarning suvidan, 16,5 mlrd m<sup>3</sup> respublika hududidagi mayda daryolarning suvlaridan, qolgan qismi esa yer osti hamda kollektor-zovurlardan olinadigan suvlardan iborat.*

#### ***Suvdan foydalanish islohoti:***

— *irrigatsiya tizimlarini boshqarishning ma'muriy-hududiy tamoyilidan havza tamoyiliga o'tkazildi;*

— *respublika bo'yicha 10 ta irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari va bitta Farg'ona vodiysi bo'yicha birlashtirilgan dispetcherlik markaziga ega bo'lgan magistrat kanallari tizimi boshqarmasi tashkil etildi;*

— *fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash uchun Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari tashkil etish yo'lga qo'yildi;*

— *suv resurslaridan mukammal foydalanishni ta'minlash uchun sohada bozor tamoyillariga o'tish belgilandi.*

Mavjud suv resurslari hozirgi o'sib borayotgan talabni to'liq qondira olmaydi. Shu suv resurslarining aksariyat qismi qishloq xo'jaligi tarmog'ida ishlatiladi. Suv resurslari davlat muhofazasida, mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimlanmagan. Respublikada mustaqillik yillarida suvdan foydalanish islohotlari olib borildi.

Sug'oriladigan dehqonchilikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish sug'oriladigan yerlarda suv tanqisligini vujudga keltiradi. Bu esa, o'z navbatida, xo'jalik sug'orish tizimlarida suvni behuda isrof qilmaslik, suv sarfini kamaytirish, sug'orish usullarini takomillashtirish bo'yicha qator tadbirlarni amalga oshirish va suvdan

foydalanishni qat'iy hisob-kitobini olib borish tartibini joriy etishni talab qiladi.

Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda tuproqdan sizib yo'qoladigan va sug'orish tizimlari takomillashtirilmaganligi tufayli isrof bo'ladigan suv miqdori 35–40 foizga teng bo'ladi.

O'zbekistonda ekinlarni sug'orishda foydalaniladigan suv, asosan, o'z oqimi bilan keladigan suv bo'lib, asosiy sug'orish usuli qator oralari ishlanadigan ekinlar va yem-xashak ekinlarini egatlar orqali sug'orish hisoblanadi. Kelajakda sug'orish usullari va texnikasini takomillashtirish, sug'orish tizimlariga xizmat qilishni tegishli yo'lga qo'yish, mavjud sug'orish mashinalarini takomillashtirish va shu asosda egatlar orqali sug'orish uchun suv yetkazib berishda bajariladigan qo'l mehnati sarflarini kamaytirish talab qilinadi.

***Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalarining vazifalari qilib quyidagilar belgilangan:***

– *suv resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanishni tashkil etish;*

– *iste'molchilarni suv bilan uzluksiz va o'z vaqtida ta'minlashni tashkil etish;*

– *suv xo'jaligida yagona texnika siyosatini o'tkazish;*

– *suv iste'molchilari bo'yicha suv resurslaridan foydalanishning aniq hisobi va hisobotini ta'minlash.*

Bu borada O'zbekistonda irrigatsiya tizimlarini boshqarishning ma'muriy-hududiy tamoyilidan havza tamoyiliga o'tishni ko'zda tutuvchi, suv resurslarini boshqarish, shuningdek, suvdan foydalanishda bozor tamoyillarini barcha darajada tadbiq qilish amalga oshirilmogda.

O'zbekiston Respublikasining suv xo'jaligi majmui (SXM) o'z ichiga murakkab tashkiliy-texnik va iqtisodiy mexanizmni birlashtiradi.

Ushbu tizim mamlakatning barcha hududida suv olib kelish va olib ketish tizimining me'yoriy ishlashini ta'minlaydi va yuz minglab suv iste'molchilari va suvdan foydalanuvchilarga xizmat qiladi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi sektoridagi asosiy mahsulot ishlab chiqaruvchi, eng katta suv iste'molchi – bu sug'oriladigan dehqonchilikdir.

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturini amalga oshirish O'zbekiston hukumati tomonidan 2001–2010-yillarga belgilangan. U suvni boshqarish va ishlatish tartibini tubdan o'zgartirishni ko'zda tutadi va tarmoqda suvni isrof qilishni qisqartirishga

**O'zbekiston Respublikasi mintaqalari bo'yicha  
suv iste'moli me'yorlari, m. kub/ga**

	<b>Qishki g'alla</b>	<b>Sholi</b>	<b>Mak- ka doni</b>	<b>Paxta</b>	<b>Kartosh- ka, poliz, sabzavot</b>	<b>Beda</b>	<b>Ko'p yillik ekinlar</b>
Andijon	2123	17623	4236	4625	6703	6445	4834
Farg'ona	2528	16259	5757	6183	8452	7879	5889
Namangan- Norin	2574	18513	5319	5785	7871	7750	5704
Namangan- Sirdaryo	2574	14169	6150	6600	9124	8175	6150
Sirdaryo	2356	19866	5253	5679	7784	7085	5375
Jizzax	2486	19596	5202	5658	7911	7520	5652
Samarqand	2218	17833	3729	4153	6174	6469	4774
Navoiy	2390	14768	5549	5970	8260	7518	5668
Buxoro	2596	20325	6154	6620	9052	8199	6166
Surxondaryo	2948	21441	5795	6601	9168	8224	6105
Qarshi	3229	22050	6087	6789	9340	8413	6291
Qashqadaryo	2722	14973	4766	4635	6558	6423	4808
Toshkent- Sirdaryo	2430	19155	4985	5412	7185	7033	5280
Toshkent- Chirchiq	2286	17592	3645	4065	6128	6212	4536
Xorazm	2426	20250	5925	5300	6986	7604	5746
Janubiy QQR	2419	20250	5925	5143	6942	7596	5754
Shimoliy QQR	2382	19562	5853	5685	7792	7096	5362

yordam beradi, sug'orishda ishlatiladigan suv sifatini, shuningdek, tuproqqa ishlov berish, sho'r yuvish ishlarining yaxshilanishiga olib keladi. Loyihada oqilona texnologiya, sug'orish texnologiyasini va sug'orish maydonlarini tekislash hisobiga sug'orish suvini tejashda, birinchi navbatda, quyidagi sharoitlar ko'zda tutiladi:



- suv ta'minoti doimiy past sug'orish tizimlarida;
- suv nasos bilan ko'tariladigan joylarda;
- tog'oldi sug'oriladigan hududlarda kuchli suv o'tkazadigan tuproqli yerlarda va qiyin relyefli sharoitlarda.

Suvdan foydalanuvchilarning suvni tejash jarayonida quyidagi asosiy vazifalari mavjud:

- birgalikda va kelishilgan holda suv resurslarini boshqarish;
- asoslangan suv iste'moli limitini aniqlash va unga rioya etilishini nazorat qilish;
- suv samarasiz va asossiz ishlatilishi ustidan nazorat o'rnatish;
- o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlashni tashkil etish, suv resurslarini xo'jalik va tuman ichida boshqarish;
- suvni tejimli va samarali ishlatishni rag'batlantirish.

Zamonaviy suv xo'jaligi dastur va loyihalarini ishlab chiqish jarayonining o'ziga xos xususiyati suvni tejash, texnik muammolar bilan birga iqtisodiy va tashkiliy muammolarni ham yechishdan iborat. Shuningdek, suvni tejash bilan bog'liq iqtisodiy choralar nafaqat davlat tomonidan olinadigan daromadlarni yo'naltirishga va xarajatlarni qoplashga, balki suvdan foydalanuvchilarda suvga bo'lgan yangicha munosabatni shakllantirishga, azaliy ehtiyotkorona munosabatlarni tiklash, cheklangan suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy rag'batlantirishga qaratilgan.

Sug'orish ishlarini rivojlantirish, yangi yerlarni o'zlashtirish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va boshqa meliorativ tadbirlar dehqonchilikning madaniy saviyasini belgilab beradi, qishloq xo'jaligini iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omili bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida erroziyaning barcha turlari, jumladan, tuproqni suv va irrigatsiya erroziyasi, yemiruvchi sel oqimlari va shamol erroziyasi hamda o'simliklarga shamolning zararli ta'siri kabilar mavjud. Bu jarayonlar joyning iqlimi va relyef sharoitlariga bevosita bog'liq.

O'zbekistonda suv boyligining 92 foizi qishloq xo'jaligida sug'orish ishlariga sarf qilinadi. Respublikada 53 ta suv ombori ekspluatatsiya qilinmoqda, daryo suvlarini olish uchun 23 ta to'g'on, 180 ta sel to'suvchi omborlar qurilgan. Bu masshtabda sug'orish ishlarining rivojlanishi Orol muammosini yuzaga keltirdi, suv tanqisligi vujudga keldi va bu muammo borgan sari keskinlashib bormoqda.

O'zbekistonda 95 foizdan ortiq qishloq xo'jalik mahsuloti sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladi va sarflangan har bir so'm mablag' hisobiga 2,5 baravar sof daromad olinadi. Sug'oriladigan yerlarda qishloq

xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabelligi ko'pincha suv tanqisligi oqibatida pasayib ketadi.

Sun'iy sug'orishni qo'llash uchun gidrotexnika inshootlari bunyod etishga, sug'orish hamda kollektor-zovur shoxobchalarini qurishga juda katta kapital jamg'arma talab etiladi. Sug'orish uchun o'zlashtirilgan har 1 gektar yer uchun davlat katta mablag' sarflaydi. Shunga ko'ra yerlarni sug'orish, ayniqsa, O'zbekiston uchun juda katta ahamiyatga ega. Lekin shunga qaramasdan respublikada aholi boshiga to'g'ri keladigan yer maydoni kamayib bormoqda.

Respublikamizda aholi jon boshiga 1,46 gektar foydalanadigan yer maydoni, 0,29 gektar atrofida haydaladigan yer maydoni to'g'ri keladi. Shunga ko'ra sug'oriladigan yerlardagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yuqori rentabellikka erishishi, qilingan xarajatlar tezda ortig'i bilan qoplanib ketishi, hosildorlik surunkasiga ortib borishi va sug'oriladigan yerlar hisobiga olinadigan daromad ko'tarilib borishi lozim.

O'tgan o'n yillikda xo'jaliklararo sug'orish shoxobchalaridan foydalanish uchun qilingan xarajatlar ikki baravariga oshgan, xo'jalik sug'orish shoxobchalari uchun qilingan bu xildagi xarajatlar esa boryo'g'i 15 foizni tashkil etgan. O'zbekistonda minglab gektar maydondagi xo'jalik sug'orish shoxobchalari uchun xizmat qilayotganlar soni 1—2 kishiga to'g'ri kelsa, xo'jaliklararo 4—5 kishiga to'g'ri keladi, lekin zamonaviy sug'orish tizimida xo'jalik shoxobchalari fondlarining qiymati, xo'jaliklararo shoxobchalarnikiga qaraganda ikki baravar yuqori turadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, sug'oriladigan haydalma yerlar sharoitida, sug'orish va mineral o'g'itlar hisobiga ko'riladigan foydani ilmiy jihatdan asoslangan sug'orish rejimlarini qo'llash va mineral o'g'itlarni o'simliklar mumkin qadar to'liq foydalana oladigan nisbatlarini joriy etish hisobiga oshirish mumkin.

Yer-suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun bir qancha tashkiliy, iqtisodiy tadbirlarni o'tkazish lozim.

Shular bilan birgalikda iqtisodiy unumdorlikni oshirish maqsadida yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilashni ta'minlovchi tadbirlarni kompleks amalga oshirishni rivojlantirish juda muhim muammo hisoblanadi.

***Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan maqsadli va samarali foydalanishni amalga oshirishda quyidagi muammolar mavjud:***

— sug'orish va kollektor-zovur tizimlarining ishchi holatini yetarli darajadi ta'minlanmaganligi;

- suvdan foydalanuvchilarning mas’uliyatsizligi;
- sug’oriladigan maydonlarni tekislanmaganligi;
- qishloq xo’jaligi ekinlarining ilmiy asoslangan sug’orish tartiblariga rioya qilmaslik;
- sug’orish texnikasi elementlarining tuproqning mexanik tarkibi va maydonning nishabligiga mos emasligi;
- suvning qat’iy hisob-kitobini joriy qilinmaganligi;
- sug’orishning zamonaviy texnika va texnologiyalarini qo’llanmasligi;
- SFU ishini takomillashtirish va ko’rsatilgan xizmat uchun to’lovni to’liq ta’minlanmaganligi.

Sug’orish va kollektor-zovur tizimlarini ishchi holatini ta’minlanmaganligi va suvdan foydalanishni noto’g’ri tashkil etish – yerlarning sho’rlanishiga va ekinlar hosildorligi pasayishiga sabab bo’ladi.

***Yerlardan, suvlardan to’liq va samarali foydalanish uchun:***

- yer-suv islohotlarini qonunlar asosida yaxshi o’tkazish, ularni foydalanuvchilarga berish, sotish;
- zaxlanib, sho’rlangan yerlarda irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini vaqtida sifatli amalga oshirish;
- yangi, samarali texnikalarni, ilg’or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish;
- ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan almashlab ekishni tiklash;
- ekologiyaga salbiy ta’sir ko’rsatmagan holda kimyoviy vositalardan oqilona foydalanish;
- seleksiya, urug’chilikni, agrotexnik tadbirlarni sifatli amalga oshirish;
- ishchi va xizmatchilarni moddiy va ma’naviy rahbatlantirish bilan bog’liq bo’lgan masalalarni hal etish;
- yer va suv munosabatlarini takomillashtirish va erkinlashtirish lozim.

***Qishloq xo’jaligida suv resurslaridan maqsadli va samarali foydalanishda:***

- sug’orishning tejamkor zamonaviy texnika va texnologiyalarini qo’llash;
- suvning qat’iy hisob-kitobini joriy qilish;
- SFU faoliyatini yaxshilash va ko’rsatilgan xizmat uchun to’lovlarni ta’minlash mexanizmlarini rivojlantirish;
- suvdan samarali foydalanganlikni rag’batlantirish lozim.

Yer-suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish uchun yer-suv munosabatlarini takomillashtirish, chuqurlashtirish, ya'ni liberallashtirish masalalarini hal etishni tezlashtirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun yer va suvning baholarini va ulardan foydalanilganlik uchun to'lanadigan haqlarni, soliqlar miqdorini realroq aniqlash lozim.

Bunda bozor iqtisodi qonunlari talablariga asoslanish, shuningdek, yer va suv resurslarining cheklanganligi, takror ishlab chiqarilmasligi, holati, sifati, iste'molchilarga uzoq-yaqinligi, ishlab chiqarish vositalari hamda infratuzilmalar bilan ta'minlanganligi, olinayotgan mahsulot, foyda summasi kabi indikatorlarni ham e'tiborga olish zarur.

### **Sug'orishda tejamkor texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari**

O'zbekistonning sug'oriladigan maydonlari, asosan, tuproq ustidan egatlar orqali, taxtalarga (marzalarga) bo'lib va cheklarga bo'linib bostirilib sug'orilmoqda.

Bunday sug'orish usullari tuproq tuzilmasining buzilishiga, qatqaloq hosil bo'lishiga, suvning hisobdagi me'yoridan ko'p sarf bo'lishiga, tuproqning notekis namlanishiga, suvning chuqur qatlamlarga shimilib ketishiga va tuproqning meliorativ holati buzilishiga olib kelmoqda.

#### ***Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:***

- yer ustidan sug'orish;*
- yomg'ir latib sug'orish;*
- tuproq ichidan sug'orish;*
- tomchilatib sug'orish;*
- sizot suvlari sathini ko'tarib (subirrigatsiya) sug'orish;*
- tuman hosil qilib sug'orish (dispers sug'orish usuli).*

Yuqorida ko'rsatilgan sug'orish usullarining salbiy oqibatlarini tugatish uchun yangi sug'orish usullarini qo'llash talab qilinadi.

Bunday sug'orish usullaridan biri egatlab sug'orishda egiluvchan ko'chma quvurlardan bosim ostida beruvchi PPA-165, PPA-300, PT-250, TAP-150, TPP-200 markali sug'orish mashinalaridan foydalaniladi. Ushbu quvurlar o'qariqlar o'rniga ishlatiladi. Ulardagi har bir teshik qator orasining o'rtasiga to'g'rilanadi, teshiklarda bir

xil diametrli maxsus klapanlar bo'lib, ular yordamida egatga berilayotgan suvni rostlash mumkin.

Sug'orish mashinalari yordamida egatlarga suv taralganda bir yo'la 2–3 gektardan 5–8 gektargacha maydonni sug'orish imkoniyatini beradi. Sug'orishda mehnat unumdorligi 2–3 barobar oshadi, suvning shimilishi esa oddiy usuldagiga nisbatan 8–10 foiz kamayadi.

Bu usulda suv maxsus qurilmalar va mashinalar yordamida sun'iy yomg'ir tarzida o'simliklar ustidan purkab beriladi.



**Yomg'ir latib sug'orish usulining afzalligi shundaki, bu usulda sug'orish jarayoni to'liq mexanizatsiyalashadi, o'qariqlar soni kamayadi, belgilangan suv me'yori aniq va bir tekisda sarflanadi, tuproq yuzasida mikroiklim vujudga keladi, yomg'ir latib sug'orishda sizot suvlari ko'tarilmaydi, shu sababli tuproqda sho'rlanish va botqoqlanish sodir bo'lmaydi.**

Yomg'ir latib sug'orish usulida egatlab sug'orishga nisbatan mehnat unumdorligi 3–4 barobar oshadi va 15–20 foiz suv tejaladi. Yomg'ir latib uchun DDA–100M markali o'ziyurar agregat ishlatiladi. U bir vaqtda 120 m kenglikdagi maydonni sug'oradi. Sug'orish me'yori gektariga 700–800 m<sup>3</sup> bo'ladi va bitta agregat bir sutka davomida 10–13 gektar ekin maydonini sug'ora oladi. Respublikamizda DKSH–64, «Voljanka», «Fregat» va boshqa markali keng qamraydigan yomg'ir latigich mashinalaridan ham foydalanish mumkin, ular suvni bir tekisda tuproqqa singish tezligida yomg'ir latadi.

Natijada gektariga 1000 m<sup>3</sup> gacha suv berish va tuproqni 80–100 sm chuqurlikda namiqtirish imkoniyati yaratiladi.



**Tomchilatib sug'orish. Tomchilatib sug'orish usuli ekinlarga suv berishning eng ilg'or usullaridan biri bo'lib, bunda suv o'simliklarga to'g'ridan to'g'ri maxsus jihozlar va qurilmalar yordamida tomchi tarzida yetkaziladi.**

**Tomchilatib sug'orish usulining asosiy meliorativ afzalliklari shundaki, suv o'simliklarning ildizi tarqalgan faol qatlamida**

*uzluksiz mo‘tadil namlik, havo, ozuqa va tuz rejimlarini vujudga keltiradi. Tomchilatib sug‘orishda suvdan kecha-kunduz davomida foydalanish — bu suvning isrof bo‘lishiga qarshi ko‘riladigan eng zaruriy tadbirlardan biridir.*

8.3-jadval

### Tomchilatib sug‘orish texnologiyasining samaradorligi

Sug‘orish usuli	Pomidor, hosildorlik s/ga	Quruq modda%	O‘g‘it me‘yorga ko‘ra %	Mehnat sarfi %	Suv xarajati 1 ga foiz
Ariqdan	250	65	100	100	125
Tomchilatib	500	62,5	60	10	62,5
Samaradorlik	100%	2,5%	40%	90%	50%

**Zovur va yer osti suvlaridan foydalanish.** Markaziy Osiyoning sug‘oriladigan yerlarida qo‘shimcha sug‘orish manbalarini qidirib topish muhim vazifa hisoblanadi. Shu munosabat bilan sizot, zovur va yer osti (artezian) suvlaridan suv ta‘minoti, sug‘orish va sho‘r yuvish maqsadida foydalanishning katta suv-xo‘jalik, meliorativ, ekologik ahamiyati bor.



**Yer ustidan sug‘orish usulida suv tuproq ustidan taqsimlanadi hamda shu orqali namlanadi. Bu usul O‘zbekistonda ko‘proq qo‘llaniladi. Chunki u qulay va oz mablag‘ talab qiladi. Sug‘orish oddiy bo‘lib, tuproq strukturasi yaxshi saqlanadi va hosildor qatlamni kerakli chuqurlikda namlantiradi. Suv sifatiga talab kam, tuproq sho‘rini yaxshi yuvadi.**

**Sizot suvlari sathini ko‘tarib (subirrigatsiya) sug‘orish usulida sun‘iy ravishda sizot suvlarining sathi ko‘tarilib (kollektor va zovur tarmoqlarini yopib qo‘yish bilan), tuproqning so‘rish kuchi hisobiga hosildor qatlam namlanadi. Afzalligi — suv iqtisod qilinadi, bug‘lanib isrof bo‘lmaydi.**

O‘zbekistonda zovur suvlar hajmi umumiy suv olish hajmining 30–35 foizini tashkil etmoqda.

Bu sug'orish manbalarining suvi ko'pincha minerallarga boy bo'ladi. Yuqorida aytilgan suvlardan foydalanishning suv xo'jaligi jihatidan quyidagi afzalliklari bor:

– suv resurslari va sug'oriladigan yer maydonlari ko'payadi;  
– bu suvlardan foydalanishda magistral, taqsimlash va keng tarmoqli sug'orish shoxobchalari hamda ko'plab gidrotexnik inshootlar qurish talab qilinmaydi;

– sug'orish tarmoqlarining uncha uzun bo'lmaganligidan undan suvning filtratsiyaga isrof bo'lishi kam, foydali ish koeffitsienti va sug'orish qobiliyati esa katta bo'ladi;

– suvda mayda zarrachalar juda kam va minerallashganligidan kanallarni deyarli loyqa bosmaydi, yovvoyi o'tlar juda kam o'sadi, natijada ulardan foydalanish xarajatlari kamayadi.

Meliorativ jihatdan ham bu suvlardan foydalanishning yaxshi tomonlari ko'p, ya'ni:

– daryodan irrigatsiya tarmoqlariga suv olish qisqaradi, natijada suvning filtratsiyaga sarflanishi kamayadi va sizot suv sathi pasayadi;

– sizot va yer osti suvini olish ta'sirida ham sizot suv sathi bevosita pasayadi;

– zovur suvidan foydalanilganda kollektor va zovurdagi suv sathi pasayadi, natijada ularning samarali ta'siri ortadi.

Tabiiy va xo'jalik sharoitlaridan kelib chiqib yerni sug'ormay ekinlardan mo'l hosil yetishtirish mumkin emas.

**Sun'iy sug'orish o'tkazilganda quyidagilar ta'minlanishi kerak:**

- yuqori ish unumdorligi;
- kam suv sarflab, yuqori meliorativ ko'rsatkichlarga erishish;
- sug'orish tarmoqlarining yuqori texnik ko'rsatkichlarga ega bo'lishi va boshqalar.

Sun'iy sug'orish yaxshi natija berishi uchun bu jarayon o'rmon–texnika melioratsiyasi (sug'orish maydonlari atrofiga va sug'orish tarmoqlari qirg'oqlariga ko'chatlar o'tqazish) va agrotexnik tadbirlar (yerlarni tekislash, ularni sug'orishga tayyorlash, eng maqbul sug'orish rejimini tanlash) bilan birga olib borilishi kerak.

**Tuproq ichidan sug'orish usulida** suv tuproq ustidan emas, balki ichidan o'rnatilgan quvurlar orqali tuproqning hosildor qatlamiga yetkazib beriladi. Hosildor qatlamning namlanishi, asosan, tuproqning so'rish kuchi hisobiga sodir bo'ladi. Tuproq kapillarlar orqali namlanadi. Bu usulni sho'r bosgan tuproqlarda tatbiq qilib bo'lmaydi. Afzalligi – suv bug'lanib isrof bo'lmaydi.

**Tuman hosil qilib sug'orish usulida** esa suv maxsus nasoslar yordamida quvurlar orqali bosim bilan ekin maydoniga tuman holatida parchalab beriladi. Bu usul, asosan, yerning mikro ob-havo sharoitini yaxshilash maqsadida ishlatiladi. Afzalligi – yuqori havo harorati me'yoriga keltirilishi evaziga suv tejaladi.

Sug'orishning biror usulini tanlashda har bir maydonning xo'jalik va texnikaviy talablari, shuningdek, iqlim, topografik va tuproq sharoitlari hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

Sug'orishning har bir usuli o'ziga xos bo'lgan boshqariladigan sug'orish tarmoqlari tuzilishi va tegishli sug'orish texnikasi bilan, ya'ni sug'orish uchun beriladigan suvni sug'orish tarmog'idagi oqim holatidan sug'oriladigan dalalar tuprog'i namligiga va bu suvni o'simliklarga uzatish usullari bilan xarakterlanadi. Shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, sug'orish usulini to'g'ri tanlash va sug'orish texnikasini to'g'ri hal qilish yerlardan samarali foydalanishda katta ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jalik ekinlari turi bo'yicha yoppasiga va qatorlab ekiladigan ekinlarga bo'linadi. Ularning har qaysisi o'ziga mos sug'orish usulini talab qiladi. Jumladan:

– ko'p yillik ekinlarni tomchilatib sug'orish yaxshi natija beradi (*tog'li joylardagi bog' va uzumzorlarni*);

– yoppasiga ekiladigan ekinlar, asosan, yer ustidan cheklarga bo'lib sug'oriladi (*sholi va boshqa ekinlar*);

– egatga ekiladigan ekinlar uchun, asosan, yer ustidan egat olib, tuproq ichidan va yomg'irilatib sug'orish usullari qo'llaniladi (*g'o'za va boshqa ekinlar*).

## **8.2. Yerdan, suvdan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi**

Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi xo'jaliklarga birkutilgan yer resurslari, ya'ni 1 gektar maydon hisobiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish samarasini aks ettiradi.

Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlariga, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerdan va haydaladigan yerdan foydalanish koeffitsientlari kiradi.

**Yer resurslaridan foydalanish koeffitsienti (YRFK)** qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarni (QXY) xo'jalikka birlashtirilgan jami yer maydoni (S)ga nisbati bilan ifodalanadi:



$$YRFK = \frac{QXY Y}{S} \quad (8.1)$$

**Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardan foydalanish koeffitsienti** (QXY YFK). Haydaladigan yerlarni (HY) qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarga (QXY Y) nisbati bilan ifodalanadi.

$$QXY YFK = \frac{HY}{QXY Y} \quad (8.2)$$

**Haydaladigan yerlardan foydalanish koeffitsienti** (HYFK) jami maydonlarini (S) haydaladigan yerlarga (HY) nisbati bilan ifodalanadi.

$$HYFK = \frac{S}{HY} \quad (8.3)$$

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardan intensiv foydalanish samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari yer qaytimi va yer sig'imidir.

Yer qaytimi (YQ) 1 ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga to'g'ri kelgan mahsulotni (M) ifodalasa, **yer sig'imi** (YS), 1 so'mlik sof mahsulot qancha gektar yerdan olinganligini ifodalaydi:

$$YQ = \frac{M}{QXY Y}; \quad YS = \frac{QXY Y}{M} \quad (8.4)$$

$$YQ = \frac{YM; TM}{QXY Y}; \quad YS = \frac{QHYY}{YM; TM} \quad (8.5)$$

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardan intensiv foydalanish samaradorligining qo'shimcha ko'rsatkichlari ana shu yerlardan olingan natura va qiymat shaklidagi yalpi va tovar mahsulotlari hisoblanadi. Yer qaytimi va yer sig'imining natural ko'rsatkichlari alohida olingan xo'jaliklarda yoki bir xil tabiiy va iqtisodiy sharoitlarda joylashgan va bir xil ixtisoslashgan xo'jaliklarda alohida mahsulot turlarini ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardan foydalanish samaradorligini baholashda foydalaniladi. **Yer qaytimi va yer sig'imining** natural ko'rsatkichlari 1 ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yer hisobiga to'g'ri kelgan qishloq xo'jaligi yalpi va tovar mahsulotini xarakterlaydi va aksincha:

Bunda har bir tur qishloq xo'jaligi mahsuloti uni ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga mos keladi. Yer qaytimining natural ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

– 1 ga yerdan olingan qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi; 100 ga haydaladigan yer hisobiga to'g'ri kelgan, sentner: g'alla, paxta, kartoshka, sabzavot va boshqalar.

– 100 ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarga yoki ozuqa ekinlari maydoni hisobiga ozuqa ishlab chiqarish, ozuqa birligi.

– 100 ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar hisobiga ishlab chiqarish, sentner sut, go'sht (turli xil), jun, tuxum, g'alla, paxta va boshqalar.

Dehqonchilik, chorvachilik yoki butun qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish nuqtai nazaridan, shuningdek, boshqa turli ixtisoslashgan xo'jaliklarni taqqoslashda, yer resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholash uchun yalpi va tovar mahsuloti qiymatini, shuningdek, foydani qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga bo'lib hisoblaydigan, **yer qaytimi va yer sig'imining** qo'shimcha qiymat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

$$YQ = \frac{YMQ; TMQ; F}{QXY}; \quad YS = \frac{QXY}{YMQ; TMQ}; \quad (8.6)$$

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardan foydalanish samaradorligini xarakterlaydigan ko'rsatkichlarga, dehqonchilik, chorvachilik alohida mahsulotlarini ishlab chiqarishning, shuningdek, tarmoqlar va butun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabelligi ham kiradi.

**Hosildorlik.** Bu ko'rsatkich, asosan, ekin turlari hamda umumiy maydon bo'yicha, natural hamda qiymat ko'rinishlarida aniqlanadi, ya'ni ular 1 gektar foydalanilgan maydondan qanday mahsulotlarni qancha miqdorda (kg, sentner, tonna) hamda necha so'mlik mahsulot yoki foyda olinganligi aniqlanadi. Buning uchun quyidagi ifodadan foydalanish mumkin:

$$H = \frac{YH}{S} \quad (8.7)$$

bunda: H – 1 ga ekin maydonidan olingan hosil miqdori, s;  
YH – ekin ekilgan maydondan olingan yalpi hosil miqdori, s  
yoki tonnada;

S – ekin ekilgan haqiqiy maydon, ga.

Bu ko'rsatkich yordamida 1 gektar ekin ekilgan maydondan qancha miqdorda hosil olinganligi ekin turlari bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi. Uning miqdori qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Bu ko'rsatkich u yoki bu ekin ekilgan maydonning mahsuldorligini isbotlaydi. Jami ekin maydonlari mahsuldorligini aniqlash uchun ko'rsatkichni quyidagi qiymat ko'rsatkichlarida aniqlash, buning uchun har bir ekinning yalpi hosili qiymatini aniqlab olish lozim. So'ngra ularning yig'indisini aniqlash kerak.

$$YM = \frac{YMq}{S} \cdot \frac{YDq}{S} \cdot \frac{SFq}{S} \quad (8.8)$$

bunda: YM — foydalanilgan yerlarning mahsuldorligi. Ya'ni, bir gektar ekin ekilgan yoki yaylov, pichanzor maydondan necha so'mlik yalpi mahsulot, yalpi daromad hamda sof foyda olinganligi aniqlanadi;

YMq — olingan yalpi mahsulot qiymati, so'mda;

S — ekinlar ekilgan maydon, ga;

YDq — olingan yalpi daromad qiymati, so'mda;

SFq — olingan sof foyda qiymati, so'mda.

Taqqoslanadigan xo'jaliklarda yer resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashda qishloq xo'jaligiga yaroqli yer turlari (haydaladigan yer, pichanzor, yaylov) o'rtasidagi, ya'ni tuproq unumdorligi o'rtasidagi farqni hisobga olish zarur. Buning uchun yerni iqtisodiy baholash ballaridan foydalaniladi. Taqqoslama (kadastr) yer maydonidan olingan u yoki bu mahsulotni yoki hosildorlikni aniqlash uchun haqiqiy ko'rsatkichni 100 ga ko'paytirib va yer bahosi baliga bo'lish kerak. Masalan: 1 ga yerdan olingan paxta hosildorligi 25 sentner bo'lib, shu yerning iqtisodiy bahosining bali 90 ga teng bo'lsa, u holda 1 gektar kadastr maydonidan olingan hosildorlik 27,7 s.

(25 · 100 : 90 = 27,7) sentnerni tashkil etadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishning zaruriy sharti, hozirgi vaqtda ayni dolzarb masala bo'lgan, yer resurslaridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish hisoblanadi.

Yer resurslaridan samarali foydalanish, o'z navbatida, suv resurslaridan ham oqilona foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Chunki o'simlik dunyosini suvsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buni issiq o'lka hisoblangan bizning respublikamizda yaqqol ko'rish mumkin. Shuning uchun suvni tejash, undan oqilona foydalanish qonun bilan belgilab

qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-mayda qabul qilingan «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunida suvning davlat mulki ekanligi, umumiy boylik hisoblanishi, suvdan oqilona foydalanish lozimligi va u davlat tomonidan qo'riqlanishi ta'kidlab o'tilgan. Yana shu qonunda respublikaning yagona davlat suv fondi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, boshqa yer usti suv havzalari va suv manbalari, kanal va hovuzlarning suvlaridan, yer osti suvlari va muzliklardan iboratligi ko'rsatib o'tilgan.

Qonun bo'yicha belgilangan tartibda qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish ishlari tuman hokimiyatlari tomonidan tasdiqlangan reja asosida amalga oshiriladi.

Suvdan foydalanish bo'yicha xo'jalik rejasi fermer va dehqon xo'jaliklarining yillik ishlab chiqarish va moliya rejasining bir qismi hisoblanadi.

Suvdan rejali foydalanish almashlab ekishdagi qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish tartibi, u ekinlarni sug'orish rejimiga qarab (har qaysi ekin uchun alohida holda) tuziladi va xo'jalikning qabul qilingan almashlab ekish dalalarining hamma maydoni uchun suvga bo'ladigan yillik ehtiyojini ko'rsatadi. Xo'jalikning suv bilan ta'minlanganlik darajasi gidromodul bo'yicha har gektar sug'oriladigan maydonga bir soniya ichida litr hisobida beriladigan suvning o'rtacha miqdori bo'yicha hisoblab chiqiladi.

Sug'orish tizimlarida suvdan rejali foydalanishni joriy etish xo'jaliklarga suvni o'z vaqtida yetkazib berish, uni dalalar bo'yicha bir maromda taqsimlash va o'simlikni suv bilan mo'tadil muddatlarda ta'minlashga mo'ljallangan bo'ladi. Bunga faqat hamma almashlab ekiladigan ekinlar uchun alohida sug'orish tartibini joriy etish yo'li bilan erishish mumkin.

Xo'jalikning suvdan foydalanish rejasida xo'jalikning ayrim almashlab ekish maydonlari va butun sug'oriladigan yer maydoni uchun umumiy yillik suvdan foydalanish hajmi keltiriladi.

Suvdan foydalanish rejasi vegetatsiya davri va vegetatsiya davridan tashqari vaqtlar uchun tuziladi. Jumladan, vegetatsiya davri uchun tuzilgan rejada g'o'za, beda, makkajo'xori, sabzavot va poliz ekinlarini, shuningdek, bog' va tokzorlarni sug'orish uchun talab etilayotgan suv sarfi ko'rsatilgan bo'ladi. Vegetatsiya davridan tashqari o'tkaziladigan sug'orishlar rejasida yerlarni haydash oldidan sug'orish, sho'r yuvish va ekin oldidan o'tkaziladigan sug'orishlar uchun bo'lgan ehtiyoj hisoblab chiqiladi.

**Qishloq xo'jalik ekinlarining sug'orish  
soni va normalari**

<b>T.r.</b>	<b>Ekin turi</b>	<b>Sug'orish soni</b>	<b>Sug'orish me'yori, m<sup>3</sup>/ga</b>	<b>Mavsumiy sug'orish me'yori m<sup>3</sup>/ga</b>
1.	G'o'za	5-7	800-1200	5000-8000
2.	Kuzgi bug'doy	4-5	700-800	3000-4000
3.	Makkajo'xori	7-8	700-800	5000-6500
4.	Beda	10-12	1000-1200	10000-12000
5.	Qand lavlagi	6-8	500-600	3000-4000
6.	Tamaki	7-8	750-850	5000-6500
7.	Kartoshka (ertangi)	7-8	400-500	3000-4000
8.	Pomidor	15-16	600-700	9000-10000
9.	Piyoz	18-20	500-600	9000-12000
10.	Sabzi (kechki)	8-12	500-550	5000-6000
11.	Chuchuk qalampir	14-15	600-700	9000-10000
12.	Boyimjon	15-16	600-700	9000-10000
13.	Oqbosh karam	14-15	600-700	9000-10500
14.	Bodring	12-14	500-550	6000-7500
15.	Sarimsoq	7-10	500-600	4000-6000
16.	Qovun	5-6	600-700	3000-4000
17.	Tarvuz	5-6	600-650	3000-3900
18.	Qovoq	6-7	650-750	4550-6000
19.	Kungaboqar	3	600-800	1800-2400
20.	Sholi	-	-	3000 gacha

Ushbu jadvalda qishloq xo'jalik ekinlarining o'rtacha sug'orish soni va me'yorlari ko'rsatilgan. Belgilangan suv resurslarini isrof qilgan korxonalar jarima to'laydilar.

Ko'zda tutilgan suv miqdori tuproqning hisobiy qatlamini mo'tadil darajada namlash va tuproqda o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi va mo'l hosil to'plashi uchun zarur bo'lgan namlikni ta'minlash uchun yetarli miqdorda bo'lishi lozim.

Xo'jaliklarda suvdan foydalanishning tizim bo'yicha va xo'jalik ichidagi shkalalari farqlanadi. Suvdan foydalanishning tizim bo'yicha rejasi sug'orish tizimidan foydalanish xizmati tomonidan tuzilib, shuningdek, maydonlar tuzilmasining o'zgarishiga va qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish reja topshiriqlariga qarab o'zgarib turadi.

Suvdan foydalanish rejasini tuzishda butun tizim bo'yicha, chunki sug'orish shoxobchalarini ish holatida tutish, ya'ni yuqori hosil olish uchun agrotexnika tadbirlarini o'z muddatida bajarish va tizimni texnik jihatdan soz holatda saqlash imkoniyatlari ko'zda tutiladi. Suvdan foydalanish rejasida dastlab xo'jalikning suvga bo'ladigan ehtiyoji belgilanadi.

Xo'jalikning suvdan foydalanish rejasi asosiy dastur bo'lib, u umuman olinadigan suv miqdorini va uni butun bir sug'orish tizimlariga yetkazib berishni hamda undan tartibli foydalanishni belgilaydi. Suvdan foydalanishning xo'jalik ichidagi hisob elementlari butun bir tizim bo'yicha reja tuzish uchun asos sifatida xizmat qilib, u xo'jaliklararo sug'orish tizimlarining hamma tarmoqlari bo'yicha suvni taqsimlab berishni ko'zda tutadi. Suvdan rejali tartibda foydalanish ortiqcha suvni xo'jalikka keltirishga yo'l qo'ymaydi, shuning hisobiga ko'plab suvni oqova holda tashqariga chiqarib yuborish va tuproqning pastki qatlamlariga sizib yo'qolishining oldi olinadi, sug'orishdan keyin tuproqqa o'z vaqtida ishlov berishni ta'minlaydi, suvni sug'orish egatlariga taqsimlab berishni mexanizatsiyalashtirish imkonini beradi.

Xo'jaliklarda suvdan foydalanish mas'ulyatini oshirish uchun suv avtoregulatorlaridan, telemexanika qurilmalaridan va hisoblash mashinalaridan (ichki xo'jalik tarmoqlarida suvdan foydalanishni operativ aniqlash uchun) tobora keng foydalanilmoqda. Xo'jalik tizimida suvni avtomatik ravishda taqsimlab beradigan uskunalardan foydalanish, suvdan foydalanish rejasini aniq bajarish, eng kam qo'l mehnati sarflangan holda suvdan tejamkorlik bilan foydalanish imkonini beradi.

EHM ni qo'llab suv taqsimoti ustidan nazorat o'rnatish sug'orish manbalarida mavjud bo'lgan suv rejimi haqida uzoq muddatli va qisqa muddatli axborot berib turishga, shuningdek, tuproq namligi rejimi dinamikasi hamda sug'orishning borishi haqida axborot berib turishi uchun imkoniyat yaratadi.

Suvdan foydalanish va uni taqsimlash rejalarini tuzishda ob-havoning qanday bo'lishi, ekinlarni o'sish dinamikasi va ekinning o'sib rivojlanishi hisobga olinadi.

**Suvdan foydalanish koeffitsienti.** U haqiqatda sug'orilgan maydonni shu suv bilan sug'orilishi mumkin bo'lgan maydonga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$SFK = \frac{SM}{SMM}; \text{ yoki } \frac{SM}{SMM} \cdot 100 \quad (8.9)$$

bunda: SFK – suvdan foydalanish koeffitsienti yoki foizi;

SM – haqiqatda sug'orilgan maydon, ga;

SMM – sug'orilishi mumkin bo'lgan maydoni ga.

Buni aniqlash natijasida suvdan foydalanish darajasi belgilanadi. Bu ko'rsatkichni aniqlashda ekinlarga suv berish me'yoriga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Chunki unga rioya qilinsa, albatta, suvdan foydalanish darajasi yuqori bo'ladi. Demak, uning darajasi, ya'ni koeffitsienti 1 dan yoki 100 foizdan yuqori bo'lmasligi lozim. Agarda yuqori bo'lsa, unda ekin maydonlari sifatli sug'orilgan bo'lmaydi.

Foydalanish mumkin bo'lgan yerlardan bir yilda necha marta foydalanilganlik darajasini aniqlash uchun haqiqatda urug' ekilgan maydon mavjud ekin ekilgan yer maydoniga taqsimlanadi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$YFS = \frac{US}{S} \quad (8.10)$$

YFS – yerdan foydalanish soni, ya'ni 1 ga maydondan necha marta foydalanilganlik soni;

US – bir yil mobaynida urug' ekilgan maydon, ga;

S – foydalanilgan yer maydoni, ga;

Bu ko'rsatkich yordamida bir maydonga necha marta ekin ekib, foydalanilganlik darajasi, ya'ni soni aniqlanadi. Demak, uning soni birdan ko'p bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun mavjud bo'lgan yerlardan bir necha marta ekin ekib, hosil olishga intilish lozim.

**Suvdan foydalanish samaradorligi.** Bu ko'rsatkich yordamida har bir metr kub suv evaziga olingan yalpi mahsulot miqdori, qiymat, daromad va sof foyda summasi quyidagi tenglik yordamida aniqlanadi:

$$SF_{\text{sam}} = \frac{YH}{Q_{\text{suv}}} \cdot \frac{YMq}{Q_{\text{suv}}} \cdot \frac{YDq}{Q_{\text{suv}}} \cdot \frac{SFq}{Q_{\text{suv}}} \quad (8.11)$$

bunda:  $SF_{\text{sam}}$  – suvdan foydalanish samaradorligi;

$Q_{\text{suv}}$  – foydalanilgan suv miqdori. Bu natural hamda qiymat ko‘ri-  
nishida aniqlanadi. Bunda  $1\text{m}^3$  suvdan foydalanish natijasida qancha  
miqdorda mahsulotlar yetishtirilganligi hamda necha so‘mlik yalpi  
mahsulot va yalpi daromad, sof foyda olinganligi aniqlanadi.

Sug‘orish sistemasi (tizimi)dan foydalanish koeffitsienti darajasini  
aniqlash uchun shu tizimning oxirida ekinlarni sug‘orish maqsadida  
berilgan suv miqdorini shu tizim boshida olingan suv miqdoriga  
taqsimlash zarur. Bunda quyidagi ifodadan foydalanish mumkin:

$$STFK = \frac{STOEBQ_{\text{suv}}}{STBOQ_{\text{suv}}} \quad (8.12)$$

STFK – sug‘orish tizimidan foydalanish koeffitsienti;

$STOEBQ_{\text{suv}}$  – sug‘orish tizimining oxirida ekinlarga berilgan suv  
miqdori;

$STBOQ_{\text{suv}}$  – sug‘orish tizimining boshida olingan suv miqdori.

Bu ko‘rsatkich darajasi yoki koeffitsienti 1 ga teng bo‘lishi kerak.  
Chunki sug‘orish tizimining boshida olingan suv ekin maydonlariga  
to‘liq yetkazilishi lozim. Agar uning darajasi past bo‘lsa, demak, suvning  
ma‘lum miqdori tizim davomida parlangan, tuproqqa sizib ketgan  
yoki oqib ketgan bo‘lishi mumkin. Bu ko‘rsatkich tizimning holatini  
ko‘rsatadi.

Suvdan foydalanish va qishloq xo‘jalik ekinlari uchun yerlarni  
tayyorlash rejalarining bajarilish koeffitsienti quyidagicha hisoblanadi:

$$SFK = 1 - YE \frac{Q_{\text{suv}}(10 \text{ kun}) \cdot Q_{\text{suv}}(1 \text{ kun})}{n \cdot Q_{\text{suv}}} \quad (8.13)$$

bunda:  $Q_{\text{suv}}(10 \text{ kun})$  – xo‘jalikka o‘n kun davomida kelib turadigan  
o‘rtacha suv miqdori;

$Q_{\text{suv}}(1 \text{ kun})$  – xo‘jalikka bir kecha-kunduz davomida kelib  
turadigan o‘rtacha suv miqdori;

$n$  – o‘n kun davomida sug‘orish o‘tkaziladigan kunlar soni;

O‘n kun davomida reja bo‘yicha berilishi lozim bo‘lgan va  
haqiqatda berilgan suv oqimi quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlanadi:

$$W = 000864 \cdot Q_{\text{suv}} \cdot n, \text{ ming m, kub} \quad (8.14)$$



Suvdan foydalanish koeffitsienti (SFK) reja bo'yicha birga teng bo'lishi kerak.

$$\text{SFK} = \frac{S_a \cdot Q_{\text{suv.a}}}{S_r \cdot Q_{\text{suv.r}}} \quad (8.15)$$

Shunga ko'ra amalda suvdan foydalanish koeffitsienti (SFK) quyidagi ifoda bo'yicha hisoblanadi:

SFK, bunda:  $S_a, S_r$  – reja bo'yicha belgilangan va amalda sug'orilgan maydon, ga:

$Q_{\text{suv.a}}, Q_{\text{suv.r}}$  – o'n kun davomida reja bo'yicha va haqiqatda sarflangan suv miqdori, m kub/s.

SFK ning qiymati 0,9–1,10 atrofida bo'lishi kerak, u pasayib ketganda buning sababi aniqlanadi va tegishli tuzatish kiritiladi. Suvdan foydalanish koeffitsientini oshirish ko'p jihatdan xo'jalikda va dalalarda unga nisbatan moddiy jihatdan javobgarlikni his etishga, yetishtirilgan hosilga bog'liq bo'ladi. Suvdan foydalanishda moddiy jihatdan javobgarlikni belgilash uchun xo'jalikka kelayotgan suvni qat'iy ravishda hisobga olib borish va undan samarali foydalanishni joriy etish kerak bo'ladi.

Yil davomida talab etilayotgan umumiy suv sarfi (Q-brutto) va sof holati talab qilinayotgan suv miqdori (Q-netto) aniqlanib, ular asosida suvdan foydalanish koeffitsienti topiladi.

Ekinlarni sug'orishda suvdan maqsadga muvofiq foydalanish ko'p jihatdan sug'orish tizimlarini suv olishga qanday tayyorlanganligi va suvni egatlarga taqsimlab beradigan sug'orish texnikasining qanchalik yuqori muhandislik tipida bajarilganligi xo'jaliklarda suvdan foydalanish samaradorligini va shular asosida o'stirilayotgan ekinlar hosildorligini oshirishni ta'minlaydi.

Ekinlar hosildorligini oshirish va asosiy jamg'armalarning hosil bilan qanchalik qoplanishidagi birdan bir muhim omil – xo'jaliklarda suvdan rejali foydalanishni takomillashtirishdan iboratdir.

Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olish uchun tuproq unumdorligini oshirish bilan bir vaqtda uchastkalar ichidagi kanallarning qanchalik sozligi borasida muntazam qayg'urish kerak, bu esa, o'z navbatida, sug'orish shoxobchalariga o'z muddatida suv yetkazib berish va dalalar bo'ylab suvdan samarali foydalanish imkonini beradi.

Suvdan tejamkorlik bilan foydalanish texnologiyasini joriy etish xo'jaliklar bo'yicha isrof bo'ladigan suv sarfini kamaytiradi.

Bunda:

– butun sug‘orishda egatlar bo‘ylab tuproqning bir tekisda namiqishiga erishiladi:

– suvning tuproqni pastki qatlamlariga sizib ketishi va oqova sifatida isrof bo‘lishi qisqaradi:

– sug‘orish uchun mashinalar yordamida suv yetkazib berishda sarflanadigan yonilg‘i-energiya xarajatlari ham kamayadi:

– xo‘jalik shoxobchalari bo‘yicha suv taqsimotini mexanizatsiya-lashtirish va avtomatlashtirish imkoniyati vujudga keladi:

– suvni uzaytirilgan (500–600 m) sug‘orish egatlari orqali berish imkoni vujudga kelib, bunda suvdan foydalanish koeffitsientini oshirishga erishiladi:

– tuproqni o‘z muddatida va yuqori sifatli qilib ishlash hisobiga namni tuproq yuzasidan bug‘lanib isrof bo‘lishi keskin kamayadi.

Ma‘lum miqdordagi suvni tejashga har qaysi dalada sug‘orishni mumkin qadar qisqa muddat ichida amalga oshirish va sug‘orishlardan keyin qator oralariga ishlov berishni o‘z muddatida o‘tkazish bilan erishish mumkin.

Xo‘jaliklarda suvdan samarali foydalanishni tahlil qilish bilan qabul qilingan sug‘orish me‘yorlarini hisobga olgan holda qishloq xo‘jalik ekinlarini o‘n kunliklar bo‘yicha sug‘orish grafigi tuziladi. Sug‘orish bo‘yicha reja topshiriqlari tuzish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Ekinlar bilan band qilingan jami maydonlarni uzoq muddat davomida sug‘orishga mo‘ljallangan bir kecha-kunduzli sug‘orish maydoni mo‘ljallanadi.

Masalan, sug‘oriladigan ekinlarning umumiy maydoni 186 gektar, sug‘orish davomiyligi 18 kun, bunda bir kecha-kunduzda sug‘orish maydoni 10,3 gektarni tashkil etadi. Sug‘orishni 186 gektar maydonda amalga oshirish uchun uni 21 kunda boshlash kerak bo‘lsa, iyunning 3-o‘n kunligida 10 kun va qolgan qismi iyul oyi birinchi o‘n kunligining 8 kuni ichida sug‘orib bo‘linadi.

Sug‘orish davrining har qaysi o‘n kunligi uchun kerak bo‘lgan suv hajmi aniqlanadiki, bu miqdordagi suvni xo‘jalik albatta olishi lozim. Buning uchun har bir ekin turi maydoni (S) sug‘orish me‘yoriga (m) ko‘paytiriladi:

$$Q_{\text{suv}} = S_1m + S_2m + S_3m + \dots + S_{nm} \quad (8.16)$$

natija jamlanadi va o‘n kun kunliklari bo‘yicha beriladigan suvning hajmi belgilanadi:

Bir o'n kunlikda sug'orishni boshlash uchun va uni keyingi o'n kunlikda tugatish maqsadida har qaysi sug'orish davri uchun suv hajmi hisoblab chiqiladi.

Sug'orish rejasini belgilangan muddatda bajarish uchun dalada o'n kunliklar yoki ma'lum davr mobaynida berilishi lozim bo'lgan suv sarfi (l/s) belgilanadi. Har gektar maydondagi ekin uchun sug'orish gidromoduli quyidagi ifoda yordamida hisoblab chiqiladi.

$$Q = \frac{S \cdot Q_m}{86,4t} \text{ l/s ga} \quad (8.17)$$

bunda:  $Q$  – sug'orish gidromoduli:

$S$  – mazkur ekin bilan band qilingan maydon:

$Q_m$  – sug'orish me'yori m.kub/ga.

Ishlab chiqarish sharoitida sug'orish gidromoduli yetishtirilayotgan barcha ekinlar uchun hisoblab topiladi. Masalan, bir necha ekinlar bir vaqtda sug'oriladigan bo'lsa, chunonchi 70 foiz maydonni egallagan g'o'za, 20 foiz maydondagi beda va 10 foiz maydondagi makkajo'xori bir yo'la sug'oriladigan bo'lsa, u vaqtda ularning birlik hisobidagi ulushi 0,70:0,20 va 0,10 ni tashkil etadi. Qabul qilingan sug'orish rejimi bo'yicha g'o'zaning sug'orish me'yori gektariga 1000 m<sup>3</sup>, bedaniki 1200 m<sup>3</sup> va makkajo'xoriniki 800 m<sup>3</sup> ni tashkil etsa, sug'orishlar davomiyligi tegishli 20 va 15 kunga teng bo'ladi.

Quyida keltirilgan ifoda bo'yicha sug'orish gidromodulini topish mumkin:

$$\text{g'o'za uchun: } Q = \frac{0,70 \cdot 1000}{86,4 \cdot 20} = 0,41 \text{ l/s ga}$$

$$\text{beda uchun: } Q = \frac{0,20 \cdot 1200}{86,4 \cdot 20} = 0,14 \text{ l/s ga}$$

$$\text{makkajo'xori uchun: } Q = \frac{0,1 \cdot 900}{86,4 \cdot 15} = 0,70 \text{ l/s ga}$$

Bunda: sug'orish gidromodulini yig'indisi:

$$Q = 0,41 + 0,14 + 0,07 = 0,62 \text{ litr/soat ga teng bo'ladi.}$$

Yuqorida keltirilgan hisoblar sug'orishdagi mehnat unumdorligini va xo'jaliklararo hamda xo'jalik sug'orish shoxobchalaridan olinadigan suvni almashlab ekish uchastkasida taqsimlash usullarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Sug'orish gidromodulini aniqlash bo'yicha

yuqorida olib borilgan hisob-kitoblar suvdan foydalanish rejasiga ko'p tuzatish kiritishni talab etmaydi.

Bunda faqat sug'orish kanallarining foydali ish koeffitsienti uchun 0,85 tuzatish ko'rsatkichi va sug'orish texnikasining foydali ish koeffitsienti uchun 0,55 tuzatish ko'rsatkichini joriy etish kerak bo'ladi.

Sug'orish kanallari va sug'orish texnikasi foydali ish koeffitsientlari ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, sug'orish uchun berilayotgan suvning tegishli ravishda 15–20 va 40–45 foizi tuproqda sizib yo'qoladi va bu suv isrofgarchiligi joyning nishabiga, tuproqning suv o'tkazuvchanlik qobiliyati va sug'orish egatlari uzunligiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, xo'jalik shoxobchalari orqali isrof bo'ladigan suv kanallar o'zanining tuzilishiga bog'liqdir. Agar uning o'zani tuproqdan iborat bo'lsa, suv isrof bo'lishi 30–40 foizga qadar, o'zani beton bilan qoplangan yoki beton–novdan qurilgan bo'lsa, suv isrofgarchiligi kam bo'lib, foydali ish koeffitsienti 0,90–0,92 ga qadar boradi.

Yuqorida keltirilayotgan ko'rsatkichlar talab etilayotgan suv miqdorini  $Q_{\text{suv}}$  – brutto aniqlash imkonini beradi:

$$Q_{\text{suv}} \text{ brutto) } = Q_{\text{suv}} \text{ netto} + Q_{\text{suv}} \text{ sug'orishda} + Q_{\text{suv}} \text{ xsh} \quad (8.18)$$

bunda:  $Q$  – brutto – sug'orish gidromoduli, l/s ga;

$Q_{\text{suv}}$  sug'orishda – sug'orishda isrof bo'ladigan suv miqdori, l/s ga.

$Q_{\text{suv}}$  xsh – xo'jalik sug'orish shoxobchalarida isrof bo'ladigan suv, l/soatga.

Sug'orish tarmog'i, texnikasi va foydali ish koeffitsientlari hisobga olingan holda hisoblab chiqilgan sug'orish gidromoduli suv xo'jalik boshqarmalari tomonidan belgilangan limitdan oshib ketmasligi kerak.

O'tkazilgan hisob-kitoblar suvga bo'lgan buyurtmani yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq tuzish imkonini beradi.

### **8.3. Yerdan, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari**

Yer-suv – umummilliy boylikdir. Yer-suvdan oqilona hamda samarali foydalanish zarurligi «Yer kodeksi»da, «Suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunda alohida ta'kidlangan. Tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga, suvni iflos qilmaslikka, shuning negizida ulardan talab darajasida samarali foydalanishga katta e'tibor berish lozim.

Qishloq xo'jalik korxonalari foydalanish mumkin bo'lgan maydonlardan to'liq va samarali foydalanishga harakat qilmoqdalar.

Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligining oshishi yerdan foydalanish samaradorligi yuksalishini ta'minlaydi.

Suvdan foydalanishning samaradorligi ham ortmoqda. Lekin erishilgan natijalar o'sib borayotgan talab darajasida emas. Yer-suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun bir qancha tashkiliy va iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Iqtisodiy unumdorlikni oshirish maqsadida yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilashni ta'minlovchi tadbirlarni kompleks amalga oshirishni rivojlantirish muhim muammo hisoblanadi. Yer-suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish uchun yer-suv munosabatlarini takomillashtirish, chuqurlashtirish, ya'ni liberallashtirish masalalarini hal etishni tezlashtirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun yer va suvning baholarini va ulardan foydalanganlik uchun to'lanadigan haqlarni, soliqlar miqdorini realroq aniqlash lozim. Bunda bozor iqtisodi qonunlari talablariga asoslanish, shuningdek, yer va suv resurslarining cheklanganligi, takror ishlab chiqarilmasligi, holati, sifati, iste'molchilarga uzoq-yaqinligi, ishlab chiqarish vositalari hamda infratuzilmalar bilan ta'minlanganligi, olinayotgan mahsulot, foyda kabi ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega.

Yerdan, suvdan to'liq va samarali foydalanish uchun:

- yer-suv islohotlarini qonunlar asosida amalga oshirish;
- zaxlanib, sho'rlangan yerlarda irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini vaqtida sifatli amalga oshirish;
- yangi, samarali texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish;
- ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan almashlab ekish tizimini yo'lga qo'yish;
- ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda kimyoviy vositalardan oqilona foydalanish;
- seleksiya, urug'chilikni va agrotexnik tadbirlarni sifatli amalga oshirish;
- ishchi va xizmatchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etish;
- yer va suv munosabatlarini takomillashtirish va erkinlashtirish lozim.

Suvdan foydalanishda, eng avvalo, suvga bo'lgan talabni aniqlash muhimdir. Buning uchun har bir ekin turi bo'yicha yil mobaynida 1

gektar yer uchun qancha suv zarurligi aniqlanib, u umumiy ekin maydoniga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.

Suvdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi: 1 so'mlik xarajatlar hisobiga olingan qishloq xo'jalik mahsulotlarining, mehnat unumdorligining, sof daromad (foyda) ning o'sishi, shuningdek, 1 kub metr foydalanilgan suv hisobiga olingan qishloq xo'jalik mahsulotlarining, mehnat unumdorligining va sof daromad (foyda) ning o'sishi hisoblanadi. Suvdan o'simlikning talabidan kelib chiqqan holda rejali va me'yorda foydalanish yer resurslaridan foydalanishning va bir butun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishga olib keladi. Suvdan foydalanishning iqtisodiy jihatdan samaradorligini oshirishga takomillashtirilgan sug'orish tizimlarini joriy etish yo'li bilan erishish mumkin.

Xo'jalik sug'orish tizimlari va dalalarda suvni tejashga xo'jalikka berilayotgan va dalalarga taqsimlanayotgan suvni hisobga oladigan moslamalardan keng foydalanish hamda qator agromeliorativ tadbirlarni joriy etish yo'li bilan erishish mumkin. Shunga ko'ra sug'orishning unchalik murakkab bo'lmagan va iqtisodiy jihatdan foydali usul va texnikasini qo'llash sug'orish rejalarini belgilangan muddatlarda bajarish imkonini beradi.

Xo'jaliklarda suvni tejashning asosiy yo'nalishlari sug'orish tizimlarini tubdan qayta qurish va jihozlash, kollektor-zovur shoxobchalari qurish, sug'orish usullarini to'liq mexanizatsiyalash, suvni hisobga olishni joriy etish va suvdan foydalanishni avtomatlashtirish bo'lib, bularning barchasi suvning behuda isrof bo'lishini keskin kamaytiradi.

Sug'oriladigan dehqonchilik borasidagi eng yirik muammolardan biri sug'orish tizimlari orqali isrof bo'ladigan suv miqdorini kamaytirish va sug'oriladigan maydonlarda suvdan foydalanish koeffitsientini oshirishdan iboratdir.

Meliorativ jihatdan xizmat ko'rsatish uchun asosiy vazifa tuproqning chuqur qatlamlariga sizib yo'qoladigan suvni kamaytirish va tuproqning meliorativ holatining yomonlashishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Suvning tuproqqa sizib yo'qolishiga qarshi kurashda turli xil choralar qo'llaniladi. Birinchi galdagi joriy kurash choralariga quyidagilar kiradi:

- sug'orishni kecha-yu kunduz o'tkazish va xo'jaliklarga suvni bir tomonga yo'naltirilgan oqimda berish;
- xo'jalik sug'orish shoxobchalariga ortiqcha suv olishga yo'l qo'ymaslik;

– har galgi va umumiy sugʻorish meʼyorlari hamda shoʻr yuvishda beriladigan suv miqdorlariga qatʼiy amal qilish;

– yilning vegetatsiya va novegetatsiya davridan tashqari vaqtlarda xoʻjalik sugʻorish shoxobchalari ishini ortiqcha yuklamada ishlashiga yoʻl qoʻymaslik;

– xoʻjalik sugʻorish shoxobchalari va xoʻjalikda suvdan foydalanuvchilar uchun suv taqsimlash toʻgʻonlarini qisqartirish, suvdan foydalanishni qatʼiy hisobga olib borishni nazorat qilish;

– kanallarni oʻt bosishiga va ularga loyqa oʻtirishiga yoʻl qoʻymaslik, begona oʻtlarga qarshi kimyoviy vositalar orqali kurashish va kanallarga loyqa oʻtirib qolmasligi uchun suvni kerakli oqimda berishni taʼminlash;

– suv oʻlchash va taqsimlash qurilmalari orqali suv oqib yoʻqolishini qisqartirish;

– oʻz oqimi bilan suv berish uchun hosil qilingan sugʻorish shoxobchalarida katta dambalar qurishga yoʻl qoʻymaslik.

Suv yoʻqatilishiga qarshi kurashda joriy qurilish choralariga quyidagilar kiradi:

– xoʻjaliklarda sugʻorish kanallarining umumiy uzunligini qisqartirish va ularni ish holatida saqlash;

– xoʻjalik shoxobchalarida suv taqsimlash toʻgʻonlarini kamaytirish;

– ayrim uchastkalarda kanallarning tubini, yonbagʻirlarini shibbalab zichlash;

– oʻzanga loyqa bostirish, biologik toʻshamalar toʻshash;

– sugʻorish shoxobchalarida asfaltlash va betonlash;

– kanallarning tubida va yonbagʻirlarida sunʼiy ravishda shoʻrtoblantirish;

– suv oʻtkazuvchanligi yuqori tuproqlarda kanallarni beton-novli sugʻorish shoxobchalariga va yopiq tipda qurilgan quvurlarga almashtirish.

Kanallarda behuda yoʻqotilgan suv sarfini kamaytirish boʻyicha eng samarali tadbirlardan biri kanallarni asosiy ravishda qayta qurish, yaʼni ularni beton bilan qoplash, beton-novli sugʻorish shoxobchalari qurish va dalalarda sugʻorish mashinalarini qoʻllashdan iboratdir.

Tuproqqa sizib yoʻqoladigan suv miqdorini kamaytirish uchun oddiy choralardan keng foydalaniladi. Suvning yerga singib ketishiga qarshi oddiy kurash choralaridan, asosan, ilgaridan sugʻorilib kelingan hududlarda foydalaniladi. Kanallarning tubi va yonbagʻirlarini bu xildagi ogʻir va soz tuproq zarrachalari bilan berkitish suvning sizib yoʻqolishini bir necha baravarga qisqartiradi.

Sug'orish egatlariga suvni yetkazib berish va uni egatlarga taqsimlash ishlarini mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan sug'orish texnikasidan foydalanish koeffitsientini 0,66 dan 0,81 qadar oshiradi. Sun'iy sug'orish sharoitida ko'p yillar davomida olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, yerdan to'g'ri foydalanganda sug'orish tizimlari uchun qilingan asosiy xarajatlar ko'pi bilan 5–6 yil ichida qoplanib ketadi. Buni tuproq unumdorligining yuqori bo'lishi va sug'orish suvlari yetarli miqdorda mavjudligi bilan izohlash mumkin bo'lib, bunda tuproqning meliorativ holatini yaxshi saqlaydi va mo'l hosil olish uchun yetarli sharoit vujudga keladi.

Suvdan samarali foydalanish uchun suvdan foydalanuvchilar oldiga katta vazifalar qo'yilgan. «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 50-moddasida «Suv obyektlaridan qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanuvchilarning vazifalari» keltirilgan.

Suvdan qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanuvchilar:

– suvdan foydalanishning belgilangan limitlari, rejalari, qoidalari, me'yorlari va rejimlariga rioya etishlari, tik drenajni inobatga olgan holda foydalanishning barcha turlari uchun ishlatilayotgan suvni hisobga olib borishlari;

– ichki xo'jalik sug'orish, suv chiqarish va kollektor-drenaj tarmog'i hamda undagi inshootlarni va suv chiqarish quduqlarini texnika jihati-dan ishga yaroqli holda saqlashlari;

– melioratsiya qilingan yerlarni kompleks rekonstruksiya qilishlari va qishloq xo'jalik ekinlari hamda o'simliklarni sug'orish, shuningdek, yaylovlarga suv chiqarishning maqbul rejimini saqlashlari;

– suvni tejaydigan texnologiyalar va ilg'or texnikani joriy etish orqali sug'orishning uslub hamda usullarini takomillashtirishlari;

– belgilab olingan aniq maqsadlarga muvofiq, foydalanilayotgan suvlarning samaradorligini oshirishlari shart.

## **8.4. Yer qiymatini baholash asoslari**

### **Qishloq xo'jaligida yer qiymatini baholash asoslari**

Yerlarni iqtisodiy baholash bir qancha iqtisodiy muhim masalalarni hal etishga qaratilgan bo'lishi lozim. Eng avvalo, yer umumxalq, davlat mulki sifatida baholanishi maqsadga muvofiqdir. Shunda mamlakat milliy boyligining tarkibi – yerning qiymatini, ulushini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Shuning bilan birgalikda yerning asosiy vosita sifatida



baholanishi ham hal etilishi lozim. Yuqoridagi muammolarning hal etilishi bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan O'zbekistonda ham yer munosabatlarini takomillashtirishga muayyan hissa qo'shishi mumkin.

Sug'oriladigan yerlarning qiymatini aniqlash uchun:

– barcha sug'oriladigan maydonlarning tuproqlari turlari bo'yicha, ularning barcha xususiyatlarini, holatini e'tiborga olgan holda bonitirovka qilinib, bonitet balli ishlab chiqildi. Barcha xususiyatlari bo'yicha eng unumdor, yaxshi tuproq 100 ball etib belgilangan. Ayrim xususiyatlarini (sho'rlanganlik, toshloq, erroziya...) e'tiborga olgan holda tuproqning bonitet balli pasayib boradi; bu hol tuproqning tabiiy unumdorligini ifodalaydi;

– tabiiy unumdorlikka asoslangan holda iqtisodiy omillar (investitsiyalarni amalga oshirish natijasida mehnat, mablag', texnika...) ta'sirida yetishtirilishi mumkin bo'lgan mahsulotning me'yori aniqlangan. Barcha omillardan oqilona foydalanish natijasida 1 ball 40 kg paxta xomashyosini yetishtirish qobiliyatiga ega ekanligi hisob-kitoblar asosida aniqlangan. Demak, mahsulot yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan barcha omillar me'yor doirasida bo'lsa, u tuproqning 1 balli 40 kg paxta yetishtirish imkoniyatiga ega ekan.

– qishloq xo'jaligining joylashishini, ixtisoslashishini e'tiborga olgan holda 1 ga ga, 1 s ga sarflanishi mumkin bo'lgan xarajatlar me'yori ishlab chiqilgan;

– tuproqning iqtisodiy unumdorligiga asoslangan holda ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan mahsulotlarning miqdori, ularni sotish kanallari bo'yicha o'rtacha baholarini e'tiborga olgan holda me'yoriy yalpi mahsulot qiymatini aniqlash tartibi ko'rsatilgan.

Yuqoridagilarga asoslangan holda har bir gektar sug'oriladigan maydondan olinishi mumkin bo'lgan sof foyda miqdorini aniqlash tartibi ham ko'rsatilgan. Shularga asoslangan holda 1 gektar sug'oriladigan yerning bahosini (qiymatini) ushbu formula yordamida aniqlash mumkin:

$$S_q = \frac{SF_m \cdot K}{KYF} \quad (8.19)$$

bunda:  $S_q$  – 1 ga yerning qiymati (so'mda);

$SF_m$  – olinadigan sof foyda me'yori (so'mda);

$K$  – yerlarning holatlarini ifodalovchi koeffitsient;

$KYF$  – bank ssuda kapitalining yillik foizi (foizda).

Shu formuladan foydalangan holda xo'jalikning 80 ballga ega bo'lgan 1 gektar yer bahosini aniqlash kerak bo'lsa, shu bir gektar yerdan olinishi

mumkin bo'lgan yalpi mahsulot qiymatidan me'yoriy xarajatlar summasini ayirib, olinishi mumkin bo'lgan sof foyda summasi aniqlanadi.

Bu maydon kam sho'rlangan, undan 25 sentner paxta hosili olish mumkin, deylik. Agarda har bir tonna paxta xarid baholarida 400 ming so'mga sotilsa, unda 1 mln so'mlik (2,5·100) yalpi mahsulot olish mumkin. Har bir tonna paxta xomashyosini yetishtirish uchun 300 ming so'm xarajat qilinadigan bo'lsa, shu maydondan  $(2,5 \cdot (400 - 300)) = 250$  ming so'mlik sof foyda olish mumkin.

Respublikada qishloq xo'jalik yerlarining qiymatini baholash maqsadida 1998-yilda «Uslubiy qo'llanma» ishlab chiqilgan. Unda sug'oriladigan yerlarning me'yoriy qiymatini aniqlash tartibi batafsil yoritilgan.

Yer resurslarining cheklanganligi va ularga nisbatan bozor talabi osha borishi natijasida ularning qiymati yanada yuqori bo'lishi mumkin. Lekin kelajakda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida yerlarning qiymatini aniqlash tartibini takomillashtirish lozim.

Bunda yer rentasiga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq. Chunki davlat mulkining egasi sifatida mutlaq yer rentasini olishi, differensial rentalar esa yer egasi bilan undan foydalanuvchilar o'rtasida taqsimlanishi lozim. Shu bilan birgalikda bozor sharoitida yerga bo'lgan talabni ham unutmashlik zarur.

***Yer uchastkasi** – o'z chegaralangan belgisi, maydoni, joylashish joyi, huquqiy strukturasi (yer egasi, yerdan foydalanuvchisi va boshqalar)ga ega bo'lgan yer sathining qismi.*

***Tuproq bonitirovkasi** – qishloq xo'jalik ekinlari o'sishini ball bonitetlarida (100 balli tizim bo'yicha) ifodalash uchun, tabiiy xususiyatlari bo'yicha klassifikatsiyalash.*

***Kadastrli hisoblangan hosildorlik** – 100 ballik baholash tizimi bo'yicha 1 ball bahoga qabul qilingan s/ga hosildan kelib chiqib, qishloq xo'jalik ekinlarining hisoblangan hosildorligi.*

Hozirgi vaqtda yer turli toifadagi xo'jalik yurituvchi subyektlarga – qishloq xo'jalik mahsulotlarida doimiy, uzoq, qisqa muddatga foydalanish yoki egalik qilish huquqi bilan berilmoqda. Ular o'zlariga birlashtirilgan yer uchastkalaridan belgilangan tartibda foydalanishi, ya'ni dehqonchilik qilishi, yerdan foydalanish huquqini garovga qo'yib bankdan kredit olishi, ishlab chiqarish obyektlarini qurishi, tuproq

unumdorligini oshirishi, meliorativ holatini yaxshilashi kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishi mumkin.

### **Fermer xo'jaliklarida yerdan foydalanganlik uchun yagona yer solig'ini to'lash tartibi.**

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, shu jumladan, fermer xo'jaliklarini soliqqa tortish va soliq to'lash mexanizmini soddalashtirilishi bilan 1999-yilning 1-yanvaridan boshlab, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i joriy qilindi. Ixchamlashtirilgan yagona yer solig'ining joriy etilishi bilan fermer xo'jaliklari foydadan olinadigan soliq, qo'shilgan qiymat solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer ostidan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig'i, yer solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va boshqa mahalliy soliqlar va yig'implarni to'lashdan ozod qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 362-moddasiga ko'ra yagona yer solig'ini to'lovchilar quyidagilar hisoblanadi:

– qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar;

– qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tarjiba xo'jaliklari;

Bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar soliq solish maqsadida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar jumlasiga kiradi:

– yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar;

– qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar.

Yuqorida nazarda tutilgan shartlarga javob beradigan yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'ladi<sup>1</sup>.

Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llash uchun xo'jalik yurituvchi subyektlar har yili hisobot yilining 1-fevraliga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi soliq inspeksiyasiga o'tgan hisobot

---

<sup>1</sup> Soliqqa oid qonun hujjatlari. 2008-yil. Toshkent. «NORMA», 2008.—283-b.

ylida qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etadi.

Qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi fermer xo'jaliklari uchun yagona yer solig'ining obyektini hisoblanadi. Yer uchastkalarining me'yoriy qiymati esa soliq solinadigan bazadir. Har bir xo'jalik bo'yicha qishloq xo'jalik yerlarining me'yoriy qiymati O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr qo'mitasi tomonidan aniqlanadi. Yuqorida bildirilgan fikrlarning isboti sifatida Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan uzumchilikka ixtisoslashgan quyidagi fermer xo'jaliklarining 2009-yil uchun yagona yer solig'i hisob-kitobini keltirib o'tamiz<sup>1</sup>.

8.5-jadval

**Yagona yer solig'i hisob-kitobi**

T.r.	Fermer xo'jaliklari nomi	O'tchov birligi	Yer maydoni	1 ga yer maydonining me'yoriy qiymati, m.s	Yer maydonining jami qiymati, m.s	Belgilangan soliq stavkasi, %	Soliq summasi, m.s
1.	Ikromov Yoqubjon	ga	6,1	4117,5	25116,8	6	1507,0
2.	Sodiqova Xadicha	ga	3,4	3199,4	10878,0	6	652,6
3.	Shermatov To'lqin	ga	2,3	3153,0	7251,9	6	435,1
4.	Abdufattoh bog'i	ga	2,6	5517,8	14346,3	6	860,7
5.	Charos /Sharob	ga	1,9	4061,8	7717,4	6	463,04
Jami:		x	16,3	x	65310,4	x	3918,4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaliklari yagona yer solig'i to'lashga ajratilgan yer uchastkalarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda to'langan.

Yer uchastkasining me'yoriy qiymati har bir fermer xo'jaligining joylashgan joyi, suv bilan ta'minlanganlik darajasi, bonitet bali kabi

<sup>1</sup> Toshkent viloyati Qibray tumani davlat soliq inspeksiyasi ma'lumotlari asosida mualliflar tahlili.

ma'lumotlarga asosan belgilanadi. Fermer xo'jaliklari yagona yer solig'i bo'yicha hisob-kitoblarini hisobot yilining 1-mayigacha yer uchastkasi joylashgan hududdagi soliq inspeksiyasiga taqdim etadilar.

Fermer xo'jaligi budjetga yagona yer solig'ini to'lashni quyidagi muddatlarda amalga oshiradi:

- hisobot yilining 1-iyuligacha – yillik soliq summasining 20 foizi;
- hisobot yilining 1-sentabrigacha – yillik soliq summasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1-dekabrigacha – soliqning qolgan summasi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaliklari yagona yer solig'i to'lashga ajratilgan yer uchastkalarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda to'langan.

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek, yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, fermer xo'jaliklari soliq inspeksiyasiga hisobot yilining 1-dekabrigacha yagona yer solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari lozim.

Fermer xo'jaliklari mahalliy budjetga to'lashi lozim bo'lgan yagona yer solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirishi natijasida budjet oldidagi majburiyatlarning bajarilishiga, shu bilan birga, istiqboldagi rejalarni amalga oshirilishiga erishadilar.

#### ***Nazorat va muhokama uchun savollar:***

1. *Qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?*
2. *Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari qaysilar?*
3. *Qishloq xo'jaligi yerlari foydalanishga qarab qanday toifalarga bo'linadi?*
4. *Suvdan foydalanishda tejamkor texnologiyalar qaysilar?*
5. *Yer rentasi va uning turlari qanday aniqlanadi?*
6. *O'zbekiston yer fondi qancha va undan foydalanish tartibi qanday?*
7. *Yagona yer solig'ini to'lash muddatlari qanday?*
8. *Sug'oriladigan dehqonchilikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish sug'oriladigan yerlarda qanday muammolarni vujudga keltiradi?*
9. *Fermer xo'jaliklarida yerdan foydalanganlik uchun qanday soliq to'lanadi?*
10. *Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni rivojlantirish omillarini qanday tafsiflash mumkin?*

## **9-bob. MEHNAT RESURSLARI, MEHNAT BOZORI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI**

### **9.1. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati**

Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish ikkita zarur tarkibiy qismdan: bir tomondan, moddiy resurslar va ikkinchi tomondan, inson resurslaridan, ya'ni kasb malakalari va bilimlariga ega bo'lgan xodimlardan iborat. Inson resurslari moddiy resurslar bilan bir qatorda iqtisodiy rivojlanish omili sifatida namoyon bo'ladi.

*Inson resurslari — bular odamlardir, ular faqat moddiy ne'matlar yaratib qolmay, shu bilan birga ularni iste'mol ham qiladilar.*

Odamlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlari jihatidan bir xil emaslar. Bunga ularning jinsi, yoshi, sog'lig'i, oilaviy ahvoli, ma'lumot darajasi va boshqa ijtimoiy, psixofiziologik sifatleri sabab bo'ladi, shuning uchun bir kishi ikkinchisiga o'xshamaydi.

Mehnat sohasida odamlarning muhim ehtiyojlari amalga oshadi, lekin hamma ehtiyojlari ham ro'yobga chiqavermaydi. Mehnatdan samarali foydalanish uchun insonning shaxs sifatidagi talablarini esda tutish muhimdir. Iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishi shuni taqozo qiladiki, murakkab xo'jalik mexanizmining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun amalga oshiriladigan hamma sohada inson manfaatlariga rioya qilinishi lozim.

Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar davrida hamma narsalarni inson ehtiyojlari va taqdiri bilan muvofiqlashtirish muhimdir.



*Mehnat resurslari — mamlakat aholisining o'z psixofiziologik va aqliy sifatleri bilan moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga yoki xizmatlar ko'rsatishga qodir bo'lgan qismidan iboratdir.*

*Mehnat resurslari deb, o'zining aqliy va jismoniy mehnati bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etadigan mehnatga qobiliyatli kishilarga aytiladi.*

Mehnat resurslari o'ziga iqtisodiyotda mehnat bilan band va mehnat bilan band bo'lmagan mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilarni qamrab oladi. Mehnat resurslari haqiqiy (real) va potensial xodimlardir.

Inson tanlagan biror faoliyat sohasida ishlay olishi uchun unga muayyan jismoniy va ma'naviy rivojlanish darajasi zarur bo'ladi. Jismoniy rivojlanish darajasi, birinchidan, iqtisodiyotning ehtiyojlari bilan, ikkinchidan, jamiyatning o'z fuqarolarining sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlashdan manfaatdorligi bilan belgilanadi, chunki ular kishilik jamiyatining eng muhim boyliklaridan hisoblanadi.

Ma'naviy rivojlanish darajasi deganda, umumta'lim va kasbiy, bilimlar hamda ko'nikmalar, shaxsiy xususiyatlar tushuniladi. Bu xususiyatlar insonning tanlagan faoliyat sohasida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur shartdir.

Insonning har ikkala sifati bo'lgan jismoniy va ma'naviy rivoji ahamiyati iqtisodiyotning rivojlanib borishiga qarab doimiy holda o'zgarib boradi. Bu hol, o'z navbatida, mehnat sohasidagi mavjud jahon tamoyilini to'liq aks ettiradi, iqtisodiyotda, umuman, jamiyatda tez va chuqur o'zgarishlar bo'lib turgan davrlarda kishilarning jismoniy va ma'naviy fazilatlarining ahamiyati ortadi.

Hozirgi davrda qishloqlarni rivojlantirish jarayonida insonning tashabbuskor va faol bo'lishi talab etiladi. Uning qanday yashashi o'zining yangi iqtisodiy tizimga singib, u bilan hamohang bo'lib ketishi o'z mahoratiga bog'liq bo'ladi. Insonning jismoniy imkoniyatlari va ma'lumotlilik darajasi, ma'naviyati qanchalik yuqori bo'lsa, bu narsa shunchalik muvaffaqiyatliroq kechadi.

Zarur jismoniy va ma'naviy imkoniyatlar insonning yoshiga bog'liq bo'ladi. Ular inson hayotining ilk va yetuk davrlarida shakllanadi va rivojlanib boradi, qarilik chog'ida esa, tabiiy ravishda birmuncha kamayadi.

Statistik amaliyotga ko'ra mehnat resurslari mehnatga layoqatli fuqarolardan va mamlakat iqtisodiyotida ishlayotgan yosh va o'rta yoshdagi mehnatga qobiliyatli kishilardan iborat. Ko'pincha yoshroq bo'lganlarni ishlovchi o'smirlar, katta yoshdagi kishilarni ishlayotgan nafaqaxo'rlar deb atashadi.

Tarixda mehnatga layoqatli yosh chegaralari ijtimoiy va iqtisodiy sabablarga ko'ra o'zgarib turgan. Hozirgi vaqtda «mehnatga layoqatli yosh»ning quyi chegarasi 16 yosh, yuqori chegarasi erkaklar uchun 59 yosh va ayollar uchun 54 yosh hisoblanadi.

Mehnatga layoqatli yoshdagi kishilarning ma'lum qismini sira ishlamagan yoki sog'lig'i yomon bo'lganligi uchun ishlashdan to'xtagan kishilar tashkil etadi. Bu o'rinda gap I va II guruh nogironlari haqida bormoqda, davlat ularni nafaqa bilan ta'minlab turadi. Bu kishilar mehnat resurslari tarkibiga kiritilmaydi. Biroq I va II guruh nogironlarining ayrimlari (agar ishlab chiqarishda qulay sharoitlar yaratilsa) ishlashlari mumkin.

Shuning uchun ham mehnatga layoqatli yoshdagi kishilar davlat tomonidan nafaqa belgilanganga qadar mehnat resurslariga kiradi (ishlamaydigan I va II guruh nogironlari bundan mustasnodir). Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida ishlamaydigan nogironlarning soni nisbatan kamroq va nisbatan barqarordir.

Mehnat resurslarining tarkibiga yosh nuqtayi nazaridan murojaat qilish, ayniqsa, muhimdir, u bozor sharoitida ko'proq ahamiyatga ega. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan yoshlarning soniga bog'liq bo'ladi. Yoshlar yangi iqtisodiy «ruh»ni o'zlari va mamlakat foydasi uchun muvaffaqiyatliroq o'zlashtirib oladilar. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi mehnat resurslarining miqdori, tarkibi, malakasi va ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liq.

***Qishloq xo'jaligi korxonalarining mehnat resurslari tarkibi:***

- doimiy ishchilardan — muddatsiz ishga qabul qilinganlar;*
- mavsumiy ishchilardan — 6 oygacha muddatga qabul qilinganlar;*
- vaqtinchalik ishchilardan — 2 oygacha muddatga qabul qilinganlardan;*
- shuningdek, shtatda turuvchi o'smirlar, nafaqaxo'rlardan iborat.*

Korxonalarining mehnat resurslaridan tashqari ba'zi hollarda qishloq xo'jaligida (mavsumiy ishlarda) mehnat shartnomasi asosida chetdan jalb qilinganlar mehnatidan ham foydalaniladi, shu jumladan, yollanma ishchilardan ham. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bular quyidagilar:



– xodimlar mehnatining biologik ishlab chiqarish vositalari, tirik organizmlar – tuproq, o‘simlik, hayvonlarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish uchun yo‘naltirilganligi. Bu qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tirik organizmlarning rivojlanishi, o‘zgarishiga, ularning tabiatini noorganik elementdan organik moddalarga sintezlashuviga bog‘liqdir;

– mehnat resurslaridan foydalanishning samaradorligi tabiiy, xususan, yerning umumdorligi va ob-havo iqlim sharoitlariga bog‘liqligi.

– xodimlarning bir necha turdagi mehnat vazifalarini bajarishi. Ish turining ko‘pligi va bajarish muddatining mavsumiyliigi. Qishloq xo‘jaligi xodimi alohida texnologik operatsiyalarni bajarishga ixtisoslashgan tor malakali emas, aksincha, ma‘lum turdagi pirovard mahsulot yetishtirishga keng ixtisoslashgan bo‘lishi kerak;

– ishlab chiqarish jarayonida yer, chorva mollari va boshqa resurslarning mustaqil emasligi. Pirovard mahsulot natijasiga iqtisodiy javobgarlikni ta‘minlash uchun xodimlarga umumiy yerlarni emas, balki aniq dalalarni, butun hayvonlarni emas, balki aniq mollar bosh sonini birkitib qo‘yish lozimdir;

– mehnat jarayonlarining o‘z-o‘zini boshqarishi. Biologik ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, qishloq xo‘jaligida, ayniqsa, dehqonchilikda biologik jarayonda sharoitlar tez-tez o‘zgarib turadi, shuning uchun bu yerda chetdan turib boshqarish imkoniyati ancha chegaralangan;

– dehqonchilik va chorvachilikda xodimlar daromadining pirovard iqtisodiy natijalarga bog‘liqligi. Bu bog‘liqlik mehnat operatsiyalarini bajarish paytida xodimdan texnologik talablarga rioya qilishda o‘zini qattiq nazorat qilishi shart bo‘lib hisoblanadi.

Samarali qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uning mehnat resurslari bilan me‘yor bo‘yicha ta‘minlanishiga bog‘liq. Ishlab chiqarishning ish kuchi bilan yetarlicha ta‘minlanmasligi ishlab chiqarish texnologiyasiga rioya qilinmasligiga, pirovard natijada mahsulotning yetarlicha olinmasligiga olib keladi. Mehnat resurslari bilan me‘yordan ortiq darajada ta‘minlanganlik esa ish kuchidan samarasiz foydalanishga va mehnat unumdorligining pasayishiga sabab bo‘ladi.

Ta‘kidlangan xususiyatlar tarmoqda sarflanadigan mehnatning miqdoriga, sifatiga va samarasiga bevosita ta‘sir etadi. Turlicha tabiiy sharoitda, har xil darajada ixtisoslashgan xo‘jaliklarda bir xil ish jarayonlarini amalga oshirish uchun har xil miqdorda bir turdagi mehnat sarflanadi, uning samaradorligi ham bir-biridan farq qiladi. Kech kuz,

qish va erta bahorda mehnat sarfi keskin kamayib, hosilni yig'ib olishda unga bo'lgan talab ortadi. Shu davrda mavsumiy ishchilar shartnoma asosida jalb etiladi. Dehqonchilik va chorvachilikda bajariladigan ishlarning ko'pchiligi yuqori darajada bilim va malaka talab etmaydi. Qishloq xo'jaligidagi mehnat tarkibida ayollar mehnatining salmog'i hozirgi davrda ancha yuqori. Shuning uchun ham tarmoqda mehnatga to'lanayotgan haq kamroq. Tarmoqning yangi, unumli texnikalar bilan talab darajasida ta'minlanmaganligi ayrim ish jarayonlarini (sug'orish, chekanka qilish, hosilni yig'ib olish, chorva hayvonlarini oziqlantirish, sog'ish...) to'liq mexanizatsiyalashtirish imkonini bermaydi, natijada oddiy jonli mehnat xarajatlari ortadi. Qishloq xo'jaligida mehnat jarayonini amalga oshirishda uning samarali bo'lishini ta'minlash uchun barcha xususiyatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Mavjud mehnat resurslarining katta qismi qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatadi. Ular o'zlarining ongli, maqsadli mehnatlari bilan qishloq xo'jaligini rivojlantirishga, uning samaradorligini yuksaltirishga ulkan hissa qo'shishi lozim. Ularning mehnatlari unumli bo'lishi kerak. Mehnat unumdorligi foydalanilayotgan texnikalar, texnologiyalar yordamida bir birlikdagi mahsulotni yetishtirish, ishni bajarish uchun sarflanadigan vaqt miqdoridir.

## **9.2. Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi**

Qishloq xo'jaligidagi mehnat ongli, maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, uning unumdorligi yuqori bo'ladi. Tarmoqning rivojlanishini ta'minlaydi.

Mehnat unumdorligi – xodimlar mehnat faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichidir. U ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar miqdorining mehnat xarajatlariga nisbati, ya'ni mehnat xarajatlari birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot bilan belgilanadi.

Jamiyatning rivojlanishi va uning barcha a'zolari farovonligi darajasi mehnat unumdorligi darajasi va uning o'sishiga bog'liqdir. Bundan tashqari, mehnat unumdorligi darajasi ishlab chiqarish usulini hamda ijtimoiy-siyosiy tizimning rivojlanishini belgilab beradi.

Mehnat samaradorligi tushunchasi esa, unumdorlik tushunchasidan kengroq bo'lib, iqtisodiy jihatlar (aslida mehnat unumdorligi)dan

tashqari yana psixofiziologik va ijtimoiy jihatlarni ham o'z ichiga oladi.

Mehnatning psixofiziologik samaradorligi mehnat jarayonining inson organizmiga ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi.

Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, samarali mehnat deb:

– faqat muayyan unumdorlikka erishish bilan bir qatorda zararsiz, qulay sanitariya-gigiyena shart-sharoitlari va xavfsizlik;

– mehnatning yetarli darajada mazmundor bo'lishi va uning taqsimoti chegaralariga rioya qilinishi;

– mehnat jarayonida insonning jismoniy, aqliy kuch va qobiliyatlarini har tomonlama rivojlanishi imkoniyatlari;

– ishlab chiqarish sharoitining xodimga salbiy ta'sir ko'rsatishining oldini olish e'tirof qilinadi.

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichi mehnat samaradorligi va natijadorligining barcha jihatlarini o'zida aks ettirmaydi, masalan, u mehnat sifatini hisobga olmaydi, bundan tashqari, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish zarurligini ifodalamaydi. «Mehnat samaradorligi» tushunchasi «Mehnat unumdorligi» tushunchasiga nisbatdan o'z ahamiyatiga ko'ra, kengroq bo'lgan tushunchadir. Avvalo, mehnat samaradorligi eng kam mehnat xarajatlari bilan yuqori mehnat natijalariga erishish darajasini ifodalaydi.

Mehnat samaradorligi aholi mehnat unumdorligidan farqli o'laroq, faqat mehnatning miqdor ko'rsatkichlarini emas, balki shu bilan birga mehnatning sifat natijalarini ham o'zida ifodalaydi. Mehnat samaradorligi ko'rsatkichining yana bir muhim xususiyatlaridan biri unda mehnat resurslarining tejalishiga erishiladi.

Mehnat xarajatlari qanchalik kam bo'lsa, mehnat samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Tadbirkor korxonaga egasi uchun vaqt birligi ichida qanday ishlab chiqarish darajasiga erishilgani ham muhimdir. Mehnat xarajatlari xodimlar soni va mehnatga to'langan haq xarajatlari bilan o'lchanadi. Unisi ham, bunisi ham ish vaqti bilan o'lchanishi mumkin. Shuning uchun ham mehnat samaradorligini tahlil qilishda vaqt birligi ichida sarflangan mehnat xarajatlari bilan birga uning tuzilishi hisobga olinadi. Shunday qilib, mehnat samaradorligi mehnat resurslaridan foydalanish darajasini faqat sarflangan vaqt va ish sifatini hisobga olgan holda emas, balki bir xodim hisobiga sarflangan mehnat xarajatlarini ham aks ettiradi. Mehnat samaradorligi ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik balansini mehnat munosabatlari orqali aks ettiradi, bunda ish kuchini tejab-tergab sarflash tamoyili asos qilib olinadi.

Mehnat samaradorligi ko'rsatkichini korxonada (ishlab chiqarish) samaradorligi ko'rsatkichidan farqlash kerak. Korxonaning samaradorligini aniqlashda barcha xarajatlar: moddiy, mehnat va moliyaviy xarajatlar hisobga olinadi. Shuning uchun ham mehnat samaradorligini korxonada samaradorligining asosiy ko'rsatkichi deb qarash mumkin.

Mutaxassislar mehnat samaradorligini e'tirof etsalar ham bu ko'rsatkichni hisoblab chiqish uslubi borasida bir fikrga kelgan emaslar. Mehnat samaradorligining asosiy, umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bilan bir qatorda ayrim ko'rsatkichlarini ham hisoblab chiqish mumkin, degan fikrlar bor.

**Mehnat samaradorligining asosiy, umumlashtiruvchi ko'rsatkichini hisoblash uchun quyidagi ifoda taklif etiladi:**

$$M_{\text{sam}} = \frac{Q_{\text{ish.}}}{N_{\text{xodim}}} \cdot K \quad (9.1)$$

bunda:  $M_{\text{sam}}$  — mehnat samaradorligining asosiy ko'rsatkichi;  
 $Q_{\text{ish.}}$  — vaqt birligidagi ish hajmi;  
 $N_{\text{xod.}}$  — xodimlar soni;  
 $K$  — mehnat sifati ko'rsatkichi.

Mehnat samaradorligining qo'shimcha xususiy ko'rsatkichlari quyidagilar: 1) mehnat unumdorligi va uning o'zgarishi; 2) jadal ko'rsatkich bo'lgan mehnat unumdorligining o'zgarishi hisobiga mahsulot ishlab chiqarishning o'zgarishi; 3) ish sifati; 4) xodimning malakasi; 5) olingan foyda tarkibidagi jonli mehnat xarajatlari; 6) jonli mehnatni tejash; 7) ish haqiga ajratilgan vaqtni tejash; 8) ish vaqtidan oqilona foydalanish.

Mehnat unumdorligini hisoblashda quyidagilarni ta'minlash imkonini beradigan uslub asos hisoblanishi mumkin:

- korxonada ishining ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liqligi;
- xodimga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish;
- mehnat unumdorligining umumiy va ayrim ko'rsatkichlarining bir o'lchov bilan o'lchanishi mumkinligi;
- mehnat miqdori bilan sifati o'rtasidagi bog'liqlik.

Har qanday mahsulot buyum, xizmatda jonli va buyumlashgan mehnat jamlangan bo'ladi. Bunday mehnat tufayli moddiy boyliklar yaratiladi.

***Jonli mehnat — bu inson kuch-quvvatining sarflanishidir; jonli mehnat jismoniy va aqliy mehnat bo'lishi mumkin.***

*Jismoniy mehnat deganda, kaloriya bilan o'zchanadigan muskullar quvvatining sarflanishi tushuniladi. Aqliy mehnatga aqliy faoliyat quvvati sarflanadi. Jonli mehnat sarflari esa fiziologik chegaralarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.*

Jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanib borgan sari, jonli mehnat moddiylashgan mehnatning tobora ko'proq qismini qamrab oladi.

*Moddiylashgan mehnat — mehnat buyumlari va vositalarida — mashina — mexanizmlar: asbob-uskunalar, avtomatlashtirilgan, jonli mehnat, bilan ajralib turadi.*

Natijada jami mehnatda moddiylashgan mehnatning ulushi ko'payib borgan sari jonli mehnatning ulushi kamayib boradi. Bu mehnat unumdorligi oshganligining asosiy belgisidir. Fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishning takomillashuvi mehnat unumdorligi oshishining asosiy shartlaridir.

Yangi texnologik jarayonlar, materiallar va avtomatlashtirish vositalarining joriy etilishi **mehnatni mexanizatsiyalash** darajasining ortishiga olib keladi. Bu ko'rsatkichni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$M_{md} = \frac{N_m}{N_{o'rt}} \cdot 100\% \quad (9.2)$$

bunda:  $M_{md}$  — mehnatning mexanizatsiyalash darajasi, foiz ;

$N_m$  — mexanizatsiyalashgan mehnat bilan band xodimlar soni;

$N_{o'rt}$  — ro'yxat bo'yicha xodimlarning umumiy o'rtacha soni.

O'z ishini mashinalar va mexanizmlar yordamida bajaradiganlar mexanizatsiyalashgan mehnat xodimlari jumlasiga kiritiladi.

Mehnatni mexanizatsiyalash (avtomatlashtirish) darajasining ortishi va moddiylashgan mehnat ulushining oshganligi jonli mehnat sarfini ko'paytirmasdan turib mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Mehnat unumdorligining asosi bo'lgan mehnatning unumdorlik kuchi mehnat unumdorligining aynan o'zi emas. Haqiqiy mehnat unumdorligi, quyidagi ikki muhim omilga — jonli mehnatning eng muhim ko'rsatkichi bo'lgan mehnat intensivligiga (jadalligiga) va ish vaqtining nominal fondidan qay darajada foydalanishga bog'liq bo'ladi.

**Mehnat intensivligi** — bu jonli mehnatning jiddiyligi yoki murakkabligi darajasi bo'lib, u ish vaqti birligida inson asab va muskuli

quvvatining sarflanishi bilan o'lanadi. Bunda inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan intensivlik ijtimoiy normal intensivlik hisoblanadi, sarflangan quvvat ovqatlanish, dam olish va hissiy yengillanish hisobiga to'liq tiklanadi.

Hisoblarga ko'ra, mehnatning normal intensivligi darajasi tekis yuzada soatiga 4,8 km tezlik bilan ketayotgan kuch-quvvat sarflanishiga tengdir. Nisbatan normal muayyan mehnat intensivligini oshirish mehnatga haq to'lashda tegishli darajada hisobga olishni talab qiladi.

Mehnat unumdorligi, mehnat intensivligi bilan bir qatorda ish vaqti fondidan foydalanish darajasiga ham bog'liqdir.

**Belgilangan ish vaqti fondidan foydalanish koeffitsienti.** U bir ishchi yoki xizmatchining ishlab chiqarishda haqiqatda ishlagan vaqtini (kishi-kuni, kishi-soatini) qonunda belgilangan miqdorda ishlashi lozim bo'lgan vaqtga taqsimlash natijasida aniqlanadi.

$$K_{\text{ish vaqti}} = \frac{T_{\text{ish.m}}}{T_{\text{ish.a}}} \quad (9.3)$$

bunda:  $K_{\text{ish vaqti}}$  — ish vaqti fondidan foydalanish koeffitsienti;

$T_{\text{ish.m}}$  — mehnat resurslari hisoblangan bir kishining bir yilda ishlagan vaqti, kishi-kuni, kishi-soati;

$T_{\text{ish.a}}$  — bir kishi uchun qonunda belgilangan, ishlashi lozim bo'lgan vaqt, kishi-kuni, kishi-soati.

Bu koeffitsientning miqdori birdan oshmasligi kerak. Agar u qanchalik kam bo'lsa, bu mehnat resursi foydali mehnat jarayonida kam qatnashganligidan dalolat beradi.

**Mehnatning mavsumiylik koeffitsienti.** Uning miqdorini bir yil, bir oy mobaynida eng ko'p ish kunini shu davrdagi eng kam ish kuni miqdoriga taqsimlash natijasida hisoblash mumkin. Bunda quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$K_m = \frac{I_{\text{omax}}}{I_{\text{omin}}} \quad (9.4)$$

bunda:  $K_m$  — mehnatning mavsumiylik koeffitsienti;

$I_{\text{omax}}$  — bir yil yoki oydagi eng ko'p ish kuni;

$I_{\text{omin}}$  — bir yil yoki oydagi eng kam ish kuni.

Uning miqdori ham 1–1,2 atrofida bo'lgani maqsadga muvofiqdir. Kam mehnat sarflanadigan oylarda ishlab chiqarishning boshqa sohalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu masalani har bir korxonada o'zi ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishi mumkin.

Mehnat resurslari qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ishlab chiqarish resurslarining eng faol omili sifatida katta ahamiyatga ega. Ular ishlab chiqarish jarayonida ongli ravishda qatnashib, ko'proq, sifatliroq mahsulotlarni talabni qondiradigan miqdorda yetishtirishga, ish va xizmatlarni bajarishga harakat qiladi. Shunday ekan, ulardan yil davomida to'liq, samarali foydalanishga erishish lozim. Buning uchun mehnat resurslaridan foydalanilayotganlik darajasini aniqlash kerak. Uni aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

**Mavjud bo'lgan mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsientini** ( $K_{mr}$ ) aniqlash uchun ishlab chiqarish jarayonida haqiqatda qatnashgan mehnat resurslari miqdori (kishi) xo'jalikda shartnoma (buyruq) bo'yicha mavjud bo'lgan mehnat resurslari miqdoriga taqsimlanadi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_{mr} = \frac{\sum MR_x}{\sum MR_a} \quad (9.5)$$

bunda:  $M_k$  – mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsienti;

$\sum MR_x$  – haqiqatda ishlagan jami mehnat resurslari, kishi;

$\sum MR_a$  – mavjud bo'lgan jami mehnat resurslari, kishi.

Bu ko'rsatkichning darajasi birga yaqin bo'lgani yaxshi. Shunda u mavjud mehnat resurslaridan foydalanish yuqori bo'lganligidan dalolat beradi.

**Mehnat resurslarining xo'jalik faoliyatida qatnashishi koeffitsiyenti** ( $K_{mf}$ ) (1 oyda, 1 yilda). Uning miqdorini xo'jalik faoliyatida jami sarflangan vaqtni sarflangan mehnat resurslarining umumiy miqdoriga taqsimlash natijasida aniqlash mumkin, bu quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_{mf} = \frac{\bar{T}_{mr}}{\sum T_{mr}} \quad (9.6)$$

$\bar{T}_{mr}$  – mehnat resurslarining ma'lum bir muddatda o'rtacha ishlagan ish vaqti, kishi kuni, kishi-soati;

$\sum T_{mr}$  – mehnat resurslarining jami sarflagan vaqti, kishi-kuni, kishi-soati.

Bu ko'rsatkichning mutlaq (absolut) miqdori aniqlanayotgan davrdagi (oyda, yilda) bir kishining ish vaqti fondidan yuqori bo'lmaydi.

Mehnat resurslarining har bir guruhi uchun amaldagi qonunlarda yillik yoki oylik ish vaqti fondi belgilanadi. Uning miqdori bir yildagi jami kunlar miqdoridan barcha turdagi bayram (agar u qonun bo'yicha dam olish kuni hisoblansa), dam olish hamda ta'til (otpuska) kunlarini ayirish orqali aniqlanadi. Respublikada yillik ish vaqti fondi 276–286 kun miqdorida belgilangan. Bu iqtisodiy faol mehnat resurslarining yillik ish vaqti fondi hisoblanadi. O'smirlar uchun bu fond ularni ijtimoiy jihatdan himoya qilgan holda belgilangan. Xuddi shunday imtiyozlar inson salomatligi uchun zarur ishlarni bajaruvchilar uchun ham o'rnatilgan.

**Mehnatning unumdorligi darajasi.** Mehnat unumdorligining mutlaq (absolut) darajasini aniqlash uchun haqiqatda sarflangan jami ish vaqti miqdorini shu davrda ishlab chiqilgan mahsulot miqdoriga, qiymatiga hamda bajarilgan ish hajmiga taqsimlash zarur. Bu mehnatni tejash iqtisodiy qonunining talabi. Amaliyotda esa u haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotning, bajarilgan ishning miqdori yoki qiymatini unga sarflangan ish vaqtiga taqsimlash natijasida aniqlanmoqda. Bunday usulda ular bir-birlarini inkor etmaydi, balki to'ldiradi.

$$M_u = \frac{T_{my}}{Y_m} \text{ yoki } \frac{Y_m}{T_{my}} \quad (9.7)$$

bunda:  $M_u$  — mehnatning unumdorlik darajasi, kishi-kuni, kishi-soati, so'm;

$T_{my}$  — mahsulot yetishtirish, xizmat ko'rsatish uchun sarflangan ish vaqti, kishi-kuni, soatda;

$Y_m$  — sarflangan vaqt ichida yetishtirilgan mahsulot, s, so'm.

Bu ko'rsatkich yetishtirilayotgan bir birlikdagi (sentner, tonna, so'm) mahsulot uchun qancha vaqt sarflanganligini yoki sarflangan bir birlikdagi vaqt evaziga qancha mahsulot yetishtirilganligining, xizmatlar bajarilganligining darajasini ifodalaydi. Mahsulot birligiga sarflangan jonli mehnat miqdori kamaysa yoki sarflangan bir birlik mehnat evaziga yetishtirilgan mahsulot birligi ko'paysa, mehnat unumdorligi oshganligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligida ayrim ish, mahsulot turlari, davrlari hamda xo'jalik miqyosida natural hamda qiymat ko'rinishida aniqlanadi. Uning darajasini qiymat ko'rinishida bir necha yillar davomida aniqlashda qiyosiy baholardan foydalanish lozim. Shunda qishloq xo'jalik mahsulotlari baholari o'zgarishining ta'siri bartaraf etiladi. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar yordamida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida qatnashayotgan mehnat



resurslaridan qanday foydalanilayotganlik hamda sarflanayotgan mehnatning unumdorlik darajasi aniqlanib, chuqur tahlil etiladi.

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichiga asoslangan holda mehnat resurslaridan foydalanish darajasi, uni yaxshilash va sarflanishi zarur bo'lgan mehnatning unumdorligini oshirish uchun qanday tadbirlarni ishlab chiqish kerakligi belgilanadi.

### **9.3. Qishloq xo'jaligida mehnat bozori, uni rivojlantirish va boshqarish**

Iqtisodiyotning oldida turgan dolzarb vazifalardan biri mehnat bozorini shakllantirish va samarali rivojlantirishdir. Ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar rivojlanishining obyektiv qonunlaridan ongli ravishda foydalanish mehnat bozorining rivojlanishiga olib keladi.

Mehnat bozori — ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy mehnat sohasining ochiq, murakkab, ko'p jihatli va o'suvchi tizimchasi bo'lib, ishchi kuchiga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantiruvchidir.

Mazkur bozor ishchi kuchi talabi va aholining taklifini tartibga solishda bevosita ishtirok etadi va oqilona bandlikning shakllanishi hamda ishsizlikni kamaytirishga ko'maklashadi.

Respublikamiz uchun mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan bandligini oshirishni hal qilishni eng samarali yo'llaridan biri bo'lgan mehnat bozori quyidagi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarning inobatga olinishini taqozo etadi:

— respublikada mehnatga qobiliyatli aholining 60 foizdan ortig'i qishloq joylarda yashaydi va yalpi ichki mahsulotning 17 foizdan ko'prog'ini ishlab chiqaradi;

— noqishloq xo'jaligi ishchi joylarining yetishmasligi sababli ish bilan band bo'lmagan qishloq mehnat resurslarining ulushi respublikaning ish bilan band bo'lmagan butun aholisining katta qismini tashkil etadi, ularning soni o'smoqda;

— mehnatga qobiliyatli ish bilan band bo'lmagan mehnatkashlarning malakasi va safarbarligining pastligi ularning yashash joylaridan shaharga va mamlakatning kam mehnat bilan ta'minlangan hududlariga hamda xorijiy davlatlar obyektlariga qarab harakat qilishlariga asosiy to'siq bo'lmoqda;

— mehnat resurslarining sonini mehnatga tatbiq etishga nisbatan tezroq o'sishi yashirin ishsizlikni, ayniqsa, qishloq xo'jaligida ishchi


kuchini taklif etish, unga talabdan oshib ketadigan darajada ko'payishiga bevosita ta'sir etadi.

Qishloq hududlarida sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish korxonalarini hamda xususiy xo'jaliklarda yangi ishchi joylarini yaratish yo'li bilan ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi ratsional nisbatni ta'minlash uchun haqiqiy imkoniyatlar mavjud.

Mehnat bozori tarkibiy qismining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: ishchi kuchiga talab va uning taklifi, qiymati, bahosi va yollashdagi raqobat.

Talab agrosanoat majmuasi, ishlab chiqarish ijtimoiy infratuzilmasi va boshqa xalq xo'jaligi sohaslarining mehnat bozoriga buyurtma bergan, ish haqi fondi, shaxsiy yordamchi xo'jaliklardan daromadlar va boshqa hayotiy vositalar bilan ta'minlangan ehtiyojning hajmi va tarkibini aks ettiradi.

Taklif yollanma sharti bilan ishga ega bo'lishdan manfaatdor bo'lgan qishloq ishchi kuchining miqdor va sifat (soni, jinsi, yoshi, ma'lumoti, kasbi, malakasi, millati, kelib chiqishi, daromadi va boshqalar bo'yicha) tarkibini ifodalaydi.



9.1-rasm. Mehnat bozori tarkibiy qismining asosiy elementlari.

Mehnat bozorining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uning tarkibiy qismlarining tadqiqoti mazkur bozorni o'tish davrida bajaradigan asosiy vazifalarini aniqlab beradi:

– ishchi kuchiga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantirish;

– bozor uslubida xo'jalik yuritishning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlari yordamida ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish;

– mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashga bevosita ta'sir ko'rsatish;

– ishsizlarni ish topishga va ularning malakasi hamda raqobat qobiliyatini oshirishga ko‘maklashish;

– ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mehnat taqsimotini o‘zgartirish.

Mehnat bozori sanoat, xizmat ko‘rsatish va boshqa mehnatni qo‘llovchi sohalarga qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidan ozod bo‘lgan xodimlarni raqobat asosida jalb qilishni rag‘batlantiradi, shuningdek, muomala sohasida ishchi kuchi zaxirasini shakllantirib, band bo‘lmisdan qolishiga imkon beradi.

Qishloq xo‘jaligidagi tarkibiy o‘zgarishlar hozirgi sharoitda qishloq joylarida mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklifning yangi harakatini belgilovchi eng muhim iqtisodiy shartlardan hisoblanadi. Bular sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida yangi ish joylarini yaratishni va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sifat o‘zgarishlarini asoslab beradi. Bunday sharoitlarda, bir tomondan, mehnat bozorining yangi infratuzilmasining ko‘p sonli mehnat talab qiladigan tarmoqlari va ishlab chiqarish bo‘g‘inlarini qamrab olsa, boshqa tomondan iqtisodiyotning an’anaviy sektorlarida bozor munosabatlarini vujudga keltiradi va rivojlanadi.

Ishchi kuchiga talabning oshishini asoslovchi omillarga quyidagilar kiradi: noqishloq xo‘jaligi tarmoqlarida yangi ish joylarini yaratish, mehnat qo‘llaniladigan amaldagi mintaqalarni texnik qayta jihozlash, modernizatsiyalash, qayta ta‘mirlash, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, yangi yerlarni o‘zlashtirish, qayta ishlash sanoati, xizmatlar ko‘rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati ko‘lamini kengaytirish, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar. Shu bilan bir vaqtda ishchi kuchi taklifini va ish joylariga ehtiyojni pasaytiruvchi omillar vujudga keladi va ular ta’sir qila boshlaydi. Bular – shaxsiy yordamchi xo‘jalik, yakka mehnat faoliyati, xususiy tadbirkorlik va o‘z-o‘zini band qilishning boshqa sohasini rivojlantirish, bandlikning egiluvchan va nostandart shakllarini kengaytirish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning bozor usullarini tatbiq etish, inflatsiya va ishsizlikni pasaytirish, mahalliy kadrlarning safarbarligi hamda malakasini oshirish va boshqalardan iboratdir.

Mehnat resurslari bilan kam ta‘minlangan hududlarda esa bir qator omillar ishchi kuchiga talabning pasayishiga ko‘maklashadi. Xususan, bu ijara va xususiy mulkchilikni rivojlantirish, to‘lash qobiliyatiga ega bo‘lmagan yoki ekologik zararli korxonalarni yopish, yangi yerlarni o‘zlashtirish ko‘lamini qisqartirish, moddiy-texnikaviy va moliyaviy

resurslar ta'minotini yaxshilash, intensiv texnologiyani qo'llash, mehnat unumdorligini oshirish va hokazo. Bundan tashqari, mazkur hududlarda ishchi kuchi taklifini oshiruvchi omillar mavjud bo'lib, ular kadrlarning malakasi, ma'lumoti, mobillik va eksportga moyillik darajasining pastligi, mehnat resurslari sonini o'sish sur'atining ish joylari miqdoriga nisbatan yuqoriligi, qishloq xo'jaligida ishlovchilarni ish joyidan ozod etishning ko'payishi, mehnatni qo'llash mintaqalarining yetishmasligi va boshqalardir.

Shu bilan birga shunday omillar ham borki, ular kompleks holda ishchi kuchi taklifining shakllanishi holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ularga quyidagilar kiradi: ishlashni xohlovchilar, yollangan xodimlar va ish beruvchilarning tabiiy va mexanik harakatlari; turmush uchun zarur bo'lgan mablag'lar jamg'armasi; yollangan xodimlarning pul daromadlari; nafaqaxo'rlar va yosh bolalik ayollarning mehnat va ijtimoiy nafaqalari, imtiyozlari va kafolatlari; kasbiy tayyorlash yoki qayta tayyorlash va malakasini oshirishga zaruriyati bo'lgan shaxslarni mablag'lar bilan ta'minlovchi davlat, korxonalar va oilaning moliyaviy imkoniyatlari; shaxsiy yordamchi xo'jaligida va yollanmasdan «uy mehnati»da band bo'lganlarning soni; qurolli kuchlarda xizmat qiluvchilar soni va ularda xizmat qilish muddati; muqobil va malakali kasbiy xizmatlarni takomillashtirish va hokazo.

Ishchi kuchiga talabning o'sishi yoki kamayishi (dinamikasi) quyidagi miqdor va sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishi bilan aniqlanadi: mavjud bo'lgan va yangidan yaratiladigan ishchi joylari; investitsiya salohiyati va uning takror ishlab chiqarish tuzilishi; iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar; mulkchilik shakllarining turli-tumanligi; korxonalar va tashkilotlarning to'lovga qodir emasligi (bankrotligi) va hokazolar.

Ishchi kuchlari taklifini rag'batlantirish xodimlarni ishga yollash va joylashtirishga yordamlashish usullarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

#### **9.4. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish yo'llari**

Qishloq hududlarida, jumladan, qishloq xo'jalik korxonalarida mavjud bo'lgan mehnat resurslarining real miqdorini aniqlash, aholining mutlaq (absolut) o'sishini e'tiborga olgan holda mehnat resurslarining ko'payish yoki kamayish jarayonini aniqlash, mehnat

qilish qobiliyatiga ega bo'lgan aholining harakatini ham hisobga olish, qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan ish joylarining hozirgi hamda istiqboldagi sonini real aniqlashga asoslangan holda mehnat balansi ishlab chiqish natijasida qishloq xo'jaligida band bo'lgan mehnat resurslari miqdori va salmog'ining pasayishi respublikada amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy siyosatning ma'lum darajadagi natijasidir.

Respublika qishloq xo'jaligidagi mavjud bo'lgan mehnat resurslaridan yil davomida to'liq va samarali foydalanish natijasida ularning mehnatlari unumdorligini kelajakda yuksaltirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Uni muvaffaqiyatli hal etish keng miqyosda tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Mehnat resurslaridan foydalanishni rivojlantirish maqsadida ularni takror ishlab chiqarish jarayonlarini, ya'ni malakalarini oshirish, tayyorlash va qayta tayyorlash tadbirlarini ham belgilab olib, amalga oshirilishiga e'tibor berish zarur.

Iqtisodiy barqaror fermer xo'jaliklari sonining ko'payishi, qishloqda mulkdorlar sinfining mustahkamlanishi, pirovard natijada, qishloq xo'jaligida mehnat bandligi muammolarini hal qilinishida mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fermer xo'jaliklarini yuritishda zarur bo'lgan yetarli bilim va tajriba-ga ega bo'lish xo'jalikda ishlab chiqarish va moliyaviy holatni mustahkamlash, iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bilan birga mehnat resurslarining bandligini oshirish yo'lida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;
- uy mehnati-kasanachilikni rivojlantirish;
- qishloqda yangi ish joylarini tashkil etish;
- sanoatni qishloqqa olib kirish va tayyor mahsulot ishlab chiqarish darajasini oshirish;
- tarmoqda mahsulot yetishtirish, tayyorlash, qayta ishlash, sotish va xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish;
- fermer xo'jaliklarini muayyan turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish va ekinlar tarkibini maqbul joylashtirish;
- fermer xo'jaliklarida xo'jaliklararo kooperatsiya va agrosanoat integratsiya tizimini rivojlantirish;
- tarmoqda ishlab chiqarishning maqbul hajmlarini belgilash va intensiv rivojlantirish imkoniyatini yaratish.

Qishloq xo'jaligidagi mehnat jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish natijasida sarflanayotgan mehnatning unumdorligi oshishini ta'minlash mumkin. Buning uchun xo'jaliklar ixtiyoridagi barcha mashinalar, traktorlarning ishga yaroqliligini oshirish hamda ulardan yil davomida to'liq foydalanishga erishish tadbirlarini shakllantirish lozim. Eng avvalo, ularni malakali kadrlar, ta'mirlash ustaxonalari bilan ta'minlash kerak. Xo'jaliklarning ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlanganligini ham talab darajasiga yetkazish zarur. Buning uchun esa moliyaviy resurslar bilan ta'minlash choralari aniqlab, ularning bajarilishini ta'minlash kerak.

Mehnat unumdorligining oshishi:

– birinchidan, ishlab chiqarishning texnika bilan qurollanish darajasiga hamda ishlab chiqarishdagi ilm-fan yutuqlari va mehnatning energiya bilan ta'min etilish darajasiga;

– ikkinchidan, xodimlarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga;

– uchinchidan, ishlab chiqarishning texnika bilan qurollanish darajasi va yuqori texnologiya darajasi o'z-o'zidan kutilgan natijalarni bermaydi, buning uchun xodim lozim darajadagi malakaga ega bo'lishiga;

– to'rtinchidan, ma'lum darajada ishlab chiqarishdagi mehnatning tabiiy, sanitariya-gigiyena sharoitlari kabi omillarga bog'liq bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan yil davomida to'liq va samarali foydalanish hamda ularning mehnatlari unumdorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir:

– tarmoqning rivojlanishini e'tiborga olgan holda qo'shimcha ish joylarini tashkil etish;

– tarmoqning ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish va moddiy-texnika ta'minotini yuksaltirish;

– qishloq xo'jaligiga yangi texnikalarni, samarali texnologiyalarni izchillik bilan tatbiq etish;

– qishloqda tadbirkorlik shakllarini rivojlantirish;

– qishloqda ishlash va yashash uchun barcha sharoitlarni yaratish;

– mehnatni tashkil etishning samarali turlarini tashkil etish va rivojlantirish;

– kadrlarni tayyorlash, malakalarini oshirish, ularni moddiy, ma'naviy rag'batlantirishni takomillashtirish va boshqalar.

Bu kabi chora-tadbirlarning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga joriy etilishi tarmoqdagi mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilab, mehnat unumdorligining oshishiga ijobiy ta'sir etadi.

## 9.5. Qishloq xo'jaligida mehnat motivatsiyasi va xodimlarni moddiy rag'batlantirish

*Umuminsoniy nuqtayi nazardan mehnatni motivatsiyalash mexanizmi bu insonni uning mehnat faoliyati natijasida o'zining o'sib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga undovchi, jismoniy, aqliy va ma'naviy-ruhiy xatti-harakatlarini faollashtirishga yo'naltirgan tadbirlar majmuidir.*

Insonlarning mehnatga faol, foydali va yuqori unumdorlikka ega bo'lgan mehnat faoliyatiga intilishlarini, qaysidir ma'noda, qonuniy ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ruhiy hodisa deb ta'kidlash mumkin.

Ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari rivojlanishining har bir muayyan tarixiy davrida, insonga, uni ko'proq yoki kamroq darajada faol, unumli va samarali mehnat qilishga undaydigan iqtisodiy va siyosiy qoidalar tizimi, ijtimoiy, ishlab chiqarish va boshqalar o'z ta'sirini o'tkazadi. Oxir oqibatda, aynan jamiyatning rivojlanishini, turli xil tovar va resurslarni jamg'arilishini ta'minlaydi.

Mehnat motivatsiyasi omillarini ularning butun ishlab chiqarishga ta'siri darajasi bo'yicha ham guruhlariga bo'lish mumkin. Birinchi navbatda, bu faollashtiruvchi omillar — mehnat afzalliklari va obro'si, tabiatga yaqinligi, kasbiy bilimlar va malaka, tashabbuskorlik, epchillik va mas'uliyat, xo'jalik yuritish shakli; yuqori soliq va kredit stavkalari foizlari, narxlar dispariteti; moddiy-texnik resurslarning past texnik va sifat darajasi; mehnat jarayonlari mexanizat-siyasining past darajasi; moliyaviy vositalar yo'qligi va boshqalar.

***Mehnat motivatsiyasi omillarini quyidagi guruhlariga birlashtirish mumkin:***

- texnologik, ishlab chiqarish texnologiyasi, mehnat sharoitlarini boshqarish jarayonidagi ishtirok darajasini tavsiflovchilar;
- ishlab chiqarishning o'sishi xarajatlarining minimumga olib kelinishi, ekologiyaning saqlanishi va boshqalarga moddiy manfaat hamda mas'uliyat olib keluvchilar;
- ijtimoiy, shu jumladan, ruhiy ijtimoiy ehtiyojlarning qoniqtirilishi darajasi, mehnatning jarayoniga, mehnatning ahamiyati va obro'siga qiziqishi, ma'naviy qoniqish, haq to'lashning adolatligi, mustaqillik ijodning mumkinligi, ishlab chiqarish faoliyatining muvaffaqiyati, atrofdagilarning ijobiy bahosini tavsiflovchilar.

*Qishloq xo'jaligi xodimlari mehnati samarali motivatsiyasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi quyidagi asosiy shartlarda amalga oshirilishi va iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv hamda ijtimoiy tadbirlar tizimini oqilona ishlatilishini nazarda tutishi lozim:*

1. Agrar sohada mehnat motivatsiyasi bozor modelini amalga oshirilishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini uchta o'zaro bog'langan bloklar, shartlar, omillar guruhlarini majmuaviy birlashtirish va ishlatilishning obyektiv zaruriyati sifatida ko'rish lozim. Birinchidan, bu ishlatilayotgan mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidan qat'i nazar, agrar soha mehnat jamoalarining faoliyat ko'rsatishini umumiy me'yoriy iqtisodiy sharoitlarni yaratish. Motivatsiya omillari, ushbu guruhning vazifalari: Birinchidan xo'jalikning samarali faoliyat yuritishi uchun qiziqishini ta'minlash, me'yorda ishlayotgan xo'jaliklarni oddiy va kengaytirilgan ishlab chiqarish uchun lozim bo'lgan daromadlarni olish imkoniga ega bo'lishlarini ta'minlash. Ikkinchidan, bu mulkchilik munosabatlarining oqilona ishlatilishini va manfaatga ega bo'lgan qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchisini shakllantirish. Mulchilik muammosi ishlab chiqarishni samarali yuritishning muhim ishga soluvchisi, birlashtiruvchi omili bo'lishi mumkin. Ammo buning uchun mulkchilik munosabatlarini tartibga solish muammosi hal etilishidagi rasmiyatchilikni chiqarib tashlash, tarmoqda me'yoriy iqtisodiy vaziyatni yaratish lozim. Uchinchidan, bu bevosita har bir mehnat jamoasida ishlab chiqiladigan, ishlovchilar mehnati motivatsiyasining ichki (har bir mustaqil ishlab chiqarish tuzilmasi, yuridik shaxs chegarasida) tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi. Jamoaning yuqori manfaatdorligini shakllantirishga qaratilgan, sanab o'tilgan shartlar guruhlarining har biri, albatta, muhim ahamiyatga ega. Ammo rivojlanishning muayyan bosqichlarida ularning bittasiga ustunlik berilishi mumkin. Hozirgi vaqtda, moliya-kredit, narx va soliq siyosati bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jalik jamoalari faoliyat yuritishining umumiy iqtisodiy dastlabki shart-sharoitlarini keskin o'zgartirish muhimroqdir. Bugun me'yoriy faoliyat yuritayotgan xo'jaliklarga tarmoqning oddiy va kengaytirilgan ishlab chiqarishi uchun daromadlarga ega bo'lish imkoniyatini beruvchi tadbirlar tizimi lozim.

2. Yangi bozor sharoitlarida amal qiluvchi mehnat motivatsiyasi qoidalarining yetarlicha samarali bo'lmasligi sabablari mavjud. Ulardan biri manfaatlar tushunchasiga va shunga muvofiq, aholi moddiy farovonligiga qaratilgan muayyan tadbirlarni ishlab chiqish va amalga



oshirishga bo'lgan turlicha yondashuvlardir. Har bir boshqaruv organi ishlovchisi, korxonalar jamoasining ishlovchilar guruhi va boshqalarning «manfaatlariga» bo'lgan qarash bir xil bo'lmastligi mumkin. Bunda ikkita yondashuvni ajratish mumkin: «shaxsiy manfaat» va «manfaatdan chetda».

3. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini isloh qilish jarayonini chuqurlashtirish va qishloq mehnatkashlari mehnati faolligini oshirish jarayonining amalga oshishi, ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarilgan mahsulotga bo'lgan mulkchilik munosabatlari o'zgarishi jarayoni bilan yaqindan bog'langan bo'lishi lozim. Har bir ishlovchida ishlab chiqarilgan mahsulot va resurslarning ayrim qismiga mulkchilik hissining kuchayishi, oddiy ishlovchilarni ishlab chiqarish, qayta ishlash va mahsulotni (ish, xizmat) realizatsiya qilishni boshqarishda bevosita ishtirok etishi orqali ta'minlash mumkin.

4. Mehnatga haq to'lash moddiy rag'batlantirishni to'g'ri tashkil etilganligining asosiy unsuri va ishlab chiqarishdagi ishlovchilar ehtiyojlarini qondirishning manbayi bo'lib xizmat qiladi. U hozirgi kungacha qishloq xo'jalik korxonalarida (yollanma ishlovchilari bo'lmagan xo'jaliklar bundan mustasno) ishchi kuchini qayta ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlarni qoplashning ustunlikka ega bo'lgan asosiy shaklidir.

Mehnatga haq to'lashni tashkil etishning asosiy tamoyillari quyidagicha bo'lishi mumkin:

– ish haqi darajasi bozor konyunkturasiga, mehnat bozoridagi ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif nisbatiga muvofiq bo'lishi lozim;

– kafolatlik, uning mohiyati ish haqining minimal darajasini o'rnatilishidan iborat. Ish haqi yuqoridan hech qanday cheklashlarga ega emas, u ishlovchining mehnat faolligini rag'batlantirishi lozim;

– ish haqi o'lchami mehnat unumdorligining erishilgan darajasiga muvofiq bo'lishi, mukofotlash tizimi korxonalar va bo'linmalarning daromadi o'sishiga yordamlashishi lozim;

– to'lov muayyan ishlovchining bo'linma va umuman, korxonalar faoliyatining iqtisodiy natijalaridagi individual mehnat ulushiga muvofiq, pul va natural shaklda amalga oshirilishi mumkin. Mehnat ulushini baholash shartlari va o'lchamlari ishlovchilar jamoasi tomonidan belgilanishi lozim.

5. Yuqori unumdorlikka ega, samarali mehnat motivlari va stimullarini shakllantirish, ishlovchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni tashkil etishda amaldagi tamoyillar, asosiy yo'nalishlarni ko'rib chiqish va aniqlashni nazarda tutadi. Ular, birinchi navbatda, o'z mehnati

natijalarida munosib manfaat va mas'uliyatga ega bo'lmagan vaqtinchalik yollanma ishlovchi psixologiyasini yo'qotishga qaratilgan bo'lishlari lozim. Agrar sektorga manfaatdor tovar ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqarilgan mahsulot va ishlatilayotgan resurslar mulkdori bo'lishi kerak. Zarur bo'lganda korxonada xo'jalik yuritishning muayyan sharoitlarini yaratish va ayrim ishlovchilarga nisbatan mehnatni moddiy mukofotlashning samarali tizimini ishlab chiqishni amalga oshirish, bir birlik mahsulotga bo'lgan mehnat xarajatlarini miqdor va sifat hajmini aniqlash, ishlovchining mehnat va mulk ulushini hisobga olgan holda olingan daromadni adolatli taqsimlash, inflatsiya darajasini, mehnat bozoridagi konyunkura o'zgarishlarini hisobga olgan holda, ishlovchilarni moddiy mukofotlash tizimini o'z vaqtida o'tkazish, ishlarni tegishli sifatda bajarilmaganligi uchun mas'uliyatning aniq ko'rsatkichlarini va muayyan tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

6. Xo'jalikda hozirgi kunda amal qilayotgan ishlab chiqarish shart-sharoitlari va boshqaruv tuzilmasiga qarab mehnatni motivatsiyalash, olingan daromadni shakllantirish va taqsimlash mexanizmining turli xil modellari qo'llanilishi lozim.

7. Agrar sohada ishlovchilar mehnatini motivatsiyalash va daromadlarini taqsimlashning istalgan tizimini amalga oshirish, xo'jalikning barcha a'zolari mehnat natijalaridagi to'liq manfaatdorligi tamoyiliga asoslangan bo'lishi lozim.

8. Agrar sektor korxonalarida o'tish davri jarayonlarini chuqurlashishi bilan mehnatga haq to'lash uchun mablag'larni qoldiq tamoyili bo'yicha shakllantirishga o'tish lozim. Bunda olingan daromaddan ishlab chiqarish xarajatlari olib tashlanadi, soliqlar va kreditlar uchun foizlar to'lanadi, maxsus jamg'armalarga zarur bo'lgan ajratmalar amalga oshiriladi.

9. Qishloq xo'jalik xodimlari mehnatini motivatsiyalash tizimini shakllantirishda, istalgan faoliyat turining unumdorligi va samaradorligi, ularga oilasini boqishga, chiroyli zamonaviy buyumlarni sotib olishga, o'z ma'naviy darajasini oshirishga imkon beruvchi oylik ish haqining umumiy darajasiga to'g'ri proporsional bog'liqdir.

10. Oldindan beriladigan pul mablag'larini to'lash tartibi, korxonaya yoki ishlovchilarning iqtisodiy imkoniyatlari, uning soni va o'rnatilgan ichki munosabatlariga bog'liq bo'lgan holda turlicha bo'lishi mumkin.

11. Zamonaviy sharoitlarda qishloq xo'jalik korxonalarida mehnat motivatsiyasi va ichki xo'jalik tashkiliy-iqtisodiy munosabatlari dasturi, albatta aniq va har tomonlama asoslangan shartnoma munosabatlari tizimi asosida barpo etilishi lozim.

12. Har bir mehnat jamoasi va korxonadagi ishlovchilar mehnati motivatsiyasining umumiy dasturi quyidagi asosiy bloklarni o'z ichiga olishi lozim: tashkiliy-huquqiy, xo'jalik-ishlab chiqarish va moliyaviy-iqtisodiy.

13. Qishloq xo'jalik korxonasida mehnat motivatsiyasining majmuaviy dasturini ishlab chiqishda ishlab chiqarishning muayyan sharoitlari va xususiyatlarini, mehnat jamoasini miqdor va sifat tarkibi va uning berilgan vaqtdagi potensial imkoniyatlarini hisobga olib borish lozim. Unda ijtimoiy yo'naltirilgan vazifalar va tadbirlar blokini ham nazarda tutish kerak.

14. Agrar mehnatni motivatsiyalashning yangi mexanizmini tashkil etuvchi barcha konsepsiyalar muayyan mehnat jamoasining jamoaviy va shaxsiy manfaatlariga erishishga ko'maklashishi lozim.

Korxonalarda mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan fuqarolar mehnat unumdorligi darajasini yuksaltirishga alohida e'tibor berish lozim. Bu masalaning hal etilishida eng ta'sirchan omil moddiy manfaatdorlik hisoblanadi. Darhaqiqat, bozor iqtisodiyoti sharoitida kim yaxshi, sifatli ishlasa, ko'p haq oladi. Shunday ekan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ham yaxshi, samarali mehnat qilayotgan ishchi – xizmatchi mehnatiga yarasha ko'proq haq olishi lozim. Shunda u rag'batlantirilgan hisoblanadi. Shu bilan birga mehnatkashlarni moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishni amalga oshirishni ta'minlash kerak. Eng avvalo, mehnatlari natijalarini e'tiborga olgan holda mukofotlash, turli xildagi unvonlarni berish lozim. Bu unvonlar ham ma'lum darajada fuqarolarni mablag'lar bilan ta'minlaydi. Ma'naviy rag'batlantirish ham ayrim hollarda moddiylashadi.

Mehnat natijalarini aniqlash uchun qanday asosiy ko'rsatkich tatbiq etilishiga qarab ish haqining barcha tizimlarini ish haqining shakllari deb ataluvchi ikki katta guruhga bo'lish qabul qilingan.

Agar mehnat natijalarining asosiy o'lchovi sifatida tayyorlangan mahsulot (ko'rsatilgan xizmat)dan foydalaniladigan bo'lsa, u holda mehnatga haq to'lashning ishbay shakli tushuniladi.

Agar mehnat natijalarining asosiy o'lchovi sifatida ishlangan vaqt miqdoridan foydalanilsa, bunday holda vaqtbay ish haqi tushuniladi.

*Ish haqining shakli* – haq to'lash tizimlarining muayyan toifasidan iborat bo'lib, ish haqi to'lash maqsadida unga narx belgilashda mehnat natijalarini hisobga olishning asosiy ko'rsatkichi bo'yicha guruhlariga ajratilgan bo'ladi. Mehnat natijalari, mehnat me'yorlari ishlangan ish vaqti, tayyorlangan mahsulot miqdori, mahsulotning (bajarilgan

ishning) sifati, ishlab chiqarish resurslari (materiallar, yarim mahsulotlar, energiya, asbob-uskunalar, asboblar)dan foydalanish darajasi, mehnat unumdorligi kabi turli ko'rsatkichlarda aks etadi.

Aytib o'tilgan bu ko'rsatkichlar qiymat, natura yoki shartli (yoki shartli natural o'lchagichlariga ega bo'lishi va mehnatning yakka tartibdagi, guruh (jamo) ish natijalarini ifodalashi mumkin. Xodim erishgan mehnat natijalariga, shu bilan birga ularga sarflangan mehnatning miqdori va sifatiga baho berish uchun ish beruvchi bajarilgan ishni hisobga olib borishi va uni nazorat qilishi, bunda belgilangan mehnat normasining bajarilishi va oshirib ado etilishini hisobga olishi lozim.

Korxonalarda mehnatga haq to'lash tizimlariga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri teng mehnatga teng haq to'lashdir.

Mehnatga haq to'lashning ishbay va vaqtbay tizimlari mehnatni tashkiliy-texnikaviy me'yorlashga turlicha yondashish bilan ajralib turadi, bunda ayni bir xil me'yorlashga amal qilinadi. Vaqtbay haq to'lashda mehnatning asosiy me'yori qonun tomonidan yagona tarzda belgilangan ish vaqti muddati bo'lib, bunda xodimning mehnat vazifalari ko'rsatiladi, u ish vaqti mobaynida xodimlar o'rtasidagi mehnat taqsimotiga asosan ishlab chiqarishning tashkiliy-texnikaviy shart-sharoitlari bilan belgilangan ana shu vazifalarni ado etishi lozim.

Belgilangan normani bajarganlik uchun haq to'lash o'lchovi — tarif stavkasidir. Agar xodim me'yorda nazarda tutilgan vaqtdan kamroq ishlagan bo'lsa, unga tarif stavkasidan kamroq haq to'lanadi.

Mehnatga haq to'lashning u yoki bu tizimini qo'llash ko'pgina shart-sharoitlar bilan bog'liqdir, lekin, avvalo, xodimning mehnat natijalarini hisobga olish uchun asosiy ko'rsatkichga nimalar ta'sir qilishiga, ya'ni mazkur tizim ishbay yoki vaqtbay tizimga kirish yoki kirmasligiga bog'liqdir.

Ish beruvchiga mehnatga haq to'lash tizimini tanlash huquqi berilgan. U mazkur tizimlarni korxonaning kasaba uyushmasi tashkiloti vakillari bilan yoki ishlovchilarning boshqa vakillari bilan kelishib olishi lozim. Bu huquq qonun yo'li bilan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida va kasaba uyushmalari to'g'risidagi qonunda mustahkamlangan. Ish beruvchi mehnatga haq to'lash tizimidan foydalanib kelinayotgan barcha ko'rsatkichlarni hisobga olishi hamda ta'min etishi lozim.

Mehnatga haq to'lash tizimlari vositasida xodimlarning moddiy manfaatdorligiga muayyan tarzda ta'sir ko'rsatish — hozirgi zamon iqtisodiyotidagi ish haqini tashkil etishning asosiy tamoyillaridan biridir.



***Nazorat va muhokama uchun savollar:***

- 1. Mehnat resurslari nima?*
- 2. Mehnat unumdorligi nima?*
- 3. Mehnat resurslari, mehnat unumdorligining ahamiyati nimada?*
- 4. Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari, ular qanday aniqlanadi?*
- 5. Fermer xo'jaliklari mehnat bozorining asosiy subyekti sifatida qanday ahamiyatga ega?*
- 6. Mehnatga haq to'lash tizimlari qanday?*
- 7. Mehnat motivatsiyasi nima?*
- 8. Mehnat motivatsiyasi omillari qaysilar?*
- 9. Tarif stavkasi nima?*
- 10. Mehnat bozori nima?*
- 11. Mehnat va ish bir xil tushunchami?*

## 10-bob. QISHLOQ XO'JALIGINING MODDIY-TEXNIKA RESURLARI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

### 10.1. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligi

Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirishda, mavjud ishlab chiqarish potentsialining samaradorligini oshirishda moddiy-texnika bazasining ahamiyati katta bo'lib, uni kengaytirish, qayta tashkil qilish va rekonstruksiya qilish talab etiladi.



*Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan barcha mehnat vositalari va mehnat buyumlari yig'indisidir.*

Uning tarkibiga yer resurslari, ishlab chiqarish imoratlari, inshootlari, qishloq xo'jaligi mashinalari va jihozlari, transport vositalari, mahsuldor va ishchi hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar, suv resurslari, urug'lik, chorva ozuqalari, neft mahsulotlari, o'g'it, kimyo vositalari, urug'liklar, yem-xashaklar, yoqilg'i, yog'lovchi, qurilish materiallari va boshqalar kiradi.

**Fermer xo'jaliklari moddiy-texnika bazasining tarkibiy tuzilmasi:**

- fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari;
- fermer xo'jaliklaridagi ko'p yillik daraxtlar va uzumzorlar;
- chorva fermalarining mahsuldor va ishchi hayvonlari;
- fermer xo'jaliklaridagi bino-inshootlar, texnikalar, mashinalar va boshqa ish qurollari;

- fermer xo'jaliklaridagi aylanma mablag'lar (urug'lik, ozuqa, YMM, mineral o'g'itlar);
- fermer xo'jaliklarining hisob raqamidagi pul mablag'lari, qimmatbaho qog'ozlar;
- fermer xo'jaliklarining ta'sischi ligi asosida tashkil qilingan muqobil MTP, SFU va agrofimlar hisobidagi mol-mulk.

Moddiy resurslar yordamida qishloq xo'jaligida turli xildagi ishlar, xizmatlar bajarilib, mahsulotlar yetishtiriladi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida ularning sifati, holati yaxshilanadi, yangilarini yaratish maqsadida keng ko'lamdagi ishlar bajariladi. Moddiy resurslarni ishlab chiqarishda qo'llash natijasida serhosil, tezpishar navlar, sermahsul chorva zotlari, har tomonlama qulay va samarali hisoblangan ilg'or texnologiyalar yaratiladi.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari respublika iqtisodiyoti resurslarining muhim qismi hisoblanadi. Ular mulk sifatida tarmoqning, korxonalarining iqtisodiy asosini tashkil etadi. Korxonalarining moddiy-texnika bazasi mustahkam bo'lsa, ularda iqtisodiy jihatdan rivojlanish uchun asos mavjudligidan dalolat beradi.

Bundan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaliklarini yuqoridagi moddiy-texnika vositalariga ega bo'lmasliklari ularni kelgusida iqtisodiy baquvvat xo'jalik sifatida faoliyat ko'rsata olmasliklarini bildiradi.

**Har bir hududda fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika ta'minotini mustahkamlashda hisobga olinadigan omillarga quyidagilar kiradi:**

- hududlar bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi;
- fermer xo'jaliklarining ixtisoslashganlik darajasi;
- qishloq xo'jaligi ekinlarining tarkibi;
- qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi va chorva mollarining mahsuldorligi;
- qishloq xo'jaligi ekinlarining moddiy-texnika resurslariga bo'lgan talabi.

Fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlash va mustahkamlash mamlakat miqyosida moddiy-texnika resurslarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar faoliyatini modernizatsiyalashtirish, ya'ni o'zaro raqobatlashadigan, ichki va tashqi bozorga sifatli hamda talabgor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar safini ko'paytirishni talab etadi.

***Fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika ta'minotini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:***

- har bir qishloq xo'jaligi hududiga mos va iqtisodiy samarali bo'lgan mexanizatsiya tizimini shakllantirish;
- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali suv resurslaridan samarali foydalanish;
- mahsuldor zotli hayvonlar bilan ta'minlash;
- kasallikka chidamli, tezpishar va yuqori hosildor qishloq xo'jaligi ekinlarining urug'lari bilan ta'minlash;
- qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlardan samarali foydalanish, biologik vositalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish;
- ishlab chiqarish bino va inshootlari qurilishiga amaliy yordam ko'rsatish;
- moddiy-texnika resurslarini xarid qilish va foydalanishda imtiyozlar joriy qilish;
- xizmat ko'rsatish va ta'minot yo'nalishidagi korxonalar hamda tashkilotlarni samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash.

Moddiy resurslarning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi o'rni va ahamiyati juda kattadir. Chunki takror ishlab chiqarish jarayonida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari talab darajasida yetishtirilishi hamda ish va xizmatlar ko'ngildagidek bajarilishi barcha resurslarning miqdoriga hamda sifatiga bog'liq. Respublika dehqonchiligi sug'orishga asoslanganligi sababli sug'oriladigan yerlar va suv resurslarining ta'siri juda katta. Tarmoqning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining amalga oshirilishi, asosan, moliyaviy resurslar bilan bog'langan. Shunday ekan, kelajakda qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslarini talab darajasida barpo etilishiga alohida e'tibor berish zarur. Shu bilan birga moddiy resurslar mehnatning karakterini o'zgartirib, unumdorlikning yuksalishini ta'minlaydi.

***Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida moddiy-texnika resurslari bozorini rivojlantirishning obyektiv zarurligi quyidagilar bilan asoslanadi:***

- asosiy turdagi moddiy-texnika resurslarini ishlab chiqarish va ta'minlashga ixtisoslashgan korxonalarning monopol holatiga barham berish maqsadida ularga turdosh va raqobatbardosh bo'lgan tarmoqlarni tashkil etish va rivojlantirish;



- qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan sanoat mahsulotlarining narxlari o'rtasidagi nomutanosiblikka barham berish;
- moddiy resurslar bozorida haqiqiy talab va taklif munosabatlarini shakllantirish;
- ayrim turdagi moddiy resurslarni ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish (bu turdagi resurslarni chetdan olib kelinishi ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxining yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi);
- moddiy-texnika resurslariga bo'lgan ehtiyojlarni o'z vaqtida va sifatli qondirishga intiluvchi fermer xo'jaliklariga lizing va ipoteka munosabatlari asosida, shuningdek, to'g'ridan to'g'ri xorijdan mahsulot xarid qilishiga erkinlik berishni ta'minlash.

Har qanday ishlab chiqarish kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ham ishlab chiqarish vositalarining me'yoriy hajmda mavjud bo'lishi taqozo etiladi.

|| *Mehnat predmeti bilan mehnat qurollari birgalikda ishlab chiqarish vositalarini tashkil qiladi.* ||

Mehnat predmetlariga ta'sir ko'rsatib, mahsulot ishlab chiqarishda odamlar tomonidan foydalaniladigan hamma buyumlar mehnat vositalari (qurollari) deyiladi. Odam mehnati ishlab chiqarishning qaysi moddiy elementlariga qaratilgan bo'lsa, o'sha moddiy element mehnat predmeti deb ataladi.

**Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi:**

**Birinchidan**, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasida yer asosiy rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligi asosiy ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishi bevosita yerdan qay darajada foydalanishga bog'liq. Yerning unumdorligi har xil bo'lib, mahsulot birligi uchun har xil miqdorda xarajat sarflanadi. Bu esa har xil unumdorlikka ega bo'lgan yerlarda bir xil miqdorda asosiy va aylanma vositalarga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

**Ikkinchidan**, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasi har doim tabiiy sharoitlar ta'sirida bo'ladi. Qishloq xo'jaligi hududiy xarakterga ega bo'lib, har bir hududda tuproq – iqlim sharoitlari har xil bo'lishi tufayli har xil sistemadagi mashinalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Shuning uchun hududlarda va hududlar ichidagi xo'jaliklarda moddiy-texnika bazasining tarkibi ham har xil bo'ladi.

**Uchinchidan**, qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chiqarish vaqti bir-biriga mos kelmasligi tufayli, ishlab chiqarish mavsumiy xususiyatga ega bo'lib, bu moddiy-texnika vositalaridan unumli foydalanishga salbiy ta'sir etadi. Ishlab chiqarish mavsumiy bo'lishi zaxira urug'lik, ozuqa, yoqilg'i moylash materiallari va boshqalarga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

**To'rtinchidan**, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining bir qismi jonli organizm (ishchi hayvonlar, mahsuldor mollar, parrandalar, ko'p yillik daraxtlar va hokazo)lardan iborat bo'lib, ulardan samarali foydalanish uchun ma'lum ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lish kerak.

**Beshinchidan**, qishloq xo'jaligi taraqqiy etgan transport xizmati, sifatli yo'l qurilishini amalga oshirish, qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash va saqlash ko'p miqdorda sarf-xarajatni taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligining mustahkam moddiy-texnika bazasini yaratishda yuqorida ta'kidlangan xususiyatlarni e'tiborga olish, shuningdek, ishlab chiqarishning joylashganligi hamda ixtisoslashganligiga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga ilg'or texnologiyalarning joriy etilishini hamda texnologik jarayonlarda bajariladigan barcha ishlarni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish imkonini yaratish lozim.

Yuqoridagi talablarga javob beradigan moddiy-texnika resurslari, asosan, quyidagi manbalar hisobiga barpo etiladi:

- korxonaning mablag'lari;
- chetdan jalb etiladigan mablag'lar.

Qishloq xo'jaligini ustuvor darajada rivojlantirish uchun uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash kerak. Tarmoqning moddiy-texnika resurslarini shakllantirilishi, rivojlantirilishi, ulardan samarali foydalanish masalalari fan-texnika taraqqiyotiga va uning darajasiga bevosita bog'liq. Fan-texnika taraqqiyoti deganda, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan barcha fanlarning rivojlanishi, taraqqiy topishi, bilimli, malakali kadrlar tayyorlanishi natijasida samarali yangi texnikalar yaratilishi, mavjudlarini esa takomillashtirilishi nazarda tutiladi.

Fan-texnika taraqqiyoti yagona davlat siyosati asosida kechishi, bu jarayonda qatnashuvchilarning tashabbuskorligi, tadbirkorligi ham uyg'unlashishi lozim.

Fan-texnika taraqqiyotining asosiy maqsadi yangi, samarali qishloq xo'jalik texnikalarini, ekologik talablarga javob beradigan kimyoviy

vositalarni, yangi navlarni, zotlarni yaratish, mavjud vositalarni takomillashtirish, mehnatning xarakterini o'zgartirib, uning unumdorligini oshirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorini ko'paytirish, sifatini yaxshilash, ularni qayta ishlab, iste'molchilarga yetkazib berish orqali aholi, korxonalar va nihoyat, davlatning iqtisodiyotini yuksaltirishdir.

## **10.2. Innovatsiyaviy texnika, texnologiyalar va innovatsiyaviy boshqaruvni qishloq xo'jaligida qo'llashning samaradorligi**

*Innovatsiya inglizcha «innovation» so'zidan olingan bo'lib, yangi ilmiy texnik yutuqni ifodalab, yangi mahsulotni amalda qo'llanilish jarayoniga aytiladi.*

Bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida, innovatsiyalarni joriy etish, milliy korxonalar raqobatdoshligini oshirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini va bozordagi mavqeyini mustahkamlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Innovatsiyaviy faoliyat, ishlab chiqarish va inson hayotiy faoliyatining boshqa sohalari ehtiyojlarini qondirishning muhim uslublaridan biri hisoblangan holda, u foydalaniladigan mahsulotlarning sifat o'zgarishlari, faoliyat vositalari va uslublarini yangilash yo'li bilan amalga oshiriladi. Ammo sifat o'zgarishlarini faqatgina fundamental bilimlar asosida o'zgartirish mumkin bo'lib, ular texnik bosqichdan ishlab chiqarish sohasiga o'tgan holda ilg'or o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ushbu sohadagi tadqiqotlarning ko'rsatishicha, sanoati rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyaviy faoliyat mahsulotlarini sotish hisobiga milliy daromadning 20 foizgacha o'sishi ta'minlanishi mumkin.

Innovatsiya — mavjud tizimlar rivojlanishini boshqarish jarayoni bo'lib, unda innovatsiyaviy mahsulot amaliy qo'llanilish bosqichigacha olib kelinadi va bozor muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Korxonalar rivojlanishining asosiy strategiyasi quyidagi tamoyillarga asoslangan **innovatsiyaviy boshqaruv** siyosati bo'lib, ularni amalga oshirish uchun:

- tabiiy va iqlim resurslaridan oqilona foydalanish;
- jamg'arilgan boyliklardan o'z o'rnida foydalanish;
- investitsiyalarni faol jalb qilish;
- innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

Innovatsiyaviy boshqaruv — O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun nisbatan yangi tushuncha bo‘lib, fan-texnika taraqqiyotini boshqarish jarayonlari va ilmiy-texnik yutuqlarni ishlab chiqarishga joriy etishning asosiy jihatlarini qamrab oladi.

Innovatsiyaviy boshqaruv korxonaning samarali rivojlanishi va raqobat ustunliklarini shakllantirish omilidir.

Innovatsiyaviy boshqaruvning eng muhim amaliy vazifalaridan biri — innovatsiyaviy jarayonlarni boshqarishning samarali tizimini shakllantirishdir va u quyidagilarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- innovatsiyaviy boshqaruvning tegishli nazariy bazasini ishlab chiqish;

- innovatsiyaviy boshqaruv sohasida mavjud muammolarni yechish uslublarini asoslash;

- innovatsiyaviy jarayonlar samaradorligini baholash uslubiyati va ularga ta’sir ko‘rsatish vositalarini ishlab chiqish.

Korxonada ro‘y berayotgan innovatsiyaviy jarayonlarning samaradorligi, innovatsiyaviy strategiyani shakllantirishda qo‘llaniladigan usul va uslublarga, innovatsiyaviy mahsulot kategoriyasiga, ishlab chiqilayotgan innovatsiyalar turlariga, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarining ishlab chiqarishda qo‘llanilishiga bog‘liq bo‘ladi. Ular orasida eng muhim elementlar bo‘lib quyidagilar sanaladi:

- innovatsiyaviy xarakterdagi yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirishning samarali strategiyalari;

- muayyan tashkiliy tuzilmada bunday strategiyani amalga oshirish jarayonini boshqarish mexanizmi.

Tadbirkorlik, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va marketing strategiyalari bilan bir qatorda yuqorida qayd etilgan innovatsiyaviy strategiya, korxonada umumiy iqtisodiy strategiyasining muhim bo‘g‘ini sifatida qaraladi.

Hozirgi kunda ilmiy-texnik taraqqiyot va bozor ehtiyojlari, mahsulot nomenklaturasi va sifatiga yangi talablarni shakllantirgan holda, talab va taklif konyunkturasidagi o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Ishlab chiqaruvchilarning bunday o‘zgarishlarga nisbatan loqaydligi, raqobatdoshlarning ilgarilab ketishidan dalolat beradi. Korxonalar ushbu o‘zgarishlarga kech moslashuvining salbiy iqtisodiy oqibatlari, tanazzul holatga va hattoki bankrotlikka olib kelishi mumkin. Ushbu munosabat bilan, ishlab chiqarish faoliyatining deyarli barcha sohalarida, innovatsiyalarga, istiqbolli rivojlanish vositasi sifatida qiziqishi oshadi. Korxonalarni boshqarish amaliyotida bunday strategiyaning shakl-

lanishi, innovatsiyaviy jarayonlarni samarali boshqarish tizimlarini yaratish zaruriyatini yana bir marta ta'kidlaydi.

*Innovatsiyaning uchta asosiy xili mavjud: mahsulotlar, texnika-texnologiya va tashkiliy boshqaruv.*

**Mahsulotlar innovatsiyasi** eng keng tarqalgan bo'lib, juda ko'p korxonalarda mavjud. Bunda, bir korxonadan boshqa korxonaga o'tish xarakteri farqlanadi. Ayrimlar uchun an'anaviy yo'nalishga kiruvchi mahsulotlar assortimentini almashtirish yoki mahsulotlar sonini sezilarli darajada oshirish, boshqalar uchun iste'mol talablarini inobatga olgan holda, an'anaviy mahsulotning iste'mol sifatini oshirishdir. Ba'zan yangi mahsulot ishlab chiqarish, eski asbob-uskunalarda amalga oshirilsa, ba'zida esa, yangi mahsulot ishlab chiqarish korxonaning yangi texnik-texnologik jihatidan jihozlash bilan amalga oshiriladi.

**Texnologik innovatsiyalarning yetakchi motivi** bo'lib, bozor talabini qondiruvchi yangi mahsulotlar ishlab chiqarish hisoblanadi. Shuning bilan birga, innovatsiyalarni yuzaga chiqaruvchi sabablar turlichadir: texnologiya jarayonining takomillashuvi, resurslarni iqtisod qilish, ekologik talablar, zamonaviy texnologik qarorlarning yetishmasligi va boshqalar.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini oshirish, tannarxini tushirish va xillarini kengaytirish orqali uning raqobatdoshligini oshirish texnologik yangiliklarni joriy qilishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, keyingi paytlarda korxonalarda uskunalarni almashtirish, asosan, raqobatga qarshi vosita emas, balki ularning ma'naviy eskirishi tufayli amalga oshirilmoqda.

**Tashkiliy-boshqaruv** innovatsiyalar ko'proq korxonaning barcha darajalarida bo'limlarni, bo'linma va xizmatlarni tashkil etish orqali tavsiflanadi. Masalan, marketing bo'limlari, yangi yo'nalishlar va mahsulot sotish usullarini yaratish. Bunda ishlab chiqarish va personalni boshqarish usullarini takomillashtirish va samarasini oshirish bo'yicha innovatsiya chora-tadbirlarini ko'rish mumkin.

Qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni jalb etish samaradorligini baholashda ajratilgan mablag'larning o'rni beqiyosdir. Bu o'rinda xalqaro moliya tashkilotlari ham katta o'rin tutadi.

Agrosanoat majmuasiga xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratilgan kreditlar, asosan, «Paxtachilikni qayta qurish (rivojlantirish)», «G'allachilik xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash», «Qishloq xo'jalik korxonalarini tarkibiy qayta qurish», «Drenaj tizimini yaratish» va shunga o'xshash loyihalarga ajratilgandir.

Agrosanoat majmuasiga xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar tomonidan ajratilgan grantlar, asosan, quyidagilarga yo'naltirilgan:

- texnika ta'minotini yaxshilashga – 35,5 foiz;
- suv xo'jaligini rivojlantirish va boshqarilmi takomillashtirishga – 30,8 foiz;
- konsultativ maslahat va xizmatlarga – 13 foiz;
- innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarga – 12,6 foiz;
- ekologik muammolarni hal etishga – 6,4 foiz;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va moliyalashga – 1,7 foiz.

### **10.3. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi**

Qishloq xo'jalik korxonalarini moddiy-texnika resurslari bilan talab darajasida ta'minlashga doimo katta e'tibor berilmoqda. Chunki bu sarflanadigan mehnat hamda mablag' xarajatlari kamayishi, mehnat unumdorligi yuksalib, foyda summasi ko'payishi uchun imkoniyat yaratadi. Shunday ekan, qishloq xo'jalik korxonalarining moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlanish bu vositalardan foydalanish jarayonini va bu boradagi o'zgarishlarni bilish talab etiladi. Buning uchun bir qancha ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Eng avvalo, bu boradagi asosiy ko'rsatkich – korxonalarining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichidir. Xo'jalik o'z faoliyatida amalga oshiradigan ishlarni tez va sifatli bajarishga intiladi, bu jarayonda texnika vositalari o'rtasida mutanosiblikni ta'minlashga alohida e'tibor beradi.

Sababi – traktorlar ko'p, ularga tirkaladigan mexanizmlar kam yoki aksi bo'lsa, kutilgan samaraga erishib bo'lmaydi. Chorva hayvonlari ko'p bo'lib, yem-xashak kam bo'lishi ham foydasizdir. Demak, korxonalar samarali muvozanatdagi moddiy-texnika resurslari bilan talab darajasida ta'minlangan bo'lishlari kerak. Uning darajasini quyidagi ifoda yordamida aniqlash mumkin:

$$MTR_{TD} = \frac{(S_q + (AF_q - AV_q) + A_y F_q + B_q)}{S}; \quad (10.1)$$

bunda:  $MTR_{TD}$  – moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, so'm;

$S_q$  – qishloq xo'jalik yerlarining qiymati (so'm);

$AV_q$  — asosiy vositalarning oʻrtacha yillik qiymati (soʻm);  
 $AF_q$  — asosiy fondlarning oʻrtacha yillik eskirish qiymati (soʻm);  
 $A_y F_q$  — aylanma fondlarning oʻrtacha yillik qiymati (soʻm);  
 $B_q$  — bogʻlar, tokzorlarning oʻrtacha yillik qiymati (soʻm).

Bu koʻrsatkich yordamida har bir xoʻjalik ixtiyoridagi foydalani-  
layotgan 1 ga qishloq xoʻjalik yeriga yoki ekin maydoniga necha soʻmlik  
moddiy-texnika resurslari toʻgʻri kelayotganligi aniqlanadi. Uning miq-  
dori talab, yaʼni meʼyor darajasida boʻlishi kerak. Bu umumiy  
koʻrsatkich maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda boshqa aniq  
koʻrsatkichlar yordamida yanada aniqlashtiriladi.

Qishloq xoʻjaligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash  
maqsadida kimyoviy vositalarni, jumladan, mineral oʻgʻitlarni sotib  
olishga alohida eʼtibor berilmoqda. Chunki ular tuproq unumdorligini  
oshirib, ekinlar hosildorligi yuksalishini, yovvoyi oʻtlar hamda zararku-  
nandalarni ozaytirib, mehnat va mablagʻ sarflarini kamaytiradi, mah-  
sulotning sifati yaxshilanadi.

Qishloq xoʻjaligining moddiy-texnika bazasi ishlab chiqarish ja-  
rayonidagi faoliyatiga koʻra, mehnat predmetlari hamda mehnat  
vositalariga boʻlinadi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yaratilib,  
qishloq xoʻjalik mahsulotlari yetishtirishda inson mehnati yordamida  
ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashib, oʻz shakllarini toʻliq  
oʻzgartiradigan predmetlar tarmoqning mehnat predmetlarini tashkil  
etadi.

Ularga sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilgan yoqilgʻi, yogʻlovchi  
materiallar, kimyoviy oʻgʻit, yem va boshqalar kiradi. Ular tarmoqning  
mahsulot ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish jarayonlarida bir marta  
qatnashib, oʻz shakllarini toʻliq oʻzgartirib, qiymatini ham ularga  
oʻtkazadigan predmetlardir. Tarmoqda band boʻlgan insonlarning ongli  
mehnati, mehnat predmetlari yordamida qishloq xoʻjalik mahsulotlarini  
yetishtirish, xizmatlarni bajarish maqsadida bir necha yillar davomida  
foydalaniladigan narsalar mehnat vositalari hisoblanadi. Ular tabiat  
tomonidan hamda sanoat, qishloq xoʻjalik tarmoqlarida yaratilgan  
boʻlib, turli xildagi mahsulotlarni yetishtirishda, xizmatlarni, ishlarni  
bajarishda bir necha yillar davomida foydalanilib, oʻz koʻrinishini,  
shakllarini oʻzgartirmasdan, lekin qiymatining maʼlum bir qismini  
mahsulotlarga, ishlarga, xizmatlarga oʻtkazib boradigan vositalardir.  
Ularga qishloq xoʻjalik texnikalari hisoblangan mashina-traktorlar,  
kombaynlar, seyalkalar, kultivatorlar, sugʻorish inshootlari, binolar,  
stanoklar va boshqalar kiradi. Yerlar, tabiiy oʻrmonlar — tabiat

mahsulidir. Ishchi va mahsuldor chorva hayvonlari, bog'zorlar, tokzorlardan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish uchun bir necha yillar mobaynida foydalaniladi. Asosiy vositalar yillar davomida jismoniy hamda ma'naviy eskiradi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida yangi, zamonaviy texnikalarning yaratilishi tufayli ular ma'naviy jihatdan ham eskiradi.

**Amortizatsiya** – bu ishlatilgan ishlab chiqarish vositalarini pul ifodasidagi qoplanishidir. Har bir korxonada amortizatsiya fondi tashkil etiladi.

Asosiy vositalarning eskirishini ularning amaldagi eskirish me'yori (normativlari) yordamida aniqlash mumkin. Ularning eskirish qiymati amortizatsiya summolari, deb ataladi. Asosiy vositalarning eskirish me'yori belgilab beruvchi amortizatsiya me'yori asosida ularning eskirish qiymati (summasi) quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$A_q = \frac{AV_q}{AV_{e.m}} \cdot 100 \text{ yoki } \frac{AV_q}{AV_{e.m}} \quad (10.2)$$

bunda:  $A_q$  – asosiy vositaning amortizatsiya summasi (so'm);

$AV_q$  – asosiy vositaning balans qiymati (so'm);

$AV_{e.m}$  – asosiy vositaning eskirish me'yori (koeffitsientda, yilda).

Asosiy vositalarning eskirish me'yori (normativi) berilmaganda asosiy vositaning balans qiymatini uning xizmat muddatiga taqsimlash natijasida eskirish me'yori aniqlanadi. Xo'jalikda bir necha yillar davomida ishlatilgan vositalar kapital ta'mirlangan bo'lsa, ular balans qiymatiga qo'shiladi.

Eskirish qiymatlari yetishtiriladigan mahsulotlarga, xizmatlarga belgilangan tartibda o'tkaziladi.


Mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan fuqarolar mehnat predmetlaridan hamda mehnat vositalaridan oqilona foydalanish natijasida turli xildagi sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirib, foydali xizmatlarni bajaradilar. Ularning yig'indisini qishloq xo'jaligi vositalari yoki fondlari tashkil etadi. Qishloq xo'jalik fondlari tarmoqdagi ishlab chiqarish jarayonlarida qatnashishiga yoki foydalanilishiga ko'ra, ishlab chiqarish fondlari hamda noishlab chiqarish fondlaridan tashkil topadi.

Ular qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida qatnashishining zaruriyligi hamda muddatiga ko'ra, yuqorida ko'rsatilganidek, asosiy va aylanma fondlarga bo'linadi.



*Asosiy vositalar iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi jarayonida bir necha yillar davomida qatnashib, qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga, bajarilayotgan xizmatlarga yilma-yil qisman o'tkazib boradi (ya'ni eskirish qiymatini).*

Ularni natura holdagi ko'rinishiga ko'ra, asosiy va aylanma vositalar, umumiy holda esa ishlab chiqarish vositalari, deb ataladi.



10.1-rasm. Asosiy vositalar tarkibi.


Bunday vositalar 15 minimal oylikdan yuqori qiymatga ega bo'lgan va 1 yildan ko'proq xizmat qiladigan ishlab chiqarish vositalaridir. Ularga qishloq xo'jalik yerlari, mashinalar, traktorlar, binolar, inshootlar, transport vositalari, qurilmalar, stanoklar, ishchi, mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik mevali daraxtlar va boshqalar kiradi.

Asosiy va aylanma vositalar mahsulot ishlab chiqarib, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda benihoya katta ahamiyat kasb etadi. Chunki

ularsiz talabni qondiradigan miqdorda, sifatli mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas. Ulardan oqilona foydalanish natijasida mehnat va mablag' xarajatlari tejaladi. Demak, asosiy va aylanma vositalardan oqilona va samarali foydalanish tufayli qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti rivojlanadi. Natijada aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yaxshilanadi. Shuning uchun bunday vositalarni yaratishga, qurishga, ta'mirlashga, ulardan yaxshi foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda.

Tarmoqda mahsulot ishlab chiqarishda asosiy rol qishloq xo'jaligida qatnashuvchi fondlarga tegishlidir, chunki ular asosiy ishlab chiqarish fondining 80 foizini tashkil qiladi. Bu fondlarga quyidagilar kiradi:

- yer resurslari;
- binolar;
- inshootlar;
- mashina va texnikalar;
- transport vositalari;
- ishlab chiqarish va xo'jalik inventarlari;
- sog'in sigirlar;
- go'shtga boqilgan qoramollar;
- ko'p yillik ekinlar;



10 2-rasm. Aylanma vositalar tarkibi.

- yerni yaxshilash uchun qilingan sarflar (inshootlardan tashqari).
- asboblari va hokazolar.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligining qiymati ko'rsatkichlari: fond qaytimi va fond sig'imidir.

**Fond qaytimini** qishloq xo'jaligida bir yilda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot qiymatini ishlatilgan asosiy fondlarning o'rtacha yillik summasiga taqsimlash natijasida aniqlash mumkin:

$$F_q = \frac{YM_q}{AF_q} \quad (10.3)$$

bunda:

$F_q$  – fond qaytimi (so'm);

$YM_q$  – yalpi mahsulot qiymati (so'm);

$AF_q$  – asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymati (so'm).

Fondlar qaytimini bir so'mlik asosiy fond evaziga ma'lum muddatda olingan yalpi daromad va sof foyda ko'rsatkichlari yordamida ham aniqlash mumkin. Ular yalpi daromad, sof foyda summasini asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymatiga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Bunda quyidagi ifodadan foydalanish mumkin:

$$YDF_q = \frac{\sum YD_q}{AF_q} \cdot \frac{\sum SF_q}{AF_q} \quad (10.4)$$

bunda:  $YDF_q$  – yalpi daromad bo'yicha fond qaytimi (so'm);

$\sum YD_q$  – yillik yalpi daromad qiymati (so'm);

$AF_q$  – asosiy fondlarning qiymati (so'm);

$\sum SF_q$  – yillik sof foyda qiymati (so'm).

Bu ko'rsatkichlar yordamida 1 so'mlik asosiy fondlar evaziga necha so'mlik yalpi mahsulot, yalpi daromad va sof foyda olinganligi aniqlanadi.

Bu ko'rsatkichlar miqdori yuqori bo'lgani yaxshi.

**Fondlar sig'imi.** Uni aniqlash uchun asosiy fondlarning yillik o'rtacha summasini yetishtirilgan yalpi mahsulot qiymatiga taqsimlash zarur. Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$F_s = \frac{AF_q}{YM_q} \quad (10.5)$$

bunda:  $F_s$  – fond sig'imi (so'm).

Fond sig'imi esa bir so'mlik qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtirish uchun qancha asosiy fond qiymati to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish fondlarining (asosiy va aylanma) iqtisodiy samaradorligi rentabellik ko'rsatkichi bilan ham xarakterlanadi. Iqtisodiyotda bu ko'rsatkich foyda me'yori deyiladi. U quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$F_m = \frac{F}{AF_q + A_y F_q} \cdot 100\% \quad (10.6)$$

bunda:  $F_m$  – foyda me'yori, foiz;

$AF_q$  – asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati;

$A_y F_q$  – aylanma fondlarning o'rtacha yillik qiymati (so'm).

$F$  – foyda, so'm.

Foyda normasi bir birlik ishlab chiqarish fondlari qiymatiga qancha foyda olinganligini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi fondlarining muhim qismini aylanma fondlar tashkil etadi. Aylanma fondlar ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonining to'xtamay amalga oshishini ta'minlab turadi. Ularning natura holidagi ko'rinishi aylanma vositalar deyilsa, pul (qiymat) shaklidagi ko'rinishi aylanma fondlar, mablag'lar, deb ataladi.

Asosiy fondlardan foydalanish darajasi xo'jalik, uning ishchi va xizmatchilarini fondlar bilan ta'minlanganligiga hamda mehnatning qurollanganligiga bog'liq.

Shunday ekan, xo'jalikda bu ko'rsatkichlarni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagi tartibda aniqlanadi: jumladan, xo'jalikning asosiy fondlar bilan ta'minlanganligini aniqlash uchun undagi asosiy fondlarning o'rtacha yillik summasini foydalanilgan yer maydoniga taqsimlash lozim.

Bu quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$AF_r = \frac{AF_q}{S} \quad (10.7)$$

bunda:  $AF_r$  – asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik darajasi (so'm/ga);

$AF_q$  – asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymati (so'm);

$S$  – foydalanilayotgan yer maydoni (ga).

Mehnatning asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik darajasi esa, asosiy fondlarning yillik o'rtacha summasi, shuningdek, ularning quvvati ishlagan ishchi-xizmatchilar (mehnat resurslari) ning o'rtacha yillik soniga taqsimlanadi. Ularni ushbu ifodalar yordamida aniqlash mumkin:

$$M_i = \frac{AF_q}{N}; \quad (10.8)$$

bunda:  $Mt$  – mehnatning (1 kishiga) asosiy fondlar bilan ta'minlanganligi (so'm/kishi);

$AF_q$  – asosiy fondlarning o'rtacha yillik quvvati (ot kuchida);

$\bar{N}$  – mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni (kishi).

Bu ko'rsatkichlar xo'jaliklarning ixtisoslashishiga, mashina-texnikalar bilan ta'minlanganligiga ko'ra, farq qilinishi mumkin. Ayniqsa, oxirgi formula yordamida aniqlangan ko'rsatkich ishlab chiqarish mexanizatsiyalashtirilishini, avtomatlashtirilishini ta'minlab, jonli mehnat xarajatlarini tejab, mehnat unumdorligining yuksalishiga olib keladi.

Aylanma fondlarga (vositalarga) ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan mehnat vositalari va moddiy ne'matlarning ayrimlari kiradi. Aylanma vositalar, mablag'lar qishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, bir shakldan ikkinchi shaklga aylanib turadi. Masalan, bug'doy urug'i ekilib, niholi unib chiqishi jarayoni. Bu jarayon falsafa qonuniga ko'ra, inkorni-inkor etish, deb ataladi. Aylanma fondlar asosiy fondlardan farqli o'laroq, bir ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, o'z moddiy qiymatini va shaklini to'liq o'zgartiradi. Misol: ekilgan urug' o'simlikka, mineral o'g'itlar esa ozuqa moddalarga aylanadi, yonilg'idan foydalanish natijasida mashina-traktorlar ish bajaradi va hokazolar. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mavsumiy bo'lganligi uchun, aylanma fondlarning sarflanishi, tarkibi yil davomida o'zgarib turadi. Masalan, qishda aylanma fondlarning ko'p qismi urug' va ozuqa, yozda esa fondlarning aksariyat qismi neft mahsulotlari, mashina ehtiyot qismlari, tugallanmagan ishlab chiqarish bilan band bo'ladi. Qishloq xo'jaligi korxonalarining aylanma fondlariga (vositalariga) quyidagilar kiradi:

- xomashyo materiallar;
- o'g'itlar va boshqa kimyoviy vositalar;
- yoqilg'i, yog'lovchi moddalar;
- idish va idish materiallari;
- urug' va urug'lik materiallari;
- qurilish materiallari;
- ehtiyot qismlar;
- ozuqalar, yem-xashaklar;
- boquvdagi hayvonlar;
- arzon baholi va tez eskiruvchi predmetlar;
- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari;
- realizatsiyaga tayyor mahsulot;
- xaridorlar bilan hisob-kitob qilnadigan mablag'lar;
- material va xomashyolarni sotib olish uchun pul mablag'lari,

– hisob raqamidagi, g'aznadagi mablag'lar va boshqalar.

Aylanma fondlarining aylanishi o'zida uch bosqichni mujassamlashtiradi: ta'minot, ishlab chiqarish va sotish.

Aylanma fondlar (vositalar)ning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

**Aylanma fondlarning aylanish koeffitsienti.** Uni aniqlash uchun sotilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining, ko'rsatilgan xizmatlarning, bajarilgan ishlarning umumiy qiymatiga asosiy podaga o'tkazilgan yosh hayvonlarning qiymatini qo'shib, undan asosiy podadagi hayvonlarni sotishdan tushgan mablag'ni ayirgandan so'ng qolgan qiymatni aylanma fondlarning yillik o'rtacha qoldiq summasiga taqsimlash lozim. U quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$K_{\text{ayl}} = \frac{SM_q \text{ yoki } YM_q}{A_y F_q} \quad (10.9)$$

bunda:

$K_{\text{ayl}}$  – aylanma fondlarning aylanish koeffitsienti;

$SM_q, YM_q$  – sotilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarning bajarilgan ishlar, xizmatlarning qiymati (so'm);

$A_y F_q$  – aylanma fondlarning yillik o'rtacha qoldiq qiymati (so'm).

Bu ko'rsatkich xo'jaliklardagi aylanma fondlarning bir yil davomida aylanish tezligini ko'rsatadi. Uning miqdori imkoniyat doirasida birdan yuqori bo'lgani ma'qul. Shu ko'rsatkichga asoslangan holda aylanma fondlarning aylanish muddati ham aniqlanadi.

Yuqoridagi ko'rsatkichdan foydalanib, yil davomida aylanma fondlar (vositalar) aylanishining o'rtacha davrini topamiz. Buning uchun bir yildagi kalendar kunlari umumiy soni (365 yoki 366)ni aylanish koeffitsientiga taqsimlab, quyidagi tenglikdan foydalaniladi:

$$T_{\text{ayl}} = \frac{365}{K_{\text{ayl}}}; \quad (10.10)$$

bunda:  $T_{\text{ayl}}$  – aylanma fondlarning aylanish muddati, kun.

**Fond bilan ta'minlanish** – qishloq xo'jaligi uchun tayinlangan ishlab chiqarish fondlari qiymatini qishloq xo'jaligida foydalanadigan (haydaladigan yerlar, ekinzorlar) har bir gektarga yoki 100 gektarga to'g'ri keladigan qiymatidir.

Fond bilan ta'minlanish ( $F_1$ ) quyidagicha aniqlanadi:

$$F_1 = \frac{F_{\text{ich,q}}}{S} \quad (10.11)$$

Bunda:  $F_{ich,q}$  — ishlab chiqarish fondlari qiymati;  
 $S$  — yer maydoni.

**Fond bilan qurollanish** — qishloq xo‘jaligi uchun tayinlangan ishlab chiqarish fondlar qiymatini qishloq xo‘jalik ishlarida ishtirok etgan o‘rtacha bir ishlovchi hisobiga to‘g‘ri keladigan qiymatdir.

$$F_{qur} = \frac{F_{ich,q}}{\bar{N}} \quad (10.12)$$

bunda:  $\bar{N}$  — o‘rtacha yillik ishchilar soni.

#### **10.4. Asosiy va aylanma vositalardan samarali foydalanish yo‘nalishlari**

Qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta‘minlash hamda xo‘jaliklarning iqtisodiy barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur miqdorlarda moddiy resurslarni shakllantirish uchun ulardan samarali foydalanish talab qilinadi. Respublika hukumatining qabul qilayotgan bir qator qarorlarida qishloq xo‘jaligining hamma tarmoqlarida ishlayotgan asosiy va aylanma fondlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish asosiy vazifa qilib qo‘yilgan. Qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan asosiy va aylanma fondlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini quyidagi yo‘llar bilan oshirish mumkin:

— ilg‘or texnikani qo‘llash, qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish, ixtisoslashtirish;

— qishloq xo‘jaligida ilmiy asoslangan xo‘jalik yuritish tizimini qo‘llash;

— xo‘jalikda mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish fondlaridan maqsadga muvofiq tejimli foydalanish;

— asosiy va aylanma fondlarni bir-biriga oqilona bog‘lash va ilg‘orlar tajribasini ishlab chiqarishga keng joriy etish.

Qishloq xo‘jaligida aylanma vositalardan foydalanish samaradorligi aylanma vositalarning qaytimi hamda aylanma vositalarning aylanuvchanligi ko‘rsatkichlari bilan aniqlanadi. Aylanma vositalarning aylanish tezligini oshirish masalasi xo‘jaliklarda muhim ahamiyatga ega. Chunki aylanma vositalarning aylanish tezligi oshgan sari qishloq xo‘jaligining aylanma vositalarga bo‘lgan talabi kamaya boradi va aksincha. Qishloq xo‘jaligida sanoat va boshqa tarmoqlarga nisbatan aylanma vositalar sekin aylanadi. Lekin qishloq xo‘jaligida ham aylanma vositalarning aylanish tezligini oshirish zaxiralari mavjud. Bu zaxiralar doiraviy

aylanishning hamma bosqichlarida ko'plab topiladi. Birinchi bosqichda tovarlar yetkazib beruvchilar bilan hisob ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, zarur bo'lgan moddiy resurslarning zaxiralarni tashkil etish, oshiqcha zaxiralarning faqat mavsumiy va vaqtinchalik xususiyatiga ega bo'lishini, oshiqcha, keraksiz va ko'p vaqtdan beri turgan zaxiralar bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kabi tadbirlar aylanma vositalarning aylanish tezligini oshiradi.

Doiraviy aylanishning ikkinchi bosqichida xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda yuqori texnologiyalarni qo'llash, yig'im-terim ishlarini qisqa muddatda o'tkazish, xo'jalikda yil bo'yi sabzavotlar yetishtirish uchun yopiq dehqonchilikni tashkil etish hamda chorva mollardan olinadigan mahsulotlarni qayta ishlash kabi tadbirlar aylanma vositalarning aylanish tezligini oshirish imkoniyatlarini beradi. Doiraviy aylanishning uchinchi bosqichida xaridorlar bilan bo'ladigan hisob-kitob muomalalarini to'g'ri yo'lga qo'yish, vujudga kelgan debitor qarzlarni muddatida tezroq uzish kabi tadbirlar aylanma vositalarning aylanish tezligini oshiradi.

Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan asosiy va aylanma vositalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etishga, sarf-xarajatlarni qisqartirishga va mahsulot tannarxini arzonlashuviga olib keladi hamda kelajakda respublikamiz agrar sohasining iqtisodiy samaradorligini yuksaltirishda fermer xo'jaliklarining intensiv rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi, raqobatbardosh mahsulot yetishtirish va jahon bozorida mavqeyini ko'tarishga yordam beradi.

#### ***Nazorat va muhokama uchun savollar:***

- 1. Qishloq xo'jaligi moddiy texnika bazasi va uning tarkibi qanday?*
- 2. Asosiy va aylanma vositalardan samarali foydalanish yo'nalishlari nimalardan iborat?*
- 3. Asosiy vositalar tarkibiga qanday vositalar kiradi?*
- 4. Aylanma vositalar nima?*
- 5. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi qanday?*
- 6. Innovatsiyaviy texnika, texnologiyalarni qishloq xo'jaligida qo'llashning samaradorligi nimadan iborat?*
- 7. Innovatsiyaviy boshqaruvni qishloq xo'jaligida qo'llashning samaradorligi nimadan iborat?*
- 8. Fond sig'imi qanday ko'rsatkich?*
- 9. Fond qaytimi nima?*
- 10. Amortizatsiya nima u qanday hisoblanadi?*



## **11-bob. QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALAR VA ULARNING IQTISODIY MOHIYATI**

---

### **11.1. Investitsiyalar haqida tushuncha, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati**

Investitsiyalar — bu kapitalni yanada ko‘paytirish maqsadida amalga oshiriladigan kapital qo‘yilmalari. Investitsiya atamasi lotincha «invest» so‘zidan olingan bo‘lib, «qo‘yilma» ma‘nosini bildiradi. Kapitalning ko‘payishi, investor mavjud mablag‘lar iste‘molidan voz kechganini kompensatsiyalashi, tavakkalchilik uchun mukofotlashi va ushbu davrdagi inflatsion yo‘qotishlarni qoplash uchun yetarli bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiyaviy faoliyat to‘g‘risida»gi Qonunida, «investitsiyalar» tushunchasi «iqtisodiyot yoki boshqa faoliyat obyektlariga kiritilayotgan moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga egalik qilish huquqi» deb izohlangan.

Investitsiyalar (kapital qo‘yilmalar) — bu iqtisodiyotning barcha sohaları kabi agrosanoat majmuasi sohalarini ham asosiy ishlab chiqarish vositalari yordamida rivojlantirishga, qayta ishlab chiqarishni kengaytirishga yo‘naltirilgan moddiy, mehnat va pul resurslari xarajati majmuidir. Investitsiya so‘zi bizning iqtisodiyotimiz uchun nisbatan yangi, bir qancha qamrovli makroiqtisodiy tushunchadir.

Moliyaviy ta‘rifi bo‘yicha investitsiyalar — bu foyda olish maqsadida xo‘jalik faoliyatiga qo‘yiladigan mablag‘larning barcha turlaridir: iqtisodiy ta‘rif bo‘yicha esa asosiy va aylanma kapitalni yaratish, kengaytirish, qayta tiklash va texnik qayta jihozlashga ketgan qo‘yilmalardir.

Ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan investitsiyalar deganda, yangi kapital, shu jumladan, ishlab chiqarish vositalari va intellektual salohiyat, qayta ishlab chiqarishni tashkil etish jarayoni tushuniladi.

Respublikamizda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, birinchi navbatda, agrosanoat majmuasiga, shuningdek, qishloq xo‘jaligi sohasiga ichki va xorijiy sarmoyalarni yo‘naltirishni talab etadi. Olib borilayotgan tashqi savdo, iqtisodiy, shu jumladan, investitsion siyosat va aloqalarda quyidagi yo‘nalishlar ustuvor va muhim ahamiyatga molik hisoblanadi:

– agrar sohada eksport salohiyatini rivojlantirish va yanada mustahkamlash, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish;

– respublika qishloq xo'jaligida eksport imkoniyatini kengaytirish, jahon bozorlariga kirib borish uchun, avvalo, qishloq xo'jaligi zaminida qimmatbaho xomashyoni qayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarni rivojlantirish. Xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda zamonaviy korxonalar barpo etish, ularni ilg'or texnologiyalar bilan ta'minlash asosida raqobatbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

– eksportni kengaytirishga qaratilgan strategiyani faol qo'llash bilan bir qatorda importning salmog'ini qisqartirish (sof eksport hajmini oshirish)ga qaratilgan siyosatni izchillik bilan amalga oshirish, ishlab chiqarish mumkin bo'lgan tovarlar va mahsulotlarning chetdan keltirilishiga barham berish;

– tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo'jalik ishlarini yurituvchi subyektlarga, xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o'rnatishda, o'z mahsulotlariga chet el bozorlarida sotish uchun ko'proq erkinlik berish, tovarlarni eksport va import qilishda imtiyozlar tizimini yanada kengaytirish borasida aniq, maqsadli siyosat olib borish;

– xorijiy sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga keng ko'lamda jalb etish uchun zarur huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar tizimini vujudga keltirish va tashqi iqtisodiy o'zgarishlarga mos holda muvofiqlashtirish;

– tashqi iqtisodiy faoliyat tarkibiy qismlari majmuasini – ixtisoslashtirilgan tashqi savdo, lizing, konsalting va sug'urta firmalarni, tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish manfaatlarini va sharoitlariga mos keladigan transport, aloqa va kommunikatsiya tizimlarini vujudga keltirish.

*Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori U.F. Shark (1990-y.) «investitsiyalash» atamasiga quyidagicha izoh beradi: «Ertaga daromad olish maqsadida, bugun pul sarflash», ya'ni investitsiyalarning mohiyati shundaki, ular kapital harakati jarayoniga jalb qilingan. Ushbu kapital harakati natijasida olingan daromad nafaqat investorning barcha xarajatlarini qoplashi, balki unga tavakkalchilik uchun mukofot olib kelishi ham lozim.*

Demak, investitsiyalar – bu kelajakda iloji boricha ko'p va samaraliroq foydalanish maqsadida «olib qo'yiladigan» boyliklardir.

Ularning bir qismini joriy davrda foydalanilmagan va zaxiraga olib qo'yilgan iste'mol mablag'lari (zaxiralarni ko'paytirish emas); ikkinchi qismini esa ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan resurslar (bino, inshoot, mashina va qurilmalarga qo'yilmalar) tashkil etadi.

Investitsiyalar turli xil belgilarga turkumlanadi: asosiy kapitalni ko'paytirish zaruriyati bilan bog'liq *sof* va asosiy fondlar eskirishini qoplash zaruriyati tufayli yuzaga kelgan *yalpi* investitsiyalar. Investitsiyalar yo'naltirilgan obyektiga qarab ham farqlanadi. Mulk, moliyaviy vositalar, nomoddiy boyliklar shunday obyektlar bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ta'sir yo'nalishi bo'yicha: almashtirish, kengaytirish, fondlar tarkibini yangilashga ajratish mumkin.

Maqsadlar va ular bilan bog'liq tavakkalchilik nuqtayi nazaridan investitsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- venchur (tavakkalchilikka xos);
- to'g'ridan to'g'ri;
- portfel;
- annuitet.

*Tavakkalchilikka xos investitsiyalar* yoki venchur kapitali deb, tavakkalchiligi yuqori bo'lgan kapital qo'yilmalarga aytiladi. Venchur kapitali – bu yuqori tavakkalchilik bilan bog'liq yangi faoliyat turlarida chiqariladigan yangi aksiyalarga investitsiya kiritishdir. Venchur kapitali, asosan, innovatsion va yangi texnologiyalar bilan bog'liq faoliyat turlarida uchraydi.

*To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar* – foyda olish va boshqaruvda ishtirok etish maqsadida, xo'jalik faoliyati yuritayotgan subyekt nizom kapitaliga qo'yiladigan qo'yilmalardir.

*Portfel investitsiyalar* – portfelni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, qimmatli qog'ozlar va boshqa aktivlar (jamg'arma va depozit sertifikatlari, sug'urta polislari va h.)ni sotib olishdan iboratdir.

*Annuitet* (nemischa annuitat – yillik to'lov) – investitsiya kirituvchi shaxsga bir xil vaqt oralig'ida muayyan daromad keltiradigan investitsiyalardir. Bunga, asosan, sug'urta va nafaqa jamg'armalariga mablag' qo'yishni misol tariqasida keltirish mumkin.

Tijorat amaliyotida investitsiyalarning quyidagi turlarini farqlash mumkin:

- moddiy aktivlarga kiritiladigan investitsiyalar;
- pul aktivlariga kiritiladigan investitsiyalar;
- nomoddiy (ko'rib bo'lmaydigan) aktivlarga kiritiladigan investitsiyalar.

Moddiy aktivlar deganda, ishlab chiqarish bino va inshootlar hamda xizmat muddati bir yildan ko'p bo'lgan mashina va uskunalar tushuniladi. Pul aktivlari deganda esa boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan pul olish huquqlari tushuniladi (depozitlar, opsiyon, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar). Nomoddiy aktivlarga, korxonalar tomonidan orttirilgan intellektual boylik, savdo belgilari, litsenziya va haq-huquqlar kiradi.



11.1-rasm. Investitsiyalarning turli belgilar bo'yicha turkumlanishi.

Tadbirkorlik faoliyati obyektlariga investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, investitsiyalarni tahlil qilish va rejalashtirishda, ularni 11.1-rasmida ko'rsatilgan belgilar bo'yicha turkumlashtirish muhim hisoblanadi.

Xalq xo'jaligi tarmoqlari qatori agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida investitsiyalarning o'rni benihoya kattadir.

Birinchidan, investitsiya umumiy xarajatlarning eng asosiy unsuridir. Investitsiyalardagi o'zgarish umumiy taklifga sezilarli darajada ta'sir qiladi, bu esa, o'z navbatida, milliy ishlab chiqarish hajmiga va aholi bandligiga ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, investitsiyalar agrosanoat majmuasi korxonalarining asosiy vositalarining yig'ilishiga olib keladi. Bunda ishlab chiqarish

quvvatlarini kengaytirishga qo'yilgan pul mablag'lari boshlang'ich bosqichda xo'jalik faoliyati natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi mumkin, lekin kelajakda iqtisodiy o'sish uchun kerakli manbani yaratadi.

Uchinchidan, investitsiyalardan oqilona foydalanmaslik ishlab chiqarish resurslarining «muzlab» qolishiga olib keladi, bu milliy ishlab chiqarish hajmining kamayishiga, oxiriga yetkazilmagan qurilish, moddiy resurslarning «o'lishi»ga, moddiy boyliklar bilan ta'minlanmagan ish haqini to'lashga, ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.


Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarning kiritilishini yo'lga qo'yish va u bosqichma-bosqich olib borilishi, investitsiyalarning o'sishi tarmoq ishlab chiqarishining samaradorligining oshishi, unda sarmoyadan olinadigan foydaning ko'payishi bilan bog'liq.

### **Agrosanoat majmuasi korxonalari va fermerlar foydalanishi mumkin bo'lgan investitsion resurslar manbalari**

Korxonalar moliyaviy resurslarining barcha manbalarini quyidagi ketma-ketlikda aks ettirish mumkin:

- o'z moliyaviy resurslari va ichki xo'jalik zaxiralari;
- qarz moliyaviy mablag'lari;
- aksiyalarni sotish, pay va boshqa turdagi badallardan olinadigan, jalb qilingan moliyaviy mablag'lar;
- korxonalar uyushmalari tomonidan markazlashtirilgan moliyaviy mablag'lar;
- nobudjet fondlari mablag'lari;


**O'z moliyaviy resurslari.** O'z moliyaviy resurslarining tuzilmasi 11.2-rasmda keltirilgan.



11.2-rasm. O'z moliyaviy mablag'lari tarkibi.


- davlat budjeti mablag'lari;
- chet el investorlari mablag'lari.

**Qarz moliyaviy mablag'lari.** Qarz moliyaviy mablag'larning tuzilmasi 11.3-rasmda keltirilgan.



11.3-rasm. Qarz moliyaviy mablag'larining tuzilmasi.

O'z va qarz moliyaviy mablag'lari o'rtasidagi asosiy farq shundaki, qarz moliyaviy mablag'lari asosida mablag'lar shakllantirilsa, foiz to'lovlari soliq to'lagunga qadar chegirib tashlanadi, ya'ni yalpi xarajatlarga kiritiladi, dividendlar esa foydadan to'lanadi.



11.4-rasm. Investitsiyalarning ichki manbalari.

### **Investitsiyalarning ichki manbalari.**

O'zbekistonda kapital qo'yimalarni moliyalashtirish ichki manbalar va chet el kredit liniyalarining resurslari hisobiga amalga oshiriladi. Investitsiyalarning ichki manbalari 11.4-rasmda keltirilgan.

### **Investitsiyalarning tashqi manbalari.**

O'zbekistonda chet el investitsiyalarini shakllantirish quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

– chet el kapitalining ulushli ishtiroki bilan qo‘shma korxonalar tuzish;

– to‘liq chet el investorlariga tegishli korxonalar, ularning shoxobchalari va vakolatxonalarini tuzish;

– chet el investori tomonidan korxonalar, bino, inshootlar qurish, korxonalardagi ishtirok ulushlari, aksiya va obligatsiyalarni sotib olish;

– yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqini va boshqa mulkchilik huquqlarini sotib olish;

– zayom, kredit, mulk va mulkchilik huquqlarini taqdim etish.

Iqtisodiyotda asosiy muammo chet el kapitalining samarali oqimini rag‘batlantirishdan iborat. Ushbu munosabat bilan qaysi sohalarga chet el investitsiyalari kirib kelishini chegaralash, qaysi sohalarga esa ularni birinchi navbatda jalb qilish kerak, degan savollarga aniq javob topish lozim.

Bevosita kirib kelgan chet el investitsiyalari, bu faqatgina iqtisodiyotga kiritilgan oddiy kapital qo‘yilma emas, balki o‘zbek korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini va texnik darajasini oshirishning birdan bir ishonchli yo‘li hamdir. O‘zbekistonga o‘z kapitalini joylashtirish orqali chet el kompaniyasi yangi texnologiyalar, ish faoliyatini tashkil etishning yangi uslublari va jahon bozoriga chiqish imkoniyatini ham olib keladi.

## 11.2. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotida kreditlash mexanizmi

*Kredit – bu qaytarish, to‘lovlilik, muddatlilik va foizlilik shartlarida moliya tashkilotlarining bo‘sh turgan pul mablag‘laridan foydalanish.*

Agrosanoat majmuasi sohasida faoliyat yurituvchi xo‘jaliklarni o‘z faoliyatlarini yurgizish uchun qaytarish va foiz to‘lash sharti bilan vaqtincha foydalanishda pul va moddiy vositalarni berish chog‘ida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui kredit munosabatlarini vujudga keltiradi.

Bu munosabatlar qarz beruvchi va qarzdor o‘rtasida amalga oshadi.

Qarz beruvchi – qarzga mablag‘ beruvchi huquqiy shaxs, qarzdor – qarz olgan huquqiy shaxs. Hozirgi kunda kredit pul ko‘rinishida keng tarqalgan. U vaqtincha bo‘sh qolgan korxonalar, tashkilotlar, aholi, moliya tizimi mablag‘larining maxsus qarz beruvchi tashkilotlar (bank-

lar) orqali qayta taqsimlash va jamg'arilishiga asoslanadi. Shunday qilib, to'planib qolgan mablag'lar bilan bunga zarurat sezgan korxonalar, birlashma, xo'jalik subyektlari, aholi, mamlakatning ma'lum joylarida beriladi. Bankdan olinuvchi kredit bilan birga korxonalar ichidagi, iste'mol, tabiiy, xalqaro va boshqa kredit shakllari ham mavjud. Iqtisodiyot taraqqiyotining hozirgi davri, to'la xo'jalik hisobi, o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlashga asoslanadi. Bozor iqtisodiyotida o'zini o'zi qoplashga o'tish sharoitida kredit tizimining ahamiyati oshib bormoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda kredit juda ham katta ahamiyatga ega. U butun iqtisodiyot tizimi oldida turgan muammolarni hal qiladi. Kredit yordamida pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojni (bunday mablag'lar vaqtinchalik bo'shagan joylardan olish orqali) qondirish mumkin. Kreditlash tizimi bo'sh kapitalni yig'adi va shu bilan birga, kapital kirib kelishiga xizmat ko'rsatgan holda, qayta ishlab chiqarish jarayonini ta'minlaydi. Shuningdek, kredit pul muomalasini tezlashtiradi, bir qator munosabatlarning (sug'urta, investitsiyaviy va h.) bajarilishini ta'minlaydi hamda bozor munosabatlarini tartibga solishda katta rol o'ynaydi.

Respublika agrosanoat majmuasida iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda qishloq xo'jaligini moliyalashtirish, kreditlash va to'lov mexanizmlarini to'g'ri yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Respublika hukumati qishloq xo'jaligi korxonalarini va fermer xo'jaliklarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha bir qator tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

### **Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida kreditlash mexanizmi**

Bugungi kunda respublikamizda qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatishi va qo'shimcha moliyaviy mablag' bilan ta'minlashda kreditlash mexanizmi muhim ahamiyatga ega.

Xo'jalikni kreditlash, asosan:

— davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari paxta va g'alla yetishtirish bo'yicha hisob-kitoblar uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi maxsus jamg'arima hisobidan;

— suv ta'minoti, o'simliklar kasalligi, hasharot va zararkunandalarga qarshi kurashish, chorva mollarini davolash va yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish masalalari Respublika budjeti hisobidan;



– xo‘jaliklarni ishlab chiqarish-moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan asosiy ishlab chiqarish vositalari, texnika vositalari va aylanma mablag‘larni sotib olish uchun tijorat banklarining o‘z mablag‘i va budjetdan tashqari jamg‘armalar hisobidan;

– turli tadbirlar yoki maqsadlar uchun mamlakatamiz, shuningdek, chet el tashkilotlari ajratadigan mablag‘lar va grantlar hisobidan;

– qishloq xo‘jaligi texnika vositalarini lizing asosida xarid qilinishi uchun lizing kompaniyasi tomonidan ajratiladigan mablag‘lar;

– hamkorlikda korxonalar va tashkilotlarning maqsadli zayom, kredit yoki bo‘nak mablag‘lari hisobidan;

– xo‘jalik subyektlari a‘zo bo‘lgan kredit uyushmalari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar xo‘jaliklarning shaxsiy mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Xo‘jaliklarni tijorat banklari orqali kreditlash yo‘li bugungi kunda respublikamizda katta o‘rinni egallaydi. Qishloq xo‘jaligini kreditlash, asosan: «Agrobank», «Mikrokreditbank», «Turonbank», «Savdogarbank», «Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki», «Asaka bank», «Ipoteka banki», «O‘zsanoatqurilish banki» va shunga o‘xshash 30 dan ortiq boshqa turli tijorat banklari orqali amalga oshiriladi.

Fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi kredit liniyalari tomonidan yo‘naltirilgan investitsiyaviy loyihalar turlari:

– dehqon va fermer xo‘jaliklarining o‘z ishlab chiqarishini rivojlantirish va kengaytirish, shu jumladan:

– qishloq xo‘jaligi texnikasini sotib olish;

– fermerlik inshootlarini qurish;

– chorva mollari, yosh chorva mollari, parranda, yem-xashak va omuxta yem, veterinariya dori-darmonlari, o‘simliklar, o‘simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari, mineral o‘g‘it, urug‘lik, ko‘chatlar sotib olish;

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash;

– qishloq joylarida eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan ishlab chiqarishlarni ustuvor ravishda tashkil qilishdan iborat.

Fermer xo‘jaliklari jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan imtiyozli kredit olishlari uchun quyidagi hujjatlar to‘plamini topshirishlari lozim:

– respublika fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi kredit liniyasidan imtiyozli kredit olish haqida ariza;

– biznes-reja;

– davlat soliq xizmatining joylardagi mahalliy tashkiloti tomonidan tasdiqlangan so‘nggi hisobot davri bo‘yicha (shakl I) buxgalterlik balansi hisoboti;

- debitor va kreditorlik qarzlari haqida (shakl 2 a) ma'lumotnoma;
- moliyaviy yakunlar haqida (shakl 2) hisobot.

Shuningdek, fermer bankka kreditning qaytarilishini ta'minlovchi quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- mulkni garovga qo'yish;
- bank yoki sug'urta tashkilotining kafolat xati;
- qarz oluvchiga nisbatan uchinchi shaxsni notarial idorasi tomonidan tasdiqlangan kafolat xati;
- sug'urta kompaniyasining qarz oluvchi tomonidan qarzni to'lay olmaslik xavfini sug'urtalash haqidagi sug'urta polisi;
- mahalla, qishloq, ovul yig'ini tomonidan berilgan kafolat xati.

Taqdim etilgan bu hujjatlar Nizom bo'yicha belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishi, ya'ni:

- o'zining tizimidagi bo'limlari va tijorat bo'limlari bo'lmagan, shuningdek, xususiy banklar uchun 10 ish kuni;
- respublika bosh banklari uchun ariza berilgan kundan e'tiboran 20 ish kuni belgilangan.

### 11.3. Qishloq xo'jaligida lizing va undan foydalanish asoslari

*Lizing* — ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mashina, uskuna, qurilma va inshootlarning uzoq muddatli ijarasidir.



Uskunalarga ega bo'lishning ikkita usuli mavjud — uni xarid qilish va lizing.

Lizing xizmatini tashkil etish va uni takomillashtirish agrosanoat tizimida faoliyat yurituvchi korxonalarda, agrar tarmoq moddiy-texnika tizimida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mavjud moliyaviy

qiyinchiliklarni bartaraf etish va ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiya bilan ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Mamlakatimizda lizing xizmatining rivojlanishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 28-avgustdagi «Lizing faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni asosiy turtki bo'lib xizmat qildi. Shuning uchun ham, hozirgi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bosqichida lizingga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Lizing bo'yicha qarz bir necha yil davomida ketma-ket to'lanib boriladi. Lizing o'z ustunliklariga ega bo'lib, ulardan eng asosiysi qimmat uskunani xarid qilish uchun katta mablag'ga ega bo'lish shart emas. Ushbu bosqichdagi barcha xarajatlarni lizing kompaniyasi qoplaydi.

Lizingni tor ma'noda bank operatsiyasi deb aytib bo'lmaydi. U moliyalashtirishning bank shakliga juda yaqin bo'lib, savdo-sanoat korxonalarini tomonidan qo'shimcha operatsiya sifatida amalga oshirilishi mumkin. Ammo lizing bilan birinchi navbatda maxsus tuzilgan lizing kompaniyalari shug'ullanadi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida lizing operatsiyalarini amalga oshirishda «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyasi (lizing beruvchi), MTP viloyat birlashmalari, muqobil MTPlari, fermer xo'jaliklari (lizingga oluvchilar), qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodlari va qo'shma korxonalarini (texnika vositalarini ishlab chiqaruvchilar) bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashni Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, «Agrobank» va «O'zagrosug'urta» kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda agrar sohani rivojlantirish maqsadida lizing operatsiyasiga yo'naltirilgan mablag'larni o'zlashtirishda lizing operatsiyalarining 95,1 foizi qishloq xo'jaligi texnikalarini olishga to'g'ri kelmoqda.

### **Lizing operatsiyalari subyektlarining vazifalari**

Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida agrosanoat majmuasida lizing operatsiyalarining amalga oshirilishida faol ishtirok etuvchi mazkur subyektlarning har biriga lizing operatsiyalari mohiyatidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar yuklatilgan:

Lizing kompaniyasiga:

– Respublikada qishloq xo‘jaligi texnikasi lizingi siyosatini olib borish va uni takomillashtirish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish;

– o‘zining mintaqaviy shoxobchalari orqali lizing oluvchilar (mashina-traktor parklari hududiy birlashmasi, muqobil mashina-traktor parki, fermer xo‘jaligi bilan o‘rnatilgan tartibda moliyaviy lizing shartnomalarini tuzish;

– jamg‘arma mablag‘lariga bo‘lgan o‘z ehtiyojini aniqlash;

– jamg‘arma bilan moliyaviy resurslar ajratish, «Agrobank» bilan moliya agenti tamoyillarini va «O‘zagrosug‘urta» kompaniyasi bilan sug‘urta agenti tamoyillarini bajarish yuzasidan tegishli shartnomalarni tuzish;

– jamg‘armaning kafolat xatlari asosida zarur texnika vositalarini ishlab chiqarish yuzasidan mashinasozlik korxonalariga buyurtmalar berish va ularni yetkazib berishga doir shartnomalarni tuzish;

– lizing oluvchilar tomonidan lizing to‘lovlarining o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilish;

– «Agrobank» dagi operatsiya hisob raqamidan mashinasozlik korxonasiga navbatida chorak uchun joylashtirilgan buyurtma umumiy hajmining 30 foizi miqdorida avans pulini to‘lash;

– lizing oluvchiga texnikani sug‘urta polisi mavjud bo‘lgandagina berish;

– texnika vositasini lizing oluvchi tomonidan qabul qilinib olingandan keyin mashinasozlik korxonasiga qolgan 70 foiz mablag‘ni o‘tkazish (uzil-kesil hisob-kitob qilish);

– lizing oluvchilardan olingan summaning qolgan qismini 3 kun muddatda jamg‘armaning bankdagi hisob raqamiga o‘tkazish;

– jamg‘arma mablag‘larida maqsadli foydalanish va hisob-kitoblar tartibiga qat‘iy rioya qilish.

Jamg‘armaga:

– ishlab chiqariladigan texnikaga haq to‘lash uchun zarur bo‘lgan resurslarni shakllantirish va ularning manbalarini (Markaziy bank, Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg‘armasi, «Agrobank», qishloq xo‘jaligi mashinasozligi korxonalarini va homiylarning mablag‘lari, yagona yer solig‘idan ajratmalar va boshqalar) aniqlash;

– lizing kompaniyasiga ajratilgan moliyaviy resurslar hajmi uchun kafolat xatlarini berish;

– o‘z mablag‘larini lizing kompaniyasiga 7 yil muddatga imtiyozli foizlarga ssuda sifatida taqdim etish va unga mablag‘larni qarzga berib turish;

– lizing kompaniyasining «Agrobank»dagi operatsiya hisob raqamiga zarur mablag'larini o'tkazish;

– markaziy bankdan olingan imtiyozli kreditlarni belgilangan muddatlarda «Agrobank» (lizing kompaniyasining moliyaviy agenti)ga qaytarish;

– lizing kompaniyasining barcha hisob-kitoblariga moliyaviy xizmat ko'rsatish;

– lizing oluvchilar bilan tuzilgan lizing shartnomalari va mashinasozlik korxonalarini bilan texnika vositalarini yetkazib berishga doir tuzilgan shartnomalar bo'yicha belgilangan to'lovlar va moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish;

– lizing oluvchilar tomonidan lizing to'lovlari oldindan tuzilgan jadval asosida amalga oshirilmaganda uning hisob raqamiga so'zsiz bajarilishi lozim bo'lgan to'lov talablarini qo'yish va undirilgan pul mablag'larini lizing kompaniyasi operatsiya hisob raqamiga o'tkazish.

Lizing oluvchilarga:

– lizing bo'yicha yetkazib beriladigan texnika vositalariga bo'lgan o'z ehtiyojlarini aniqlash va ular asosida tuzilgan buyurtmalarni lizing kompaniyasining mintaqaviy shoxobchalariga topshirish;

– o'rnatilgan tartib asosida lizingga olinadigan texnika bo'yicha hujjatlarni tayyorlash va lizing kompaniyasining mintaqaviy shoxobchalariga topshirish;

– texnika vositasi qiymatining 15 foizini o'z mablag'lari hisobidan avans tariqasida to'lash;

– lizingga olinadigan texnikani o'z mablag'lari hisobidan sug'urtalash;

– texnika qiymatining qolgan 85 foizini va lizing bo'yicha foizlarni 7 yil mobaynida to'lash yuzasidan moliyaviy lizing shartnomalarini tuzish;

– jadvalda belgilab qo'yilgan lizing to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish;

– lizingga olingan mashina va mexanizmlarni texnik talablarga rioya qilgan holda ishlatish hamda ularni buzilishidan va talon-taroj bo'lishidan saqlash.

Bulardan tashqari, maxsus jamg'arma uchun 7 yilga mo'ljallangan imtiyozli kreditlarni ajratishni markaziy bankka, texnik jihatdan puxta va pishiq mashinalarni ishlab chiqarish va ularni lizing oluvchilarga yetkazib berishni mashinasozlik korxonalariga, lizingga olinayotgan texnikani sug'urtalash «O'zagrosug'urta» kompaniyasiga yuklatilgan vazifalardir.

## **Fermer xo'jaliklari uchun lizingning ustunliklari**

Uskunalarga ega bo'lishning boshqa turlariga nisbatan (to'lovni kechiktirib amalga oshirish, bank krediti va h.) lizing bir qator muhim ustunliklarga ega:

1. Lizingda, to'g'ridan to'g'ri xarid qilishdan farqli ravishda, uskuna sotib olish uchun katta miqdordagi aylanma mablag'larini ishlab chiqarishdan ajratgan holda jalb etish talab qilinmaydi. Uskunadan foydalanish uchun lizing to'lovlari vaqt bo'yicha, taxminan uskuna qoplanishi muddatiga teng bo'lgan, muddatga (lizing shartnomasi muddati) cho'ziladi. Uskunadan foydalanish uchun to'lovlar undan foydalanish muddatiga muvofiq bo'ladi va korxonada daromad olishidan boshlab to'lanadi. Lizing muddatlari, odatda, uskuna qoplanishi muddatiga teng bo'ladi.

2. Lizingga qarzni to'lash grafigini tuzish borasida katta egiluvchanlik xosdir. Uskunani ekspluatatsiyaga tushirishga qadar korxonada hech qanday to'lovlarni amalga oshirmaydi, shuningdek, lizing to'lovlari grafigida to'liq quvvatga o'tish sur'atlari va ishlab chiqarishning mavsumiyligini ham aks ettirish mumkin.

3. Lizingda uskuna, tomonlarning kelishuviga ko'ra, lizing kompaniyasi yoki lizing oluvchi balansida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi mumkin. Bu lizing oluvchiga o'z faoliyati tuzilmasini shakllantirishda ko'proq imkoniyat beradi.

4. Lizingga beriladigan uskunalarga nisbatan tezlashtirilgan («3» koeffitsientgacha) amortizatsiyani qo'llash imkoniyati. Bu soliqqa tortish maqsadida uskuna qiymatini uch marotaba tezroq xarajatlarga chiqarib tashlash va mulk solig'ini uch marta kamaytirish, mulkdan foydalanish rentabelligini oshirish yoki lizing shartnomasi muddati tugagandan so'ng lizing obyektini bozor bahosida sotib daromad olish imkonini beradi.

5. Lizing bitimini moliyalashtirish uchun kredit resurslarini izlash lizing kompaniyasi zimmasiga yuklatiladi.

6. Investitsiyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda mijozga texnik yordam ko'rsatish.

7. Lizing objekti asosiy ta'minot sifatida xizmat qiladi. Lizing obyektining likvidligi yetarlicha bo'lmagan va lizing bitimi yetarlicha ta'minlanmagan bo'lsa, lizing kompaniyasi qo'shimcha ta'minot talab qilishi mumkin.

8. Pul mablag‘lari chiquvchi oqimning kamayishi. Uskunani xarid qilish bilan bog‘liq barcha xarajatlar to‘la hajmda tannarxga kiritiladi. Bu sohqqa tortiladigan bazani ancha kamaytiradi va aylanma vositalarni saqlab qoladi.

9. Lizing korxonaga bir martalik kichik xarajatlar bilan zamonaviy uskuna va texnikalarni yetarlicha hajmda olish imkoniyatini beradi. Sir emaski, o‘z ishlab chiqarishini zamonaviy uskunalar bilan jihozlash istagida bo‘lgan ko‘pgina o‘zbek korxonalari uni xarid qilish uchun mablag‘lar yetishmasligi muammosiga duch keladilar, yuqori texnologik uskunalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar esa o‘z mahsulotini sotish borasida qiyinchilik sezadilar. Moliyaviy vositachi sifatida xizmat qiluvchi lizing kompaniyasi turli xildagi uskunalar xaridori va yetkazib beruvchilarga samarali faoliyat yuritish imkonini yaratadi. Bunda ishlab chiqarishga jalb etilgan mablag‘larni jamlash zaruriyati umuman paydo bo‘lmaydi.

10. Lizing o‘z va qarz kapitalining optimal nisbatiga erishish imkonini beradi.

11. Lizing korxonaga, vaqt oralig‘i mobaynida o‘z pul oqimlarini aniq rejalashtirish imkoniyatini yaratadi.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar:***

- 1. Investitsiyalar nima?*
- 2. Turli xil belgilar bo‘yicha investitsiyalarning turkumlanishi qanday?*
- 3. Investitsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbalari nimalardan iborat?*
- 4. Investitsiyaviy faoliyatning obyekt va subyektlari qanday tavsiflanadi?*
- 5. Kreditning mohiyati nimada?*
- 6. Kreditning asosiy shakllari qanday?*
- 7. Kredit tizimi va kredit munosabatlariga qanday ta‘rif berasiz?*
- 8. Kreditning iqtisodiyotdagi funksiyalari nimalardan iborat?*
- 9. Kreditlashning asosiy tamoyillari qanday?*
- 10. Kredit tizimining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?*
- 11. Lizing nima?*
- 12. Lizing operatsiyalarining turlari qanday?*

**12-bob. DEHQONCHILIK TARMOQLARI  
IQTISODIYOTI VA BOSHQARUVI**

**12.1. Dehqonchilikning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati  
va uni o'rganish xususiyatlari**

Dehqonchilik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Uning mahsulotlari insonlar uchun oziq-ovqat, chorvachilikda yem-xashak, sanoatda xomashyo sifatida foydalaniladi.

Dehqonchilik mahsulotlari jahon xalqlarining eng yirik tabiiy va iqtisodiy boyligidir. Jahon olimlari tomonidan yer yuzida 500 mingga yaqin o'simliklarning mavjudligi aniqlangan. O'simliklarning 23 ming turidan jahon xalqlari turli xil maqsadlar uchun foydalanadilar. Ularning 6 ming yoki 26,1 foizi madaniy ekinlar guruhiga kiradi, shu jumladan, 400 turi yoki 6,6 foizi O'zbekistonda uchraydi. O'simliklardan 120 turi yoki 30 foizi ochiq va yopiq maydonlarda rivojlantiriladi. Bu mahsulotlardan aholi iste'molida oziq-ovqat, chorvachilikda yem-xashak, sanoatda tabiiy xomashyo sifatida foydalaniladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishida amalga oshirilgan keng miqyosli iqtisodiy islohotlar dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida tub o'zgarishlarga olib keldi. Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishning o'zbek xalqining mentalitetiga mos va jahonning ilg'or tajribasiga asoslangan xo'jalik yuritish shakllari — dehqon va fermer xo'jaliklari tashkil etildi. Mahkamaviy boshqaruv tizimi bartaraf etilib, uning o'rniga bozor usullari tatbiq etila boshlandi. Bu esa, o'z navbatida, qayta ishlovchi tarmoqlarni dehqonchilik mahsulotlari xomashyosi aholini esa dehqonchilik mahsulotlari bilan to'la ta'minlashga asos yaratdi. Shuningdek, dehqonchilik mahsulotlari eksporti borasida ham yetakchi sohalardan biriga aylandi. Eng asosiysi, qisqa muddatda mamlakatda dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda katta yutuqlarga erishildi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda inson salomatligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan moyli ekinlarga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgardi. Ya'ni, paxta yakka hokimligi sharoitida ilgari mamlakatimizda yetishtirilmagan yoki yetarli e'tibor berilmagan



kungaboqar, zaytun, masxar, soya kabi moyli ekinlar maydonlari sezilarli darajada ko'paydi. Ushbu ekinlarni qayta ishlovchi maxsus ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi. Istiqloq yillarida don mahsulotlarini yetishtirish – 5,3 baravar, kartoshka – 2,1 baravar, sabzavot, meva, uzum – 1,2 baravar ko'paydi. Hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan agrar siyosat natijasida don mahsulotlari importi 2,5 baravarga qisqardi, aholi jon boshiga don ishlab chiqarish esa o'rtacha 1,9 baravarga oshdi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishida sohaning barqaror rivojlanishi uchun davlat tomonidan katta ko'mak berib kelinmoqda. Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi o'z ichiga quyidagi asosiy yo'nalishlarni oladi:

- dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishini rivojlantirishda yakkatartibdagi ishlab chiqaruvchilar ahamiyatini kuchaytirish;

- dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning huquq va majburiyatlarini himoya qilish;

- dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi dehqon va fermer xo'jaliklariga samarali faoliyat olib borishlari uchun amaliy yordam berish;

- dehqonchilik tarmog'idagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy asoslarini mustahkamlashni qo'llab-quvvatlash;

- dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning turmush darajasini oshirish va iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylantirish;

- iste'mol bozorlarini dehqonchilik mahsulotlari bilan to'ldirish va ulgurji savdo tizimini yanada rivojlantirish;

- dehqonchilik mahsulotlari eksportini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Jahonda iqtisodiy va oziq-ovqat inqirozi tobora chuqurlashayotgan bir davrda mamlakatimizda dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishining barqarorligini ta'minlash, mamlakatimiz aholisi turmush darajasining oshishiga, tibbiy me'yorlar darajasida dehqonchilik mahsulotlari iste'moli darajasiga erishishga, sanoatni dehqonchilik mahsulotlari xomashyosi bilan ta'minlashga olib keladi.

## **12.2. Dehqonchilikning asosiy tarmoqlari va ularning xususiyatlari**

Bozor iqtisodiyoti qonunlari mexanizmlari va kategoriyalari talablari hamda madaniy qishloq xo'jaligi ekinlarining botanik, agrotexnik va boshqa xususiyatlari hisobga olinib, ular quyidagi

turkumlar bo'yicha hisob-kitob qilinadi va rivojlanish natijalari baholanadi:

- boshqoli va dukkakli don ekinlari mahsulotlari;
- texnika ekinlari mahsulotlari;
- kartoshka ekini mahsulotlari;
- sabzavot ekinlari mahsulotlari;
- poliz ekinlari mahsulotlari;
- ozuqa ekinlari mahsulotlari;
- mevali dov-daraxtlar mahsulotlari;
- tokzorlar mahsulotlari;
- tut daraxtlari mahsulotlari;
- gulzorlar mahsulotlari;
- ixota daraxtlar va o'rmonzorlar mahsulotlari;
- tabiiy pichanzorlar va yaylovlar mahsulotlari va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan madaniy ekinlar, o'z navbatida, kichik guruhlarga bo'linadi. Masalan, don ekinlari oziq-ovqatga, yem-xashakka va boshqa maqsadlarga foydalanilishi bo'yicha, texnika ekinlari – tola, shakar, yog' beruvchi va boshqa turlarga bo'linib hisob-kitob qilinadi, oxirgi natijalari baholanadi.

### **12.3. Dehqonchilik tarmoqlari ishlab chiqarishi va agrotexnik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi**

Dehqonchilikda agrotexnik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi dehqonchilik tarmoqlari ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Dehqonchilik tarmoqlari ishlab chiqarishida agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida majmuaviy qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Dehqonchilik tarmoqlari ishlab chiqarishida yerlarni sifatli haydash, ular meliorativ holatini yaxshilash va tuproq unumdorligini oshirish va suv ta'minotini to'g'ri tashkil etish kerak. Dehqonchilik barqarorligini ta'minlovchi eng muhim omillardan biri yerlarni kuzgi shudgorlashdir. Kuzgi shudgorlashning sifatli o'tkazilishi nafaqat resurslarni tejash (yer va suvdan oqilona foydalanish hisobiga), balki sug'oriladigan maydonlar mahsuldorligini oshirish imkoniyatini ham yaratadi. Shudgorlash sifatli bo'lishi uchun avval haydaladigan maydon yaxshilab tayyorlanishi lozim. Buning uchun, avvalo, dalalar o'simliklar qoldiqlaridan dalani uzunasi va ko'ndalangiga 15–20 sm chuqurlikda chizellash yordamida tozalanishi lozim.

Shudgorlash davomida haydov traktorining yurishi bois dalada yuzaga keladigan past-balandliklarni kamroq bo'lishligi uchun dalani avval teng bo'laklarga bo'lib, keyin haydovni amalga oshirgan ma'qul. Shunday qilinganda dala bir tekisda haydaladi, kelgusida sug'orish suvi to'planib qoladigan chuqurliklar va yurmaydigan balandliklar bo'lishining oldi olinadi va suvdan samarali foydalanishga zamin yaratiladi. Yerlarni kuzgi shudgorlash oktabrning ikkinchi yarmi va noyabrning boshlarida boshlanib, yer muzlaydigan davrgacha tugallanishi lozim. Shudgor chuqurligi unumdor och bo'z tuproqli dalalarda 35–40 sm, o'tloq tuproqli yerlarda 30–35 sm bo'lishi kerak. Dastlabki yarim metr chuqurlikda gipsli qatlamlar joylashgan yerlarda shudgorning chuqurligi 25–30 santimetrdan oshmasligi lozim. Bunday dalalarda shudgorlash bilan yerlarni 40–45 sm chuqurlikkacha ag'darmasdan yumshatish yuqori samara beradi. Dalalardan muntazam yuqori hosil olishga imkoniyat yaratuvchi omillardan biri – «tuproq unumdorligini oshirish» uchun yerlarni shudgorlashdan oldin yerga mahalliy o'g'itlar solishdir. Tuproqqa solinadigan organik o'g'itlar tuproqdagi mikroorganizmlar faoliyati natijasida o'simlik uchun kerakli bo'lgan N, P, K, Ca va boshqa elementlarning mineral birikmalari va chirindi moddalarni ko'paytiradi. Organik o'g'itlar solinganda tuproqning fizik-kimyoviy va kimyoviy xossalari, suv va havo rejimlari yaxshilanadi, tuproqdagi foydali mikroorganizmlar (azot hosil qiluvchi bakteriyalar va boshqalar) faoliyati faollashadi. Organik o'g'itlar sifatida turli hayvonlar va parrandalar go'nglari, ko'k o'g'itlar, maishiy oqova suvlar cho'kindilari, somon va boshqalar ishlatiladi.

Organik o'g'itlar tarkibidagi ozuqa moddalarning miqdori (quruq moddaning foizi hisobida).

O'g'it	N	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	K <sub>2</sub> O	CaO
Hayvon go'ngi	0,5	0,25	0,6	0,35
Tovuq go'ngi	4,0–6,0	3,5–5,0	2,5–3,5	–
Somon	0,3–0,8	0,2–0,4	0,8–1,5	0,2–0,4

Yetarli darajada organik o'g'it (odatda, 15–60 tonna/ga) solib ishlov berilgan maydonlarda ekinlar hosildorligi ortadi, bu miqdor g'allada kamida 6–8, sabzavotlarda 60–100, kartoshkada 50–60 sentnerni tashkil qiladi.

Organik o'g'itlar yetarli bo'lmagan sharoitlarda ko'k o'g'itlardan ham foydalanish mumkin.

Ko'k o'g'itlarni ishlatish asosida tuproq unumdorligini oshirish Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy hududida qariyb 3 ming yillardan beri ma'lum. Sideratlar ishlatilganda tuproqning fizik, fizik-kimyoviy xususiyatlari yaxshilanadi, uning yutuvchanlik qobiliyati va namlik sig'imi oshadi, tuproqdagi mikrofloraning faolligi ortadi, haydov qatlami tarkibida organik moddalar miqdori ko'payadi, o'simlik qoldiqlari minerallasgandan so'ng tuproq tarkibidagi azot miqdori ko'payadi. Bularning barchasi tuproq unumdorligi va ekinlar hosildorligining oshishiga olib keladi.

O'zbekiston sharoitida sideratlarning turlari avvaldan ko'p tarqalgandir. Kuz oxirlarigacha yaxshigina rivojlangan sideratlar tuproqqa qo'shib haydab yuborilgan. So'nggi yillarda bug'doydan bo'shagan va kuzgi ekinlar hosili yig'ib olingan dalalarga javdar, raps kabi oraliq ekinlarni ekish ancha keng tarqalmoqda.

Mazkur oraliq ekinlar kech kuz yoki bahorda tuproq bilan birga haydab yuboriladi va ular ko'k o'g'it sifatida yer unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Sideratlar qo'llanilgan maydonlarda kuzgi bug'doy hosildorligining 6—8 sentnergacha oshishi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tasdiqlangan.

Oraliq ekin sifatida xantal ekilgan dalalarda keyingi yilda paxta hosildorligi 2,8, shabdor va xantal aralashtirib ekilgan dalalarda 4,5 s/ga gacha oshgan. Ekin maydonlaridan yuqori hosil olishga zamin yaratuvchi tadbirlar orasida irrigatsiya va melioratsiya yo'nalishidagi tadbirlar muhim ahamiyatga egadir.

Sug'oriladigan maydonlarda olib boriladigan meliorativ tadbirlarni to'g'ri tanlay va amalga oshirish uchun ekin dalasining joriy meliorativ holatini aniq bilish o'ta muhimdir. Meliorativ holatni belgilovchi omillardan biri — yerlarning sho'rlanganlik darajasini aniqlash tadbirlarni to'g'ri belgilashga imkoniyat yaratadi. Yerning sho'rlanganlik darajasini aniqlash uchun tuproqning faol qatlamidan burg'u yordamida tuproq namunalari olinib kimyoviy tahlil qilinadi. Bunday ishlar, odatda, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari tarkibidagi gidrogeologik-meliorativ ekspeditsiyalar tomonidan amalga oshiriladi. O'z dalasining holatini aniq bilishni istagan har bir fermer ushbu ekspeditsiyalar bilan hamkorlik asosida ish olib borishi yaxshi natijalarni beradi.

Meliorativ holati to'g'ri aniqlanib, sho'r yuvish va yerlarni tekislash kabi tadbirlar to'g'ri tanlangan maydonlarda sho'r yuvishga ishlatiladigan suvlar miqdori aniq belgilanishi va qimmatbaho suv resurslaridan

oqilona foydalanishga imkon yaratiladi. Natijada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarning (yer osti suvlari sathining keragidan ortiq ko'tarilib ketishi kabi) oldi olinadi va kelgusi yil hosiliga mustahkam zamin yaratiladi.

#### 12.4. Donchilik iqtisodiyoti va boshqaruvi

Donchilik dehqonchilikning yetakchi tarmog'i hisoblanadi va alohida xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega. O'zbekiston aholisi iste'mol etadigan oziq-ovqatlarning tarkibida katta kalloriya hamda oqsil hisobida olingan don mahsulotlarining hissasi 50-60 foizni tashkil etadi. Respublikada aholi jon boshiga non, un mahsulotlari, guruch, mosh, no'xat, loviya va boshqa don mahsulotlari tibbiy me'yorlarga nisbatan ko'proq iste'mol qilinadi. Ozuqabop donlardan chorvador olimlar tomonidan aniqlangan me'yorlarda oziqlantirish zotli chorva mollari potensial mahsuldorligi imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishga sharoit yaratadi. Don oziq-ovqat sanoati uchun xomashyo hisoblanadi va uning rivojlanish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



*Respublikada sifatli don yetishtirish davlat tomonidan rag'batlantiriladi. Yumshoq bug'doy doni 1-sinfga qabul qilinsa, uning xarid narxi 5-sinf donining xarid narxiga nisbatan 98 %, 4-sinfga nisbatan 55 %, 3-sinfga nisbatan 34 % sifat uchun ustama haq to'lanadi. Sababi, yuqori sifatli bug'doyning 100 kg unidan 115 kg non, sifati pastroq bug'doynikidan 91 kg non olinadi. Sifatli bug'doy unidan 20–25 % sifati pastroq bug'doy uniga qo'shilsa, sifati pastroq bug'doy uni ham non yopishga yaroqli bo'ladi. Shuning uchun yuqori sifatli bug'doy doniga jahon bozorida talab katta.*

Donchilikning qo'shimcha mahsulotlari (somon, poxol, poya va h.k.)dan chorva ozuqasi, to'shama, organik o'g'it, qog'oz va boshqa sanoat tarmoqlarida xomashyo sifatida foydalanish ham yuqori iqtisodiy samara beradi. Donchilikning asosiy va qo'shimcha mahsulotlarini ko'paytirish va sotishni tashkil etish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda aholini arzon oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlash uchun qulay sharoit yaratadi. O'zbekiston tabiiy iqlim sharoitida kuzgi g'alla ekilgan maydonlarda ikkinchi ekin sifatida chorva ozuqasi, kartoshka va sabzavotlar yetishtirib mahsulotlar olish mumkin.

Donchilikni intensiv rivojlantirish yer, suv va boshqa resurslar potensialidan samarali foydalanishga sharoit yaratadi. Tarixiy davrlarda O'zbekistonda donchilikning rivojlanish darajasi bozor iqtisodiyoti hamda mustaqil rivojlanish talablariga to'la javob bermagan.

O'zbekistonda 15–20 turdagi madaniy g'alla ekinlari 2,5–3 ming yillardan buyon ekiladi. Mustaqillik davrlarigacha jami qishloq xo'jaligi ekinlarining 70 foizi don ekinlari bo'lgan. Mamlakat bo'yicha don ekinlarining 60,6 foizi bug'doy, 17,7 foizi arpa, 10,4 foizi sholi ekiniga to'g'ri kelgan. Don ekinlarining, shu jumladan, asosiy ekinlarning o'rtacha hosildorligi past bo'lgan. Masalan, barcha turdagi don ekinlarining o'rtacha hosildorligi 6,65 s ga, shu jumladan: bug'doy – 6 s ga, sholi – 13 s ga, makka – 10,2 s ga bo'lgan.

Hosildorlikka kompleks omillar ta'sir etgan, albatta yerni ekishga tayyorlashda omochdan foydalanilgan, mineral o'g'itlar solinmagan, bug'doy ekinining asosiy qismi kam sug'oriladigan yoki lalmikor maydonlarda yetishtirilgan. Yuqorida ko'rsatilgan davrda g'allachilikda asosan ekstensiv omildan foydalanilgan. Mustaqillik davrlarigacha aholi jon boshiga 236 kg don, shu jumladan, 118 kg bug'doy, 4,8 kg guruch ishlab chiqarilgan. Binobarin, respublikaning o'z don mahsulotlari hisobiga aholini don mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishi boshqa tarixiy davrlarga nisbatan yuqori darajada bo'lgan.

Sohani rivojlantirishda moddiy-texnik ta'minot masalasiga eng ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralayotgani sababli qishloq xo'jaligiga importga 1149 dona VT–150 va T–4A rusumidagi zanjirli va 459 ta MXM–140 rusumli haydov traktorlari hamda 386 ta yuqori unumli CLASS kompaniyasining «Dominator–130» rusumli don o'rish kombaynlari olib kelindi. Lizing asosida qishloq xo'jalik korxonalariga jami 48,9 mlrd so'mlik 3459 dona turli xildagi texnikalar yetkazib berildi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bilan bog'liq barcha

tadbirlar shartnoma asosida tashkil etilmoqda. Jami 6 mln 611 ming tonnadan ziyod g'alla ishlab chiqarilib, uning 2 mln 812,8 ming tonnasi, 112,5 foiz (2533,2 ming tonna) davlatga sotildi, bunda 293,5 ming tonna urug'lik donni tashkil etdi. Bunda barcha toifa maydonlarida gektariga o'rtacha hosildorlik 45,4 sentnerni, shu jumladan, sug'oriladigan maydonlarda 51,2 sentnerni tashkil qildi. G'allachilik bo'yicha jami 1 trln 294,8 mlrd so'm daromad olinishiga va 24,7 foiz rentabellikka erishildi.

Respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan g'allaning 80–85 foizini bug'doy tashkil qiladi. Aholining talabiga yarasha bu mahsulotlar respublikada ishlab chiqariladi. Chorva hayvonlarining to'yimli don ozuqalariga bo'lgan talabining 30–40 foizi respublikada ishlab chiqariladi, qolgan qismi esa paxta kunjarasi, sheluxasi va boshqa qo'shimcha sanoat mahsulotlari bilan to'ldiriladi.

Barqaror yuqori hosil olish kompleks texnologik ishlarni sifatli va qisqa muddatlarda bajarishni talab etadi.

Rejalashtirilgan hosilga, tuproqning agrokimyoviy ko'rsatkichlariga, o'simlikning nam bilan ta'minlanish darajasiga qarab mineral va organik o'g'itlardan foydalanish miqdori aniqlanadi. O'zbekiston sharoitida sug'oriladigan yerlarda 1 tonna bug'doy va shunga muvofiq somon hosili olish uchun, tumanlashtirilgan navlarga 34–37 kg azot, 11–12 kg fosfor, 23–25 kg kaliy solinadi. Odatda, ulardan foydalanish darajasi ob-havo, tuproq sharoiti, navning biologik xususiyati, ekish muddati, tup qalinligi va boshqa omillarga bog'liq holda o'zgarishi mumkin.

Bug'doydan yuqori hosil olishning real imkoniyatlaridan biri almashlab ekishdir. Kuzgi bug'doyni ikki yildan ortiq joylashtirish, dalada begona o'tlarning, kasalliklarning hamda zararkunandalarning ko'payishiga, tuproq unumdorligining, binobarin, hosildorlikning pasayishiga va don sifatining buzilishiga olib keladi. Ayniqsa, kuzgi bug'doy urug'lik uchun ekilganda uni boshqoqli don ekinlaridan keyin joylashtirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Kuzgi bug'doy uchun beda va boshqa chorva ozuqa ekinlari, kartoshka, sabzavot va dukkakli don ekinlari samarali o'tmishdosh hisoblanadi. Ayni paytda shu ekinlar uchun kuzda ekilgan bug'doy ham, o'z navbatida, o'tmishdosh ekindir.

Uzoq muddatlarda bug'doy-g'o'za almashlab ekishning joriy etilishi tuproq unumdorligining pasayishiga olib keladi, natijada me'yordan ortiqcha mineral o'g'itlardan foydalanishga zaruriyat tug'iladi, yerning ekologik holati yomonlashadi.

Kuzgi bug'doy hosilini oshirish ilg'or sug'orish rejimidan foydalanishga bevosita bog'liq. Tuproqda nam to'plash maqsadida o'tkaziladigan sug'orishni yerni haydashdan oldin amalga oshirish yuqori samara beradi.

Bunday dalalarda ekilgan urug'lar qisqa vaqtda bir tekis unib chiqadi, o'simlikning yer ustki qismi hamda ildiz qismi mustahkam rivojlanadi va natijada hosildorlikning oshishiga olib keladi.

Amaliyotda tuproqda nam to'plash uchun sug'orish urug' ekilgandan keyin o'tkaziladi. Bunday dalalarda, odatda, tuproq yoriladi, ildizlar uziladi, o'simlikning rivojlanishi susayadi, natijada hosildorlik pasayadi, o'simlikning suvga bo'lgan talabi uning hayotini dastlabki kunlaridanoq paydo bo'ladi. Suvga bo'lgan eng ko'p talab naychalash, boshqoqlash fazalariga to'g'ri keladi.

O'simlikning suvga talabini barqaror ta'minlash uchun tuproqning namlik sig'imi 70–80 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Buning uchun, ya'ni tuproqda nam to'plash uchun sug'orish gektariga 1200 m<sup>3</sup>, o'sish davrida 700–750 m<sup>3</sup> hajmida 3–4 marta sug'orishni o'tkazish tavsiya etiladi. Pishish oldidan gektariga 250–300 m<sup>3</sup> hajmida yengil sug'orishni o'tkazish hosilni oshirishga qulay sharoit yaratadi.

Ekish oldidan nam to'plash va o'simlikni o'sish davrida sug'orishning jo'yaklar orqali amalga oshirilishi, o'qariqlar oralig'i 100 m dan oshmaganda ham yuqori hosil olish imkoniyatini beradi.

Kuzgi bug'doy 1 t don hosil qilishi uchun o'rtacha 700–1000 m<sup>3</sup> suv sarflaydi. Suv bilan ta'minlanish optimallashtirib borishi bilan 1 t don hosil olish uchun sarflangan suv miqdori ham kamayib boradi, natijada sug'oriladigan g'allachilik samaradorligi ko'tariladi.

Yuqori hosil olish omillaridan yana biri uni qisqa muddatlarda yig'ib-terib olishdir. Masalan, kuzgi bug'doy pishib yetilgach, 8–12 kunda o'rib-yanchib olinishi zarur. Agar uning muddati kechiktirilsa hosilning bir qismi nobud bo'ladi (dalalarda qolib ketadi). Ayrim xo'jaliklarda nobud bo'lgan hosil sifatli sug'orish va o'g'ulashdan olinadigan qo'shimcha hosildan ham ko'p bo'ladi va tarmoqning samaradorligini keskin pasaytiradi.

Hosilni yig'ishtirishda kombaynlardan guruh usulida foydalanish samarali hisoblanadi. Ang'iz ekinlari tuprog'ini tayyorlash eng qulay muddatlarda o'tkaziladi, ularni ekish muddati qisqaradi va hosildorligi oshadi. Demak, yuqori hosil yaratish uchun barcha texnologik jarayonlar o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishi zarur. Chunki, samaradorlik hosilni yaratish, yig'ib olish bilan bevosita bog'liqdir.




Ma'lumki, g'allachilikning iqtisodiy samaradorligi 1 s mahsulotning to'liq tannarxi va uni sotish bahosi hamda rentabellik ko'rsatkichlari asosida baholanadi. G'allachilikda ishlatiladigan asosiy va aylanma vositalarga ko'tara hamda chakana baholarning oshishi, nominal brutto, mehnat haqqi fondi, undan hisoblanadigan ajratmalar, soliqlar va to'lovlar hajmining ko'payishi hisobiga barcha turdagi 1 s g'allaning tannarxi qishloq xo'jalik korxonalarida oshishi sodir bo'ladi.

1 s g'alla tannarxi va uni sotish bahosining o'sishi o'rtasida mutanosiblikning saqlanmasligi oqibatida tannarxga kiritilgan xarajatlarning rentabelligi ko'pchilik korxonalarda past darajada bo'lishi yoki zarar bilan ishlashi kuzatiladi.

Korxonalarda g'allachilikda mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash, moddiy manfaatdorlik va javobgarlik tamoyillaridan foydalanish samaradorligi kuchaytiriladi.

Donchilikda aniqlanadigan samaradorlik ko'rsatkichlari bozor iqtisodiyoti qonunlari mexanizmlari va kategoriyalaridan oqilona foydalanish talablariga to'laroq javob berishi lozim. Buning uchun, mavjud real imkoniyatlardan oqilona foydalanishni tezlashtirish bozor iqtisodiyoti sharoitidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishga, tovar mahsulotlarining sotish baholarini erkin va shartnoma asosida tashkil topishiga, g'allakorlarning mehnat natijalariga qarab haq to'lanishiga erishish zarur.

## 12.5. Paxtachilik iqtisodiyoti va boshqaruvi



*Yer yuzida 80 ga yaqin. O'zbekistonda esa 40 ga yaqin texnik ekinlar ekiladi. Ularning ichida g'o'za asosiy ekin hisoblanadi. G'o'za yetishtirishdan paxta xomashyosi va g'o'zapoya olinadi. Paxta xomashyosini birlamchi qayta ishlash jarayonida undan paxta tolasi va chigit olinadi.*

Paxtachilik universal tarmoqqa aylanib bormoqda. Uning asosiy mahsulotlari paxta xomashyosi va poyasini qayta ishlash jarayonida 1200 dan ortiq sanoat mahsulotlari olinadi. O'zbekiston to'qimachilik

sanoati xomashyosi balansida paxta tolasi 70 foizni, o'simlik yog'moy sanoati balansida — chigit 90 foizni tashkil etadi. Paxta tolasini jahon bozorida sotish jarayonida O'zbekistonning valuta fondi ko'payadi, yangi texnika va texnologiya sotib olish imkoniyati mustahkamlanadi hamda iqtisodiy taraqqiyot tezlashadi.

O'zbekiston paxtachiligida istiqbol vazifa uning yalpi hajmini keskin kamaytirmaslik, sifatini yaxshilash, asosiy qismini mintaqada qayta ishlash hisoblanadi. Paxtachilik va u bilan bog'liq bo'lgan xalq xo'jaligi tarmoqlarini intensiv rivojlantirish, mavjud mehnat, yer, suv va boshqa moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, respublika iqtisodiyotining barqaror o'sishiga real sharoit yaratadi.

O'zbekistonda unumdor yer, ayniqsa, suv resurslari chegaralangan. Mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, birinchi navbatda, har bir gektardagi paxtadan olinadigan hosildorlikni oshirish hisobiga erishiladi.

Hosildorlikni oshirish agrotexnologik jarayonlarni sifatli va qisqa muddatlarda bajarish bilan bog'liq. Tarmoqni tashkil etishning barcha davrlarida va istiqbolida ham yuqori hosil olish uchun paxtachilikning xususiyatlarini hisobga olib, dastavval almashlab ekishni ilmiy asosda amalga oshirish lozim. Uzoq yillar g'o'za va beda almashlab ekish tavsiya etilgan edi. Natijada tuproq unumdorligi saqlanadi, ekin maydonlari begona o'tlardan va kasalliklardan himoya etiladi, ularning sho'rlanish darajasi pasayadi. Mustaqil rivojlanish yillarida g'o'zadon, g'o'za-yem-xashak va boshqa ekinlar bilan almashlab ekish ham amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, bir tonna paxta yetishtirish uchun o'rta hisobda 50—60 kg azot, 15—20 kg fosfor, 50—60 kg kaliy sarflanadi. Ular organik o'g'itlar bilan birga qo'llanilganda, mineral o'g'itlarning iqtisodiy samaradorligi ancha yuqori bo'ladi. Paxta ekiladigan maydonlarda har 3—4 yilda bir marta 20—30 tonna go'ng solish yaxshi samara beradi. G'o'zani oziqlantirishda mineral o'g'itlarga chirigan va elangan go'ng aralashiriladi. Bunda 1 kg ammiakli selitruga 2—2,5 kg, 1 kg superfosfatga 6—7 kg, 1 kg ammosfoga 1,5—2 kg go'ng qo'shish yuqori samara beradi. Organik o'g'itlar paxtachilikning barcha mikroelementlarga bo'lgan talabni qondirishni ham kuchaytiradi.

Paxta xomashyosining iqtisodiy samaradorligi uni sotish baholarining tashkil topish darajasiga bevosita bog'liq. Bu mahsulotning davlat iqtisodiyotidagi ahamiyati hisobga olinib, ko'tara xarid baholarida sotiladi. Uni belgilashda biologik navlarning tola tiplari va sanoat

assortimenti asos qilib olinadi. Uning darajasiga jahon bozorida tashkil topadigan oʻrta baholar ham taʼsir etadi. Oʻzbekistonning mustaqil rivojlanish yillarida paxta xomashyosining oʻrtacha bahosi oshib bormoqda.

## 12.6. Sabzavotchilik, bogʻdorchilik iqtisodiyoti va boshqaruvi

Sabzavot ekinlari 14 ta botanik oilaga mansub 80 ga yaqin turni oʻz ichiga oladi, shundan 40 ga yaqini XX asrdan boshlab Oʻzbekistonda ekiladi. Ular morfologik va biologik belgilari, hosildorligi, sotish baholari boʻyicha keskin farq qiladi. Shuning uchun sabzavotchilikning rivojlanish darajasi, ayniqsa, ularni tahlil qilish va baholash oʻta murakkab hisoblanadi. Yer yuzida, shu jumladan, Oʻzbekistonda madaniy ekinlardan sabzi, sholgʻom, lavlagi 2 ming yildan, piyoz va bodring 4 ming yildan beri ekiladi. Sabzavotchilikning biologik xususiyatlarini



hisobga olib, ochiq va yopiq maydonlarda oʻstirish usullari qoʻllaniladi. Koʻpchilik sabzavotlar nisbatan sermehnat resurslar potensialiga, ayniqsa, quyosh nuriga va suvga talabchan ekinlar tarkibiga kiradi. Bu tarmoqni intensiv rivojlantirish mehnat, sugʻoriladigan yer va boshqa resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Koʻpchilik ekinlardan 2 marta hosil olish imkoniyati tarmoqning samaradorligini keskin oshiradi.



Koʻpchilik hoʻl sabzavotlar, biokimyoviy jihatidan tarkibida suv koʻp boʻlgan mahsulotlar guruhiga kiradi. Sarimsoq tarkibida 64–65 foiz, sabzida 85–86 foiz, pomidorda 93–94 foiz, bodringda 95–96 foiz suv mavjud. Shuningdek, bu sabzavotlar tarkibida oqsil kam boʻladi. Mos ravishda, sarimsoq tarkibida 6–7 foiz, sabzida 1,1–1,2 foiz, pomidorda 1,0–1,1 foiz, bodringda 1,0 foiz oqsil moddalari mavjud.



Ularda yuqori darajada kaloriya ham hosil boʻlmaydi. Sabzidan – 502, pomidordan – 215, bodringdan – 14 kaloriya, 1 kg sarimsoqdan

1325—1330 kaloriya issiqlik ajraladi. Ko'pchilik ho'l sabzavotlarda kletchatka ham kam hosil bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, sabzavot mahsulotlari inson organizmi uchun o'ta zarur bo'lgan biologik aktiv moddalar, vitaminlar, fermentlar, mineral tuzlarga boydir.

Ba'zi sabzavotlar, ayniqsa piyoz, sarimsoq, shivit, petrushka va turp tarkibida fitotsidlar ko'pdir. Ular iste'mol qilinganda odam organizmini turli xil infeksiyalardan tozalaydi, yuqumli kasalliklardan himoya qiladi.

Ko'pchilik sabzavotlar tarkibidagi har xil vitaminlar, kislotalar, efir moylari, xushbo'y moddalar ishtahani ochadi, yog' va oqsilli mahsulotlarni inson organizmida to'laroq hazm bo'lishiga yordam beradi. Tarkibida C vitamini ko'proq bo'lgan sabzavotlarni iste'mol qilish organizmni kam qonlilikdan muhofaza qiladi, aterosklerozni susaytiradi.

Sabzavot mahsulotlari quruq moddasining asosiy qismini uglevodlar — kraxmal, saxaroza, glukoza, kletchatka hamda pektinli moddalar tashkil etadi.

Sabzavotlarning inson salomatligiga bevosita ta'sirini hisobga olib O'zbekistonda aholi jon boshiga yil mobaynida quyidagi hajmda sabzavotlar iste'mol qilish tavsiya etilgan: Jami — 110—115 kg, shu jumladan, pomidor — 25 kg, bosh piyoz — 18 kg, sabzi — 18 kg, karam — 20 kg, lavlagi — 5 kg, bodring — 5 kg, sarimsoq — 5 kg, boshqa sabzavotlar — 14 kg, ko'kat sabzavotlar — 5 kg.

Sabzavotlarni ho'l iste'mol etish uning samaradorligini keskin oshiradi. Biroq, sabzavotlar tarkibida ko'p suv bo'lishi va eruvchan uglevodlarning borligi uchun ular uzoq muddatlarga saqlansa, nobudgarchilik ko'payadi va sifat belgilari pasayadi. Shuning uchun ularni uzoq joylarga tashishda qiyinchilik yuzaga keladi, konservalash zaruriyati tug'iladi. Sabzavotchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni sotishning yuqori samaradorligini hisobga olib, uni istiqbolda ko'paytirish imkoniyatlaridan to'laroq va tezroq foydalanish dolzarb muammolardan biridir.

Oxirgi yillarda sabzavotchilik tarmog'i asosiy mahsulotlarining rentabellik darajasi shaharlar atrofida joylashgan xo'jaliklarda, bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga mos ravishda o'zgarmoqda. Bu yutuqqa, odatda, erkin va shartnoma baholarining ko'tarilishi hisobiga erishilmoqda. Sabzavotlarning suvga talabchanligi, ildiz sistemalarining tuproqda yuza joylashishi va kam rivojlanganini hisobga olib, uni o'z vaqtida va belgilangan me'yorda sug'orishni tashkil etish, masalan, bosh piyoz 18—20 marta 500—600 m kub hajmida; sarimsoq 7—10

marta 500–600 m kub hajmida; pomidor 15–16 marta 600–700 m kub hajmida; bodring 12–14 marta 550–600 m kub hajmida muddatlarda sug'orilsa, hosildorlik yuqori va sifatli bo'ladi. Sabzavot ekinlari tabiiy va sun'iy unumdorligi yuqori maydonlarga joylashtirilishi lozim.

Kuchli sho'rlangan yerlarda hosildorlik keskin pasayib ketadi. Sabzavot ekinlari tuproqdan hosil bilan birga ko'p miqdorda ozuqa moddalarini olib chiqishini, o'simliklarning o'sish va rivojlanish davrida ozuqa moddalariga bo'lgan talabning keskin tafovutini hisobga olib, ularni oziqlantirish ilmiy asoslangan miqdorlarda va muddatlarda amalga oshirilishi zarur. Sabzavotchilikda mineral o'g'itlar bilan mahalliy o'g'itlar (chirigan go'ng, sideratlar) birga qo'llanilsa, ularning samaradorligi yuqori bo'ladi. Sabzavot ekinlarining oziqlanishida molibden, marganesh, bor, mis, rux, kobalt kabi mikroelementlardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Ulardan foydalanish ekinlar hosildorligini 15–20 foizga oshiradi, sifatini yaxshilaydi, kasalliklarga chidamliligini orttiradi. Ayrim sabzavotlar ko'chat shaklida ekiladi. Ularni o'z vaqtida tayyorlash va sifatini ko'tarish maqsadida yopiq maydon sabzavotchiligini tashkil etish zarur.

Sabzavot ekinlarini boshqa, ularga mos ekinlar bilan almashlab ekishni amalga oshirish lozim, ilg'or xo'jaliklar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bedapoyadan bo'shagan yerlar polizlar, shuningdek, dukkaklilar, karam, piyoz uchun eng samarali o'tmishdosh hisoblanadi. Sabzavot ekinlari ko'pi bilan 3–4 yilda oralatib ekilishi kerak. Sabzavot ekinlarining hosildorligi va sifatini oshirish uchun eng muhim omil davlat standarti reyestridan o'tkazilgan sifatli, toza, sog'lom unuvchanligi yuqori nav, elita, 1-sinf urug'larini ekish maqsadga muvofiqdir.

Tovar mahsulotlarini erkin va shartnoma, bozor iqtisodiyotining qiymat, talab va taklif qonunlari talablari asosida tashkil topgan baholarda sotish dehqonchilik tarmog'ining rivojlanishiga olib keladi.

## **Kartoshkachilik**



*Kartoshka foydalanish turlari jihatidan universal mahsulot hisoblanadi. Uning tarkibida 70–80 foiz suv, qolgan qismida kraxmal, oqsil, yog', «C» va «B» guruhi tarkibiga kiruvchi vitaminlar, shuningdek, kaliy, fosfor kabi o'nlab boshida har xil moddalar bor.*

Kartoshkadan, asosan, xushxo'r to'yimli oziq-ovqat sifatida foydalaniladi, uni me'yor darajasida iste'mol qilish inson tomonidan iste'mol etiladigan ko'pgina mahsulotlarni yaxshi hazm bo'lishiga ham yordam beradi. Yevropa va Lotin Amerikasi mamlakatlarida dehqonchilik oziq-ovqatlar balansi tarkibida kartoshka don mahsulotlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. O'zbekistonda ham aholining kartoshkaga bo'lgan talabi va uni qondirish darajasi kuzatib borilmoqda. Kartoshkani qayta ishlash jarayonida kraxmal va spirt olinadi. Ulardan, asosan, shirinlik va alkogol ichimliklar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Kartoshka tuganaklaridan 25 foizgacha kraxmal olinadi. Bir gektar kartoshka hosilidan g'alla ekinlariga nisbatan 3—4 marta ko'proq spirt olinadi. Bundan tashqari 1 tonna kartoshkadan spirt olish uchun qayta ishlash jarayonida 1500 l barda olinadi va chorvachilikda ozuqa shaklida foydalaniladi.

Sug'oriladigan yerlarda ertagi va kechki navlaridan 2 marta hosil olish, aholining kartoshkaga bo'lgan talabini taqvim yil davomida barqaror ta'min etishga sharoit yaratadi va h.k. O'zbekistonda kartoshkachilikni intensiv rivojlantirish yer, suv, mehnat va boshqa resurslar potensialidan foydalanish samaradorligini oshirishga sharoit yaratadi.

O'zbekistonda kartoshkachilikni rivojlantirish tarixi taxminan 130 yilga teng, uning urug'i Lotin Amerikasi mamlakatlaridan Rossiyaga, Rossiyadan O'zbekistonga keltirilgan.

Kartoshka biologik xususiyatiga ko'ra, o'rtacha harorat +20°C dan oshmagan issiqlikda samarali rivojlantiriladi. O'zbekiston iqlimi keskin kontinental va qurg'oqchil mintaqadir. Havo va tuproqning o'ta issiqligi kartoshka o'stirish uchun noqulaylik tug'diradi. Bunday sharoit fotosintezni sekinlashtiradi, oqibatda kartoshkaning tugish va ildiz sistemasini rivojlantirishga, uning hosildorligiga va sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Yoz oylarida me'yordan ortiqcha quyosh nuri hosil to'planishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Respublika olimlari sug'oriladigan maydonlarda kartoshkadan yuqori hosil olishning kompleks texnologik, seleksiya, urug'chilik va boshqa masalalarining nazariy hamda uslubiy asoslarini, binobarin tarmoqning samaradorligini oshirish uchun sharoit yaratdilar.

Kartoshkachilikning jadal rivojlanishi, asosan, urug'likka ko'p jihatdan bog'liq ekanligini, respublikaning tabiiy iqlim hamda tuproq holati hosildorli xususiyatlarini inobatga olib, yuqori sifatli urug' yetishtirib beradigan maxsus urug'chilik xo'jaliklarini tashkil etish va ularni to'laqonli rivojlanishi uchun davlat tomonidan imtiyozlar

berilishi taqozo etiladi. Bu maqsadga qo‘shimcha sarflangan mablag‘ kartoshka hosildorligining oshishi hamda sifatini saqlash hisobiga to‘liq qoplanadi.

So‘nggi yillarda kartoshka ishlab chiqarish va sotishni yo‘lga qo‘yish, hosildorlikni oshirish imkoniyatlaridan foydalanish natijasida tarmoqning rentabellik darajasi ko‘pchilik, ayniqsa, shaharlar atrofida joylashgan korxonalarda, bozor iqtisodiyoti qonunlari talablariga mos ravishda oshib bormoqda.

Bu yutuqqa, odatda, erkin va shartnoma baholarining ko‘tarilishi hisobiga erishilmoqda. Ammo ko‘pchilik shirkat va fermer xo‘jaliklarida I s kartoshka o‘rtacha to‘liq tannarxining ko‘tarilishi kuzatilmoqda. Bunday hol, asosan, jahon bozoridan sotib olinadigan urug‘lar baholarining keskin oshishi hisobiga sodir bo‘lmoqda. Bundan tashqari kartoshkani ekish, qator orasini yumshatish, hosilni yig‘ib olish va boshqa jarayonlar qo‘l bilan ishlatiladigan vositalar bilan bajarilmoqda. Natijada tarmoqda mehnat unumdorligi past darajada qolmoqda. Kartoshkaning tannarxi kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashga sarflanadigan xarajatlar hisobiga ham oshmoqda.

So‘nggi yillarda Kolorodo qo‘ng‘izining kartoshka paykallarida keng tarqalishi natijasida hosildorlik pasaymoqda va uning sifati yomonlashmoqda. Zararkunandaga qarshi qimmatli ximikatlardan foydalanish kutilgan natijalarni bermayotir.

***Yuqori va sifatli hosil olish hamda arzon kartoshka ishlab chiqarish uchun quyidagi imkoniyatlardan foydalanishga alohida e‘tibor berish lozim:***

– yengil qumoqli mexanik tarkibga ega o‘tloq, o‘tloq – bo‘z tuproqlarda, daryo yonbag‘ri uchastkalarida, tog‘li va tog‘oldi zonalarda yaxshi o‘sib, yuqori hosil beradigan navlarni ekish;

– suvga talabchanligini hisobga olib, 400–500 m<sup>3</sup> hajmida 7–8 marta sug‘orish, uni asosan kechasi amalga oshirishga erishish;

– bunday yerlarga gektariga 30–40 tonna yarim chirigan go‘ng, 250–300 kg ammosfos va 160–200 kg kaliy sulfat yoki kaliy tuzi solinib, 30 sm chuqurlikda haydalishini ta‘minlash;

– o‘suv davri 69–70 kunda tezpishar va o‘rtapishar navlar (Zarafshon, SANTE, Romona, Marfona va boshqalar)ni ekish;

– bahorda hamda kuzda ekiladigan urug‘larni ekish oldidan 100 l suvda 5–6 kg TMTD bilan birga 2 gramm qahrabo kislotasi hamda 4 kg ammosfos qo‘shib ivitib ekish hisobiga hosildorlikni 11–16 foizgacha oshirish;

-- har gektarga 3–3,5 tonna urug'lik tuganaklar ekilishiga, ekiladigan tuganaklarning vazni 30–80 gramm bo'lishiga, ularni tuproqning 6–7 sm chuqurligiga ekish, qatqaloqni tez yorib qisqa muddatda to'la ko'chat olish imkoniyatiga ega bo'lish;

– eng ilg'or usul hisoblangan urug'ni pushta ustiga ekishni joriy qilish;

– urug'likning asosiy qismini urug'likka ixtisoslashgan xo'jaliklarda tayyorlash va uni zamonaviy omborlarda saqlash;

– tovar mahsulotlarni erkin va shartnoma, ya'ni bozor iqtisodiyotining qiymat, talab va taklif qonunlari talablari asosida tashkil topgan baholarda sotish.

### **Bog'dorchilikning meva va rezavor mahsulotlari**



*Bog'dorchilik 75–80 turdagi mahsulotlar beradi, ular quyidagi guruhlarga bo'linadi:*

– *urug'li mevalar (olma, nok, behi, do'lana va boshqalar);*

– *danakli mevalar (o'rik, shaftoli, olxo'ri, gilos va boshqalar);*

– *rezavor mevalar (qulupnay, malina, smorodina va boshqalar);*

– *subtropik mevalar (anor, anjir, xurmo, chilonjiyda, tutlar, zaytun va boshqalar);*

– *sitrus mevalar (limon, mandarin, apelsin va boshqalar);*

– *yong'oq, bodom, pista va boshqalar;*

– *har xil tropik mevalar (banan, ananas va boshqalar).*

Bog'dorchilikning meva va rezavor kabi asosiy mahsulotlari tarkibida inson organizmi uchun o'ta foydali bo'lgan shakar (glukoza va saxaroza)lar, aminokislotalar, oqsillar, moylar, mineral tuzlar, vitaminlar, fermentlar, kolloidlar, oshlovchi moddalar, peksin va boshqa xushbo'y moddalar mavjud. Ularni ilmiy asoslangan me'yorlarda (80–90 kg) yil davomida iste'mol qilish yuqori kaloriyali (go'sht, yog', non va boshqalar) mahsulotlarni hazm qilish darajasini yaxshilaydi. Insonlarning salomatligini mustahkamlaydi, umrini ham uzaytiradi.

Turli xil bog'dorchilik ho'l mahsulotlarning biokimyoviy tarkibi va inson organizmi uchun foydalilik darajasi keskin farq qiladi.



Masalan, yong'och va pistadan boshqa mevalarda oqsil va moy juda kam. Ko'pchilik to'liq pishgan mevalarda shakar va uglevodlar ham turli darajada bo'ladi.

Turli xil mahsulotlarning inson organizmiga foydaliligida ham tafovutlar bor. Meva-rezavorlarni ho'lligida istemol qilish eng yuqori samara beradi. Ammo, ularni hosildan hosilgacha saqlash xarajatlarni ko'paytiradi, anchagina qismi buzilib qoladi va sifati pasayadi.

Bog'dorchilik mahsulotlaridan yil davomida foydalanishni amalga oshirish maqsadida ularni qayta ishlash zaruriyati tug'iladi. Ularning anchagina qismi oziq-ovqat sanoatida qayta ishlanadi. Konserva, povidlo, jem, murabbo, marmelad, sharbat, meva suvlari va kompotlari, vino va boshqa alkogol ichimliklar hamda turli mahsulotlar tayyorlanadi.

Shakarlik darajasi yuqori bo'lgan mevalarning anchagina qismi quritiladi. Meva-rezavorlarni qayta ishlash ularni uzoq muddatlarda saqlash, iste'mol qilish hamda uzoq masofalarga tashish xarajatlarini kamaytirishga sharoit yaratadi.

Daraxtlarning barglari chorva ozuqasi va organik o'g'it, shoxlari va poyalari yoqilg'i, qurilish va boshqa maqsadlar uchun foydalaniladi va urug'laridan moy, dorilar va boshqa mahsulotlar tayyorlanadi.

Bog'dorchilik samaradorligi yana shundaki, ularning ko'pchiligi uzoq (15–20 dan 80–90) yillar davomida hosil beradi. Ildizlari baquvvat, chuqur joylashgan, qurg'oqchilikka birmuncha chidamli, tuproq unumdorligi nisbatan past, notekis yerlarda ham rivojlanadi. Bog'dorchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sermehnat va serdaromad hisoblanadi. Bog'dorchilikni intensiv rivojlantirish mehnat, yer, suv va boshqa resurslar potensialidan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Madaniy bog'dorchilik O'zbekistonda taxminan milodgacha V asrlardan rivojlana boshlagan. Ammo obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligidan uzoq yillar barqaror foydalanilmagan.

Istiqbolda bog'dorchilik mahsulotlarining ko'payishi, hosildorlikni gektaridan 2–3 marta oshirish hamda o'rik, nok, gilos, anjir, anor, xurmo, shotut kabi daraxtlar ekilgan serdaromad maydonlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Bog'dorchilik tovar mahsulotlarining rentabelligi keyingi yillarda bozor iqtisodiyoti qonunlari talablari darajasida tashkil topdi. Ko'pchilik xo'jaliklarda yildan yilga 1 s meva tannarxining ko'tarilishi

kuzatilmoqda. Bu holat, asosan, hosildorlik va mehnat unumdorligi darajasining pastligi hamda zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash xarajatlarining ko'payishi bilan bog'liq.

Sifatliroq va serdaromad mahsulotlarni ko'proq ishlab chiqarish maqsadida quyidagi real imkoniyatlardan to'laroq foydalanish zarur:

– hosildorligi hamda tovarlik xususiyatlari yuqori mevalar maydonini kengaytirish, yetarli miqdorda ko'chatlar tayyorlash, ularni, asosan, kuz oylarida ekish;

– hosildorlikni oshirish uchun agrotexnologik jarayonlarni o'z vaqtida sifatli qilib bajarish;

– har ikki-uch yilda gektariga 20–40 tonna chirigan go'ng, har yili 120–180 kg azot, 60–90 kg fosfor, 30–45 kg kaliy mineral o'g'itlarini solish;

– hosilga kirgan bog'larni o'rtacha 4–5 marta 600–700 m<sup>3</sup> hisobida sug'orish; yer osti suvi 1,5–2,0 m chuqurlikda joylashgan joylarda yanvar oyida 2 marta yaxob suvini berish, qulayrog'i, tomchilab sug'orishni joriy etish;

– kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashni qisqa muddatlarda o'tkazish;

– tovar mahsulotlarini bozor iqtisodiyoti qonunlari talablari asosida tashkil topgan mavsumiy baholarda sotish, ularning nobud bo'lishini keskin kamaytirish.

## Tokchilik



*Tokchilikning asosiy mahsuloti bo'lgan-turli xil (xo'raki, kishmish va sharobbop) uzumlar tarkibi inson organizmi uchun o'ta foydali shakar (asosan, glukoza), organik kislotalar, teri oshlovchi bo'yoqlar, fermentlar, vitaminlar, mineral tuzlar va boshqa xushbo'y moddalarga boy.*

Turli xil uzumlardan ilmiy asoslangan me'yorlarda (80–90 kg) yil davomida iste'mol qilish katta kaloriyali (go'sht, yog' va boshqa) mahsulotlarning hazm bo'lish darajasini yaxshilaydi, inson salomatligini mustahkamlaydi, umrini ham uzaytiradi. Uzum mahsulotlarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati xo'raki, mayizbop va sharobbop navlari bo'yicha alohida-alohida tahlil etiladi va baholanadi.

Turli xil uzum navlarining biokimyoviy tarkibi keskin farq qiladi. Masalan, shakarlilik darajasi xo'raki navlarda 20–25 foizgacha, mayizboplarda 30–35 foiz, vinoboplarda 15–18 foizgacha bo'ladi. Ular to'liq pishganda yig'ib olinsa, shakarlilik darajasi yanada oshadi.

Xo'raki uzumlarning asosiy qismini aholi yoz va kuz oylarida iste'mol qiladi, bir qismini maxsus omborxonalarda saqlab, kelasi yil hosili pishguncha foydalanadi.

Kishmish hamda qisman xo'raki nav uzum quritiladi, mayiz va kishmish tayyorlanadi, yil davomida aholi tomonidan iste'mol qilinadi.

Sharobbop, qisman xo'raki va kishmish navlarini oziq-ovqat sanoat tarmoqlari qayta ishlab, sharoblar, shampan vinolar, konyaklar, murabbo, shinni, sharbat, kompot, mayonez va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Qayta ishlangan uzum mahsuloti qoldiqlaridan moy ishlab chiqariladi, chorvachilik omuxta yemlariga qo'shiladi. Toklarning barglari va navlari chorvachilikda ozuqa, shoxlari va poyalari yoqilg'i sifatida ishlatiladi.

Toklar 50–60 yilgacha hosil beradi. Ildizlari tuproqqa chuqur joylashadi, qurg'oqchilikka birmuncha chidamli, tuproq unumdorligi nisbatan past, notekis yerlarda ham hosil beradi va h.k.

Demak, tokchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sermehnat va serdaromad hisoblanadi. Tarmoqni intensiv rivojlantirish mehnat, yer, suv va boshqa resurslar potensialidan samarali foydalanish uchun imkoniyatlar yaratadi.

### ***Tokchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari:***

- yuqori hosilli, kasalliklarga chidamli xo'raki navlardan: Daroyi, Oq xalili, Oq husayni, Go'zal qora, Nimrang, Pushti toifi; mayizbop navlardan: Qora kishmish, Zarafshon kishmish, Oqkishmish; vinobop navlardan Rkatsiteli, Bayan Shirin, Kuljinskiy, Muskat VIR va boshqalarni rivojlantirish;

- serhosil va kasallanmagan navlardan kuzda qalamchalar tayyorlash va intensiv rivojlantirishni tashkil etish;

- hosildorlik darajasini hisobga olib 4–6 marta, shag'alli yerlarda 8–10 marta, sizot suvlari yuza yerlarda 2–3 marta belgilangan muddatlarda sug'orish, samarali tomchilatib sug'orish usulidan foydalanish;

- tez o'suvchi va ko'p bargli toklarni xomtok qilish;

- hosil beruvchi novdalarni sovuqqa oldirmaslik uchun o'z vaqtida ko'mish va ochishni tashkil etish;

- tokzorlarda ko'p uchraydigan ondiyum va antraxnoz kasalliklariga qarshi, asosan, oltinugurtli vositalardan keng foydalanish;
- chirigan go'ng va belgilangan me'yorlarda hamda muddatlarda mineral o'g'itlardan foydalanish;
- mahsulotlarni erkin va shartnoma asosida mavsumiy baholarda sotish, ularning nobud bo'lishini keskin kamaytirish.

***Nazorat va muhokama uchun savollar:***

1. *Dehqonchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati nimada?*
2. *Dehqonchilikning asosiy tarmoqlari va ularning xususiyatlari qanday?*
3. *Dehqonchilik tarmoqlari ishlab chiqarishi va agrotexnik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi qanday aniqlanadi?*
4. *Donchilik, paxtachilik sabzavotchilik, bog'dorchilikning ahamiyati nimada?*
5. *Dehqonchilik tarmoqlarida yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining necha foizga yaqini yetishtirilmoqda?*
6. *Bog'dorchilik necha turdagi mahsulot beradi?*
7. *Dehqonchilikda iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari qanday?*
8. *Kartoshkachilikning ahamiyati nimada?*
9. *Tokchilikning ahamiyati nimada?*
10. *Dehqonchilikda agrotexnik tadbirlarni iqtisodiy samaradorlikga ta'siri qanday?*

### **13.1. Chorvachilikning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati va uning rivojlanishi**

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi, xalq turmush darajasining muttasil o'sib borishi chorvachilikni yanada tezroq yuksaltirish vazifasini birinchi o'ringa qo'yimoqda.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida qishloq xo'jaligi, xususan, chorvachilik muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, bozorlarda go'sht, sut, tuxum, baliq va boshqa mahsulotlar serobligini ta'minlashga ustuvor vazifalardan biri sifatida yondashilmoqda.



**Chorvachilik** – mamlakat qishloq xo'jaligining muhim tarkibiy qismidir. Chorvachilik tarmoqlarining maqsadga muvofiq, samarali joylashtirilishi respublikada mehnat taqsimotining ijobiy hal etilishiga bevosita ta'sir etadi. Hududlarning tabiiy, iqtisodiy sharoitlarini hamda bozor talablarini e'tiborga olgan holda chorvachilikning qoramolchilik, qo'ychilik, baliqchilik, asalarichilik,

*ondatrachilik tarmoqlarining joylashtirilishi va rivojlantirilishi zarur. Chunki bu tarmoqlarda oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati korxonalari uchun go'sht, sut, jun, teri, asal va boshqa mahsulotlar yetishtiriladi.*

Chorvachilikning rivojlanishi natijada sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ham ta'minlanadi, chorvachilik tarmoqlarida inson salomatligi uchun zarur, oqsil moddalarga boy bo'lgan turli xildagi mahsulotlar ham yetishtiriladi. Respublika hukumati mamlakatning barcha sohalarida chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan yirik dasturlar ishlab chiqib, ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha qator

chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bundan tashqari, chorvachilikda dehqonchilik va chorvachilikning ayrim sohalari rivojlanishini ta'minlaydigan mahsulotlar ham yetishtirilmoqda. Sut esa aholi tomonidan iste'mol qilinishidan tashqari yangi tug'ilgan uy hayvonlariga ham beriladi.

Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda chorva chiqindisi — go'ngdan biogaz—bioenergiya olish yo'lga qo'yilgan bo'lib, go'ng arzon energiya manbayi hisoblanadi.

Chorvachilik tarmoqlarida yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 46,6 foizga yaqini yetishtirilmoqda. Uning 90 foizdan ortig'ini dehqon xo'jaliklari yetkazib bermoqda. Chorvachilik tarmoqlarida yetishtirilayotgan mahsulotlarning asosiy qismi respublika aholisi talablarini qondirish maqsadida ichki bozorlarda sotilmoqda.

Kelajakda bu muammoni hal etishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun obyektiv imkoniyatlar mavjud. Respublika chorvachiligida ekologik jihatdan barcha talablarga javob beradigan go'sht, sut mahsulotlarini, teri, ayniqsa, qorako'l terisini, jun yetishtirishni rivojlantirib, ularni tashqi bozorda sotishni yo'lga qo'yish bu soha daromadining ko'payishiga olib keladi. Chorvachilik rivojlanib, aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish darajasi ham yuksaladi. Natijada tarmoqning mamlakat xalq xo'jaligidagi o'rni, ahamiyati ortadi.

Chorvachilikda hayvonlarning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning eng muhimlari ularning irsiy xususiyati va jinsidir. Chorva hayvonlarini boqish, havoning harorati va namligi, yorug'lik, asrash, parvarishlash, ratsion va hokazolar chorvachilikni rivojlantirishda muhim omillardir. hayvonlarning o'sishi va rivojlanishiga oziq miqdori va turi katta ta'sir ko'rsatadi. Sut va yem bilan boqilgan buzoqlar tirik vazni og'ir va go'shtdor, dag'al oziqlar bilan boqilgan buzoqlar esa ixcham, sut mahsuloti yo'nalishiga mansub bo'ladi.

Molxonalarining nam va zax bo'lishi hayvonlar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Quyosh nuri, sun'iy yorug'lik yetarli bo'lsa, hayvonlar sog'lom, kasalliklarga chidamli va baquvvat bo'lib o'sadi. Yosh mollar organizmida moddalar almashinuvi jarayoni ancha jadal boradi.

Qishloq xo'jalik hayvonlarining o'sishini aniqlash uchun ularning tanasini o'lchash va vaznini tortish usullari qo'llaniladi. Hayvonlarning o'sish darajasi absolut, ya'ni ma'lum davr bilan (sutka, oy hisobida), qancha o'sganligi nisbiy, ya'ni oldingi vazni, yoshi boshqa ko'rsatkichiga nisbatan qancha o'sganligi hamda qancha semirganligi foizlar hisobida aniqlanadi.

Mollarning nisbiy oʻsishi quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{o'} = \frac{D_v - S_v}{S_v} \cdot 100 \quad (13.1)$$

bunda:  $N_{o'}$  — nisbiy oʻsish;  
 $D_v$  — dastlabki vazni;  
 $S_v$  — soʻnggi vazni.

Masalan, buzoqning dastlabki tirik vazni 30 kg, bir oy oʻtgach, 45 kg boʻlgan. Bunda:  $45 - 30 = 15$  yoki sutkasiga 500 grammdan semirganligini aniqlash mumkin.

$$N_{o'} = \frac{45 - 30}{30} \cdot 100$$

Umuman, buzoqlar 6 oyligigacha sutkasiga 700–800 g dan semirsa yaxshi, 1100–1200 g dan semirsa aʼlo hisoblanadi.

Chorvachilikda yangi zot yaratish va mavjud zotlarni takomillash-tirish, ayrim mahsuldorlik xususiyatlarini yaxshilash borasida tanlash ishlarini olib borish muhim ahamiyatga ega. Tanlash mollarning fenotipi (rivojlanishi, eksteryeri, konstitutsiyasi, mahsuldorligi)ga va genotipi (irsiy xususiyatlariga va bu xususiyatlarini nasl bera olish holati)ga koʻra olib boriladi.

Bir tomonlama tanlashda mollar maʼlum bir koʻrsatkichi asosida tanlanadi. Kelib chiqishiga koʻra tanlashda hayvon hali bolalari tugʻilmasdan oldin, maxsus jurnallardagi maʼlumotlarga, ota-onasining irsiy belgilariga qarab tanlanadi.

### **13.2. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari va ularning xususiyatlari**

Chorvachilik qishloq xoʻjaligining muhim tarmogʻidir. U qoramolchilik, qoʻychilik, choʻchqachilik, parrandachilik, yilqichilik va boshqa tarmoqlarni oʻz ichiga oladi. Chorvachilik qimmatbaho va juda kerakli oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat uchun koʻplab turdagi xomashyo yetkazib beradi. Binobarin, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga tobora oʻsib borayotgan ehtiyojlarini toʻliq qondirish imkoniyatlari koʻp jihatdan ana shu tarmoqni muvaffaqiyatli rivojlantirishga bogʻliqdir.

Chorvachilik tarmogʻi qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishida shakllangan tarmoq tuzilmasi, shuningdek, muassasa faoliyatining eng yuksak

samaradorligida jamiyatning go'sht, sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishni ta'minlovchi moddiy-texnik, texnologik va tashkiliy-iqtisodiy usullari va har bir tizim elementlarida ishlab chiqarishni yuritishning yaxlitligidir.

Chorvachilikning tarmoq tuzilmasini aniqlashda mahsulot bozori-ning holati, muassasaning bu bozorda tutgan o'rni (bozor hajmi, raqobatning mavjudligi va darajasi, mazkur muassasa ishlab chiqargan mahsulotning raqobatdoshligi) eng muhim omillardan hisoblanadi.

Chorva hayvonlari iqtisodiyoti quyidagi guruhlar va turlari bo'yicha o'rganiladi:

1. Qoramolchilik — go'sht va sut yo'nalishi bo'yicha;
2. Qo'ychilik — go'sht, jun, teri yo'nalishi bo'yicha;
3. Echkichilik — jun va tivit, sut yo'nalishi bo'yicha;
4. Cho'chqachilik — bekon, yarim yog', yog'lik go'sht yo'nalishi bo'yicha;
5. Parrandachilik — tuxum va go'sht broyler yo'nalishi bo'yicha;
6. Yilqichilik — go'sht va sut, ish hayvonlari hamda sport yo'nalishi bo'yicha;
7. Tuyachilik — go'sht, jun va sut yo'nalishi bo'yicha;
8. Pillachilik bo'yicha;
9. Asalarichilik bo'yicha;
10. Quyunchilik bo'yicha;
11. Hovuz baliqchiligi bo'yicha;
12. Mo'ynachilik bo'yicha va boshqalar.

*Chorvachilik tizimi moddiy-texnik, texnologik va tashkiliy-iqtisodiy elementlardan tashkil topadi.*

**Moddiy-texnik elementlarga:** chorvani saqlash uchun bino, mashinalar tizimi va tarmoqni yuritish uchun zarur bo'lgan boshqa vositalar kiradi. Chorvachilikda mahsulot yetishtirishni jadallashtirish darajasi qancha baland bo'lsa, bu elementlar shuncha ko'p ahamiyatga ega bo'ladi.

**Texnologik elementlar** — chorvani qayta ishlab chiqarishni tashkil-lashtirish, nasldorlikni kuchaytirish, zotdorlik sifatlarini yaxshilash, ozuqalantirish tiplari va chorvani boqishni takomillashtirish, chorva kasalliklariga qarshi kurash tadbirlarini qamrab oladi.

**Tashkiliy — iqtisodiy elementlarga** — sohaga yo'naltirilgan tuzilma va ishlab chiqarish kiradi. Bu muassasa faoliyati aniq sharoitlariga



mos yer maydoni birligiga hisoblangan chorva tuyog'ining soni, uning ixtisoslashuvi, bozordagi o'rni demakdir. Tarmoqda chorva tuzilmasi har bir holatda ishlab chiqarish yo'nalishiga mos kelishi kerak.

Ishlab chiqarish usuli va chorvani oziqlantirish hamda saqlashga ko'ra, eng muhim belgilar sifatida chorvachilikda quyidagi tizimlar mavjud:

– yaylov – ekstensiv, ko'chma, yaydoq-yaylov, doimiy yaylov, madaniy yaylov;

– og'ilxona – yaylov – tabiiy ozuqa, aralash ozuqalarning o'rtacha jadalligi, ekiladigan va yuksak mahsuldorli tabiiy ozuqalarga boyligi bilan ajralib turadi.

– og'ilxona – yillik og'ilxona, og'ilxona – lager (mavsumiy).

### **13.3. Chorvachilik tarmoqlari ishlab chiqarishi va ularning iqtisodiy samaradorligi**

Ekologik jihatdan toza mahsulotlarga bo'lgan talab o'sib bormoqda. Muammoni hal etish uchun bir qancha tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirish, chorvachilik tarmoqlari ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini ko'tarish kerak.

Bu jarayonni bir necha yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirish uchun respublika hududlarining, xo'jaliklarning yo'nalishlarini e'tiborga olgan holda chorvachilik tarmoqlarini maqsadga muvofiq joylashtirib, ularni ixtisoslashtirish jarayonlarini rivojlantirishga e'tibor berish lozim.

Chorvachilik fermalarini zamonaviy talablarga javob beradigan moddiy-texnika bazasini bosqichma-bosqich rivojlantirish, chorvachilik bino-inshootlarini fan-texnika yutuqlarini e'tiborga olgan holda moslashtirish, tegishli vositalar bilan ta'minlash, chorva hayvonlarini yaxshi parvarishlash, sifatli mahsulot yetishtirishda yangi texnikalar, ilg'or texnologiyalar joriy etishga erishish, tarmoqda ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish mehnat unumdorligini oshirishni ta'minlaydi.

Naslchilik ishlarini rivojlantirish sermahsul chorva zotlarini yaratib, ularni ishlab chiqarishga tezroq tatbiq etilishini ta'minlash tarmoqda iqtisodiy samaradorlikni ko'tarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

***Barcha turdagi chorvachilik mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi omil va imkoniyatlardan to'laroq foydalanish zarur:***

**1. Chorva hayvonlari mahsuldorligini oshirish.** Bu o'ta dolzarb vazifani bajarish uchun ularni turli xil ozuqalarga bo'lgan talablarini ilmiy asoslangan ratsionlar bo'yicha muntazam qondirish. Natijada zotdor hayvonlarning mahsuldorlik potentsiali hamda sarflangan ozuqalar samaradorligini oshirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish, ko'proq, sifatliroq hamda arzonroq mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish imkoniyati yaratiladi. Chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlash uchun yem-xashak yetishtiriladigan maydonlarni kengaytirib, ekinlarni almashlab ekishni rivojlantirish lozim. Bunda yem-xashak ekinlari ekiladigan maydonlarning suv ta'minotiga, meliorativ holatini yaxshilashga hamda organik va mineral o'g'itlardan talab darajasida foydalanishga alohida ahamiyat berish zarur. Bu masalani hal etish uchun qayta ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqariladigan to'yimli ozuqa moddalari talab darajasida bo'lishini, chorva mollariga shakllangan ozuqa ratsion asosida vaqtida berilishini ham tashkil etish kerak.

**2. Chorva hayvonlarining zotdorlik belgilarini saqlash va yanada mustahkamlash** maqsadida seleksiya, naslchilik ishlarini yuqori darajada tashkil etish, jumladan, sun'iy urchitish, geterozis ustunliklaridan to'laroq foydalanish.

**3. Qishloq xo'jalik korxonalari, fermer, dehqon xo'jaliklarini yuqori mahsuldor zotli chorva mollari bilan muntazam ta'minlash** maqsadida yuqori mas'uliyatli naslchilik zavod va naslchilik xo'jaliklarini barpo qilish, ularni imtiyozli sharoitlardan foydalanishga imkon yaratish.

**4. Chorvadorlarning mehnat unumdorligi va mehnat haqini barqaror oshirish** uchun texnologik jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish usullaridan foydalanish: dastavval, ozuqalarni taqsimlash, sigirlarni sog'ish, qo'y va echkilar junini qirqish, sug'orish, binolarni chorva qoldiqlaridan tozalash, ulardan foydalanish bilan bog'liq va boshqa ishlarni ilg'or vositalar yordamida bajarish.

**5. Hayvonlarni saqlashning ilg'or usullaridan, shu jumladan, bog'lamasdan saqlash, maxsus qo'ralardan foydalanish.**

6. Asosiy vositalardan, ayniqsa, chorva binolari va inshootlari quvvatidan oqilona foydalanish.

**7. Progressiv zooveterinariya xizmatlaridan foydalanish.**

Yuqorida ko'rsatilgan masalalarning hal etilishi natijasida chorvachilik tarmoqlari rivojlanib, samaradorligi yuksalishi ta'minlanadi.

### 13.4. Qoramolchilik iqtisodiyoti va boshqaruvi

Qishloq xo'jalik mahsulotlari, xususan. oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va shu asosda aholining o'sib borayotgan talabini mumkin qadar ko'proq qondirish qishloq xo'jaligi oldida turgan eng dolzarb vazifadir. Qoramolchilikdan olinadigan sut va go'sht juda qimmatli oziq-ovqat mahsulotidir. Ularda inson organizmi uchun zarur bo'lgan barcha ozuqa moddalari, jumladan, sifatli oqsil bor.

Kattalar ovqatida fiziologik me'yorlar bo'yicha sut va sut mahsulotlari kaloriyalarda ifodalangan ozuqa moddalarining chorak qismiga teng keladi. Mamlakat go'sht balansida mol go'shtining salmog'i yildan yilga oshib bormoqda. U kelgusida aholi iste'mol qiladigan go'shtning asosiy turi bo'lib qolmoqda. Sut bolalar ovqatida yanada kattaroq ahamiyatga ega.

Ammo qoramolchilikning ahamiyati bu bilan cheklanmaydi. Chorva mollarini so'yish natijasida olinadigan terilardan ko'ncilik sanoatida turli xil tovarlar ishlab chiqariladi. Tuyoq va shoxlaridan tugmalar, taroqlar va maishiy maqsadlarga mo'ljallangan boshqa predmetlar tayyorlash uchun foydalaniladi.


Qoramolchilik, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining bir tarmog'i sifatida, dehqonchilik bilan uzviy bog'langan, chunki qoramolchilik dehqonchilikni go'ng bilan ta'minlaydi. Go'ng esa tuproq tizimini yaxshilash uchun juda qimmatli o'g'it ekanligi tan olingan. O'zbekistonda chorvachilikning, shu jumladan, qoramolchilikning rivojlanishi bilan oziq-ovqat sanoatining chorvachilik, konservalash, sut va ko'n tayyorlaydigan tarmoqlari vujudga keldi va muvaffaqiyat bilan rivojlanmoqda.

Qoramolchilikni joylashtirish va ixtisoslashtirishga qishloq xo'jalik yerlari bilan, ayniqsa, pichanzor va yaylovlar bilan ta'minlanganligi, go'sht, sut qoramolchiligining joylashuvi va ixtisoslashuvi, shahar aholisining zichligi, xo'jaliklarning ish kuchi va ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanganligi, shuningdek, turli xil qishloq xo'jalik mahsulotlariga qo'yilgan davlat xarid narxlarining darajasi va ularga qilingan xarajatlar orasidagi nisbat kabi iqtisodiy omillar muhim ta'sir ko'rsatadi.

Qoramolchilik yo'nalishi tarmoq sifatida tegishli iqtisodiy va tabiiy sharoitlar, poda tuzilmasi, zoti, ishlab chiqarish darajasi va pirovard mahsulot nisbati bilan belgilanadi.

**Poda tuzilmasi** deganda, har xil jins yoki yosh guruhlardagi mollarning biror muddatdagi nisbati tushuniladi. Qoramollarning jins

va yosh guruhlarga turkumlanishi 13.1-rasmda keltirilgan. Bu tuzilma brakka chiqarilgan urg'ochi mollarni muntazam almashtirishni, mahsulot miqdorini ko'paytirish uchun podani kengaytirgan tarzda to'ldirishning rejalashtirilgan sur'atlari bilan muvofiq ravishda mollar sonining o'sishini ta'minlashi lozim.



13.1-rasm. Qoramollarning jins va yosh guruhlariga turkumlanishi.

Podatuzilmasi olinadigan mahsulotning tarkibi, miqdori va sifatini belgilab beradi. Har xil turdagi mollar podasining tuzilmasi mehnat unumdorligiga, mahsulotning tannarxi, rentabelligi va tovarliligiga, ishlab chiqarish davrining uzun-qisqaligiga, mablag'larning aylanish tezligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Mollarni asrash va boqish usullari, mehnat va moddiy texnika resurslaridan foydalanish podatuzilmasi bilan bog'liqdir. Podaning tuzilmasini belgilab beradigan eng muhim omil-chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojdir.

Podatuzilmasiga, quyidagilar ta'sir ko'rsatadi: tarmoqning rivojlanish darajasi, mahsulotning hajmi va realizatsiya qilish muddatlari, mollar sonining rejada belgilangan tarzda har yilgi ko'payishi, xo'jalikda mollardan foydalanish muddatlari va bu bilan bog'liq ravishda urg'ochi mollarni brakka chiqarish foizi, urg'ochi mollarning tug'ishida zichlik darajasi, tug'ilish va sutdan ajratish vaqtida 100 bosh ona mol hisobiga olinadigan yosh mollar, yil davomida mollarni urug'lantirish va tug'ish muddatlarini bo'lib chiqish, birinchi urug'lanish vaqtida mollarning yoshi va boshqalar.

Mollarning har bir turi va yo'nalishiga oid poda tuzilmasida urg'ochi mollar va podani to'ldiradigan yosh mollar salmog'i barqaror bo'lishi lozim. Urg'ochi mollarning salmog'i ortishiga qarab poda aylanmasining tezligi oshadi hamda yosh va jinsdagi mollar guruhlarining harakati ancha intensivroq bo'lib qoladi, yosh mollarni parvarish qilish, o'tlab semirish muddatlari qisqaradi.

Podani to'ldirish uchun boqilayotgan yosh mollarning salmog'i shunday bo'lishi kerakki, bunda yaroqsiz deb topilgan mollarni almash-tirish, podani kengaytirilgan holda to'ldirish va parvarish vaqtida yosh mollarning zootexnika sabablariga ko'ra kamayib qolishi ehtimolini hisobga olib, birmuncha zaxiraga ega bo'lishi kerak. Ortiqcha o'stiri-layotgan yosh mollarning salmog'i xo'jalikning salohiyatiga, tarmoqning yo'nalishiga va yem-xashak bazasining ahvoriga qarab aniqlanadi.

**Podani harakati.** Podaning oy, chorak va yillar bo'yicha bosh va jinsiy jihatdan o'zgarib turishi poda harakati deb ataladi.

Har bir qishloq xo'jalik korxonasida poda harakati oylik, choraklik va yillik qilib, shuningdek, uzoq muddat uchun ham tuziladi. Poda harakati chorvachilik mahsulotlari yetishtirish rejasiga qarab tuziladi.

**Qoramollarni boqish tizimi** deganda, odatda, chorva mollarini saqlash va ulardan foydalanishning eng oqilona va qulay sharoitlarini ta'minlaydigan, o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish operatsiyalari hamda ish jarayonlarini tashkil qilishning muayyan tartibi tushuniladi.

**Mollarni boqish va semirtirish usullari.** Mollarni go'shtga boqishda barcha shart-sharoit (geografik, zonal, iqtisodiy, ishlab chiqarish) hisobga olingani holda ularga xilma-xil yem-xashak beriladi. Bunda yem-xashakning qaysi bir turining salmog'i katta va yuksak darajada bo'lsa, bo'rdoqichilik usuli o'sha oziq nomi bilan yuritiladi.

Ko'k o't barcha xo'jaliklar uchun anchagina arzon bo'lishi bilan birga yengil hazm bo'ladigan va organizmga tez singib ketadigan oziq hisoblanadi. Shuning uchun ham u barcha turdagi qoramollar uchun qimmatli oziq sifatida ishlatiladi. O't berish miqdori mollarning yoshiga va oriq-semizligiga qarab rejalashtiriladi. Masalan, yosh mollarga bir kunda 30—50 kg, katta yoshdagilariga 40—70 kg atrofida ko'k o't berish mumkin. Bundan tashqari, 30 foiz atrofida yem ham berish tavsiya etiladi.

Ayrim vaqtlarda ko'k o't berib boqishda mollarni semirtirish darajasi yuqori bo'lmasa, ularning ratsioniga qo'shimcha ravishda lavlagi, xashaki poliz mahsulotlarini kiritish tavsiya etiladi (13.1-jadval).

## Mollarni boqish tartibi

Molxonadagi ishlar	Boshlanish soati	Tamom bo'lish soati	Davom etish vaqti, soat
Birinchi sog'ish	6.30	7.30	1.0
Oziqlantirish	7.30	8.30	1.0
Molxonani va mollarni tozalash	8.30	10.00	1.30
Mollarni yayratish	10.0	12.00	2.0
Dam berish	12.0	18.00	6.0
Ikkinchi sog'ish	18.0	18.30	1.30
Oziqlantirish	18.30	20.30	1.0
Molxonani tozalash	20.30	21.30	1.0
Kechasi xashak berish	21.30	22.00	0.30

Ratsion tarkibiga kiruvchi oзуqalarga ko'ra har xil tarkibga ega. Oзуqalarning to'yimligiga ko'ra tarkibi 13.2-jadvalda ifodalangan.

13.2-jadval

## Oзуqaning to'yimligiga ko'ra tarkibi (foiz)

Ratsion tarkibi	Katta yoshdagi mollar uchun (kg)	Buzoq (novvoslar) uchun (kg)	
		Boquvning dastlabki vaqtida	Boquvning so'nggi davrida
Ko'k o't	70	75	60-55
Yem (konsentrat)	30	25	35-40

Qishloq xo'jalik korxonalarida sut qoramolchiligi uchun qishki va yozgi davrlarga mo'ljallanib quyidagi ratsion tuziladi (13.3-13.4-jadvallar).

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, sog'ilgan sut ko'payishi bilan har 1 kg uchun oзуqa sarfi anchagina kamayadi. Ammo sut qancha ko'p sog'ib olinsa, oзуqa shuncha sifatli bo'lishi kerak. Bu shartlarga rioya qilinmagan holda oзуqa me'yorlarini ko'paytirish har 1 kg sut sog'ib olish uchun oзуqa sarfini ko'paytirishga olib kelishi mumkin. Bu ahvolni hisobga olish juda muhimdir, chunki

ozuqa uchun qilinadigan xarajatlar sut yetishtirish uchun qilinadigan jami xarajatlarning yarmini tashkil etadi.

13.3-jadval

**Yozgi davrda qo'llaniladigan sutkalik ratsion**

T.r.	Ozuqalar nomi	Sog'ilmaydigan sigirlar uchun	Sog'iladigan sigirlar uchun			
			1-5	6-10	11-15	16-22
1	Ko'k beda	30	30	33	38	43
2	Makkajo'xori (poya uchun)	7	7	10	11	13
3	Xashaki lavlagi	3	4	5	7	10
4	Kunjara	—	1	1,2	1,5	2
5	Aralash yem	1,3	—	—	—	—
6	Barda	—	10	11	13	15
7	Kalsiy fosfat	004	004	005	006	007
8	Osh tuzi	005	005	006	007	008

13.4-jadval

**Qishki davrda qo'llaniladigan sutkalik ratsion**

T.r.	Ozuqalar nomi	Sog'ilmaydigan sigirlar uchun	Sog'iladigan sigirlar uchun			
			1-5	6-10	11	16
1	Beda	9	4	5	6	7
2	Makkajo'xori silosi	—	13	17	20	25
3	Xashaki lavlagi	10	10	11	13	15
4	Kunjara	—	1	1,6	2,2	3,0
5	Aralash yem	1,2	—	—	—	—
6	Barda	—	8	10	12	15
7	Kalsiy fosfat	004	004	005	006	007
8	Osh tuzi	005	005	006	007	008

Oziqlantirish me'yorida sigirlar va o'stiriladigan yosh mollarini barcha zarur to'yimli va boshqa aktiv biologik moddalar bilan ta'minlash nazarda tutiladi.

Buzoqlarni, yosh mollarni, o'sayotgan va katta yoshdagi sigirlarni oziqlantirish me'yorida mollarning fiziologik holati, yoshi, semizligi, qochirilishi, laktatsiya davri, olinadigan mahsulot darajasi va sifati hamda iqlim xususiyatlari hisobga olinadi.

Shu bilan birga sigirlarni oziqlantirish ularning mahsuldorlik qobiliyatidan maksimal darajada foydalanishni ta'minlamog'i lozim. Bu narsa ozuqani sut bilan yuqori darajada qoplashga erishish imkonini beradi.

Shuning uchun oziqlantirishning belgilangan darajasiga butun laktatsiya davrida rioya qilish zarur va bunda sog'iladigan davrning oxiriga borib mahsuldorlikning kamayishini ham hisobga olish zarur. Sigirlar bolalagandan keyingi dastlabki haftalarda ularni yetarli darajada oziqlantirmaslik keyingi oylarda sog'ib olinadigan sutga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

### **13.5. Qo'ychilik iqtisodiyoti va boshqaruvi**

Qo'ychilik chorvachilikning aholi uchun oziq-ovqat va sanoat uchun xomashyo yetkazib beruvchi salmoqli tarmoqlaridan biridir. Qo'ychilikdan olinadigan go'sht, yog', sut pishloq kishilarning eng to'yimli, yuqori kaloriyali va har xil vitaminlarga boy ozig'idir. Jun, teri va boshqa qo'ychilik mahsulotlari sanoat uchun xomashyo hisoblanadi. Aholining qo'ychilik mahsulotlariga talabi yildan yilga ortib bormoqda.

Otar tuzilmasi qo'ylarning bosh sonini takror ishlab chiqarish sur'atiga, mahsulot berish darajasiga, binobarin, jun, qorako'l va qo'y go'shti tannaxiga, ularni ishlab chiqarish rentabelligiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri bo'lib, u qo'ychilikning yo'nalishiga, xo'jalikning tabiiy-iqtisodiy sharoitlariga, tarmoqni taraqqiy ettirish rejasiga bog'liq.

Fermer va dehqon xo'jaliklarida qo'ychilikni har tomonlama rivojlantirish uchun kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tashkil qilish lozim. Buning uchun qo'ylarni qochirish va qo'zilatish kompaniyasini o'z vaqtida o'tkazish, qo'ylarni asrash, boqish va parvarish qilish ishlarini yaxshi yo'lga qo'yish, go'sht, jun va qorako'l teri olishni ko'paytirish hamda sifatini yaxshilash, bo'rdoqiga ajratiladigan qari qo'ylarni va qayta tiklash uchun zarur qo'ylarni to'g'ri tanlab, rejada belgilangancha to'latib borish, yem-xashak bazasini mustahqamlash, fermalarni ishlovchi kuchi va zarur ishlab chiqarish vositalari bilan



to'la ta'minlash, mehnatni to'g'ri tashkil qilish, xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib borish kerak.

**Qo'ychilikning samaradorligi:** bir bosh qo'y hisobiga qirqib olingan jun hamda qirqib olingan yalpi jundan iborat ko'rsatkich yordamida aniqlanadi.

Go'sht yetishtirish esa bir bosh qo'ydan olingan go'sht hamda yalpi olingan go'shtga doir ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi.

Yalpi go'sht miqdori sotish uchun ajratilgan qo'yning o'rtacha og'irligini sotiladigan hayvonlar soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

### **13.6. Parrandachilik iqtisodiyoti va boshqaruvi**

Parrandachilikning asosiy mahsuloti tuxum va go'shtdir. Tovuq tuxumida kishi organizmi uchun zarur bo'lgan protein, yog', vitaminlar va mineral moddalar mavjud.

Tuxum ovqat tayyorlash, non pishirish, konditer mahsulotlari, mayonezlar, makaron, vermishel va muzqaymoq ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, ulardan to'qimachilik, ko'n, vino tayyorlash, fotografiya va boshqa sanoat tarmoqlarida ham foydalaniladi. Parranda go'shti sifat xossalari jihatidan kishining ovqatlanishi uchun alohida qimmatli mahsulotdir. Jo'ja va kurka go'shti parhez mahsuloti bo'lib, bolalar va betoblarning ovqatlanishida katta rol o'ynaydi.

Parrandalarning pati va pari sanoat uchun xomashyodir, undan yostiq, ko'rpa-to'shak va boshqa turli buyumlar tayyorlanadi. Parranda go'ngi qimmatli organik o'g'it bo'lib, undan farmatsevtikada ishlatish uchun organik kislotalar olinadi.

Parrandalar juda tez urchiydi, tez o'sib yetiladi, qisqa muddatda ko'p miqdorda go'sht va tuxum beradi. Ikki oylik o'rdakning vazni 2 kg, 4 oylik g'oz va kurkaniki 4 kilogrammga yetadi, tovuqlar 5 oyligida tuxumga kiradi. Tovuq jo'jasining vazni 70 kunligida 1,2–1,4 kilogrammga yetadi. Parrandachilik oz mehnat va ozuqa sarflanib, ko'p daromad olinadigan sohadir.

Parrandachilik yil bo'yi intensiv rivojlantirib borilganda, ishlovchi kuchidan bir me'yorda foydalanish imkoni yaratiladi hamda xo'jalikka parrandachilik mahsulotlarini sotishdan doim daromad kelib turadi.

Xo'jaliklarning tabiiy va iqtisodiy sharoitlariga, ish yuritish tizimiga va ishlab chiqarishning ixtisoslashuviga qarab parrandalar kataklarda, ochiq havoda, simlar bilan o'ralgan usti ochiq maydonlarda va kombinatsiyalashtirilgan usullarda boqiladi.

Hozirgi zamon yirik parrandachilik fabrikalarini batamom sanoat tipidagi korxonalar qatoriga kiritish mumkin. Sanoat parrandachiligida mehnatni oqilona tashkil etishda parrandachilikning sanoat xarakteriga ega bo'lishining mohiyatini, sanoat korxonasiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarini va undan farq qilinadigan tomonlarni bilib olish, mehnatni oqilona tashkil etishda obyektlarni belgilab chiqish kerak. Parrandachilik mahsulotlarini sanoat yo'li bilan ishlab chiqarishda asosiy vazifa — parrandalarning biologik imkoniyatlaridan eng to'liq foydalanish hamda kam ozuqa va mehnat sarflab, yuqori mahsuldorlikka erishishdan iborat.

Parrandachilik xo'jaliklari boshqa qishloq xo'jalik korxonalaridan farq qilib, parrandalarni boqish uchun asosan tashib keltiriladigan ozuqalardan foydalanadilar. Shunday qilib, qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yer parrandachilik fabrikalari uchun o'z ahamiyatini yo'qotadi va sanoatdagi kabi ishlab chiqarish obyekti bo'lib qoladi, xolos. Parrandachilik fabrikalarini boshqarishni tashkil etish va ularni boshqarish organlarining tuzilmasi sanoat korxonalarini boshqarishni tashkil etishga o'xshashdir.

Parrandachilik xo'jaliklarida asosiy ishlab chiqarish bo'linmasi, sanoat korxonalaridagi kabi, sex hisoblanadi. Ishlab chiqarish sexlari o'z faoliyatining yo'nalishiga qarab, bosh mutaxassislardan biriga bo'ysunadi. Masalan, hamma parrandachilik sexlari bosh zootexnika, muhandislik xizmatining barcha sexlari bosh muhandisga, xizmat ko'rsatuvchi sexlar direktorning mahsulotni sotish va xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosariga bo'ysunadi.

Parrandachilik xo'jaliklarida ishlab chiqarish texnologiyasi jo'jalarning parvarish qilish va tovuq galalarini jamlashni yil davomida bir maromda olib borishga asoslangan. Ishlab chiqarishni potokli usulda tashkil etishda asosiy jarayon inkubatorida jo'jalarni ommaviy ravishda ochib chiqarishdir.

Tuxumlarni sanoat yo'li bilan ochirishga o'tish istalgan miqdorda va belgilangan muddatda jo'ja olishni yo'lga qo'yish, parrandalar galasini to'xtovsiz aylanishini ta'minlash imkonini beradiki, bu sanoatdagi potokli ishlab chiqarish usuliga tamomila muvofiq keladi. Parrandachilik korxonalarida ish shunday tashkil qilinganki, inkubatsiya xonasining ish me'yori jo'jalarni o'stirish xonalardagi ish me'yorini belgilab beradi.

Butun yil mobaynida to'xtovsiz davom etadigan inkubatsiya barcha yoshdagi parrandalar harakatining uzluksiz oqimini vujudga keltiradi,

binobarin, parrandalarni to'xtovsiz kelib turishini ta'minlaydi, bu esa mahsulotning bir me'yorda yetishtirishni yo'lga qo'yish va ishlovchi kuchidan foydalanishdagi mavsumiylikni bartaraf qilish imkonini beradi.

Sanoat parrandachiligida ishlovchi kuchidan foydalanishdagi mavsumiylik tugatilishi bilan bir qatorda barcha ishlab chiqarish bo'linmalarida asosiy xodimlarni bir maromda ish bilan band bo'lishini ta'minlash sohaning asosiy yutug'idir.

### **13.7. Pillachilik iqtisodiyoti va boshqaruvi**

Pillachilik tarmog'ining asosiy mahsuloti kerakli darajada quritilgan pilladir. Pillani qayta ishlash jarayonida ip, undan esa ipaklik gazlamalar ishlab chiqariladi. Bu mahsulotlardan insonlar uchun o'ta yumshoq, silliq va chidamli kiyim-kechaklar tayyorlanadi. Uzoq yillar davomida ulardan samolyot, kosmik kemalarga parashut, elektr simlarida izolator, tibbiyotda, jarrohlikda tikish ipi sifatida va boshqa tarmoqlarda turli maqsadlarda foydalanib kelingan.

Hozirda buyumlar kimyoviy(sun'iy) tolalardan tayyorlanayotgani uchun ipak ipi va gazlamasidan, asosan, insonlar ehtiyoji yo'lida foydalanilmoqda. Pilla ipidan eng chiroyli va nafis atlas, shoyi, duxoba, gilam va boshqa xil matolar to'qiladi. Bir sentner xom pilladan 100–150 metrgacha ipak gazlama to'qiladi.

Pillaning yetilishi juda murakkab jarayon. Uning urug'i sanoat texnologiyasi asosida olinadi va rivojlantiriladi. 20–30 kun ichida qurtning og'irligi 10–14 marta ko'payadi. Buning uchun qurt yashil tut bargi bilan intensiv oziqlantiriladi. Qurtlar 1–2 yoshida har 2–3 soatda, 3–4 yoshida — har 3–4 soatda, 5 yoshida esa — har 4–5 soatda takror oziqlantiriladi. Bir gramm pilla urug'i 20–30 kun o'sish davrida 50–60 kg yashil barg iste'mol qiladi va 3–4 kg xom pillaga aylanadi. 1 kg pilla ishlab chiqarish uchun 15–17 kg barg sarflanadi.

Qurt go'ngidan dehqonchilikda organik o'g'it, sanoatda kislotalar olinadi.

Xom pilla ishlab chiqarishda mehnat resurslari, band bo'lgan binolar va boshqa resurslardan mavsumiy foydalaniladi. Agar ular bir marta tashkil etilsa, 20–30 kun, ikki marta tashkil etilsa, 40–60 kun foydalaniladi. Pillachilik ko'pchilik xo'jaliklarda qo'shimcha tarmoq sifatida rivojlantiriladi.

Pillachilik Xitoyda miloddan avvalgi 3 minginchi yillarda, O'zbekistonda esa milodning 5–6-asrlaridan boshlab rivojlandi. Pilla

urug'ini tayyorlash va boshqa jarayonlarning oddiy usullarda bajarilishiga qaramasdan pilla ishlab chiqarish hajmi bo'yicha jahon mamlakatlari ichida yetakchi o'rinlardan birini egallagan.

1913-yilda O'zbekistonda 165,8 ming quti pilla urug'idan 3980 t xom pilla ishlab chiqarilgan, har bir quti urug'dan 24 kg hosil olingan, quritilgan pilla qayta ishlanganda 24 foiz ga yaqin ipak tolasi olingan.

Ip va ipakli gazlamalarga talabning oshishini hisobga olib pillachikni rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirilgan, serbargli, serhosil tut navlari ekilgan.

Quti urug'i sonini ko'paytirish va uning hosildorligini oshirish natijasida 1940-yilda 9833 t yoki 1913-yilga nisbatan qariyb 2,5 marta ko'p pilla ishlab chiqarildi. So'nggi tarixiy davrlarda ham pilla ishlab chiqarish chora-tadbirlari amalga oshirildi. 1990-yilga kelib 32,8 ming tonna yoki 1940-yilga nisbatan 3,3 marta, 1913-yilga nisbatan esa 8 martadan ko'proq pilla yetishtirildi.

Ko'proq, sifatliroq va arzon pilla ishlab chiqarish uchun quyidagi omillar hamda imkoniyatlardan to'laroq foydalanish zarur:

1. Tut barglarida mavjud kompleks modda va boshqalarni saqlash va yanada ko'paytirish uchun ishlab chiqarish va tayyorlashning ilg'or usullaridan foydalanish zarur.

Bu maqsadda tut daraxtlarining plantatsiya maydonlarida o'stirilishi, ularni ekologik toza suv bilan yomg'irlab sug'orish, intensiv texnologiya asosida hosildorligini oshirish lozim. Natijada har kg pillaga ilg'or mamlakatlar, masalan, Yaponiyada, sarflangan ozuqa darajasiga erishish mumkin. Yaponiyada 1kg pillaga O'zbekistonga nisbatan 2 marta kam barg sarflanadi.

Bu o'ta dolzarb muammoni amalda hal etish mavjud tut daraxti maydonlarini kengaytirmasdan yalpi pilla miqdorini kamida 2 marta ko'paytirishga imkoniyat yaratadi;

2. Ozuqa resurslari sifatini may-sentabr oylarigacha ta'minlash 2-3 marta pilla yetishtirishga, tarmoqda band mehnat resurslaridan, binolardan va boshqa vositalardan foydalanish koeffitsientlarini oshiradi;

3. Qurtlarni asta-sekin maxsus binolarda boqishni tashkil qilish ham ilg'or jarayon hisoblanadi. Natijada pillachilikda band oilalarning turmush madaniyati yaxshilanadi;

4. Serhosil va sifatli pilla navlaridan foydalanish, ularni qayta ishlashni qishloq xo'jalik korxonalarida yoki qishloq tumanlarida tashkil etish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

5. Pilla va uni qayta ishlash jarayonida mahsulotlarni erkin, kelishilgan shartnoma baholarida sotish, ishchi va xizmatchilarga kafolatli mehnat haqi to'lashni amalga oshirishga erishish.

### **13.8. Baliqchilik iqtisodiyoti va boshqaruvi**

Ma'lumki, baliq mahsulotlarida, ayniqsa, yangi baliqda eng qimmatli va tez hazm bo'ladigan oqsil moddalar ko'p bo'ladi. Ovqatlanish institutining tavsiyalariga ko'ra, O'zbekiston aholisi jon boshiga yiliga 14,6 kilogramm baliq iste'mol qilishi kerak. O'zbekiston Respublikasi baliqchilik tarmog'ida xususiylashtirish va xususiy mulkchilikni rivojlan-tirish jarayonlarini chuqurlashtirish, baliq ovlash va baliqchilik faoliyatini tashkil etishda bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, tarmoqni yanada monopoliyadan chiqarish hamda raqobat muhitini shakllantirish, baliq va baliq mahsulotlarini sotishni tartibga solish maqsadida 2003-yil 13-avgustda Vazirlar Mahkamasining «Baliqchilik tarmog'ida monopoliyadan chiqarish xususiylashtirishni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 350-sonli qarori qabul qilingan.

Mazkur qarorga asosan baliqchilik tarmog'ining baliq ovlash va baliqchilik korxonalari to'liq xususiylashtirilib, xususiy mulkka aylantirilgan. «Respublika baliqchilik xo'jaliklariga tabiiy suv havzalarini birlashtirib quyish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizom» tasdiqlangan.

Nizomda Respublika tabiiy suv havzalarini baliq ovlash korxonalariga ijaraga berish va birlashtirib qo'yish tartibi belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunga 593,8 ming gektar tabiiy suv havzalarining 474,7 ming gektari 347 ta ijarachiga birlashtirilgan. Respublika Iqtisodiyot vazirligining loyiha ma'lumotlariga ko'ra yaqin yillar ichida Arnasoy pastligidagi ko'llarda 2408 sentner, Xorazm viloyatidagi ko'llarda 868 sentner, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi suv omborlarida 957 sentnerdan baliq ovlash mumkin.

Hovuz baliqchiligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining sarmahsul va rentabelli tarmoqlaridan biridir. Baliq yetishtirish Toshkent, Andijon va Xorazm viloyatlarida yaxshi rivojlanmoqda.

Tabiiy ko'llardan unumli foydalanib, baliq yetishtirishni yil sayin ko'paytirib borayotgan xo'jaliklardan biri Xorazm viloyati, Bog'ot tumanidagi baliqchilik xo'jaligida baliqchilikdan olinayotgan daromad yiliga 5—6 mln so'mni tashkil etmoqda.

**Baliq yetishtirish.** O'zbekiston baliqchiligida, asosan, sazan, usach, ship va leshch baliqlari yetishtiriladi. Respublika suv havzalariga Uzoq Sharqdagi daryolardan oq amur, to'mtoq tumshuq va ilon bosh baliqlari keltirilib ko'paytirildi.

Baliq urchitish zavodlarida baliq tuxumini sun'iy urug'lantirish usuli keng qo'llanilmoqda. Sun'iy urug'lantirilgan tuxum maxsus apparatlarga – suv oqib o'tadigan qutilarga joylanadi. Tuxumdan chiqqan baliqchalar sadoqlarga solinib, hovuzlarga qo'yib yuboriladi. Hovuzlardan turli suv havzalariga tarqatiladi.

Mamlakatimizda baliqlarni ko'paytirish uchun ularni hovuzlarda urchitish tashkil etilgan. Bunda baliqlar bir-biriga suv o'tib turadigan to'rtta hovuzda boqilib, bu hovuzlarning har biri maxsus vazifani bajaradi.

Birinchi hovuzda baliq tuxum qo'yadi va baliq chavoqlari yetishtiriladi, so'ngra ular alohida hovuzlarga ko'chiriladi, qishda esa ancha chuqur, ya'ni qishlash hovuzlariga o'tkaziladi. Ko'klamda bir yashar baliqlar yayrab yuradigan katta hovuzlarga tushiriladi. Baliqlar har xil, aralash ozuqalar bilan boqiladi, kuzda kattalashgandan so'ng ovlanadi.

### **13.9. Asalarichilik iqtisodiyoti va boshqaruvi**

Asal – asalarilarning o'z hayotini saqlab qolish uchun qishga g'amlab oladigan oziq'idir.

Kishilar qadim zamonlarda asalni deyarli yakka-yagona shirinlik sifatida, mumini esa eng qulay yorituvchi vosita sifatida ishlatishgan. Shuning uchun ham o'rmonlarda asalarining daraxtlardagi uyalarini topib, daraxtlarni kesishar, o't, tutun va boshqa vositalar yordamida asalarilarni qirib tashlab, asal hamda mumini yig'ib olishar edi.

**Asalarichilik-qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining serdaromad tarmog'i hisoblanadi.** Asal yuqori kaloriyali oziq-ovqatdir, 1 kg asal 3150 kilokaloriyaga ega. Asal yengil hazm bo'lishi jihatidan bolalar, keksalar va og'ir kasaldan turgan kishilar uchun tengi yo'q ozuqadir. Asal turli oziq-ovqatlarni chirish va mog'orlashdan saqlovchi antibiotik dori hamdir. Hozirgi paytda ko'plab kasalliklar, xususan, asab, yurak, buyrak, jigar, oshqozon, ko'z va teri kasalliklarini asal bilan davolaydilar.

Asalari zahri bilan bod, quyanchiq, radikulit kabi kasalliklar bilan og'riqan bemorlarni ayrim jarrohlik kasalliklarini davolashda ishlatiladi. U qon bosimini pasaytiradi. Ari suti bakteritsid xususiyatiga ega, shu tufayli u anemiya, frunkulyoz, artrit va boshqa kasalliklarni davolashda

malham hisoblanadi. Ari suti ishtahani ochadi, organizmda modda almashinuvini kuchaytiradi. Shuningdek, u qon hosil bo'lishini tezlashtiradi va yaxshilaydi.

Asalarichilikdan mum ham olinadi, u sanoatning 40 dan ortiq tarmog'ida, jumladan, yog'ochsozlik, teri ishlash, to'qimachilik, aviatsiya, metallurgiya va kimyo sanoatida qo'llaniladi. Farmatsevtika sanoatida surkaladigan xilma-xil dori, malham, shuningdek, tish protezlari tayyorlashda mumdan keng foydalaniladi. Elektr va radiotexnikada mum tengi yo'q, aniq o'lchaydigan asboblarni izolatsiya qilish materialidir.

Asalari ko'pchilik ekinlarni, tokzorlarni, shuningdek, mevali daraxtlarni changlovchi sifatida ham qishloq xo'jaligiga katta foyda keltiradi. Asalarining ekin va mevazorlarni changlantirishi natijasida olingan qo'shimcha hosil asal va mumga qaraganda 10–15 barobar ko'p daromad keltiradi.

Mamlakatimizda asalarichilikni yanada rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlar mavjud. Chunki bahorning erta boshlanishi va iliq bo'lishi asalari oilalarini tez kuchga kirishiga va ozuqa bazasidan samarali foydalanishiga imkon beradi, yurtimizda qashqargul, g'ozpanja, sariq burkun, yantoq, shilvi, bo'znoch, bo'ztikan, yorongul va shunga o'xshash turli o'simliklar o'sadiki, ular shiraga nihoyatda boydir.

Qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'l hosil olishda asalarichilik ham katta rol o'ynaydi. Ma'lumki, asalarilar asal uchun shira yig'ish chog'ida guldan gulga qo'nib, ularni changlaydi va bu bilan bo'lajak hosilga zamin hozirlaydi. Masalan, respublikamizdagi katta-katta paxta maydonlari asalarilarning kamligi tufayli changlanmay qolmoqda.

Modomiki, shunday ekan, dalachilik, bog'dorchilik va boshqa tarmoqlarning xodimlari asalarichilikni rivojlantirish va undan o'simliklarni changlatishda foydalanishdan manfaatdor bo'lishlari kerak. Har bir xo'jalikda asalarichilik fermasining faoliyatini qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari manfaatlarini hisobga olgan holda tashkil qilishi, ya'ni xo'jalikda asalari oilalarini ko'paytirish o'simliklarni changlatishga bo'lgan ehtiyojini to'la-to'kis qondirishni hisobga olgan holda amalga oshirish lozim.

Asalarichilik chorvachilik tarmoqlari bilan muayyan aloqada bo'ladi. Asalarilar juda ko'p yem-xashak ekinlarining, avvalo, urug'likning ko'payishiga, binobarin, shu ekinlar uchun ajratiladigan ekin maydonlarining kengayishiga yordam qiladi.

Aholining kuz va qish paytlarida sabzavot bilan ta'minlash uchun issiqxonalarda sabzavot yetishtirishning avj olishi yopiq joylardagi ekinlarni asalari bilan changlatishga bo'lgan ehtiyojini keskin oshirib yubordi, natijada changlovchi asalari uyalarining miqdori ko'paydi. Asalarilardan issiqxona xo'jaliklarida foydalanish sabzavotdan yuqori hosil olishga imkon beradi, xo'jalik esa bu ekinlarni sun'iy yo'l bilan changlatish mashaqqatidan xalos bo'ladi. Changlovchi asalarilarni saqlashga ketadigan sarf-xarajatlar issiqxonada yetishtiriladigan sabzavot narxiga qo'shiladi.

***Nazorat va muhokama uchun savollar:***

- 1. Chorvachilikning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati qanday?*
- 2. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari va ularning xususiyatlari nimada?*
- 3. Chorvachilik tarmoqlari ishlab chiqarishi va uning iqtisodiy samaradorligi qanday aniqlanadi?*
- 4. Qoramolchilik iqtisodiyoti haqida nimalarni bilasiz?*
- 5. Parrandachilikning rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?*
- 6. Pillachilikni rivojlanishini qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportini rivojlantirishga ta'siri qanday?*
- 7. Asalarichilikning ahamiyati va mohiyati nimada?*
- 8. Baliqchilikning ahamiyati nimada va uni rivojlantirish yo'llari qanday?*
- 9. Mamlakatda oziq-ovqat muammosini yechishda chorvachilikning ta'siri qanday?*
- 10. Chorva mahsulotlarini yetishtirishda fermer va dehqon xo'jaliklarining o'rni qanday?*



## **IV bo'lim. QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHNING SAMARADORLIGI**

---

### **14-bob. QISHLOQ XO'JALIGINI INTENSIVLASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI**

#### **14.1. Ishlab chiqarishni ekstensiv va intensiv rivojlantirishning mohiyati**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rivojlanishi kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarish qonuni asosida amalga oshadi. Bu rivojlanishga ekstensiv rivojlantirish va intensiv rivojlantirish yo'llaridan foydalangan holda erishiladi.

**Qishloq xo'jaligini ekstensiv shaklda rivojlantirish** deganda, mahsulot ishlab chiqarish va samaradorlikning o'sishini miqdoriy omillar evaziga — yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga ekin maydonlarini ko'paytirish, chorva mollari boshini ko'paytirishga qo'shimcha ishlovchilarni jalb etish orqali erishish tushuniladi. Bunda ishlab chiqarish resurslari ko'lamlarining ortishi yuz bergani holda texnika texnologiyasi, sifat darajasi, yer unumdorligi va chorva mollari mahsuldorligi tubdan o'zgarmaydi.

Ekstensiv omillar dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ko'plab ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlar qadimda o'zlari o'zlashtirgan yerlarni tark etib unumdor yerlarni qidirish uchun yer sharining har tomoniga tarqalganlar. Yangi yerlarni o'zlashtirish hozir dunyoning boshqa mamlakatlarida ham davom etmoqda. Shu bilan birgalikda dunyo mamlakatlarining rivojlanish tarixi tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligini yuksaltirishni nisbatan samaradorlik va ahamiyatliroq shakli bo'lgan intensivlashtirish muhim o'rin tutadi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning intensiv shaklida — mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi sifat omillari evaziga, ya'ni ishlab chiqarishga nisbatan takomillashgan zamonaviy ishlab chiqarish resurslarini tadbiiq etish (ulardan to'la va samarali foydalanish), dehqonchilik va chorvachilikning mahsuldorligiga ijobiy ta'sir etuvchi ilg'or texnologiya, ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalari, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkillashtirishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali amalga oshiriladi. Shuni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerakki, kengay-

tirilgan takror ishlab chiqarishning ekstensiv shakli ba'zi hollarda samarali bo'lishi mumkin, shunga muvofiq har doim ekstensiv shakl samarasiz deb hisoblash o'zini oqlamaydi.

Amalda bu ikki yo'l ishlab chiqarishning rivojlanishida bir-birini to'ldirib, pirovardida umumiy iqtisodiy samaradorlikning ortishiga olib keladi. Shu sababli qishloq xo'jaligida ayrim holatlarda ekstensiv o'sish omillari va intensiv o'sish omillarini birgalikda qo'llash natijasida samaraga erishiladi. Ular yagona xo'jalik faoliyatiga xos usullar bo'lib, bir vaqtning o'zida iqtisodiy o'sishda ham miqdoriy (ekstensiv), ham sifat (intensiv) jihatlari mavjuddir, ammo ularning nisbati har xil mutanosiblikda bo'ladi. Iqtisodiyotda qo'l mehnati texnologiyasi va malakasiz ish kuchiga asoslanilsa, ekstensiv o'sish ustun turadi. Aksincha, ishlab chiqarish mashinalashgan, serunum texnologiya va yuksak malakali ish kuchiga tayanilgan joyda intensiv o'sish birinchi o'rinda turadi, ishlab chiqarish rivojlangan sari qonuniyatli tarzda intensiv o'sishning ahamiyati barqaror oshib boradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish nazariyasi, avvalo, yer xususiyatini hisobga olish, uni qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi ekaniga asoslanadi. Ma'lumki, yerning asosiy vosita sifatida muhim xususiyatlaridan biri uning chegaralanganligidir. Yerning chegaralanganligi, o'z navbatida, qishloq xo'jaligini intensivlashtirishni taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishni qo'shimcha yer maydonlarini o'zlashtirish orqali amalga oshirish chegaralanganligi ishlab chiqarish oldiga mavjud o'zlashtirilgan yerlarning sifatini yaxshilash, binobarin, ulardan intensiv foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

## **14.2. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning asosiy omillari**

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirish — ko'p jihatli jarayon bo'lib, hozirgi sharoitda ishlab chiqarishni intensivlashtirishda quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

1). Iqtisodiy munosabatlarni tubdan qayta qurish. Qishloq xo'jaligini yuksaltirishni birlamchi masalalaridan biri qishloqda iqtisodiy munosabatlarni o'zgartirish, dehqonlarga kam xarajat qilgan holda ko'plab sifatli mahsulot yetishtirishga intilish hissiyotiga ega bo'lgan yerning haqiqiy egalik huquqini qaytarish. Qishloqda iqtisodiy qayta

qurishning asosida — dehqonlarga mustaqil harakat etish, tadbirkorlik va tashabbuskorlikni amalga oshirish uchun xo'jalik yuritishning turli mulkchilikka va shakliga asoslangan muhitni yaratish;

2). Yetishtirilgan mahsulotlarni asrash, nobudgarchilikning oldini olish. Qishloq xo'jaligini mavsumiylik xususiyatiga mutanosib holda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish. Qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning turli mulkchilik shakllarini keng rivojlantirish orqali ishlab chiqarishda saqlash, qayta ishlash shoxobchalarini yaratish. Mahsulotlarning nobudgarchiligi oldini olish bilan bir qatorda ularni tashish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish;

3). Qishloq xo'jaligini kimyolashtirish. Ishlab chiqarishni kimyolashtirish asosida yerning unumdorligini oshirish orqali dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirishga qaratilgan tadbirlar yotadi:

a) Qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirishga qaratilgan mineral o'g'itlarni qo'llash tadbirlari;

b) Kimyoviy vositalardan begona o'tlarga qarshi kurashish tadbirlari;

d) O'simlik va chorva mollarining zararkunanda hashoratlari va kasalliklariga qarshi kurashishda kimyoviy vositalardan foydalanish tadbirlari;

e) Chorva mollari ozuqasini to'yimlilikini oshirishda kimyoviy mahsulotlarni keng ko'lamda qo'llashga qaratilgan tadbirlar;

f) Qishloq xo'jaligi chorva mollarining mahsuldorligini oshirishda qo'shimchalardan foydalanish.

4) Qishloq xo'jaligini melioratsiyalash — sug'orish, zax qochirish, yerni ohaklash, sho'rni yuvish tadbirlarini o'z vaqtida, sifatli amalga oshirish tadbirlari;

5) Resurs talabchanligi kam bo'lgan intensiv texnologiyalarni qo'llash. Dehqonchilikda mavjud texnologiyalarni takomillashtirish muhim bo'lib, ularning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

a) Ilmiy asoslangan o'g'it me'yorlarini qo'llash orqali qishloq xo'jaligi ekinlarining ozuqa talabchanligini optimallashtirish;

b) Qishloq xo'jalik ekinlarining intensiv navlarini ishlab chiqarishga tadbir etish;

d) Yerdan va boshqa asosiy vositalardan samarali foydalanishni ko'zda tutgan o'simliklarni joylashtirishning ratsional usullarini ishlab chiqish;

e) Qishloq xo'jalik mashinalarini takomillashtirish orqali agrotexnika tadbirlarini amalga oshirishni qisqartirish va qo'shib olib borish;

f) Mahsulotlarni yig'ish, ortish va tashishdagi tadbirlarni takomillashtirish.

6) Chorva mollarining tarkibi, sifati va ozuqa bazasini yaxshilash. Chorvachilikni intesivlashtirishning muhim omili poda harakati va sifatini yaxshilash hisoblanadi. Bunga yuqori mahsuldor mollar nasllarini yaratish bilan bog'liq tadbirlar kiradi. Chorvachilikning rivojlanishida uning mustahkam ozuqa bazasini yaratish muhim bo'lib, ozuqa tarkibi, ko'lami va sifatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar;

7) Ishlab chiqarishni joylashtirish va ixtisoslashtirishni takomillashtirish. Fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida qishloq xo'jalik ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi yuksala boradi. Shu bilan birga iqtisodiy asoslangan qishloq xo'jalik korxonalarining optimal o'lchamlari, ularni mehnatga muvofiq ixtisoslashuviga, dehqonchilik va chorvachilik madaniyatini ko'tarishga, fan-texnika yutuqlarining amaliyotga tadbiriq etilishiga zamin yaratilib, mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirishga erishiladi;

8) Mutaxassislarining malakasini oshirish. Qishloq xo'jaligiga fan yutuqlarini tadbiriq etishga kadrlarning mutaxassislik saviyasi va texnik tayyorgarlik darajasini oshirmay turib erishish mumkin emas. Qishloq xo'jaligida mutaxassislarining malakasini oshirish, birinchidan, mutaxassislarga murakkab va ilgari amalga oshira olmagan ishlarni bajarish uchun ularning malakasini oshirish va qo'shimcha kasblarni egallashiga zamin yaratish, ikkinchidan, nisbatan yuqori sifatga ega bo'lgan mahsulot olish, uchinchidan, ma'lum bir vaqt oralig'i davomida avvaldagidan ko'proq mahsulot yetishtirish yoki xizmatlar hajmini bajarishga imkon yaratish;

9) Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlari va ilg'orlar tajribasini tadbiriq etish. Hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligini intesivlashtirish sur'atlarini oshirish va uning samaradorligini ko'tarishga fan yutuqlari natijalarining tadbiriqsiz erishib bo'lmaydi. Fan-texnika sohalaridagi yutuqlar ishlab chiqarish kuchlarini yanada yuksaltiruvchi muhim omil bo'lib, ishlab chiqarish resurslari qatorida ishlab chiqarish jarayonlarida ishtiroq etadi. Qishloq xo'jaligini intesivlashtirishda amaliyotda mavjud bo'lgan ilg'or tajribalar natijasini tahlil qilish va ularni ishlab chiqarishga keng tadbiriq qilinishi katta ahamiyat kasb etib, mahsulot ko'lamining ortishiga va ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **14.3. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning ko'rsatkichlari**

Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish masalalarini o'rganishda intensivlik va intensivlashtirish darajasi, intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi tushunchalarini bir-birdan ajrata bilish lozim.

Intensivlik — bu qishloq xo'jaligi va uning ayrim tarmoqlarini ma'lum vaqt ichida ishlab chiqarish vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligini aks ettiradi.

Intensivlashtirish darajasi — qishloq xo'jaligi va uning ayrim tarmog'ini xolisona o'sish sur'ati darajasini o'zida aks ettiradi.

Intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi ekin maydoni birligi hamda chorva moli boshi hisobiga o'sishni o'zida aks ettiradi.

Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish darajasi natural va qiymat ko'rsatkichlari yordamida aniqlanadi. Natural ko'rsatkich yordamida xo'jalikdagi tarmoqlar va ularni bir-birlari bilan qanchalik bog'langanligi hamda ayrim tarmoqchalar va ekin turlari bo'yicha qancha mahsulot yetishtirilganligini aniqlash mumkin.

Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish darajasini o'zida aks ettiruvchi natural ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1) Yer maydoniga to'g'ri keladigan energetika quvvati. Bu ko'rsatkich har 100 gektar yer maydoniga qancha texnika vositalari, avtomashina va boshqa qishloq xo'jalik mashinalari to'g'ri kelishini ko'rsatadi;

2) Har gektar ekinzorga to'g'ri keladigan mineral va mahalliy o'g'it. Bu ko'rsatkich yerning iqtisodiy unumdorlik darajasiga ta'sir etish ko'lamini ifoda etadi;

3) Yer fondida ekin maydonlari hissasini ko'paytirish. Bu ko'rsatkich yerdan qay darajada foydalanilayotganligini ko'rsatadi;

4) Sug'orilib dehqonchilik qilinadigan yerlarning umumiy yer maydoniga nisbati. Bu ko'rsatkich tuproqning iqtisodiy unumdorligi o'sish darajasini ifodalaydi.

Chorvachilikning intensiv rivojlanganligini aks ettiradigan ko'rsatkichlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Har bosh qishloq xo'jaligi hayvoniga to'g'ri keladigan qiymat ko'rinishdagi jonli va buyumlashgan mehnat sarfi. Har bir bosh hayvon hisobiga qancha ko'p ishlab chiqarish vositalari va bevosita mehnat xarajatlari to'g'ri kelsa, qoidaga muvofiq undan olinadigan mahsulot miqdori ham shuncha yuqori bo'ladi.

2. Har bosh qishloq xo'jaligi hayvoniga to'g'ri keladigan ozuqa. Chorva mollarini ilmiy ratsion asosida oziqlantirish mahsuldorlikning o'rtishiga olib keladi;

3. Chorvachilikni yuritish madaniyatini ko'tarish: maxsus qulayliklarga ega bo'lgan chorva binolarini barpo etish, ish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va elektrlashtirish, sanitariya va gigiyena sharoitlarini yaxshilash va boshqarish;

4. Chorvachilikda naslchilik bilan bog'liq ishlarni yaxshilash. Chorva mollarining nasli qancha zotdor bo'lsa, ulardan olinadigan mahsulot miqdori ham shuncha sifatli bo'ladi;

5. Mutaxassislarning malakasini oshirish mehnat unumdorligining o'sishiga ta'sir etadi.

Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish darajasini o'zida aks ettiruvchi qiymat ko'rsatkichi sarflangan mehnat va mablag' evaziga qancha so'mlik qo'shimcha mahsulot yetishtirilganligini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlanish darajasini o'zida aks ettiruvchi qiymat ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1. Bir gektar yer maydoniga to'g'ri kelgan asosiy ishlab chiqarish xarajatlari va joriy ishlab chiqarish (amortizatsiyadan tashqari). Bu ko'rsatkich quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$I_d = \frac{AF_q + A_y F_q}{S}; q \quad (14.1)$$

bunda:  $I_d$  – intensivlik darajasi;

$AF_q$  – asosiy fondlarning vositalari qiymati;

$A_y F_q$  – aylanma fondlarning qiymati;

$S$  – yer maydoni.

Intensivlik darajasi ko'rsatkichi qishloq xo'jaligining qay darajada intensiv rivojlanganligini o'zida aks ettiradi;

2. Bir gektar yer hisobiga to'g'ri kelgan asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymati. Bu ko'rsatkich har gektar yer maydoni hisobiga qancha ishlab chiqarish vositalari to'g'ri kelishini o'zida aks ettiradi;

3. Bir gektar yer hisobiga to'g'ri kelgan joriy ishlab chiqarish xarajatlari. Bu ko'rsatkich har gektar yer va har bir qishloq xo'jalik hayvonlaridan olingan mahsulot uchun bevosita sarflangan xarajatlar miqdorini o'zida ifoda etadi;

4. Bir gektar yer hisobiga to'g'ri kelgan jonli mehnat sarfi. Bu ko'rsatkich mahsulot yetishtirishda sarflanayotgan jonli mehnat hissasini ko'rsatadi.

Shunday qilib, intensivlashtirishning natural va qiymat ko'rsatkichlari yordamida intensivlashning iqtisodiy samaradorlik darajasini aniqlash mumkin.

#### **14.4. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi, uni amalga oshirish yo'llari**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning hal qiluvchi sharti har bir gektar yerdan va har bir bosh moldan olinadigan mahsulotni ko'paytirish hisoblanadi. Intensivlashtirish jarayoni bir gektar yerga yoki bir bosh molga qo'shimcha mablag'ning o'sishi bilan birga ulardan samarali foydalanishni ham bildiradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi sarflangan xarajatlar hajmiga taqqoslaganda har bir gektar yerdan arzon va yuqori sifatli mahsulotni yuqori sur'atda olishda ifodalanadi.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, yer, moddiy texnika va mehnat resurslaridan faol foydalanish, tabiiy va iqtisodiy sharoitlarni har tomonlama hisobga olishni talab qiladi. Nazariy jihatdan har qanday yer uchastkasiga, har qanday hajmda har qanday kapitalni qo'yish mumkin, lekin bu mamlakatda shu paytda barcha sharoitlar, ya'ni iqtisodiy, texnikaviy, madaniy va boshqa sharoitlar mavjud bo'lishiga bog'liq. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga sarflanadigan xarajatlar oqilona sarflanishi kerak, bunda xo'jalik har bir birlik xarajatga ko'proq mahsulot va maksimum foyda olsin.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlar tizimi orqali aniqlanadi. Ular orasida birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lganlari quyidagilar:

– bir gektar yer maydonga to'g'ri kelgan yalpi mahsulot:

$$I_{\text{sam}} = \frac{YM}{S} \quad (14.2)$$

$I_{\text{sam}}$  – intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi, so'm/ga;

YM – yalpi mahsulot qiymati, so'm;

S – yer maydoni, ga.

Xo'jalik yalpi mahsuloti taqqoslama baholarda baholanadi. Bunday baholanish ushbu ko'rsatkichni dinamikada, shuningdek, bir xil sharoitda ishlaydigan qator xo'jaliklar faoliyatini taqqoslashni o'tkazishda foydalanish imkonini beradi. Hosildorlikning oshishi va bir vaqtning o'zida

unga sarflangan tannarxning pasayishi intensivlashtirish samaradorligining yuqori darajada ekanligini bildiradi. Bunday holatda yerga sarf qilingan har bir so'm nafaqat xarajatlarni qoplaydigan qo'shimcha mahsulot olib kelmasdan, balki qo'shimcha sof daromad olish imkonini ham beradi:

– bir gektar qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga to'g'ri kelgan yalpi daromad:

$$I_{\text{sam}} = \frac{YD}{S} \quad (14.3)$$

bunda: YD – yalpi daromad (sof mahsulot), so'm.

Bu ko'rsatkich ancha takomillashgan ishlab chiqarish vositalarida, ilg'or texnologiyada, qishloq xo'jaligi ekinlarining yuqori navi va mollar zoti hamda boshqalarda bajarilgan, qo'shimcha mablag'lardan oqilona foydalanishni aks ettiradi.

– bir gektar qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga to'g'ri kelgan sof daromad yoki foyda:

$$I_{\text{sam}} = \frac{SD}{S} \text{ yoki } \frac{F}{S} \quad (14.4)$$

bunda: SD – sof daromad, so'm;

F – foyda, so'm.

Bu ko'rsatkich alohida ahamiyatga ega. Modomiki, sof daromad qo'shimcha qo'yilmalarning asosiy manbayi hisoblanar ekan, u holda kelgusida ishlab chiqarishni kengaytirish va mustahkamlash uning hajmiga bog'liq. Qishloq xo'jaligini izchillik bilan intensivlashtirish qo'shimcha mablag'larning tez qaytarilishiga va mos ravishda sof daromadning o'sishiga olib keladi.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi, shuningdek, quyidagi ko'rsatkichlar bilan ham xarakterlanishi mumkin:

– bir birlik mehnat xarajatlari hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot (yalpi va sof daromad) hajmi:

$$I_{\text{sam}} = \frac{YM}{M_{\text{xar}}} \text{ yoki } \frac{YD}{M_{\text{xar}}} \text{ yoki } \frac{SD}{M_{\text{xar}}} \quad (14.5)$$

bunda:  $M_{\text{xar}}$  – mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan mehnat xarajatlari, kishi/soat;

YM – bir so'mlik asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlari hisobiga olingan yalpi mahsulot (yalpi va sof daromad):



$$I_{sam} = \frac{YM}{AF_q + A_y F_q} \text{ yoki } \frac{YD}{AF_q + A_y F_q} \text{ yoki } \frac{SD}{AF_q + A_y F_q} \quad (14.6)$$

bunda:  $AF_q$  – asosiy fondlarning qiymati, ming so‘m;

$A_y F_q$  – aylanma fondlar qiymati, ming so‘m.

Shunday qilib, qishloq xo‘jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi bir gektar yerdan ishlab chiqariladigan mahsulotning ko‘payishida, mahsulot birligiga sarflangan jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlarining pasayishida o‘z aksini topadi.

Qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish, uning yo‘nalishiga, sur‘atiga va samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadigan ko‘p omillarga bog‘liq. Qishloq xo‘jaligini intensivlashtirishda muhim omil fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga tadbiiq etish bo‘lib, u o‘z tarkibiga nafaqat mashina texnikasidagi taraqqiyotni, balki ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish texnologiyasidagi ishlab chiqarishni rivojlantirishning ilg‘or tajribalaridan foydalanishni ham kiritadi.

Tuproqqa ishlov berishni yaxshilash, qo‘shimcha organik va mineral o‘g‘itlar solish, meliorativ ishlarni o‘tkazish, barcha kompleks agrotexnik tadbirlarni bajarish tuproqning iqtisodiy unumdorligini oshirishga, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni o‘stirishga imkon beradi.

Qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari quyidagilar:

- a) qishloq xo‘jaligida fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirish;
- b) qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida investitsiya va kapital qo‘yilmalarning o‘sishi;
- d) qishloq xo‘jaligi moddiy texnika bazasini mustahkamlash;
- e) ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish darajasini oshirish;
- f) qishloq xo‘jaligini kimyolashtirishni rivojlantirish (mineral o‘g‘itlar solish va kimyoviy o‘simliklarni himoya qilish vositalarini qo‘llash);
- g) qishloq xo‘jaligini melioratsiyalash (sug‘orish, yerning zaxini qochirish, boshqa ishlarni rivojlantirish);
- h) qishloq xo‘jaligi uchun kadrlar tayyorlashni takomillashtirish.

Intensivlashtirishni izchillik bilan amalga oshirishning muhim sharti qishloq xo‘jaligiga ajratilgan kapital qo‘yilmalarning o‘shidir. Qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarishni asta-sekinlik bilan sanoat asosiga

o'tkazishga imkon beruvchi kuchning iqtisodiy potensialidan foydalaniladi.

Qishloq xo'jaligining moddiy texnika bazasini mustahkamlash, traktorlar, kombaynlar, avtomobillar va boshqa texnikalarni yetkazib berishni ko'paytirish ishlab chiqarish jarayonlarida mexanizatsiyalashtirish darajasini asta-sekinlik bilan oshirish, dehqonchilik va chorvachilikda ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishni joriy qilishning ishonchli asosi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda shudgorlash, g'alla ekish, paxta ekish, qator oralariga ishlov berish, g'allani yig'ishtirish ishlari to'liq mexanizatsiyalashgan.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning yetakchi yo'nalishlaridan biri kimyolashtirishdir. Organik va mineral o'g'itlarni solish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishga, qo'shimcha mablag'lar qaytimini tezlashtirishga imkon beradi va bevosita tuproq unumdorligini o'zgartirishga yordam beradi.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning yana bir muhim yo'nalishi melioratsiya hisoblanadi. Bu tuproqning iqtisodiy unumdorligini va dehqonchilik samaradorligini oshirishning kompleks va uzoq muddat ta'sir qiluvchi omilidir.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirish ishlab chiqarishga qo'yilgan, sarflangan har bir so'mdan oqilona foydalanishni ko'zlaydi. Qishloq xo'jaligini tubdan intensivlashtirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini sifat jihatdan qayta tashkil etish va uning samaradorligini oshirishning yetakchi omili hisoblanadi.

#### ***Nazorat va muhokama uchun savollar:***

- 1. Ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?*
- 2. Ishlab chiqarishni ekstensiv rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?*
- 3. Ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish omillari qanday omillar?*
- 4. Ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirishdan maqsad nima?*
- 5. Ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirishda innovatsiyaning o'рни qanday?*
- 6. Ishlab chiqarishda innovatsiyaviy texnologiyalar deganda nimani tushunasiz?*
- 7. Intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi qanday aniqlanadi?*
- 8. Intensivlik nima?*
- 9. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish nimalarni talab qiladi?*
- 10. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning darajasi qaysi ko'rsatkich orqali aniqlanadi?*

## **15-bob. IJTIMOYIY ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA MAHSULOT TANNARXI**

### **15.1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va mahsulot tannarxi**

Qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqarish tarmoqda ishlab chiqarish resurslari (mehnat, yer, suv va moddiy va boshqa)ni ishlatish bilan chambarchas bog'langan, qaysiki ishlab chiqarish jarayonida qisman yoki butunlay iste'mol qilinadi, ularning qiymati esa tayyor mahsulotga o'tadi. Iste'mol qilingan va mahsulotga o'tkazilgan ishlab chiqarish resurslarining jami yig'indisi mahsulotning ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari ikki xil bo'ladi: ijtimoiy xarajatlar va korxonaxarajatlari. Ijtimoiy xarajatlar bu jamiyatning u yoki bu mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarining jamidir. Ular mahsulot qiymatidan tashkil topadi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari (ajratmalari bilan);
2. Yagona yer solig'i;
3. Iste'mol qilingan moddiy resurslar qiymati;
4. Qo'shimcha mahsulot qiymati.

*15.1-iadval*

#### **Qishloq xo'jaligida asosiy mahsulotlarga tannarx hisoblash obyektlari**

<b>Tarmoq turlari</b>	<b>Tannarx hisoblash obyektlari</b>
Dehqonchilik	
G'alla ekinlari	G'alla G'alla chiqitlari
Texnika ekinlari: Paxta	Paxta G'o'zapoya
Kartoshka	Kartoshka
Sabzavotlar	Pomidor, sabzavot, bodring va boshqalar

Uzum	Uzum, ko'chatlar
Meva va rezavorlar	Meva, rezavorlar, ko'chatlar
Poliz mahsulotlari	Qovun, tarvuz va boshqalar
Silos ekinlari	Ko'k massa
Bir yillik va ko'p yillik o'tlar	Pichan Ko'k massa Urug
Chorvachilik	
Sut yo'nalishida	Sut Buzoq
Go'sht qoramolchiligi	Go'sht
Cho'chqachilik	Go'sht, cho'chqa bolasi
Qorako'lchilik	Go'sht Jun Qorako'l teri
Parrandachilik	Jo'ja Tuxum Go'sht
Pillachilik	Pilla

Qo'shimcha qiymat boshqarish, maorif, sog'liqni saqlash, mudofaa, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va boshqalarga qilingan xarajatlarni qoplashga sarflanadi. Mahsulotlar qiymatining asosiy qismi korxonalar xarajatlari tashkil etadi. Uning tarkibiga mehnat haqi, ishlab chiqarishda qatnashgan asosiy vositalarning yillik eskirishi, mashina uskunalari, aylanma vositalarning qiymati, ayrim soliqlar, to'lovlar va boshqalar kiradi. Ma'lumki, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari xo'jalik yuritishning barcha shakllarida mahsulot qiymatining ajralmas qismi hisoblanadi. Xarajatlarning qiymatdan farqi takror ishlab chiqarish jarayonining barcha fazalarida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarning shakllanishi qiymat tashkil topishining birinchi bosqichidir. Bunda ishlab chiqarishning o'zi mehnat jarayoni va qiymat yaratish jarayonining birligi bo'lib harakat qiladi. Jonli va buyumlashgan xarajatlar hamda tadbirkorlik yalpi mahsulot, shu jumladan, qo'shilgan qiymatni yaratadi. Ishlab chiqarish jarayonida

qiymat va korxonada xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlik amaliy ahamiyatga ega. Nooqilona xo'jalik yuritish, ishlab chiqarish resurslaridan yetarli darajada samarali foydalanmaslik tufayli sarflangan barcha turdagi bevosita va bilvosita xarajatlarning samaradorligi pasayadi.

Ijtimoiy xarajatlarning, binobarin, qiymatning ma'lum bir qismi sifatida ishlab chiqarish xarajatlari pulda ifodalanadi. Shuning uchun ishlab chiqarish xarajatlariga ishlab chiqarish resurslarining qo'llanilgani emas, balki iste'mol qilingan qiymati kiradi. Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga mehnat yaratgan jami qiymat emas, balki to'langan bevosita va bilvosita mehnat haqi qo'shiladi. Ishlab chiqarish xarajatlariga yer resurslari qiymati emas, undan foydalanish bilan bog'liq xarajat (yer uchun to'lov, ijara haqi va boshqa)lar, asosiy vositalarning qiymati emas, faqat amortizatsiya summasi, moddiy aylanma vositalaridan foydalanilgan miqdor kiradi. Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari to'liq tannarxning asosini tashkil etadi.

## **15.2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini rejalashtirish va hisoblash yo'llari**

Tannarx korxonada mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun sarflangan joriy, ya'ni yillik pulda ifodalangan xarajatlarning jami yig'indisidir.

Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi quyidagilardan iborat.

### *Dehqonchilikda:*

- to'g'ri mehnat haqi ajratmalari bilan;
- o'g'it va ko'chatlar;
- amortizatsiya;
- urug'lik;
- ishlar va xizmatlar;
- yoqilg'i moylash materiallari;
- sug'urta to'lovlari;
- umum ishlab chiqarish;
- boshqa xarajatlar.

### *Chorvachilikda:*

- to'g'ri mehnat haqi ajratmalari bilan;
- yem-xashak;
- amortizatsiya;
- ishlar va xizmatlar;
- yoqilg'i moylash materiallari;
- sug'urta to'lovlari;
- umum ishlab chiqarish xarajatlari;
- boshqa xarajatlar.

Korxonaning mahsulot olish uchun sarflangan hamma ishlab chiqarish xarajatlari yig'indisi yalpi mahsulot tannarxini ifodalaydi va quyidagicha hisoblanadi:

$$YMT = X_{i, ch} \quad (15.1)$$

Asosiy va qo'shimcha mahsulot birligining tannarxi jami ishlab chiqarish xarajatlarining yalpi mahsulot miqdoriga nisbati bilan topiladi:

$$T = \frac{X_{i, ch}}{YM} \quad (15.2)$$

Mahsulot birligi tannarxidan tashqari ayrim ishlar (traktor, avtotransport, ishchi hayvon va boshqalar)ning, shuningdek, qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yerga ishlov berish, bir bosh hayvondan mahsulot olish xarajatlari ham aniqlanadi.

Xarajatlarning shakllanish bosqichlariga qarab, tannarxning quyidagi turlari mavjud bo'ladi:

1. Texnologik;
2. Ishlab chiqarish;
3. Tijorat yoki to'la tannarx.

1. Texnologik tannarxga, mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, bo'limlarda brigada, ferma va seklarda ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil qilish bilan bog'liq xarajatlar kiradi.

2. Ishlab chiqarish tannarxi texnologik tannarxlarning yig'indisini, korxonani va ishlab chiqarishni butunlay boshqarish bilan bog'liq xarajatlarning (umumxo'jalik xarajatlari) yig'indisini ifodalaydi.

3. Tijorat yoki to'la tannarx ishlab chiqarish xarajatlarining jamisi va mahsulotni sotish bilan bog'liq bo'lgan, muomala xarajatlarining yig'indisini ifodalaydi. U faqat tovar mahsulot uchun hisoblanadi.

Bundan tashqari, hisoblash xarakteriga qarab quyidagicha tannarx turlari aniqlanadi:

1. Reja tannarxi;
2. Dastlabki, vaqtinchalik va taxminiy tannarx;
3. Haqiqiy tannarx.

1. Reja tannarxi, bu korxonada rejalashtirilayotgan davrdagi mahsulot birligiga sarflanishi lozim bo'lgan xarajatlar yig'indisini ifodalaydi.

2. Vaqtinchalik yoki taxminiy tannarx esa, masalan, 9 oylik haqiqiy xarajatlarni va 4-kvartaldagi reja xarajatlarini o'z ichiga oladi.

3. Haqiqiy tannarx esa yil oxirida korxonada xo'jalik faoliyatini yakun qilishda yillik hisobotlar asosida hisoblanadi. U olingan yalpi mahsulot

uchun sarflangan haqiqiy xarajatlar asosida topiladi. Mahsulot tannarxi shakllanish joyiga qarab, individual (konkret korxonada, uyushma va boshqa), zona (ma'lum bir zonaning o'rtachasi) va tarmoq tannarxlariga bo'linadi (mamlakat bo'yicha o'rtacha).

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan va kiritilmaydigan xarajatlar bo'ladi:

I. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;  
b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;  
d) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

II. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foyda hisobga olinadigan hamda davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar:

a) sotish xarajatlari;  
b) boshqarish xarajatlari (ma'muriy sarf-xarajatlar);  
d) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar.

III. Xo'jalik yurituvchi subyektning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisob-kitob qilishda hisobga olinadigan xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlari:

a) foizlar bo'yicha xarajatlar;  
b) xorijiy valuta bilan operatsiya bo'yicha salbiy kurs tafovutlari;  
d) qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash;  
e) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

IV. Favqulodda zararlar, u daromad(foйда)dan olinadigan soliq to'langunga qadar foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadi.

Yuqorida sanab o'tilgan xarajatlarni turlarga bo'linishini kengroq ko'rib chiqish maqsadga muvofiq, ular:

1. Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar;
2. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
3. Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.
4. Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
5. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar.

Davr harajatlari deganda, bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi: boshqaruv xarajat-

lari, mahsulotni sotish xarajatlari va umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Davr xarajatlariga quyidagi moddalar kiradi:

1. Sotish xarajatlari;
2. Ma'muriy xarajatlar;
3. Boshqa operatsiya xarajatlari;
4. Hisobot davrining kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlari.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalash stavkalari doirasida va ulardan yuqori doirada qisqa muddatli hamda uzoq muddatli kreditlar bo'yicha, shu jumladan, to'lov muddati o'tgan va uzaytirilgan ssudalar bo'yicha to'lovlar;

2. Mol-mulkn uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo'yicha foizlarni to'lash xarajatlari;

3. Chet el valutasini bilan operatsiyalar bo'yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar;

4. Sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, shu'ba korxonalariga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar;

5. O'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar;

6. Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar, shu jumladan, salbiy diskont.

Favqulodda zararlar — bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlar moddalaridir. Bunga favqulodda moddalar va davr xarajatlari tarkibida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davr moddalari kirmaydi.

U yoki bu moddaning favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatiga xos emasligi;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq emasligi.

Tegishli moddalarni favqulodda xarajatlarga kiritish yoki kiritmaslik to'g'risida qarorlar qabul qilishda ishlar amalga oshiriladigan sharoitlarni ham hisobga olish lozim.



Masalan, agar xo'jalik yurituvchi subyekt alohida iqlim sharoitlarda joylashgan bo'lsa, u holda iqlim sharoitlariga bog'liq holdagi ishlamay turib qolishlar favqulodda deb baholanishi mumkin emas, chunki ushbu modda «bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak» mezoniga javob bermaydi.

Qishloq xo'jaligida mahsulot tannarxini hisoblash tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqadigan bir qancha xususiyatlarga ega:

1. Dehqonchilikda mahsulot ishlab chiqarishning yillik sikli, shuningdek, ish vaqti va ishlab chiqarish vaqtining mos kelmasligi mahsulot tannarxini hisoblashni faqat xo'jalik yili tugagandan keyin amalga oshirish kerakligini ko'rsatadi;

2. Ko'pgina dehqonchilik ekinlari va turli-tuman chorvachilik mahsulotlarini olish bir-biri bilan bog'liq;

3. Tugallanmagan ishlab chiqarish summasini aniqlash faqat yil oxirida 1- yanvar holatida aniqlanadi. Bu xarajatlarga kelgusi yil hosili uchun qilingan xarajatlar kiradi;

4. Haqiqiy tannarxi faqat yil oxirida aniqlanadi, yil davomida esa reja xarajatlari bilan hisoblanadi, bu haqiqiy xarajatlarni yil oxirigacha aniqlash imkonini bermaydi;

5. Turli xil mahsulotlarni joylarga yetkazish xarajatlarining turli-tumanligi.

Qishloq xo'jaligida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining barcha asosiy turlari bo'yicha, shuningdek, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchilar bo'yicha ham tannarx hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini hisoblashda ma'lum bir ketma-ketlikni saqlash tavsiya etiladi:

1. Asosiy vositalarni saqlashga mo'ljallangan xarajatlarni rejalashtirish va xarajatlar hisobi obyektarga qarab taqsimlanadi;

2. Asosiy ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatadigan qo'shimcha va yordamchi sanoat ishlab chiqarishi mahsuloti (ish va xizmat) tannarxi hisoblaniladi;

3. Yerlarni sug'orish va zaxini qochirish bo'yicha xarajatlar taqsimlanadi, ekinlarni changlatishda asalarichilik xizmati hisobdan chiqariladi;

4. Brigada, ferma, sex va umumxo'jalik xarajatlari taqsimlanadi;

5. Rejalashtirish va hisob obyektlari bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy qiymati aniqlanadi;

6. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxi hisoblanadi;

7. Ozuqa sexlarini saqlash bo'yicha xarajatlar taqsimlanadi;
8. Chorvachilik mahsulotlari tannarxi hisoblanadi;
9. Mollarning tirik vazni tannarxi hisoblanadi;
10. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan, yordamchi (sanoat) ishlab chiqarish mahsulotlari tannarxi hisoblanadi;
11. Dehqonchilik, chorvachilik va sanoat ishlab chiqarish tovar mahsulotlarining kommersiya (to'liq) tannarxi ishlab chiqarish tannarxiga sotish xarajatlarini qo'shish yo'li bilan hisoblaniladi.

### **15.3. Mahsulot tannarxini pasaytirishning imkoniyatlari va omillari**

Mahsulot tannarxi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligining muhim omili va bir vaqtning o'zida ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi.

Har qanday mahsulot birligining tannarxi ikki miqdor nisbatiga: ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot sifatiga bog'liq bo'ladi.

Tannarx quyidagi hollarda pasayishi mumkin:

- agar mahsulot o'zgarmagani holda, xarajat miqdori kamaysa;
- agar yalpi mahsulot miqdori ko'payib, xarajatlar o'zgarmasa;
- agar yalpi mahsulotining o'sish sur'ati xarajatlar o'sish sur'atidan ilgari ketsa.

Mahsulot tannarxi omillari qishloq xo'jaligida turli-tumandir. Ularni 3 guruhga bo'lish mumkin, ya'ni:

1. Tannarxning 2 tarkibiy qismiga, ya'ni ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot miqdori;
2. Faqat xarajat miqdori;
3. Faqat mahsulot miqdori.

*1-guruhga:*

- a) xodimlarning moddiy manfaatdorligi;
- b) ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash;
- d) ishlab chiqarish texnologiyasini qisqa vaqtda va sifatli bajarish.

*2-guruhga:*

- a) ishlab chiqarishning mehnat sig'imi;
- b) ishlab chiqarishning yer sig'imi;
- d) ishlab chiqarishning fond sig'imi,
- e) ishlab chiqarishning material sig'imi.

3-guruhga:

- a) qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va hayvonlar mahsuldorligi;
- b) ekin maydonlari va poda strukturasi;
- d) mahsulotni saqlash usullari.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlariga qanday xarajatlar kiradi?
2. Mahsulot tannarxi nima?
3. Ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishini mahsulot tannarxiga ta'siri qanday?
4. Ishlab chiqarish tannarxi nima?
5. Tannarxni pasaytirish yo'llari qanday?
6. Hisoblash xarakteriga ko'ra tannarx qaysi turlarga bo'linadi?
7. Mahsulot tannarxiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?
8. Bevosita sarf-xarajalar tarkibi nimalardan iborat?
9. Bilvosita sarf-xarajatlarga nimalar kiradi?

### **16.1. Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mahsulot yetishtirish jarayonida jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari sarflanib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligi umumiy ko'rinishda ishlab chiqarishning natijasi, jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari o'rtasidagi nisbat bilan ifodalanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirishning obyektiv zarurligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichidagi bir qator xususiyatlar va doimiy harakatdagi omillarning yig'indisiga bog'liq. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish oziq-ovqat va xomashyoga bo'lgan talabning o'sib borishi, mahsulot sifatiga bo'lgan talabning kuchayishi, ba'zi ishlab chiqarish resurslarining chegaralanganligi, ishlab chiqarish vositalari qiymatining o'zgarishi va boshqalarni ko'rsatib turadi.

Hozirgi bosqichdagi jamiyatning rivojlanishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

Mamlakatda to'plangan iqtisodiy potensial, fan va texnikaning rivojlanishi, malakali kadrlar, ommaning faolliigi, ularning tajribasi, shuningdek, yuqori pirovard natijalarga ommaning moddiy qiziqishining o'sishi o'simlik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishini ko'paytirishga sharoit yaratadi, tannarxni pasaytirish va rentabellikni oshirish imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga imkon beradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini o'rganishda **«Samara» va «Samaradorlik»** – tushunchalarini bir-biridan farqlash kerak.

**«Samara»** tushunchasi qandaydir jarayonning natijasini bildiradi. Umumiy ko'rinishda har qanday ishlab chiqarishning samarasi shaklida uning vazifasi – ishlab chiqarishda biror bir tadbirni qo'llash natijasida ishlab chiqarishning maqsadini amalga oshiruvchi pirovard mahsulot yuzaga chiqadi. Bir tomondan, u o'z tarkibiga ma'lum davrdagi harakatdagi ishlab chiqarish resurslarining moddiy natijasi yig'indisini

oladi, boshqa tomondan — ishlab chiqarishning pirovard maqsadi faqat bevosita ishlab chiqarilgan moddiy boyliklarning hajmida mujasamlashgan bo'ladi.

«Samara» — qishloq xo'jalik mahsulotlari shaklida (natura va pulda) ishlab chiqarish resursi, xarajat, foyda tarzida esa iqtisodiy, shuningdek, xodimlarning yashash va ishlash sharoitini ham aks ettiruvchi ijtimoiy o'sish bo'lishi mumkin.

Lekin samara qanchalik muhim bo'lsa ham, o'z-o'zidan kishining mehnat faoliyatini to'liq xarakterlamaydi, qanday resurs (xarajat)lar evaziga olinganligini ko'rsatmaydi. Bir xil samara turli usul bilan, resurslardan turlicha darajada foydalanish orqali olingan bo'lishi mumkin va aksincha, bir xil resurslar turli samara berishi mumkin. Shuning uchun erishilgan samarani shu samarani olishda qatnashgan resurslar bilan taqqoslash zaruriyati kelib chiqadi.

Bundan ko'rinadiki, samara(natija) deb atalgan absolut miqdor bilan bir qatorda yana bir absolut miqdor — qo'llanilgan yoki iste'mol qilingan resurslar(joriy ishlab chiqarish xarajatlari)ning hajmini bilish zarurligini keltirib chiqaradi.

**Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi iqtisodiy samaraning (natijaning) resurslarga (xarajatlarga) nisbati yoki, aksincha, usuli bilan aniqlanadi:**

$$I_{\text{sam}} = \frac{S_{\text{sam}}}{R_{\text{xap}}}; \quad \frac{R_{\text{xap}}}{S_{\text{sam}}} \quad (16.1)$$

*Iqtisodiy samaradorlik darajasi qanday bahodagi resurslar hisobiga iqtisodiy samaraga erishilganligini bildiradi. Samara qancha katta va xarajat shuncha kichkina bo'lsa, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi shuncha katta bo'ladi va aksincha.*

Resurslar va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida ma'lum bir aloqa mavjud. Xarajatlar ikki xil bo'lishi mumkin: jonli va buyumiashgan. Jonli mehnat, asosiy va moddiy aylanma vositalarning absolut miqdori resurslar (xarajatlar) sifatida, ular miqdorining kamayishi va ularni tejash — iqtisodiy samara shaklida ko'rinadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi mohiyati, uning mezonini va ko'rsatkichlari orqali amalga oshadi. Mezonning ilmiy tushunchasi ma'lum bir belgi, baho o'lchovini ifodalaydigan asosiy sifati uning muhim xossasidir. Qishloq xo'jalik

ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi mezonini jamiyatga kerak bo'lgan yer maydoni birligidan chiqadigan qishloq xo'jalik mahsulotining olinishi shu bilan bir qatorda ishlab chiqarishning tejamliligi va yuqori sifatini ta'minlashdir.

Ko'rsatilgan mezon qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning maqsadiga — tarmoq mahsulotiga aholining o'sib borayotgan talabini to'laroq qondirishga javob beradi va uning yutuqlari yo'lini — ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish va intensivlashtirish asosida sistemali ravishda ishlab chiqarishni o'stirishni aniqladi.

Shu bilan birga bu mezonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyati, eng avvalo, yer resurslari bilan mustahkam aloqasini aks ettiradi.

Qishloq xo'jaligida samara va resurslarning bosqich darajasiga qarab, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi xalq xo'jaligi, tarmoq, qishloq xo'jaligi, davlat, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari ayrim qishloq xo'jalik tarmoqlari va mahsulotlari samaradorligi, alohida ishlab chiqarish resurslari, shuningdek, alohida xo'jalik tadbirlari agrotexnik, zootexnik, veterinariya, texnika, iqtisodiy tashkiliy munosabatlar va boshqalarning samaradorligi kabi turlarga bo'linadi.

Xalq xo'jaligi samaradorligi oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojni qondirish, sanoatning xomashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirish, shuningdek, tarmoqni umumdavlat, xalq xo'jalik topshiriqlari va muammolarini hal qilishda moliyaviy hissasi nuqtayi nazaridan baholanadi.

Tarmoq samaradorligi resurslar salohiyatidan foydalanishda xalq xo'jaligining shu tarmog'ida samara (natija) va resurs (xarajat) o'rtasidagi erishilgan nisbatning natijasini aks ettiradi.

Fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi tarmoq samaradorligi bo'lib hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari va alohida mahsulot turlarini ishlab chiqarish samaradorligi dehqonchilik, chorvachilik va shu tarmoqlar mahsulotlari — g'alla, paxta, kartoshka, sabzavot, go'sht, sut, tuxum va boshqalarning pirovard iqtisodiy natijalarini xarakterlaydi.

Ishlab chiqarishni intensivlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan turli xo'jalik tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash ancha muhim hisoblanadi. Bunday tadbirlar jumlasiga ekin maydonlarining turli tarkibi, qishloq xo'jaligining yangi navlari, ilg'or texnologiya va alohida agrotexnik tadbirlar (tuproqni ishlash, ekish, hosilni yig'ish

va boshqa usullar), hayvonlarning yangi zoti, poda strukturasi, oziqlantirish ratsioni va boshqalar kiradi.

## **16.2. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda obyektiv iqtisodiy qonunlarni moddiy ishlab chiqarishning shu tarmog'ida o'z ko'rinish shakllarini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya etiladi. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tizimining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqarish resurslar samaradorligini umumlashgan holda aks ettirishdan, uning mezonini mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash usullaridan foydalanishni taqozo etadi.

Ishlab chiqarish samaradorligini baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimiga asoslash, turli xarakterda iqtisodiy samarani o'lchash hamda turli xarakterdagi resurslar va xarajatlarni o'lchash sifatida ham zarurdir. Ular o'zining iqtisodiy tabiati va har doim taqqoslab bo'lmasligi bilan farq qiladi.

**Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari xususiy va umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarga bo'linadi.**

Xususiy ko'rsatkichlarga, mahsulot hajmi va mahsulot sifati, mehnat unumdorligi, yer qaytimi, fond qaytimi, material qaytimi, mahsulot tannarxi va shularga teskari ko'rsatkichlar kiradi. Bu ko'rsatkichlar natija sifatida, sanoatning xomashyoga, aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirishga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining maqsadini ancha to'laroq aks ettiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, umumiy samara faqat ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori bilan emas, balki qo'yilgan maqsadga bog'liq holda, boshqa hajm ko'rsatkichlarga ham ega.

Masalan: yalpi mahsulot ishlab chiqarish samarasini bosh vazifa – iste'mol qiymat yaratish nuqtayi nazardan; tovar mahsulot-qishloq xo'jalik mahsulotlariga ijtimoiy ehtiyojni qondirish nuqtayi nazaridan; sof mahsulot (yalpi daromad) – takror ishlab chiqarishning ikki tomoni – iste'mol va jamg'arish – birligida ishlab chiqarish samaradorligini hisoblash uchun; foyda va sof daromad – ishlab chiqarish samaradorligini ishlab chiqaruvchilarning iste'mol qiymatga bo'lgan manfaatini qondirish nuqtayi nazaridan xarakterlanadi.

Shu bilan birga, kishilarning ehtiyojini qondirish darajasi ishlab chiqarilgan mahsulotning faqat miqdoriga emas, balki sifatiga ham bog'liq. Mahsulot sifatini yaxshilash, bir tomondan, oziq-ovqat mahsulotlari miqdorining ko'payganligini bildirsa, yengil sanoat uchun qishloq xo'jalik xomashyosining sifati yaxshilanishi aholining keng iste'mol buyumlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirishga imkoniyat yaratadi.

**Mehnat unumdorligi yoki mehnat qaytimi** ma'lum vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga sarflangan jami mehnat xarajatlarining samaradorligini xarakterlaydi.

**Yer qaytimi** qishloq xo'jaligida bosh ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yer resurslaridan foydalanish samaradorligini aks ettiradi.

**Fond qaytimi** qishloq xo'jaligiga taalluqli asosiy ishlab chiqarish vositalarida mujassamlashgan, buyumlashgan mehnat xarajatlaridan qay darajada samarali foydalanayotganligini ko'rsatadi.

**Material qaytimi** barcha turdagi moddiy resurslardan, shu jumladan, buyumlashgan mehnat xarajatlaridan foydalanish samaradorligini aks ettiradi.

**Mahsulot birligi tannarxi** umumlashgan holatda jami iste'mol qilingan ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini xarakterlaydi, qishloq xo'jaligi mahsuloti qanday darajadagi xarajatlar hisobiga ishlab chiqarilganligini ko'rsatadi.

Alohida resurslar va xarajatlardan foydalanishni tavsiflaydigan bu ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi absolut samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridir.

Masalan: asosiy fond qaytimida, alohida traktor, kombayn, mahsuldor hayvonlar va boshqalar; aylanma fond qaytimida, alohida urug'dan foydalanish, yem-xashak, yoqilg'i-moylash materiallaridan foydalanish bo'yicha ham o'rganiladi.

Demak, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari, bir tomondan, ishlab chiqarish resurslari va samara (natija) o'rtasidagi nisbatni, boshqa tomondan, joriy ishlab chiqarish xarajatlari bilan samara o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi, bu ishlab chiqarish samaradorligining ikkita konsepsiyasini — resurs va xarajatni — vujudga keltiradi.

**Resurs konsepsiyasi** — takror ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilgan ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini, **xarajatlar konsepsiyasi** — shu resurslarning iste'mol qilingan qismi samaradorligini baholashga imkon beradi. Maqsadga qarab resurs yoki



xarajatlar konsepsiyasi yoki ikkovidan ham bir vaqtda foydalanish mumkin.

Qabul qilingan samaradorlikning konsepsiyalariga mos ravishda ko'rsatkichlari ham aniqlanadi:

Bitta xodimga, 1 kishi/soatiga, 1 ga qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerga, 100 so'mlik asosiy vositaga, 100 so'mlik aylanma vositalarga to'g'ri kelgan samara qo'llanilgan resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi. 100 so'm ish haqiga, amortizatsiya ajratmasiga, moddiy aylanma vositalarga hamda mahsulot tannarxiga to'g'ri kelgan mahsulot tannarxga kiritilgan barcha bevosita va bilvosita xarajatlari samaradorligini ifodalaydi.

Keltirilgan xususiy ko'rsatkichlar, ma'lumki, umumiy samara (natija)ni alohida ishlab chiqarish resurslari xarajat turi miqdoriga nisbatini aniqlaydi.

Lekin ishlab chiqarish jarayonida umumiy samara (natija)ning vujudga kelishida alohida resurs(xarajat)lar qatnashadi. Demak, har bir resurs (xarajat) umumiy samara (natija)ning vujudga kelishida ishtirok etadi. Bu uslubiy jihatdan ma'lum darajada xato bo'lsa ham, umumiy samara ana shu ishlab chiqarish resurslarining birgalikdagi faoliyatining natijasidir. Shuning uchun ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini har tomonlama va aniq baholash uchun, alohida usulda hisoblanadigan ko'rsatkichlarni, har bir ishlab chiqarish resursining umumiy samarani yaratishdagi rolini va ularning ishlab chiqarish pirovard natijasiga ta'sirini hisobga oladigan ko'rsatkichlar bilan to'ldirish lozim. Buning uchun elastiklik, determinatsiya koeffitsientlaridan, shuningdek, iqtisodiy-matematik modellashtirish uslubidan foydalanish kerak bo'ladi.

Hisoblash murakkab bo'lsa ham, bir umumlashtiruvchi shunday ko'rsatkich kerakki, u qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini miqdoriy jihatdan to'liq baholaydigan bo'lishi kerak. Bu vazifani bajarish uchun umumlashtiruvchi ko'rsatkich quyidagi talablarga javob berishi kerak:

– ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy qonunlaridan kelib chiqishi kerak;

– ishlab chiqarishning pirovard natijasini jami resurslar yoki jami xarajatlar bilan taqqoslashni ta'minlaydigan ko'p omilli bo'lishi kerak;

– bu ko'rsatkich samaradorlikni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning turli darajalarida, qishloq xo'jaligi korxonalaridan boshlab bir butun qishloq xo'jaligi bo'yicha ochib berishi kerak;

– bu ko'rsatkich bilan hisoblash metodik nuqtayi nazaridan oddiy va qulay bo'lishi kerak.

Yuqorida bayon qilingan, ishlab chiqarish samara (natija)si va ishlab chiqarish resurs (xarajat)lari to'g'risidagi asosiy metodologik sharoitlarga mos, shuningdek, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligining umumlashtiruvchi ko'rsatkichga bo'lgan talabini hisobga oladigan ko'rsatkich resurs qaytimi (resurs sig'imi) hisoblanadi. U qo'llanilgan resurslar salohiyatidan foydalanishning samaradorligini karakterlaydi.

***Xarajatlar konsepsiyasi samaradorligining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi*** – rentabellik hisoblanadi u iste'mol qilingan resurslarning qaytimini ifodalaydi.

Samaradorlikni eng muhim qiymat ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

$$I_{\text{sam}} = \frac{YM(YD,SD,F)}{X_{j,m} + X_{b,m} \cdot E_m} \quad (16.2)$$

bunda:  $I_{\text{sam}}$  – samaradorlik;

$YM$  – yalpi mahsulot;

$X_{j,m}$  – ishlab chiqarish xarajatlari;

$E_m$  – 0,15 asosiy fondlar iqtisodiy samaradorligining me'yoriy koeffitsienti;

$X_{b,m}$  – buyumlashgan mehnat xarajatlari.

Mehnat unumdorligi:

$$I_{\text{sam}} = \frac{YM(YD,SD,F)}{M_s \text{ yoki } N} \quad (16.3)$$

$M_s$  – mehnat sarfi;  $N$  – xodimlar soni.

Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar aniqlanadi:

$$I_{\text{sam}} = \frac{YM}{S}; \quad I_{\text{sam}} = \frac{YD}{S}; \quad I_{\text{sam}} = \frac{SD}{S}; \quad S = \frac{F}{S}. \quad (16.4)$$

6. Fondlardan foydalanish samaradorligi:

$$FQ = \frac{YM}{\Delta F_q} \quad FS = \frac{\Delta F_q}{YM} \quad (16.5)$$

### 16.3. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabelligi va foyda me'yori

Xarajatlar konsepsiyasining samaradorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkichi — rentabellik hisoblanadi va u iste'mol qilingan resurslarning qaytimini ifodalaydi. Rentabellik nisbiy ko'rsatkich bo'lib, ishlab chiqarishning daromadlilik darajasini bildiradi. Bu ko'rsatkichni korxonada faoliyatini baholash va investitsiyaviy siyosatni yuritish hamda baho belgilashda asosiy mezon sifatida ishlatishadi.

Xo'jalikning rentabelligini aniqlash yalpi mahsulot, yalpi va sof daromad kabi omillar bilan bog'liq.

**Yalpi mahsulot** — bu xo'jalikda yetishtirilgan barcha mahsulotning yig'indisidir.

**Yalpi daromad** — yalpi mahsulot qiymatidan sarflangan ishlab chiqarish mablag'lari (material — pul xarajatlari) chiqarib tashlansa hosil bo'ladi.

**Yalpi daromad, o'z navbatida, sof daromad va mehnat haqiga ho'linadi.**

**Sof daromad** — yalpi daromadning mehnat haqi fondi chiqarilib yuborilgandan keyin qolgan qismi hisoblanadi. Sof daromad mahsulotni realizatsiya qilishdan kelgan summadan uni yetishtirishga sarflangan xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismiga tengdir.

Xo'jalikning rentabelligi, dastavval, mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan sof daromad (foyda) bilan xarakterlanadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining bahosi barqaror darajada bo'lsa, tannarx kamayadi, mahsulot yetishtirish va realizatsiya qilish hajmi ko'payadi, uning sifati yaxshilanadi. Bularning hammasi rentabellikni oshirishga imkon beradi.

***Rentabellikda mutloq ko'rsatkich** — bu foydadir. Foyda — bu realizatsiya qilish natijasida olingan sof daromadning qismi bo'lib, u mahsulot sotishdan keladigan mablag'dan — sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni yoki to'la tannarx qiymatining chiqarib tashlangan qismiga teng bo'ladi:*

$$F = SM_q - TT \quad (16.6)$$

bunda:  $SM_q$  — sotilgan mahsulot qiymati (tushdi).

$TT$  — to'liq tannarx.

Foyda – bu faqat ishlab chiqarish jarayonida tashkil topgan natija hisoblanib qolmasdan, balki mahsulotlarni sotish jarayonida erishilgan oxirgi iqtisodiy ko'rsatkichdir.

Eng avvalo, unda jonli mehnat xarajatlari ifodalanadi, chunki uning asosida yalpi daromad yotadi, xodimlarning jonli mehnati bilan yangi mahsulot yaratiladi. Mehnat unumdorligi qancha yuqori bo'lsa, yangidan yaratilgan qiymatdagi ish haqi salmog'i shuncha oz bo'ladi, uning bir qismi foydani tashkil qilishga ketadi. Foydada, shuningdek, buyumlashgan mehnat xarajatlarining samaradorligi aks etadi.

Mahsulot birligi hisobiga to'g'ri kelgan moddiy xarajatlar va ish haqi xarajatlarining kamayishi, baho o'zgartirishida foydani ko'paytiradi va nihoyat, bu ko'rsatkichda mahsulot sifati namoyon bo'ladi. Foyda bir qator muhim iqtisodiy vazifalarni bajaradi:

1. O'lchash vazifasi – foydadan ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkich sifatida.

2. Taqsimlash vazifasi – qo'shimcha mahsulotni taqsimlash vositasi sifatida.

3. Rag'batlantirish vazifasi – iqtisodiy rag'batlantirish fondini shakllantirish manbai sifatida.

1 yalpi foyda (zarar) – qishloq xo'jalik korxonasida tovar mahsulotini sotishdan tushgan tushum, ya'ni sof pul tushumidan ( $SM_q$ ) sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarni ishlab chiqarish tannarxi ( $T_n$ ) olib tashlanadi. Bunda sof pul tushumi jami pul tushumidan qo'shimcha qiymat solig'i, aksiz solig'i, tashqariga chiqarilgan tovar solig'i, tovar sotib oluvchi tovarni qaytarib berish mumkin bo'lgan skidkalmi (tabiiy kamayish) chiqarish yo'li bilan aniqlanadi:

$$YF = SM_q - T_n \quad (16.7)$$

2. Korxonada asosiy faoliyatidan olingan foyda (zarar) (AFF). Buni aniqlash uchun yalpi foyda (zarar)dan sotish va ma'muriy xarajatlardan (davriy xarajatlardan) (DX) ayirilib, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlari (BD) va xarajatlari (BX) ham mos ravishda qo'shilib va ayirib tashlanadi:

$$AFF = YF - DX + BD - BX \quad (16.8)$$

3. Korxonaning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar) (UF). Asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar)dan olingan dividendlar, zayomlar bo'yicha foizlar, valutaning kurs farqi, boshqa moliyaviy

faoliyat bo'yicha daromadlar (MD) qo'shilib, xarajatlari va bank prosentlari (BX) ayriladi:

$$UF = AFF + MD - MX \quad (16.9)$$

4. Soliq to'laguncha foyda (zarar) (STF) umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda favqulodda( ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda (FF) qo'shiladi va zarar (FZ) ayirib tashlanadi:

$$STF = UF + FF - FZ \quad (16.10)$$

5. Sof foyda (zarar) (SF). U soliq to'langandan keyin xo'jalik subyekti ixtiyorida qoladi, o'zida daromad (foyda)dan to'lanadigan soliq (DS) va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlar (BS) chiqarib tashlangan holda soliqlar to'langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - DS - BS \quad (16.11)$$

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish rentabelligining mutloq ko'rsatkichi bilan bir qatorda uning nisbiy ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. Bu ko'rsatkich o'zida rentabellik normasi va foyda normasini ifoda etadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulotlari dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari doirasida ayrim ekinlar va chorva hayvon turlari doirasida, mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari rentabelligi aniqlanadi. Bu ko'rsatkichni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonlarida qilingan xarajatlarning qoplash muddatlarini aniqlashda universal deb hisoblanadi.

Shu bilan birga foyda samaradorlikni yagona va butun qamrab oluvchi ko'rsatkich hisoblanmaydi. Yangidan yaratilgan qiymatning bir qismi sifatida, u moddiy ishlab chiqarish sohasidagi xodimlar qo'shimcha mehnati bilan yaratilgan qo'shimcha mahsulotning pulda ifodalangan qismini ko'rsatadi. Uning miqdori ma'lum darajada mahsulot bahosi darajasining asoslanganligiga bog'liq.

Bundan tashqari, foyda tuzilmaviy o'zgarishlarga, yuqori rentabelli mahsulot turlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish va past rentabelli mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirish yo'li bilan ham oshishi mumkin. Rentabellikning absolut ko'rsatkichi foydaning absolyut miqdorida ifodalanadi.

Foydaning absolut miqdori muhim ahamiyatga ega, u iqtisodiy rag'batlantirish fondini vujudga keltiradi.

Alohida olingan mahsulotning, tarmoqning yoki butun bir korxonaning iqtisodiy samaradorligini olingan foyda orqali aniqlash to'liq natija bermaydi. Buning uchun olingan foydani hosil qilish maqsadida uning qiymatini sarflangan xarajat bilan taqqoslash kerak. Bunda rentabellik darajasi (R) ko'rsatkichidan foydalaniladi.

**Rentabellik darajasi** — foydani material va mehnat xarajatlari (mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq) qiymatlari nisbatining foizdagi darajasini ko'rsatadi.

Rentabellik me'yori mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan sof daromadni uning tannarxiga bo'lish yo'li bilan foizlar hisobida aniqlanadi:

$$R = \frac{F}{TT} \cdot 100; \quad (16.12)$$

Jamg'armalar bo'yicha rentabellik yoki foiz hisobidagi foyda me'yori ishlab chiqarish mablag'laridan foydalanishning samaradorligini tavsiflovchi eng muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

$$R = \frac{F}{F_q} \cdot 100; \quad (16.13)$$

bunda: F — sof foyda, so'm ;

TT — to'liq tannarx, so'm;

$F_q$  — asosiy ishlab chiqarish jamg'armalari qiymati, so'm.

Rentabellik darajasining har bir foizi sarflangan bir so'mlik ishlab chiqarish xarajati hisobiga olingan foydani bildiradi, ya'ni agarda xo'jalikning rentabellik darajasi 73 foizni tashkil qilsa, bu har bir so'mlik moddiy va mehnat xarajati hisobiga, ularni qoplagandan so'ng 73 so'm foyda ko'rganini bildiradi.

Ma'lumki, sof daromad va foyda — ikki xil iqtisodiy kategoriyadir. Agar sof daromad vujudga kelgan barcha qo'shimcha mahsulot qiymatini ifodalasa, foyda — tovar mahsulotini sotishdan olingan qisminigina ifodalaydi. Sof daromadning bir qismi baho va soliq siyosati va har xil to'lovlar orqali davlat va mahalliy budjetlariga borib tushadi va umumxalq ehtiyojlari uchun ishlatiladi. Foyda — sotilgan tovar mahsulotidan tushgan pul mablag'idan shu mahsulotni to'la ishlab chiqarish xarajatlarini (markazlashgan to'lovlar ham shunga kiradi) chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

**Foyda me'yori** – bu har bir so'mlik asosiy va aylanma vositalar qiymati yig'indisiga to'g'ri keladigan foyda, sof daromadning foizdagi ifodasi ko'rsatkichi hisoblanadi.

Foyda me'yori:

$$R = \frac{SD, F}{AF_q + A_y F_q} \cdot 100 \quad (16.14)$$

SD – sof daromad;

F – foyda;

$AF_q$  – asosiy fondlar qiymati;

$A_y F_q$  – aylanma fondlar qiymati.

Rentabellikni oshirish omillari deganda, avvalo, foyda omillari tushuniladi. Foyda omillari 2-guruhga bo'linadi:

1. Mahsulot ishlab chiqaruvchiga bog'liq bo'lgan va subyektiv xarakterga ega bo'lgan ichki omillar;

2. Mahsulot ishlab chiqaruvchiga bog'liq bo'lmagan va obyektiv xarakterga ega bo'lgan tashqi omillar.

Ichki omillarga sotiladigan mahsulot miqdori, uning sifati, ishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Sotiladigan mahsulot miqdori yalpi mahsulot hajmiga va uning tovarlilik darajasiga bog'liq. Yalpi mahsulot hajmining o'sishida sotishga mo'ljallangan mahsulotning miqdori absolut ko'payadi. Shuningdek, uning ishlab chiqarish ichki iste'moliga ketadigan qismining o'sishi nisbiy ko'payadi. Yalpi mahsulotning ana shu ichki iste'molga ketadigan qismi o'sish sur'atining pasayishi tovarlilik darajasining oshishiga va shu asosda pul tushumining ko'payishiga sharoit yaratadi. Yuqori sifatli mahsulot ancha yuqori sotish bahosini ta'minlagani uchun, mahsulot sifati pul tushumi orqali foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatadi.

Pul tushumi miqdori mahsulotni sotish muddatlariga, sotish bozoriga va uning tarkibiga bog'liq. Bundan tashqari pul tushumi sotish kanallariga ham bog'liq. Uning davlatga, ulgurji bozorga yoki chakana bozorga sotilishi ham alohida ahamiyatga ega.

Foydaning muhim omillaridan biri mahsulot tannarxidir. Ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi yoki oshishi foyda miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tashqi omillarga mahsulotni ishlab chiqaruvchilar taklifi va ular o'rtasidagi raqobat, mahsulotga bo'lgan bozor talabi kabilar kiradi. U yoki bu mahsulotga yuqori yoki past talab, shuningdek, raqobatchilarning mavjudligi yoki qatnashmasligi, sotiladigan mahsulot miqdoriga,

baho darajasiga va pirovard natijada foyda miqdoriga ta'sir qiladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabelligi omillari ekstensiv va intensiv xarakterga ega.

Ekstensiv omillar – bu rentabellikka sotilayotgan mahsulotning miqdoridagi o'zgarishlar orqali ta'sir ko'rsatuvchi omillardir. Intensiv omillar – sotish baholarining o'sishi va mahsulot tannarxining pasayishi orqali ta'sir ko'rsatadigan omillardir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabellik ko'rsatkichlari yillar bo'yicha oz yoki ko'p miqdorda tebranib turadi, bu ham bo'lsa, mahsulot tannarxi va bahoning o'zgarishi oqibatidadir. Shuning uchun rentabellik dinamikasi tendensiyasini tahlil etganda, shuningdek, u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish qulayligini iqtisodiy asoslash paytida bir necha yillardagi rentabellikning o'rtachasidan foydalaniladi. O'rtacha ko'p yillik baholar ko'rsatkichida sotilgan mahsulotning miqdori va sifati to'g'risida o'rtacha ma'lumotlar aks etadi, mahsulot birligining o'rtacha ko'p yillik tannarxida esa iqlim sharoiti va ishlab chiqarish sharoitlaridagi o'zgarishlar ta'siri aks etadi. Har bir turdagi mahsulotlarning qator yillardagi o'rtacha rentabellik ko'rsatkichlarini taqqoslash shu turdagi mahsulot ishlab chiqarish retabelligining o'zgarishidagi barqaror tendensiyalar haqida obyektiv ma'lumotlar olish imkoniyatini beradi; turli xildagi mahsulotlar o'rtacha rentabellik ko'rsatkichlarini taqqoslash esa, qaysi turdagi mahsulot qulayroq, daromadliroq ekanligi to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabelligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, bir tomondan, mahsulot sotishdan kelgan pul tushumini ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlashni, boshqa tomondan, mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishni talab etadi.


#### **16.4. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi ko'p va turli – tuman omillar hamda sharoitlar ta'siri ostida shakllanadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish muammosining qiyinligi shundan iboratki, bu omillar bir-biridan alohida mustaqil harakat qilmaydi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir qiluvchi resurslar salohiyatining sifat omillari ham mavjud bo'lib, u quyidagi 16.1-rasmda ko'rsatilgan.





16.1-rasm. Iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar.

*Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish har bir so'm xarajatga va qo'llanilgan resurslarga ko'proq mahsulot va foyda olish demakdir.*

*Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish qishloq xo'jaligi tarmog'ini va milliy iqtisodiyotning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, buning natijasida quyidagilarga erishiladi:*


1. Mahsulot birligiga mehnat va resurslar qancha kam sarflansa, mavjud resurslardan ko'proq mahsulot olinadi va ular arzon bo'ladi.

2. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish katta iqtisodiy samara beradi. Agar respublika bo'yicha mehnat unumdorligi oshirilsa, yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti oshadi. Shuningdek, mahsulot tannarxini tushirish ham yalpi foydaning ko'payishiga sabab bo'ladi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining samaradorligini oshirish esa kapital qo'yilmani kamaytiradi.

3. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi samaradorligi qishloq xo'jalik xomashyosidan tayyorlanadigan oziq-ovqat va keng iste'mol buyumlariga qo'yiladigan baholarning darajalariga ham bog'liq. Chunki xarajat kam bo'lsa, erkin baholar ham bozorda pastroq bo'ladi.

4. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish xo'jaliklar daromadining ko'payishiga va rentabellikning oshishiga olib keladi. Qancha ko'p sifatli va arzon mahsulot ishlab chiqarilsa va sotilsa, ishlab chiqaruvchilarning daromadi ko'payadi, ko'proq ishlab chiqarishni rivojlantirishga, mehnat haqini oshirishga va madaniy-maishiy sharoitlarga mablag' ajratiladi.

Ishlab chiqarish munosabatlari nuqtayi nazaridan samaradorlikning muhim omili — bu kishilarning samarali mehnatga undovchi va bozor munosabatlarini rivojlantirishga bo'lgan rag'batlantiruvchi omillar hisoblanadi, ularni quyidagi 16.2-rasmda ko'rish mumkin:



16.2-rasm. Samarali mehnatni va bozor munosabatlarini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi omillar.

***Nazorat va muhokama uchun savollar:***

- 1. Samara va iqtisodiy samaradorlik tushunchasi nima?*
- 2. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va ularni aniqlash tartibi qanday?*
- 3. Iqtisodiy samaradorlikning qaysi yo'llar bilan oshirish mumkin?*
- 4. Rentabellik darajasining oshishiga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?*
- 5. Yalpi mahsulot nima va u nimalarga taqsimlanadi?*
- 6. Foyda nima va uni oshirish yo'llari qanday?*
- 7. Foyda me'yori qanday ko'rsatkich va u qanday aniqlanadi?*
- 8. Mahsulot tannarxining foyda miqdoriga ta'siri qanday?*
- 9. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish xo'jaliklarning faoliyatiga qanday ta'sir etadi?*
- 10. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari qanday?*

## **17-bob. QISHLOQ XO'JALIGI YALPI VA TOVAR MAHSULOTLARINI KENGAYTIRILGAN TAKROR ISHLAB CHIQRISH**

---

### **17.1. Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsulotlari haqida tushuncha, ularning ahamiyati**

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti deganda, shu tarmoqning ma'lum bir davr ichida ishlab chiqarilgan mahsulotlari miqdorining yig'indisi tushuniladi. Uning tarkibiga faqat dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari kiradi.

**Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti natural va qiymat ko'rsatkichlarda hisobga olinadi.**

**Natural ko'rsatkichlar** qishloq xo'jaligida yaratilgan iste'mol qiymatlarining tarkibi va miqdorini aks ettiradi. Sentner, tonna va boshqa o'lchovlarda hisoblanadigan yalpi mahsulot ko'rsatkichiga, dehqonchilikda — alohida ekinlar yoki bir xil turdagi qishloq xo'jaligi ekinlari asosiy mahsulotlari, yosh ko'p yillik daraxtlarning va dehqonchilikdagi tugallanmagan ishlab chiqarishning (kuzgi ekinlarning ekish va kelgusi yil hosili uchun xarajatlar) o'sishidagi o'zgarishlar, shuningdek, tarmoqning boshqa (qo'shimcha) mahsulotlari (somon, poxol va boshqalar); chorvachilikda — tayyor mahsulotning alohida turlari bo'yicha (sut, jun, tuxum va boshqalar) yalpi tushum: yosh mollar va parrandalarning tirik vaznining o'sishi, shuningdek, tarmoqning boshqa qoldiq mahsulotlari (go'ng va boshqalar) kiradi.

**Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotini qishloq xo'jalik korxonalari yalpi mahsuloti bilan almashtirmaslik kerak.**

**Qishloq xo'jalik korxonalarining yalpi mahsuloti** ancha keng ma'noga ega bo'lib, u o'z ichiga qishloq xo'jalik mahsulotidan tashqari yordamchi, sanoat va boshqa ishlab chiqarishlarni, ish va xizmatlarni oladi. Masalan: xo'jalikda qayta ishlangan (un, o'simlik, mol yog'i va h.k.) dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari va boshqalar qishloq xo'jalik mahsuloti emas, balki sanoat mahsuloti hisoblanadi. Ular ham qishloq xo'jalik korxonalari yalpi mahsuloti tarkibiga kiradi.

**Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotini umumiy ifodalash uchun taqqoslama va joriy baholarda, shuningdek, mahsulot tannarxi**

**bo'yicha baholash lozim.** Mahsulotning umumiy hajmini, uning yillar bo'yicha dinamikasidagi o'zgarishlarni aniqlash uchun, shuningdek, yillik va soatlik mehnat unumdorlik darajasini, fond qaytimini hisoblash va boshqa maqsadlar uchun yalpi mahsulot taqqoslama baholarda baholanadi. Yalpi mahsulotni joriy baholarda aniqlash sof daromadni hisoblash uchun foydalaniladi. Qishloq xo'jaligining yalpi mahsulotlari qiymati uning tannarxi bo'yicha hisoblanadi.

Pulda ifodalangan qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarmoqda barcha yaratilgan moddiy boyliklarga umumlashgan tavsif beradi. U qishloq xo'jaligining jami ijtimoiy mahsulotdagi salmog'ini, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoq strukturasi darajasi va dinamikasini, alohida kategoriyadagi korxonalarining mahsulot ishlab chiqarishdagi rolini, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash uchun zarur, umum iqtisodiy ko'rsatkich sifatida harakat qiladi.

Qishloq xo'jaligida — pulda ifodalanadigan yalpi mahsulot ko'rsatkichlarining bir qator kamchiliklari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Yalpi mahsulot faqat jonli mehnat emas, balki buyumlashgan mehnatning ham natijasidir. Shuning uchun yalpi mahsulot bo'yicha hisoblangan ko'rsatkichlar, jonli mehnatni tejash hisobiga yuqori bo'lmasdan, balki moddiy resurslarni ko'p sarflash hisobiga amalga oshadi;

2. Yalpi mahsulotni hisoblashning hozirgi, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari summasini qo'shib hisoblash metodikasi takroriy hisoblashga yo'l qo'yadi. Masalan: yem dehqonchilikda ham, chorvachilikda ham mahsulotlar tannarxi moddasida ikki marta hisobga olinadi;

3. Yalpi mahsulotni joriy xarid baholarida baholash uning haqiqiy qiymatini pasaytiradi, ya'ni yalpi mahsulotning tovar bo'lmagan qismi tannarxi bo'yicha baholanadi. U xarid bahosidan sof daromadning miqdoricha kam bo'ladi, ya'ni yalpi mahsulotning qiymati qishloq xo'jalik yalpi mahsulotining tovar bo'lmagan qismini ishlab chiqarishga ketgan, qo'shimcha mehnatni hisobga olmaydi;

4. Yalpi mahsulot ko'rsatkichi har doim ham ma'lum korxonamojasining real mehnat hissasini aks ettirmaydi, chunki uning miqdori boshqa tarmoqlardan keladigan material resurslarning hajmiga ham bog'liq;

5. Taqqoslama baholarda hisoblangan yalpi mahsulot ko'rsatkichi uning sifatini to'liq aks ettirmaydi.

**Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti foydalanishiga qarab, ikki qismga bo'linadi.**

**Bir qismi** (urug', yem, buzoqlar uchun ajratilgan sut, inkubator uchun tuxum va boshqalar) bevosita qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish maqsadlari uchun iste'mol qilinadi.

**Boshqa qismi** esa pirovard mahsulot deyiladi va sotish uchun foydalaniladi.

Shu sababli qishloq xo'jaligida «yalpi oborot» tushunchasi ham ishlatiladi. Yalpi mahsulotdan farq qilib, yalpi oborot o'z ichiga hamma yalpi mahsulotni oladi, ya'ni ichki ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadiganini ham, sotiladiganini ham. Yalpi oborot yalpi mahsulotdan ichki ishlab chiqarish oborotining miqdoriga ko'pdir. Qishloq xo'jaligida, boshqa tarmoqlardan farq qilib, yalpi oborot va yalpi mahsulot bir-biriga teng. Chunki, yalpi mahsulot yalpi oborot usuli bo'yicha hisoblanadi, ya'ni unga ichki xo'jalik oboroti ham kiradi. Shuning uchun qishloq xo'jaligida yalpi oborot ko'rsatkichi hisoblanilmaydi.

## **17.2. Qishloq xo'jaligida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va uning manbalari**

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining to'xtovsiz va o'sib borayotgan iste'moli uning ishlab chiqarish jarayonini takrorlanib va yangilanib turishini, ya'ni takror ishlab chiqarishni zarur qilib qo'yadi.

**Takror ishlab chiqarish ikki xil: oddiy va kengaytirilgan bo'ladi.**


**Oddiy takror ishlab chiqarishda** jang'arish bo'lmaganligi uchun ishlab chiqarish jarayoni ilgarigi hajmda, ya'ni o'zgarmagan holda takrorlanadi.

**Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda** ishlab chiqarish hajmi, jang'armadan foydalangan holda, kengaygan tarzda takrorlanib, yangilanib turadi.

**Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda ekstensiv va intensiv yo'llaridan foydalaniladi.**

Qishloq xo'jaligida yalpi mahsulot ishlab chiqarishining o'sishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi (17.1-rasm).

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulot miqdoriga ekin maydonlari va poda aylanishining tarkibi muhim ta'sir ko'rsatadi. Ekin maydonlari tarkibini takomillashtirish deganda, hosildorligi past ekinlar o'rniga hosildorligi yuqori bo'lgan ekinlarni ekib, ularning salmog'ini oshirish



*17.1-rasm. Qishloq xo'jaligida yalpi mahsulot miqdoriga ta'sir etuvchi omillar.*

tushuniladi. Ancha yuqori hosilli ekinlar bilan ekin maydonlarini yanada kengaytirish dehqonchilik mahsulotlari yalpi hosilini ko'paytirish imkonini beradi.

Shuning uchun, qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishni, harakatdagi resurslar potensialidan foydalanishni sifat jihatdan yaxshilashga asoslangan intensiv omillar asosida ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

Bu omillar ichida hal qiluvchi qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi va hayvonlar mahsuldorligini oshirishdir. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga mablag'ni ko'paytirib, mehnat, yer va moddiy resurslardan samarali foydalanib, mavjud o'zlashtirilgan yer resurslari va mavjud mol bosh sonidan qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi va mollar mahsuldorligini oshirish mumkin.

Ekstensiv omillarga ishlab chiqarish resurslarining miqdorini aks ettiradigan miqdoriy omillar kiradi. Xodimlar sonining, ekin maydonlarining, mollar bosh sonining, asosiy va material aylanma vositalar hajmining ko'payishi yoki kamayishi yalpi mahsulot miqdorining o'zgarishiga olib keladi.

Lekin qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish resurslari — ish kuchi, yer, ozuqa, chorvachilik binolari va boshqalar — chegaralangani uchun ekstensiv asosda mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish asosiy omil hisoblanmaydi.

### 17.3. Qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti tarkibi

Tarmoqlar bo'yicha qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining tarkibi quyidagicha bo'ladi:

#### **Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti:**

##### **I. Dehqonchilik mahsulotlari:**

- a) qishloq xo'jalik ekinlari asosiy mahsulotning yalpi hosili;
- b) ko'p yillik daraxtlarni o'stirish;
- d) tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'idagi o'zgarish (kuzgi ekinlar xarajati);
- e) qo'shimcha mahsulot (somon, poxol va boshqalar).

##### **II. Chorvachilik mahsulotlari:**

- a) qoramol va parrandalardan xo'jalikda foydalanishdan olingan mahsulotlar (sut, jun, tuxum, qorako'l teri va boshqalar);
- b) qoramol va parrandalarning o'sishi (tirik vaznda);
- d) buzoqlar, qo'zi, uloq va boshqa olingan nasllar;
- e) qoldiq mahsulotlar (go'ng va boshqalar).

Pulda ifodalangan **dehqonchilik yalpi mahsuloti ko'rsatkichi** ( $YM_d$ ) qishloq xo'jaligi ekinlari yalpi hosili qiymati ( $EYH_q$ ), ko'p yillik daraxtlarni o'stirish xarajatlari qiymati ( $KYD_q$ ), tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatidagi o'zgarishlar va boshqa mahsulotlar qiymati ( $T$  ishlab chiqarish va  $BMK$ )dan tashkil topadi.

$$YM_d = EYH_q + KYD_q + T \text{ i/ch va BMK} \quad (17.1)$$

Chorvachilik yalpi mahsuloti ( $YM_{ch}$ ) esa, mollar va parrandalardan xo'jalikda foydalanish natijasida olingan mahsulotlar qiymati ( $MPM_q$ ); mol va parrandalar tirik vazni o'sishining qiymati ( $TVO'_q$ ), olingan nasl qiymati ( $ON_q$ ) va boshqa mahsulot qiymati ( $BM_q$ )dan tashkil topadi.

$$YM_{ch} = MPM_q + TVO'_q + ON_q + BM_q \quad (17.2)$$

### 17.4. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini taqsimlash, sotish va ularning tovarlilik darajasi

Takror ishlab chiqarish jarayonida qishloq xo'jalik yalpi mahsuloti qiymat shaklida qoplash fondini ( $QF$ ) yoki moddiy xarajatlarini ( $MX$ ) va sof mahsulotni ( $SM$ ) yoki yalpi daromad ( $YD$ )ni o'z ichiga oladi.

$$YM_q = (QF)MH + (SM)YD \quad (17.3)$$



SM – sof mahsulot yangidan yaratilgan qiymatdir, ya'ni qishloq xo'jalik korxonalari xodimlarining o'z mehnatlari bilan real yaratilgan qiymatdir.

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligining rivojlanishida sof mahsulot ko'rsatkichi xo'jalik ishlab chiqarish faoliyati natijalarini baholashda va ishlab chiqarish hajmini o'lchashda ko'rsatkich sifatida katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, sof mahsulot mehnat predmetlarining takroriy hisobini o'z ichiga olmaydi, u xarajatlarni tejash mexanizmining muhim elementi sifatida ham ko'rinadi. Sof mahsulot va yalpi daromad o'rtasidagi farq shundan iboratki, sof mahsulot yangidan yaratilgan qiymatning miqdorini bevosita ishlab chiqarish jarayonida xarakterlaydi, yalpi daromad esa sotish jarayonini hisobga olib, ya'ni ayirboshlash vositasidan keyin aks ettiradi. Amaliyotda bu ikki ko'rsatkich ham yalpi mahsulot qiymatidan moddiy xarajatlarni ayirib tashlab topiladi, shuning uchun ularning miqdori o'rtasidagi farq aytarli darajada keskin bo'lmaydi. Sof mahsulot ko'proq o'zgarmas baholarda hisoblash zarur bo'lganda, ya'ni ishlab chiqarish fizik hajmining, mehnat unumdorligining, fond qaytimining dinamikasini aniqlash uchun ishlatiladi. Joriy xo'jalik faoliyatida ko'pincha yalpi daromaddan foydalaniladi, chunki u yangidan yaratilgan qiymatning sotilgan qismini aks ettirib, mahsulot sotishdan kelgan tushum va foyda ko'rsatkichlari bilan aloqadordir.

**Qishloq xo'jaligida yalpi daromadni hisoblash** quyidagicha amalga oshiriladi. Tannarx bo'yicha hisoblangan qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti qiymatiga mahsulot sotishdan olingan foyda qo'shiladi. hosil bo'lgan yalpi mahsulot qiymatidan joriy yildagi barcha moddiy xarajatlar ayirib tashlanib, yalpi daromad topiladi.

$$YM_q + F(Z) - MX = YD \quad (17.4)$$

alpi daromad miqdori yalpi mahsulot hajmi bilan to'g'ri bog'langan va moddiy xarajatlar miqdori bilan teskari bog'langan.

Yalpi mahsulot miqdori qancha ko'p bo'lib, moddiy xarajatlar shuncha oz bo'lsa, yalpi daromad summasi shuncha ko'p bo'ladi.

Yalpi hamda sof daromad barcha turdagi xarajatlar hisobiga tashkil topadi. Yalpi daromadning tarkibi quyida keltirilgan formulada ko'rsatilgan:

$$YD = MX + SD \quad (17.5)$$

Moddiy xarajatlar va mehnat haqi fondi mahsulot tannarxini tashkil etishini bilgan holda, sof daromadni yalpi mahsulot qiymati va tannarx o'rtasidagi farq shaklida ham aniqlash mumkin.

$$SD = YM_q - T_n \quad (17.6)$$


Sof daromadni yalpi daromad va mehnat haqi o'rtasidagi farq sifatida ham aniqlash mumkin.

$$SD = YD - MX \quad (17.7)$$

Sof daromad davlatning markazlashgan daromadiga (DMD), noishlab chiqarish sferasi xarajatlarini qoplashga ketadigan, ijtimoiy iste'mol, fondlariga (IIF) va jamg'arish fondiga (JF) bo'linadi:

$$SD = DMD + IIF + JF \quad (17.8)$$

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining taqsimlanishi quyida ko'rsatilgan.



17.2-rasm. Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining taqsimlanishi.

Jamg'arish fondi qishloq xo'jaligida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosiy va zaruriy zaxira yaratish manbayi hisoblanadi. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sur'atlari va imkoniyati jamg'arishning absolut miqdoriga hamda uning sof daromaddagi hissasiga bog'liq. Jamg'arishning nisbiy miqdorini aniqlash uchun uning

me'yor (JM) hisoblanadi. U sof daromadning jamg'arishga yo'naltirilgan qismining jami sof daromad summasiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$JM = \frac{JF}{SD} \cdot 100 \quad (17.9)$$

Yalpi mahsulotning tarkibida shaxsiy iste'mol fondi va jamg'arish fondi o'rtasidagi ratsional nisbat ahamiyatga ega. Uning tashkil topishi mahsulotning tannarxi va bahosi, binobarin xarajatlar rentabelligi darajasiga bog'liq. Respublikada qabul qilingan «Mehnat kodeksi», «Soliq kodeksi» va boshqa qonun hujjatlaridan oqilona foydalanish iste'mol va jamg'arma fondlari o'rtasidagi bog'lanishni ta'min etadi va bozor iqtisodiyoti samaradorligini oshiradi.

**Qishloq xo'jaligining tovar mahsuloti** deganda, yalpi mahsulotning barcha sotish kanallari orqali, ya'ni davlat, matlubot kooperatsiyasi, qishloq aholisiga, dehqon bozorida, oshxona orqali, bolalar muassasalariga va chet davlatlarga sotiladigan qismiga aytiladi. Tovar mahsulotning sotilgan va bu uchun pul olingan qismi **sotilgan mahsulot** deyiladi. Shuning uchun «tovar mahsulot» tushunchasi «Sotilgan mahsulot» tushunchasidan kengdir. Agar tovar mahsulotning hammasi sotilsa, u holda ikkalasi teng bo'ladi. Xo'jaliklarning hozirgi hisobotlarida tovar mahsulotning real miqdori va qiymati aniqlanmaydi. Sotish paytida sotilgan mahsulot natural formadan pulda ifodalangan qiymat formasiga o'tadi. Sotilgan mahsulotning bir qismi o'sha zahotiy oq qiymat shaklini oladi. Bu chetga ko'rsatilgan xizmatlar yoki boshqa korxonalar uchun bajarilgan ishlarga olingan pul tushumidir. Bir butun qishloq xo'jaligining hamda alohida qishloq xo'jalik korxonalarini va alohida mahsulot turlarining tovarlilikini ikki ko'rsatkichda ifodalaydi:

1. Tovar mahsulotining massasi;
2. Tovarlilik darajasi.

Bu ko'rsatkichlarning har biri mustaqil ahamiyatga ega, ammo tovar fondining absolut miqdori hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

**Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tovarlilik darajasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u sotilgan mahsulotni yalpi mahsulotga bo'lib topiladi va foizlarda ifodalanadi.**

Alohida mahsulot turi bo'yicha tovarlilik darajasini aniqlashda yalpi mahsulot va tovar mahsulot natural ko'rinishda foydalaniladi. Ma'lum bir tarmoqning yoki butun qishloq xo'jaligining tovarlilik darajasini aniqlashda yoki har xil mahsulot chiqaradigan turli tarmoq

tovarlilik darajasini solishtirganda yalpi sotilgan mahsulotning qiymat ko'rinishidan foydalaniladi. Bunda yalpi mahsulot va sotilgan mahsulot bir xil bahoda baholanishi maqsadga muvofiqdir. Amaliyotda tovarlilik darajasi quyidagicha hisoblanadi:

$$T_d = \frac{SM; SMQ}{YM; YMQ} \cdot 100 \quad (17.10)$$

$T_d$  – tovarlilik darajasi;

$SM; SMQ$  – sotilgan mahsulot(miqdori, qiymati);

$YM; YMQ$  – yalpi mahsulot(miqdori, qiymati).

### **17.5. Yalpi mahsulotni ko'paytirish, uning tovarlilik darajasini oshirish yo'llari**

Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tovarlilik darajasi ikki omil: talab va taklif bilan aniqlanadi. Ko'pchilik qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi mahsulotga bo'lgan ichki ishlab chiqarish iste'molini chegaralab, tovarlilik darajasini ko'tarishga harakat qiladi. Tovar mahsulot miqdorini ko'paytirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

1. Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi va mollar mahsuldorligini oshirish hisobiga yalpi mahsulot ishlab chiqarishni o'stirish. Masalan: 1 yilda bitta sigirdan 2500 kg sut sog'ib olinsa, uning tovarlilik darajasi 80–85 foiz bo'lsa, 5000 kg sog'ib olinganda, u 90–95 foizga ko'tarilishi mumkin;

2. Mahsulotlarning ishlab chiqarish jarayonida sarflanishini qisqartirish;

3. Urug'lik va yemning sifatini yaxshilash, shuningdek, sanoat ishlab chiqaradigan sun'iy va omuxta ozuqalardan foydalanish;

4. Mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida, uni saqlashda va sotishda yo'qotishlarni qisqartirish.

Korxonada mahsulot sotishga katta imkoniyat bo'lishi mumkin, lekin har bir ma'lum davrda mahsulotga bozor talabi chegaralangan bo'ladi. Bu esa mahsulotning to'liq sotilmasligiga, sotilmagan qoldiqning vujudga kelishiga olib keladi. Shuning uchun **mahsulotning tovarlilik darajasini ko'tarish yo'llaridan biri yaxshi tashkil qilingan marketingdir.**

Bozorni oziq-ovqat va xomashyo mahsulotlari bilan to'ldirish vazifasi qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatini yaxshilash muammosi

bilan chambarchas bog‘liqdir. Aholining ehtiyojini qondiradigan har qanday mahsulot ma‘lum bir xususiyat, xossaga ega bo‘lishi kerak. Ular mahsulotdagi iste‘mol qiymatining mohiyatini aks ettiradi. Agar iste‘mol qiymati mahsulotning umumiy foydaliligini ifodalasa, uning foydalilik darajasi, ya‘ni ma‘lum iste‘molni qanoatlantirishga obyektiv qodirligini mahsulotning sifati xarakterlaydi.

**Mahsulot sifati** deganda, uni ma‘lum bir ehtiyojini qondirish kerakligini zarur qilib qo‘ygan, mahsulotdagi xususiyatlar to‘plami tushuniladi. Mahsulot sifati muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri bo‘lib, u ishlab chiqarish jarayoni va mahsulot iste‘molida kishilar o‘rtasidagi o‘zaro mustahkam munosabatlarni ifodalaydi. Ijtimoiy iste‘mol doimiy emas, sifatni yaxshilash tendensiyasi obyektiv va qonuniyatli xarakterga ega. Bu birinchi navbatda iste‘molning oshishi qonunining harakati bilan bog‘liq. Buning mohiyati shuki, jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi bilan doimo ularning iste‘moli darajasi oshib boradi va ularda bir vaqtning o‘zida ehtiyojni to‘laroq qondirish imkoniyati kengayadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini yaxshilash faqat aholining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojni to‘liq qondiribgina qolmay, balki u qishloq xo‘jaligi iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Shuning uchun **mahsulot sifatini oshirish – bu pirovard natijada uning miqdori, resurslarini tejash, ijtimoiy iste‘molni to‘laroq qondirishdir.** Rivojlanayotgan bozor sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardosh bo‘lishi kerak, ya‘ni bozordagi mahsulotlarga qaraganda ancha yuqori iste‘mol xususiyatiga va katta talabga ega bo‘lishi lozim.

Mahsulot sifatiga talab iste‘molchilar, shuningdek, davlat organlari tomonidan shakllanadi. Mahsulot sifatiga talabning shakllanishidagi ustunlik iste‘molchiga, bozorga, raqobatga tegishlidir.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati ishlab chiqarish resurslari – ishlab chiqarish elementlarining ishtiroki va ta‘sirida shakllanadi. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari hamda ishlab chiqarish resurslari sifati o‘rtasida keng harakatdagi bevosita yoki ko‘p pog‘onali aloqa va bog‘lanish mavjud.

Mahsulot sifatini yaxshilash va uni ta‘minlashning yetakchi omili ish kuchining sifati hisoblanadi. Foydali mehnat bilan shug‘ullanuvchi mamlakatning har bir fuqarosi mahsulot sifatini ta‘minlash bo‘yicha o‘z munosabatlarini quyidagilar asosida amalga oshirishlari kerak:

1. O‘zaro yordam va ilg‘or tajribalarni almashish;

2. Har bir ish joyida mehnat sifatiga va uning natijasiga qat'iy talabchanlik;

3. Mahsulot sifati deb atalgan bosh mezondan kelib chiqib, xodimning kasbiy mahorati va uning mehnatiga to'lanadigan haqqi baholash;

4. Har bir kishining — ishchidan to rahbargacha o'z mehnati sifati uchun shaxsiy javobgarligi;

5. Mehnat jarayonida mahsulot sifatini pasaytirish mumkin bo'lgan har qanday faoliyatdan ogohlantirish va to'xtatish.

Yer resurslarining sifati iqlim sharoitlari bilan birga faqat yetishtiriladigan ekinning tarkibini aniqlab, uning miqdoriga ta'sir qilib qolmasdan, balki uning sifatiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, unumli tuproqda, yerda yetishtirilgan hosilning sifati ham yaxshi, ham yuqori bo'ladi.

Moddiy resurslar sifati, qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, asosiy va moddiy aylanma vositalarning ancha yuqori sifati sifatli mahsulot olishga, sotish bahosi va daromadni oshirishga imkon beradi. Rayonlashgan urug' navlaridan foydalanish faqat hosildorlikni oshirib qolmasdan sifatini ham yaxshilaydi. Chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish va sifatini yaxshilashga yemning to'yimliliigi sarflangan katta ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, ancha sifatli moddiy resurslar mehnat sig'imini, fond va material sig'imlarini pasaytiradi, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishiga olib keladi. Urug', yem va boshqa aylanma vositalar sifat tavsiflarining yaxshilanishi mahsulot birligi hisobiga ularga sarflangan xarajatni kamaytiradi va aksincha, navlar va ekiladigan urug' sifatining yomonlashishi, yemlarda ozuqa moddalarining, ayniqsa, proteinning pasayishi ehtiyojini mahsulot tannarxining o'sishiga olib keladi.

Bozorga olib chiqiladigan har qanday qishloq xo'jaligi mahsuloti kishilarning ehtiyojini qondirish darajasi bo'yicha tekshiruvdan o'tadi: har bir xaridor o'z ehtiyojini qondiradigan mahsulotni sotib oladi, xaridorlar massasi esa kishilar ehtiyojini to'laroq qondiradigan mahsulotni sotib oladi, nisbatan mahsulot raqobati tashkil topadi. Shuning uchun mahsulotning raqobatdoshligini faqat raqobatdosh mahsulotlarni o'zaro taqqoslab aniqlash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tovar mahsulotining raqobatdoshligi — bozorga va sotish vaqtiga aniq bog'liq bo'lgan nisbiy tushunchadir.

Shuni bilish lozimki, mahsulotning raqobatbardoshligi, xaridor uchun muhim qiziqish uyg'otadigan uning xossasi orqali aniqlanadi.

Boshqa barcha parametrlar, bu chegaradan tashqaridagi, mahsulotning raqobatbardoshligida raqobat shartlariga aloqasi yo'q sifatida qarab chiqilmaydi.

**Mahsulotning raqobatbardoshligini o'rganish tizimli va to'xtovsiz o'tkazilishi kerak.** Bu agar raqobatbardoshlik pasaya borsa, o'z vaqtida ma'lum qaror qabul qilishga — shu mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirish yoki to'xtatish yoxud uning sifatini yaxshilash, boshqa bozorlarga o'tkazish va boshqalarni o'ylab ko'rishga imkon beradi. Boshqa tomondan, mahsulotning raqobatbardoshligi, shu mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish haqida qabul qilingan qarorlarning samarasini oshiradi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida qishloq xo'jaligida bir qancha mahsulot sotish kanallari vujudga keladi va ularning harakat qilishi uchun sharoit yaratiladi.

**Mahsulotni sotish kanallari deganda, sotishda ishtirok etuvchi yoki vositachilik qiluvchi shaxslar va korxonalar to'plami tushuniladi.**

Ular tovarlarni o'zlariga yoki boshqa bir shaxsga o'tkazish huquqini oladilar. Bu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga yetkazish maqsadida birgalikda harakat qiluvchi iqtisodiy, texnologik, tashkiliy, ijtimoiy va boshqa jarayonlar tizimidir.

**Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish kanallari quyidagilar bo'lishi mumkin:**

**I. Davlatga sotish:**

- a) davlat fondiga;
- b) regional fondga.

**II. Erkin sotish:**

- a) dehqon bozorida;
- b) korxonada xodimlariga va mahalliy aholiga;
- d) birjada;
- e) chakana savdoning boshqa tashkilotlariga, korxonalariga;
- f) shartnoma, majburiyat bo'yicha tashkilot va korxonalarga;
- h) boshqa tashkilotlar bilan barter bitimlari.

**III. Umumiy ovqatlanish korxonalariga.**

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda davlatga sotiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hajmi keskin qisqarib boradi va bozor kanallari bo'yicha sotish ortib boradi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari sotish yo'llarini tanlashda, albatta, sotish bilan bog'liq xarajatlar sarflanadi. Bu xarajatlar transaksiya xarajatlari deyiladi. Ular o'z ichiga baho to'g'risidagi axborotlarni izlash, hamkorlarni tanlash, shartnomalar tuzish, shuningdek, mulkni

himoya qilish kabi xarajatlarni oladi. Transaksiya xarajatlarining darajasi har doim ham oldindan aniqlanavermaydi. U mahsulotning xususiyati, uni ishlab chiqarish texnologiyasi, ayirboshlashdagi hamkorlarning xohish-istagiga bog'liq.

**Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish yo'llariga quyidagilarni kiritish mumkin;**

**Qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari:**

**1. Qayta ishlash:**

- a) ulgurji savdo korxonalarini;
- b) chakana savdo korxonalarini;
- d) pirovard iste'molchi;

**2. Dehqon bozorlari:**

**3. Tayyorlov tashkilotlari:**

- a) ulgurji savdo korxonalarini;
- b) chakana savdo korxonalarini;
- d) pirovard iste'molchi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yuqorida keltirilgan sotish kanallarining qanchalik darajada qulayligini va imkoniyat darajasida iqtisodiy jihatdan munosabat o'rnatishi mumkin bo'lgan variantni tanlashlari kerak bo'ladi.

***Nazorat va muhokama uchun savollar:***

1. *Qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti nima?*
2. *Qishloq xo'jaligining tovar mahsuloti nima, ko'paytirish yo'llari qanday?*
3. *Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish deganda nimani tushunasiz?*
4. *Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti nima, ularning ahamiyati nimada?*
5. *Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish yo'llari qanday?*
6. *Tovarlilik darajasi qanday ko'rsatkich?*
7. *Tovarlilik darajasini oshirish yo'llari qanday?*
8. *Raqobat nima?*
9. *Bozor mexanizmi elementlari nimalardan iborat?*
10. *Mahsulotni sotish kanallari qanday va ularni kengaytirishni ahamiyati nimada?*



## **18-bob. QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQRISHINI JOYLASHTIRISH, IXTISOSLASHTIRISH VA INTEGRATSIYA JARAYONLARINING IQTISODIY MOHIYATI**

---

### **18.1. Qishloq xo‘jaligi korxonalarini joylashtirishning mohiyati, ixtisoslashuvning iqtisodiy mazmuni, shakllari va darajasi**

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi turli xil mahsulot ishlab chiqaruvchi, o‘zaro aloqador tarmoqlar majmuasidan iborat.

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan:

- a) ishlab chiqaradigan mahsulot turlari;
- b) ishlab chiqarish vositalarining turlari va tashkiliy tuzilishi;
- d) xodimlar malakasi va tarkibi;
- e) mehnatni tashkil etish va unga haq to‘lash xususiyatlari bilan

farq qiladi.

**Qishloq xo‘jaligi ikki tarmoq: dehqonchilik va chorvachilikdan iborat.**

Ularning har birida tarmoq strukturasi mavjud. Dehqonchilikda tarmoqlar ekiladigan ekinlarning turi va guruhiga qarab bo‘linadi. Masalan: g‘alla yetishtirish, paxtachilik, kanopchilik va boshqalar. Sabzavotchilikda ochiq va yopiq usulda sabzavot yetishtiriladi. Bog‘lar esa danakli va urug‘lilarga bo‘linadi. Chorvachilikda esa mollar va hayvonlar turlariga qarab tarmoqlarga bo‘linadi: qoramolchilik, cho‘chqachilik, parrandachilik, pillachilik va h.k. Bundan tashqari ishlab chiqariladigan mahsulotning xarakteriga qarab: sut, qoramolchilik, go‘sh-t-sut, qo‘ychilik, jun-teri olish bo‘yicha va boshqalar.

**Ishlab chiqarishdagi o‘rni va iqtisodiy ahamiyatiga qarab korxonalarda qishloq xo‘jalik tarmoqlari: bosh (yetakchi), qo‘shimcha va yordamchi tarmoqlarga bo‘linadi.**

**Bosh (yetakchi) tarmoq** deb, qishloq xo‘jalik yalpi va tovar mahsulotida yuqori salmoqni egallagan tarmoqqa aytiladi. Asosiy tarmoq korxonaning ixtisoslashishini aniqlaydi.

**Qo‘shimcha tarmoq** bosh tarmoqqa nisbatan, yalpi va tovar mahsulot ishlab chiqarishda kamroq ahamiyatga ega bo‘ladi. Ularni qo‘shib olib borish mehnat, yer va moddiy resurslardan to‘liqroq foydalanishni ta‘minlaydi.

**Qishloq xo‘jaligi korxonalarida qishloq xo‘jaligi tarmoqlaridan tashqari dehqonchilik va chorvachilikka xizmat qiluvchi tarmoqlar —**

**ta'mirlash xizmati, elektr xo'jaligi, avtotransport va boshqalar faoliyat ko'rsatadi.**

**Yordamchi tarmoqlar** tarkibiga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar va sexlar, qurilish ustaxonalari, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar va boshqalar kiradi.

Mahsulotdan foydalanish shakliga qarab qishloq xo'jalik tarmog'i 2 guruhga bo'linadi:

1. **Tovar**, sotish uchun mo'ljallangan mahsulot (paxta, pilla va boshqalar);

2. **Notovar**, to'lig'icha yoki asosiy qismi ichki ehtiyojga foydalaniladigan mahsulot (yem-xashak va boshqalar).

**Qishloq xo'jaligining tarmoqlar strukturasi** qishloq xo'jalik jamiyalpi mahsuloti tarkibida alohida tarmoqlar, yalpi va tovar mahsulotining salmog'i bilan tavsiflanadi.

Bir qancha qishloq xo'jalik tarmoqlarini korxonalarda iqtisodiy asoslab qo'shib olib borish ishlab chiqarishning mavsumiyligini pasaytiradi, mehnat, yer, moddiy resurslaridan to'laroq foydalanish imkoniyatini beradi, ishlab chiqarish vositalari va mehnat xarajatlari notekisligini kamaytiradi. Tarmoqlarni oqilona qo'shib olib borish yil davomida qishloq xo'jalik mahsulotlari va pul vositalarini bir tekis kelib tushishi imkonini beradi, xo'jaliklar iqtisodiyotiga samarali ta'sir ko'rsatadi, ularning moliyaviy holatini yaxshilaydi.

**Qishloq xo'jaligida tarmoqlarni ratsional qo'shib olib borishning asosiy tamoyillari, maqsadi va shartlari quyidagilar:**

1. Resurs potensialidan — mehnat, yer, suv va moddiy resurslardan ancha samaraliroq foydalanish;

2. Mahsulot birligi hisobiga minimal darajada mehnat xarajatlari va vositalar sarflab, maksimal miqdorda mahsulot olishni ta'minlash;

1. Ishlab chiqarishning mavsumiyligini kamaytirish, yil davomida texnika va ish kuchidan to'liqroq foydalanish;

2. Yil davomida aylanma vositalarning aylanishi va pul vositalarning bir tekis kelib tushishini ta'minlash va h.k.

Ixtisoslashtirish ishlab chiqarish yo'nalishini xarakterlaydi va hudud yoki xo'jalikning tarmoq strukturasi aniqlaydi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni oqilona ixtisoslashtirishning iqtisodiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. Ixtisoslashtirish bosh ishlab chiqarish vositasi — yerdan samarali foydalanish uchun sharoit yaratadi. Shu asosda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining miqdorini ko'paytiradi hamda sifatini yaxshilaydi;

2. Ixtisoslashtirish qishloqda mehnat resurslaridan yanada samaraliroq foydalanishga imkoniyat yaratadi. Dehqonchilik va chorvachilik xodimlarining kasbiy mahoratini o'zgartiradi, kadrlarning malakasi va mehnat unumdorligini oshiradi;

3. Ixtisoslashtirish kapital qo'yilmalar va asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi. Ishlab chiqarishga fan-texnika taraqqiyoti va ilg'or tajribalarni joriy qilishga imkoniyat yaratadi;

4. Ixtisoslashtirish tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini pasaytirish hamda rentabellikni oshirishga sharoit yaratadi va h.k.

Qishloq xo'jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirish ijtimoiy mehnat taqsimotining turli ko'rinishidir. Joylashtirish – alohida turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni respublika zonalarida, ayrim viloyat, tumanlar va korxonalar bo'yicha miqdoriy taqsimlashni bildiradi.

Qishloq xo'jaligini joylashtirish uni ixtisoslashtirish bilan chambarchas bog'langan. Ixtisoslashtirishni amalga oshirishda zona va korxonalarining tabiiy va iqtisodiy sharoitlarini hisobga olish muhimdir. Natijada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini oqilona joylashtirish ta'minlanadi.

Qishloq xo'jaligi zonalarini yoki alohida korxonalarni ixtisoslashtirish bosh(asosiy) tarmoqni ajratib olish va uning rivojlanishiga sharoit yaratishdir.

**Qishloq xo'jaligini iqtisodiy asoslangan joylashtirish va ixtisoslashtirish ma'lum bir tamoyillar asosida amalga oshiriladi:**

1. Bozor talabini hisobga olish. Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini joriy qilish qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash jarayonini o'zgartirish, ishlab chiqarishni tashkil qilishning ilg'or shakliga o'tish, zarar keltiradigan mahsulot ishlab chiqarishdan voz kechish;

2. Tabiiy va iqtisodiy sharoitlardan to'laroq foydalanish;

3. Mahsulot ishlab chiqarishni iste'molchilarga yaqinlashtirish;

4. Hududlarni oziq-ovqat va sanoatni qishloq xo'jalik xomashyosi bilan ta'minlash bilan hududlararo mehnat taqsimotini qo'shib olib borishni ta'minlash;

5. Mamlakat iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash;

6. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni joylashtirish va ixtisoslashtirishda xalqaro mehnat taqsimotini hisobga olish va h.k.

## Ixtisoslashtirish quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Xo'jalik ichidagi ixtisoslashtirish. Bunda mahsulot ishlab chiqarish xo'jaliklar ichidagi bo'limlar, fermalar, brigadalar va oilalar bo'yicha ixtisoslashadi;

2. Xo'jaliklararo ixtisoslashtirish. Bunda turli xii mahsulotlar yetishtirish bo'yicha korxonalar o'rtasida mehnat taqsimoti joriy qilinadi. Xo'jaliklararo cho'chqa yoki qoramolni bo'rt doqiga boquvchi, buzoqlarni o'stiruvchi fermalar, mahsulotlarni qayta ishlovchi korxonalar va h.k. tashkil etiladi;

3. Tarmoqlar ichida ixtisoslashtirish. Bunda bir tarmoq ichida, chunonchi chorvachilikda – qoramolchilik, cho'chqachilik, qo'ychilik kabi sohalar bo'yicha, dehqonchilikda esa g'alla, paxta, sabzavot, poliz kabi mahsulotlarni yetishtirish bo'yicha mehnat taqsimoti joriy qilinadi. Xo'jalikda ixtisoslashtirishni to'la xarakterlash uchun ixtisoslashtirish koeffitsienti ( $K_{ix}$ ) ko'rsatkichi qabul qilingan. U quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{ix} = \frac{100}{TMH(2n-1)} \quad (18.1)$$

bunda: 100 – alohida tarmoq bo'yicha tovar mahsulotlarining umumiy hissasi, foiz;

TMH – tarmoqdagi tovar mahsulotlarining turlari bo'yicha hissasi, foizda;

n – tovar mahsulotlarining hissasi bo'yicha tartib raqami (eng yuqoridan boshlab).

Masalan: paxtachilikda ixtisoslashgan xo'jalikda tovar mahsulotlari tarkibi quyidagilardan iborat bo'lsin (jami tovar mahsulotga nisbatan foiz hisobida): paxta – 50 foiz, don – 30 foiz, sut – 15 foiz va boshqa turdagi mahsulotlar esa 5 foiz.

Shu ma'lumotlar asosida ixtisoslashtirish koeffitsienti quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{ix} = \frac{100}{50(2 \cdot 1 - 1) + 30(2 \cdot 2 - 1) + 15(2 \cdot 3 - 1) + 5(2 \cdot 4 - 1)} = 0,38$$

Bu koeffitsient bir butunga qancha yaqin bo'lsa, ixtisoslashtirish darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Agar ixtisoslashtirish koeffitsienti 0,35 bo'lsa, past darajadagi ixtisoslashtirish; 0,35 dan 0,50 gacha o'rta; 0,50 dan 0,60 gacha yuqori; 0,60 dan katta bo'lsa, chuqurlashtirilgan ixtisoslashtirish deyiladi;

4. Zona yoki iqtisodiy rayonlar bo'yicha ixtisoslashtirish. Bunda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha zona yoki iqtisodiy rayonlar bo'yicha mehnat taqsimoti joriy qilinadi.

Qishloq xo'jaligida tarmoqlarni qo'shib olib borishning va ixtisoslashtirishning iqtisodiy samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar tizimi bilan aniqlanadi:

1. 100 ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga va haydaladigan yerga, bitta xodimga, 100 so'mlik asosiy ishlab chiqarish fondlariga va 100 so'mlik joriy ishlab chiqarish xarajatlariga to'g'ri kelgan yalpi va tovar mahsulot qiymati;

2. 100 ga haydaladigan yerga to'g'ri kelgan g'alla, paxta, go'sht, sut va boshqalar;

3. Mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, mahsulot ishlab chiqarish rentabelligi.

Demak, mahsulot yetishtirish uchun qayerda qulay sharoit mavjud bo'lsa, mahsulot birligining tannarxi va bahosi arzonlashsa, bu xo'jalik va iste'molchilar uchun shuncha foydalidir.

## **18.2. Integratsiya jarayonlarining iqtisodiy mohiyati**

Ijtimoiy mehnat taqsimoti bir tomondan ishlab chiqarishni har xil sohalarini va ularni ma'lum xildagi mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtirib ajratsa, boshqa tomondan, ular o'rtasida aniq va puxta kooperativ aloqalarni taqozo etadi. Xo'jaliklar o'zaro va sanoat korxonalarini bilan ishlab chiqarish, iqtisodiy aloqalarni amalga oshiradilar. Yangi xildagi yirik ixtisoslashgan tashkiliy ishlab chiqarish shakllari vujudga keladi.

Bozor sharoitida mulk shakllarining turli-tuman bo'lishi, qishloqda ishlab chiqarish va yer munosabatlarining o'zgarishi, agrar tarmoqning xo'jalik mexanizmida boshqaruvning o'zgarishi integratsiya munosabatlarining kengayishiga sabab bo'ladi. Yirik ishlab chiqarish bilan birga mayda ishlab chiqarishni bir-biriga muvofiq holda olib borilishi yuqori iqtisodiy samaradorlik garovidir.

«Integratsiya» so'zi ma'lum bo'laklar yig'indisini bir butunga birlashtirish ma'nosini bildiradi. Integratsiya butunlay yoki qisman tashkiliy qo'shilishga olib keladi. Bir xildagi tarmoq va soha korxonalarining o'zaro kooperatsiyalashishi gorizontaal integratsiya deyiladi.

Gorizontaal integratsiya ikki xil bo'ladi:

– birinchi, alohida bo'lgan, umumiy ishlab chiqarish jarayonida o'ziga xos vazifani bajaruvchi ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi korxonalari o'rtasida kooperatsiyani amalga oshirishdir;

– ikkinchi, bir nechta xo'jaliklarning imkoniyat va mablag'larini yirik ixtisoslashgan korxonaga tashkil etish maqsadida birlashishidir.

Gorizontal bo'yicha xo'jaliklararo kooperatsiyaning tashkiliy formalari bo'lib, ular xo'jaliklararo kooperatsiya korxonalari birlashmalaridir. Xo'jaliklararo kooperatsiya qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagan sohalarida, qurilish, xizmat qilish va boshqalarda tashkil topgandir. U korxonalar va xo'jaliklar o'rtasida har xil birikmalar ko'rinishlarida amalga oshirilishi mumkin. Xo'jaliklararo kooperatsiya kapital mablag'larni tez qoplash, yer, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligining bir qator texnologik vazifalarini sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga o'tishi bilan qishloq xo'jaligining mehnat faoliyati toraya boradi, tayyor mahsulot yaratuvchi qishloq xo'jaligi – ko'p hollarda xomashyo yetkazib beruvchi sifatida ishtirok etadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi ko'pincha uning o'z faoliyatiga bog'liq emas, balki qishloq xo'jaligida yaratilgan mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash, yetkazib berish va boshqa xizmat qilish tarmoqlari sohalariga, ular o'rtasidagi aloqa va ishlarni yaxshi yo'lga qo'yilganiga bog'liqdir.

Bu esa sanoat tarmoqlarini qishloq xo'jaligi korxonalari bilan uzviy birlashishga shart-sharoit yaratib beradi. Bunday birlashishning zaminida ma'lum bir mahsulot yaratish, maqsadlarning bir xilligi, ya'ni yagona texnologik jarayon yotadi. Gorizontal bo'yicha amalga oshiriladigan qishloq xo'jaligi korxonalarining kooperatsiyasidan farq qilgan holda bunday birlashish *vertikal agrosanoat integratsiyasi* deb yuritiladi.

Agrosanoat integratsiyasiga xos birlashmalar avvalambor mahsuloti tez buziladigan qishloq xo'jaligi tarmoqlari (uzum, meva, sabzavot, moyli ekinlar va boshqalar)da vujudga keldi.

Hozirda vertikal integratsiya asosida faoliyat olib boradigan agrosanoat tuzilmalarining quyidagi shakllari mavjud:

- agrosanoat korxonalari;
- xolding kompaniyalari;
- agrofirmalar;
- ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari.

*Agrosanoat korxonasi* — bu ishlab chiqarishning shunday tashkiliy tuzilmasidirki, unda qishloq xo‘jaligi xomashyosini ishlab chiqarish va uni qayta ishlash uzviy bog‘liq holda tashkil etilgan bo‘ladi. Agrosanoat korxonasining tarkibida qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlovchi bo‘linmalarga ega bo‘lgan xo‘jaliklar — zavodlardir. Bunday korxonalarda mahsulotni nobud bo‘lishining oldi olinadi va yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

*Xolding kompaniyalari* ( agrosanoat birlashmalari) — bu bir nechta qishloq xo‘jaligi korxonalari, sanoat korxonalari, sovutkich xonalari, saqlash, transport, savdo xo‘jaliklarining yig‘indisi bo‘lib, ular meva, sabzavotlardan konserva, uzumchilikda vino va boshqa ishlab chiqarishlarda keng shakllangan.

*Agrofirma* — fermer xo‘jaliklari va aholi tomonidan yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlari va uzumni yetishtirish, tayyorlash, qayta ishlash, sotish bo‘yicha asosiy faoliyatga ega bo‘lgan yuridik shaxs.

*Ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari* — bu tarmoqda ilmiy - texnika taraqqiyotini jadallashtirish hamda hayotga tatbiq etishni keng joriy etish maqsadida tuziladigan birlashmalardir. Ular urug‘ seleksiyasi, hosildor navlar va ko‘chatlar, mahsuldor chorva zotlarini yaratish yo‘nalishida xizmat qiladilar.

Agrosanoat integratsiyasi natijasida sinergetik samaradorlik vujudga keladi, u joriy xarajatlarning kamayishi, mahsulot hajmining oshishi, mahsulot sifatining yaxshilanishi, mahsulotni iste‘molchiga yetkazib berish muddatlarining qisqarishi, aholi talabini to‘liq qondirilishi bilan asoslanadi.

*Sinergetik samaradorlikning iqtisodiy ko‘rsatkichlari* — sarflangan resurslar hajmi o‘zgarmagan holda mahsulot hajmining ko‘payishi va joriy xarajatlarning tejalishi, yalpi daromad, foyda, rentabellik darajasi. Ushbu ko‘rsatkichlar agrosanoatning shakllanishida hisobga olinadi.

### **18.3. Qishloq xo‘jaligida axborotlar tizimi**

Agrar islohotlarning asosiy jihatlaridan biri — qishloq xo‘jalik ishlab chiqaruvchilari uchun qulay sharoitlarni yaratishdir. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini boshqarish masalalarining majmui murakkab ichki va tashqi axborotlashgan aloqaga ega. Ichki aloqa asosida masalalarning o‘zaro axborotlashgan harakati, majmui va bo‘limlarda qarorlar qabul qilish o‘z aksini topadi. Tashqi aloqa esa boshqaruvning boshqa funksiyalarini amalga oshiruvchi bo‘linmalar, tashkilotlar tashqi muhit,

bozor, yuqori tashkilotlar, vazirliklar va tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarida ifodalanadi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilariga nafaqat o'z mamlakati, balki chet el bozorlaridagi vaziyat haqida, u yerlardagi tovar ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, narxlar haqida muntazam axborot zarur. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida bozor mexanizmlarini shakllantirish, bozorning asosiy subyektlari – tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish shu mexanizmlarga mos bo'lgan axborot muhitini vujudga keltirishni taqozo etadi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini axborotlashtirish jarayonlari zamonaviy texnika imkoniyatlari, yangi axborot texnologiyalarining boshqa texnologiyalar rivojlanishiga ta'siri, axborotlarning xususiyatlari, axborotning qanchalik darajada inson mehnatining asosiy predmetiga aylanayotgani va boshqa omillar bilan belgilanadi.

Respublikaning global axborot tarmog'iga ulanishi mamlakatimizda iqtisodiyot va uning tarmoqlarini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimning axborot salohiyati yoki axborot resurslarini oqilona shakllantirish, ulardan samarali foydalanish eng muhim vazifa bo'lmoqda. Hozirgi zamon jamiyati – axborot jamiyatidir. Axborot jamiyatida eng asosiy kapital – bu – axborotdir.

Internet tarmog'ida elektron tijoratdan foydalanish imkoniyati juda kengdir. Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanish asoslaridan biri bu mintaqada «Elektron jamiyat» yaratish hisoblanadi. «Elektron jamiyat» qurishning asosiy omillaridan biri jahon miqyosida elektron tijorat tizimi hisoblanib, bu tizimdan foydalanganlar katta miqdordagi sarmoyalarga ega bo'lmoqdalar.

«Elektron tijorat to'g'risida» gi qonunning 3-bandida «Tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha axborot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati elektron tijoratdir», deb ko'rsatib berilgan. Bundan ko'rindiki, hozirgi kunga kelib, barcha jismoniy va yuridik shaxslar o'zlariga kerak bo'lgan narsani internet orqali sotib olishlari mumkin bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida axborotlar tizimini rivojlantirish mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab amalga oshirilib kelayotgan axborotlashtirish va kompyuterlashtirish siyosatining asosi bo'lib, qishloqda axborotlashtirishning milliy tizimlarini yaratish, har bir inson hayotiga, kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalarini ommaviy tarzda kiritishni, milliy iqtisodiyotning asosiy tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligini jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlaydi.



Zamonaviy axborot texnologiyalari, qaror qabul qilish uchun lozim bo'lgan ma'lumotlarni tez yetkazib berish qobiliyatiga ega. Zamonaviy axborot tizimlarining muhim xususiyati — turli xil axborot kompyuter tizimlari mijozlari olishi mumkin bo'lgan agrar sohaga oid axborot yangilanishining muntazamliligi va tezkorligidadir.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyat doirasi kengligi doimiy xo'jalik faoliyatini uzluksiz kuzatib borishni talab qiladi. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida axborotlar tizimi, axborotlar texnologiyasi va kompyuterlar yordamida boshqarishni tashkil etish tobora ko'proq ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligida axborotlashtirishning rivojlangan tizimini tashkil etish, quyidagi muammolarni yechish imkonini beradi, ya'ni:

— qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va servisini samarali tashkil etishning axborot ta'minotni;

— mintaqaviy qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarining yangi ilmiy ishlanmalaridan foydalanishni tashkil etishni;

— biznes-rejalarni tuzish uslubiyotlarini ishlab chiqishini;

— investitsiyalarni jalb qilishni;

— buxgalteriya hisobotlarini ishlab chiqishni;

— don, paxta va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarining yangi hosildor navlarini yaratishni tezlashtirish va ularni joriy qilishni;

— ekinlar diversifikatsiyasini tashkil etishga ko'mak berishni;

— resurs tejankor ekologik sof zamonaviy texnologiyalarni targ'ib va tashviq qilishni;

— qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ko'p mehnat talab qiladigan jarayonlarining mexanizatsiya darajasini oshirishni;

— O'zbekiston sharoitida ipakchilik, asalarichilik, baliqchilik, parrandachilik va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining boshqa ixtisoslashgan tarmoq turlarining samaradorligini oshirishni;

— agrar fanining yangi yutuqlarini qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga faol va samarali joriy etishni;

— ta'lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasi, huquqiy, iqtisodiy va ekologik bilim darajasini oshirish va boshqalarni.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash mumkinki, ishlab chiqarish integratsiyasi uchun sharoit yaratish jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Elektron axborot massivlaridan ratsional va samarali foydalanish qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini yanada yuqoriroq darajasiga ko'tarilishiga yordam beradi. Ishlovchilarni milliy va chet el yutuqlari to'g'risidagi

axborot bilan to'liq va o'z vaqtida ta'minlash agrar tarmoqning rivojlanishiga olib keladi.

***Nazorat va muhokama uchun savollar:***

- 1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish deganda nimani tushunasiz?*
- 2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishning iqtisodiy mohiyati nimada?*
- 3. Ixtisoslashtirish turlari qanday?*
- 4. Ixtisoslashtirish darajasi qanday aniqlanadi?*
- 5. Tor doiradagi ixtisoslashish deganda nimani tushunasiz?*
- 6. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini integratsiya jarayonlarining iqtisodiy mohiyati nimada?*
- 7. Qishloq xo'jaligi korxonalarini ixtisoslashuvining iqtisodiy mazmuni, shakllari va darajasi qanday?*
- 8. Qishloq xo'jaligida axborotlar tizimining ahamiyati nimada?*
- 9. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishni iqtisodiy samaradorlikka ta'siri qanday?*
- 10. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida ixtisoslashtirishning o'zgarishini qanday asoslaysiz?*

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi». O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi va qishloq xo'jaligiga oid qonunlari. — T.: «Adolat», 1999.
2. O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). 2004.
3. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi. «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami». 1- va 2-kitob, — T.: 1998.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi PF-3226-sonli Farmoni. 2003-yil, 24-mart.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004–2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi Farmoni. «Xalq so'zi». 27.10.2003.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida»gi PF-3741-sonli Farmoni. 2006-yil 17-aprel.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligi yerlarining me'yoriy qiymatidan kelib chiqib hisoblanadigan yagona yer solig'i stavkalari to'g'risida»gi PQ-1024-sonli qarori. 2008-yil 29-dekabr.
8. Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar». — T.: «O'zbekiston», 2009.
9. Karimov I.A. «Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti — to'kin hayot manbayi». — T.: «O'zbekiston». 1998.
10. Karimov I.A. «Dehqonchilik taraqqiyoti farovonlik manbayi». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yig'ilishida so'zlangan nutq. 1994-yil 18-fevral. — T.: «O'zbekiston». 1994.
11. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». — T.: 1995.
12. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti». O'quv qo'llanma. — T.: 2004.
13. Bo'riyev X.Ch., Zuyev V., Qodirxo'jayev O., Muhammedov M. «Ochiq joyda sabzavot ekinlari yetishtirishning ilg'or texnologiyalari». «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. — T.: 2002.
14. Yodgorov J., Muhsimov S. «Sabzavotchilik va bog'dorchilik ekonomikasi. ularda ishning tashkil etilishi». Toshkent, «O'qituvchi». 1984.
15. Yodgorov J. «Iqtisodiy bilim asoslari». Toshkent. «O'qituvchi», 1985.
16. Ismoilov A., Murtazayev O. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti». O'quv qo'llanma. Toshkent, 2003.

17. Qosimov M., Abdusamatov X., Islomov A., Xudoyberganov N. «O'zbekistonda fermer xo'jaligini yuritish asoslari». Qo'llanma. «Voris-nashriyot». — T.: 2007.

18. «Mashina-traktor parklari tomonidan bajariladigan mexanizatsiya-lashtirilgan ishlar (xizmatlar) bahosini belgilash tartibi». O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi. — T.: 1998.

19. Попов Н. А. «Экономика сельского хозяйства». Учебник. «Дело и сервис», 2001.

20. Samatov G'.A., Yodgorov J.Y., Rustamova I.B. «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish». Darslik. —T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2005.

21. Sobirov M.A., Samatov G'.A., Sirojiddinov K.Sh. «Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish asoslari». Qo'llanma. — T.: «Konsauditinform-Nashr». 2003.

22. To'rayev A.A. «Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda suvni tejovchi yangi sug'orish texnologiyalaridan foydalanish. — T.: «Ma'naviyat», 2003.

23. To'xliyev N. «O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti». — T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». 1998.

24. Umrzoqov H.P., Toshboyev A.J., Toshboyev A.A. «Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti». O'quv qo'llanma. — T.: «Iqtisod-moliya». 2007.

25. Umrzoqov H.P., Toshboyev A.J., Rashidov J., Toshboyev A.A. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti». O'quv qo'llanma. — T.: «Iqtisod — moliya», 2008. 268-b.

26. «Fermerlik faoliyatining huquqiy va iqtisodiy asoslari». — T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.

27. «Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari». «Universitet», 2005.

28. Husanov R.X. va boshqalar. «Qishloq xo'jaligida servis xizmati muqobil mashina-traktor parklarini rivojlantirish muammolari». — T.: «Yangi asr avlodi». 2001.

29. Husanov R.X. «Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar va agrar iqtisodiyot». — T.: «Yangi asr avlodi», 2004.

30. Ch. Choriyev Q., Xushmatov N. «Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini rejalashtirish». — T.: «Sharq», 2002.

31. Шакиров Ф. К. «Организация сельскохозяйственного производства». — М.: Колос, 2003.

32. Югай А. — «Экономические отношения и мотивация труда в лесном хозяйстве». — М.: 2002.

33. Yaxyoyev Q. «Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti». — T.: 2003.

Internet saytlari:

a. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

b. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

d. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

e. [www.agriculture.uz](http://www.agriculture.uz)

f. [www.agrar.uz](http://www.agrar.uz)

h. [www.undp.uz](http://www.undp.uz)

g. [www.statictics.uz](http://www.statictics.uz)

i. [www.agro.uz](http://www.agro.uz)

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
--------------	---

### ***I bo'lim* «QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI» FANINING NAZARIY, USLUBIY VA TASHKILIY ASOSLARI**

#### ***1-bob.* «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanining ilmiy-uslubiy asoslari**

1.1. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanining predmeti va vazifalari.....	6
1.2. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanini o'rganish usullari.....	10

#### ***2-bob.* Qishloq xo'jaligida menejment**

2.1. Menejmentning obyekti va subyekti, ularning o'zaro aloqadorligi.....	16
2.2. Qishloq xo'jaligida menejmentning maqsadi, vazifalari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar.....	17
2.3. Qishloq xo'jaligida menejment jarayonining mazmuni.....	20
2.4. Menejment funksiyalarining mohiyati, mazmuni.....	22
2.5. Menejment qonunlari va tamoyillari.....	25
2.6. Menejment usullarining asosiy mazmuni.....	32
2.7. Boshqaruvda tashkiliy tuzilmalarning roli.....	36

#### ***3-bob.* Agrosanoat majmuasi mamlakat iqtisodiyotining ko'p tarmoqli tizimi sifatida**

3.1. Agrosanoat majmuasining maqsadi, vazifalari va tarkibi.....	41
3.2. Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining o'zaro ishlab chiqarish munosabatlari.....	46
3.3. Agrosanoat majmuasining mamlakatni oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni.....	49
3.4. O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasini boshqarish tizimi.....	53

#### ***4-bob.* Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatining tashkiliy iqtisodiy asoslari**

4.1. Fermer xo'jaligi faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari.....	56
---	----

4.2. Dehqon xo'jaligi faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari.....	64
4.3. Agrofirma faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish asoslari.....	70
4.4. Qishloq xo'jaligida kooperatsiyaviy munosabatlar.....	79
4.5. Fermer xo'jaliklari uyushmasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish.....	85

**5-bob. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini bashorat qilish va rejalashtirish**

5.1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini bashorat qilish.....	89
5.2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rejalashtirish tizimi va uslublari.....	90
5.3. Qishloq xo'jaligi korxonasining biznes-rejasi.....	93

**6-bob. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi**

6.1. Qishloq xo'jaligida infratuzilmaning mohiyati va ahamiyati.....	98
6.2. Qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish, ijtimoiy infratuzilmasi va uni boshqarish.....	101
6.3. Bozor infratuzilmasi.....	105

**7-bob. Qishloq xo'jaligida shartnomaviy munosabatlarni amalga oshirish asoslari**

7.1. Shartnoma to'g'risida umumiy tushunchalar.....	108
7.2. Shartnomaviy munosabatlarni amalga oshirishning asoslari.....	110
7.3. Qishloq xo'jalik korxonalari bilan tuziladigan shartnomalar.....	111
7.4. Shartnomalarning bajarilishida tomonlarning javobgarligi va shartnomalar bajarilishi monitoringi.....	115

**II bo'lim AGRORESURLAR VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH**

**8-bob. Yer-suv resurslari, ulardan samarali foydalanish**

8.1. Yer-suv resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati va xususiyatlari, foydalanuvchilar bo'yicha taqsimlanishi.....	119
8.2. Yerdan, suvdan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.....	135
8.3. Yerdan, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.....	147
8.4. Yer qiymatini baholash asoslari.....	151

**9-bob. Mehnat resurslari, mehnat bozori va ulardan foydalanish samaradorligi**

9.1. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.....	157
9.2. Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.....	161

9.3. Qishloq xo'jaligida mehnat bozori, uni rivojlantirish va boshqarish..	168
9.4. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish yo'llari.....	171
9.5. Qishloq xo'jaligida mehnat motivatsiyasi va xodimlarni moddiy rag'batlantirish.....	174

**10-bob. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari va ulardan foydalanish samaradorligi**

10.1. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligi .....	181
10.2. Innovatsiyaviy texnika, texnologiyalar va innovatsiyaviy boshqaruvini qishloq xo'jaligida keng qo'llashning samaradorligi.....	186
10.3. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi.....	189
10.4. Asosiy va aylanma vositalardan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	198

**11-bob. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda investitsiyalar va ularning iqtisodiy mohiyati**

11.1. Investitsiyalar haqida tushuncha, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	200
11.2. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida kreditlash mexanizmi.....	206
11.3. Qishloq xo'jaligida lizing va undan foydalanish asoslari.....	209

**III bo'lim. DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK TARMOQLARI IQTISODIYOTI VA BOSHQARUVI**

**12-bob. Dehqonchilik tarmoqlari iqtisodiyoti va boshqaruvi**

12.1. Dehqonchilikning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati va uni o'rganish xususiyatlari.....	215
12.2. Dehqonchilikning asosiy tarmoqlari va ularning xususiyatlari.....	216
12.3. Dehqonchilik tarmoqlari ishlab chiqarishi va agrotexnik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi.....	217
12.4. <del>Donchilik iqtisodiyoti va boshqaruvi.....</del>	<del>220</del>
12.5. <del>Paxtachilik iqtisodiyoti va boshqaruvi.....</del>	<del>224</del>
12.6. <del>Sabzavotchilik, bog'dorchilik iqtisodiyoti va boshqaruvi.....</del>	<del>226</del>

**13-bob. Chorvachilik tarmoqlari iqtisodiyoti va boshqaruvi**

13.1. Chorvachilikning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati va uning rivojlanishi.....	236
13.2. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari va ularning xususiyatlari.....	238
13.3. Chorvachilik tarmoqlari ishlab chiqarishi va ularning iqtisodiy samaradorligi.....	240

13.4. Qoramolchilik iqtisodiyoti va boshqaruvi.....	242
13.5. Qo'ychilik iqtisodiyoti va boshqaruvi.....	247
13.6. Parrandachilik iqtisodiyoti va boshqaruvi.....	248
13.7. Pillachilik iqtisodiyoti va boshqaruvi.....	250
13.8. Baliqchilik iqtisodiyoti va boshqaruvi.....	252
13.9. Asalarichilik iqtisodiyoti va boshqaruvi.....	253

#### **IV bo'lim. QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHNING SAMARADORLIGI**

##### **14-bob. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy asoslari**

14.1. Ishlab chiqarishni ekstensiv va intensiv rivojlantirishning mohiyati.....	256
14.2. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning asosiy omillari.....	257
14.3. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning ko'rsatkichlari.....	260
14.4. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi, uni amalga oshirish yo'llari.....	262

##### **15-bob. Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi**

15.1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va mahsulot tannarxi.....	266
15.2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini rejalashtirish va hisoblash yo'llari.....	268
15.3. Mahsulot tannarxini pasaytirishning imkoniyatlari va omillari.....	273

##### **16-bob. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish yo'llari**

16.1. Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi.....	275
16.2. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari.....	278
16.3. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabelligi va foyda me'yori.....	282
16.4. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari.....	287

##### **17-bob. Qishloq xo'jaligi yalpi va tovar mahsulotlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish**

17.1. Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsulotlari haqida tushuncha, ularning ahamiyati.....	291
17.2. Qishloq xo'jaligida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va uning manbalari.....	293
17.3. Qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti tarkibi.....	295
17.4. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini taqsimlash, sotish va ularning tovarlilik darajasi.....	295



17.5. Yalpi mahsulotni ko'paytirish, uning tovarlilik darajasini oshirish yo'llari.....	299
---	-----

**18-bob. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish, ixtisoslashtirish va integratsiya jarayonlarining iqtisodiy mohiyati**

18.1. Qishloq xo'jaligi korxonalarini joylashtirishning mohiyati, ixtisoslashuvning iqtisodiy mazmuni, shakllari va darajasi.....	304
18.2. Integratsiya jarayonlarining iqtisodiy mohiyati.....	308
18.3. Qishloq xo'jaligida axborotlar tizimi.....	310

---

---

**G'AFFOR ALLAKULOVICH SAMATOV,  
IRODA BAXROMOVNA RUSTAMOVA,  
UMIDA ATABAYEVNA SHERIPBAYEVA**

**QISHLOQ XO'JALIGI  
IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI**

*Oliy o'quv yurtlari uchun darslik*

*Muharrir Abdurahmon Akbar  
Badiiy muharrir Yasharbek Rahimov  
Texnik muharrir Yelena Tolochko  
Kompyuterda sahifalovchi Gulchehra Azizova*

Litsenziya raqami AI № 163. Bosishga ruxsat etildi 20.07.2012. Bichimi 60×84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>, Tayms TAD garniturası. Shartli b.t. 18,60. Nashr b.t. 17,55. Shartnoma № 35–2012. 300 nusxada. Buyurtma № T-31-1.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

«TAFAKKUR-BO'STONI» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent shahar, Chilonzor ko'chasi 1-uy.



***Cho'lpon nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi***

ISBN 978-9943-05-506-3



9 789943 055063